

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH
INSTITUTI**

«KASB TA'LIMI» KAFEDRASI

“Pedagogika. Psixologiya”

fanidan

Ma'ruza matnlari

SAMARQAND - 2017

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH
INSTITUTI**

«KASB TA'LIMI» KAFEDRASI

Institutning ilmiy-uslubiy
kengashida ko'rib chiqildi va
chop etishga ruxsat berildi.

Ro'yxatga olindi: № _____

Bayonnoma: № _____

“ _____ ” _____ 2017 yil.

“TASDIQLAYMAN”

Ilmiy-uslubiy kengash raisi

t. f. n., dotsent A.Raximov

“ _____ ” _____ 2017 yil

**“Pedagogika. Psixologiya”
fanidan**

Ma'ruza matnlari

"Pedagogika. Psixologiya" fani bo'yicha mazkur ma'ruzalar matni kasbiy pedagogik tayyorgarlik bakalavr yo'nalishi va nopedagogik yo'nalish talabalari uchun mo'ljallangan.

UDK ...

Mazkur ma'ruzalar matni - Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2011 yil 9 sentyabrdagi 3-son majlis bayoni bilan tajribaviy dastur sifatida ma'qullangan na'munaviy dastur va 2014 yil 9 iyul kuni № 522 raqamida ro'yxatga olingan IShChI O'QUV dasturiga muvofiq tayyorlandi.

Pedagogika Psixologiya fani bo'yicha mazkur ma'ruzalar matni kasbiy pedagogik tayyorgarlik bakalavr- ta'lim yo'nalishi 5111000- Kasb ta'limi (tasviriy sana't va muhandislik grafikasi); 5111000- Kasb ta'limi (bino va inshootlar qurilishi) va nopedagogik yo'nalish - ta'lim yo'nalishi:- 5340900- Dizayn, intererni baholash; 5340800 - Avtomobil yo'llari va aerodromlar; 5340500- Qurilish materiallari, buyumlarini ishlab chiqarish texnologiyasi;5610100- Xizmatlar sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi: "Kasbiy ta'lim" kafedrası katta o'qituvchisi,
I.Egamov

Taqrizchilar: SamDU "Kasbiy ta'limni o'qitish metodikasi" kafedrası mudiri,
p.f.n. dots. Muranov B.I.
SamDAQI "Kasb ta'limi" kafedrası o'qituvchisi,
p.f.n. dots. Yaxshiboyev G`.X.

«Kasb ta'limi» kafedrası majlisida (2015 yil «___» _____ №___ bayonnomasida) va «Qurilishni boshqarish» fakultetining ilmiy-uslubiy kengash yig'ilishida (2017 yil «___» _____ №___ bayonnomasida) ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Nashr belgilari: SamDAQI, qog'oz bichimi A 4, buyurtma №....., adadi, hajmi 7 shartli bosma taboq

Mundarija

Kirish.....	6
1-Mavzu:Pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.....	7
2-Mavzu:Ma'rifiy qadriyatlar va maqsadlar.....	17
3-Mavzu:Ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti va ularning tarixiyligi	41
4- Mavzu:Zamonaviy ta'lim-tarbiya va uning mohiyati.....	66
5- Mavzu:Pedagogik muloqot.....	86
6- Mavzu:Oilada tarbiya asoslari.....	99
7-Mavzu: Ma'rifiy tizimlarni boshkarish.....	105
8-Mavzu:Psixologiya fanining predmeti, vazifalari va tadqiqot metodlari.....	114
9- Mavzu: Shaxs va uning faoliyati.....	125
10- Mavzu:Muloqot.....	151
11-Mavzu:Boshqaruv psixologiyasi.....	164
12-Mavzu: Rahbar qobiliyatining psixologik komponentlari.....	187
13-Mavzu: Mehnat psixologiyasi.....	200

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab o'tgan qisqa vaqt ichida o'zbek xalqi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda katta yutuqlarga erishdi; o'z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondoshish, ulug' ajdodlar qoldirgan boy madaniy, ma'naviy merosni o'rganish sharafiga muyassar bo'ldi, milliy g'ururi qayta tiklandi; respublikada ilm-fan, jumladan pedagogika fani yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilmoqda; o'tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g'oyalarini xalq hayotiga tadbqiq etishdek ulug' ishlar amalga oshirilmoqda.

Keng pedagogik ma'nodagi tarbiya ma'lumiy maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, jamiyat tomonidan tayyorlangan, ajratilgan kishilar yoxud o'qituvchilar yoki tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi va turli xildagi o'quv mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi.

Pedagogika va psixologiya insonni go'dakligidan boshlab to umrining oxirigacha hayot va turmush odobiga o'rgatuvchi va shu narsalarni tahlil hamda tadqiq etuvchi fandır. Tarbiya va tarbiyashunoslik haqidagi bu ta'rif ma'no va mazmuniga odamlarning butun umri davomidagi xulq-atvori, odob-axloqi, bu boradagi milliy an'anlarga sadoqat va shularga tarbiyachi hamda tarbiyalanuvchining to'la amal qilishi, milliy qadriyat, ma'naviyat va ma'rifatga hurmat, imyon va vijdon singari go'zal fazilatlar singgan.

Fanning bakalavr tayyorlash tizimi ushuni mo'ljallangan ushbu ma'ruza matni pedagogik qonuniyatlarni ishlab chiqarish taraqqiyotiga tadbqiq etish, kollejlardagi tarbiyaviy munosabatlar, umumpedagogik mutaxassislik, tarbiya va ta'limining o'zaro bog'liqligi jarayoni bilan talabalarni nazariy va amaliy jihatdan tayyorlab borishni ko'zda tutadi.

Pedagogika Psixologiya fani bo'yicha mazkur ma'ruzalar matni kasbiy pedagogik tayyorgarlik bakalavr yo'nalishi va nopedagogik yo'nalish talabalari uchun mo'ljallangan.

1. Mavzu: **Pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari**

Reja:

- 1. Pedagogik faoliyatning paydo bo`lishi, pedagogikaning fan sifatida shakllanishi.*
- 2. Pedagogikaning predmati, ob'ekti, maqsad va vazifalari.*
- 3. Pedagogikaning tarkibiy tuzilishi va asosiy tarmoqlari.*
- 4. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi va pedagogika fanlar tizimi.*

Tayanch tushunchalar: tarbiya, ilmiy-dunyoqarash, insonparvarlik, g`oyaviylik, ijtimoiy gumanizm, internatsionalizm, , axloqi, urf-odatlar, an'analar, ma'rifat, ta'lim-tarbiya, xalq og`zaki ijodi.

Bizning mamlakatimizda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning yagona tizimi yaratilgan bo`lib, talabalarni ilmiy-dunyoqarash, insonparvarlik, g`oyaviylik, ijtimoiy gumanizm hamda internatsionalizm, vatanimizga cheksiz muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash usuli qo`llanib kelinmoqda.

Bizga tarix fanlaridan ma'lumki, O`rta Osiyoda ishlab chiqarish kuchlari ibtidoiy jamoa tuzumi vujudga kelgach rivojlana boshlagan. Jamoada insonlar o`zlari uchun zarur bo`lgan oddiy ishlab chiqarish qurollarini yasashga kirishishlari natijasida jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy munosobatlarni yangi shakli yuzaga keladi. Bu davrda bola tarbiyasi bilan ayollar shug`ullangan, shu asosda jamoada ayollarning mavqei ortgan.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek: "Har qanday davlat, har qanday jamiyat ham o`z boyliklari bilan qudratli hisoblanadi. Har bir xalq mamlakatning tabiiy zamini, er osti va er usti zahiralari, tog`lari va o`rmonlari, daryo-yu dengizlari, o`lkan shaharlari, go`zal inshootlari bilan o`z kuch qudratini namoyon etishga harakat qiladi.

Lekin, ko`p asrlik tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, jamiyatning xaqiqiy boyligi, bu - inson, inson avlodidir. Kishilik jamiyati el yurtiga, vataniga sadoqatli, iymon-e'tiqodi butun, mard va jasur, malakasi etuk, ma'naviyati yuksak insonlar bilan xaqli ravishda fahrlanadi. Bu ulug`vor, betimsol boylik har qaysi davlatning qudratli salohiyat manbaidir.

Ana shunday noyob fazilatlariga ega avlodni tarbiyalab voyaga etkazayotgan xalq kelajakka ochiq ko`z, katta ishonch bilan qarashi mumkin”.

Qadimgi davrda kishilar ma'naviyati, jumladan, axloqi, qadimiy urf-odatlari, an'analari, ma'rifati, ta'lim-tarbiyasi haqidagi fikrlar xalq og`zaki ijodida, masalan, Go`ro`g`li, Alpomish haqidagi yaratilgan dostonlarda o`z ifodasini topdi. Bu an'analar qadimgi Sug`d, Manixey, Xorazm, Turk yozuvlari na'munalarida ham ifodalanadi.

“Alpomish” dostonida xalqimizning qahramona o`tmishi - Urug`chilikning yemirilishi, chorvadorlar hayotida davlatchilikning paydo bo`lish davridagi munosabatlari, ijtimoiy-siyosiy hayoti, udumlari, axloq- odobi, qardoshlik tuyg`ulari, kurashi, o`y fikrlari, orzu-xavaslari yorqin ifodalanadi.

O`zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlash ko`p asrlar davomida qo`llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o`ziga xos urf odati va an'analari, tarbiya haqidagi g`oya va hayotiy tajribasi xalq pedagogikasida mujassamlashdi. Hali maktab bo`lmagan, pedagogik fikr tarkib topmagan davrdayoq qabila a'zolarining bolalarda mehnatsevarlik, jangovorlik, axloq odob, nafosat, do`stlik, mehr shavqat, insonparvarlik sifatlarini tarkib toptirish sohasidagi aql-idroki va usullari o`sha davrdagi hayotiy tajribaning mevasi sifatida bizning davrgacha etib keldi va xalq pedagogikasi tarzida shakllandi.

O`rta Osiyoda ibtidoiy jamoa va quldorlik davrida ham bola tarbiyasida nasihat, tushuntirish, Rag`batlantirish, maqtash, na'muna ko`rsatish, tanbeh berish, ta'qiqlash, majbur qilish, po`pisa qilish, qo`rqitish kabi usullardan foydalanilgan. Bu usullarni qo`llash esa axloq qoidalariga suyangan xolda, ya'ni bola qilgan ishi, hatti-harakatining to`g`ri yoki noto`g`riligi haqida ishonch hosil qilingan, shuningdek, axloqlilik hamda axloqsizlik, odillik, adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning

ma'nosini tushuntirish orqali amalga oshirilgan. Bu tartib tarbiyada asosiy qoida hisoblangan va tushuntirilganda bolalarning yoshi hisobga olingan. Xalq pedagogikasining yuzaga kelishi, tarkib topishi va mukammal bir xolga kelishida xalq orasida xukm surib kelgan, diniy e'tiqodlar, rasm-rusmlar muayyan darajada mavqega ega bo'lgan.

Feodalizm davrida tarbiya din ta'sirida bo'lganligi uchun ta'lim nazariyasining asosiy g'oyalari diniy ilm orqali ifodalangan.

Islom dini ta'limotlari Alloh tomonidan payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sallallohu alayxi vassallamga oyatlar tarzida nozil etilgan-Qur'oni Karimda bayon etilgan.

Qur'oni Karim musulmon axlining dunyoqarashi, falsafasi, ma'naviyati, axloqi, xuquqining asosi bo'lib, unda ilohiyot, diniy e'tiqod masalalari bilan birga, insonparvarlik, insonlarni qovushtirish, ularning o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyat-nizolarning oldini olish, ular orasida adolat o'rnatish kabi axloqiy muammolar ifodalangan.

Payg'ambarimiz Muhammad alayxissalom: "Kishi o'z bolasiga odobdan ko'ra afzalroq narsa ato etolmaydi"(735-hadis) deydilar. Qur'oni Karimda ilmga katta e'tibor berilgan va ilm so'zi 765 o'rinda tilga olib o'tiladi, "Ilm o'rganish har bir mo'min uchun farzdir. Ilm tolibi uchun hamma narsa, xatto dengizdagi baliqlar ham gunohini so'rab iztig'for aytadi" (370- hadis).

Rasululoh tolibi ilmlarga murojaat etib: "Olim bo'l (ilm beruvchi bo'l) yoki o'rganuvchi bo'l, yoki tinglovchi bo'l, yoki ilmga va ilm ahliga muhabbatli bo'l. Beshinchisi bo'lma, halok bo'lasan"(141-hadis), deb nasihat qiladilar.

Islom ta'limoti, Qur'oni Karim, payg'ambarimizning sunnatu soniyalari va Hadisi Shariflari insonlarni lutf bilan to'g'ri yo'lga boshladi, yuksak axloqli bo'lishga chorlaydi.

Qadimiy va O'rta Sharq adabiyoti namoyondalari orasida nazariy-pedagogik tusga ega qator ilmiy qarashlar mavjud bo'lgan. Ular orasida Al Forobiy, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino va boshqalarning asarlarini misol keltirish mumkin.

Forobiyning ta'lim tarbiya xaqidagi qarashlarida insonparvarlik g'oyalari alohida o`rin tutadi. Uning o`qtirishicha, insonni baxt saodatga eltuvchi jamoa yetuk jamoa bo`la olishi mumkin, uning ta'kidlashicha, insonni tarbiyalash ikki xil usul yordamida olib borilishi mumkin. Tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy, aqliy va axloqiy xislatlarni - bilimli bo`lishga, to`g`rilik va xaqiqatni sevishga, jasur, dustlarga sadoqatli bo`lish singari fazilatlarni egallashga intilmog`i lozim. Bunday insoniy fazilatlarga ega bo`lish uchun baxt saodatga eltuvchi jamoa bo`lishi kerak.

Forobiy insonni dunyo taraqqiyotining eng mukammal va etuk yakuni deb biladi.

Shunga ko`ra, o`z asarlarida insonga tarbiya va ta'lim berish zarurligini aytadi va bunda ta'lim-tarbiya usullaridan kutilgan maqsad masalalari asosiy o`rin egallashini qayd qiladi.

Forobiy insonning ma'naviy hayotida, asosan, uning ikki tomoniga: aqli-ongiga va axloqiga e'tibor beradi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya, uning fikricha, insonning aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham etuk mukammal kishi qilib etishtirishga qaratilmog`i lozim.

Forobiy ta'lim tarbiya ishiga kirishish, uni boshlashdan avval odamlarning shaxsiy xislatlarini bilish lozimligini aytadi.

Ibn Sino yaxshilikka olib boruvchi axloq qoidalarini egallash, insonning axloqiy munosabatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi tadbirlar orqali ta'lim-tarbiyani izchil amalga oshirish mumkinligini alohida qayd qiladi.

Ibn Sinoning fikricha, ta'lim-tarbiya, avvalo, aqliy tarbiyani, yoshlarga ilm-fan o`rgatishni, jismoniy tarbiyani, axloqiy tarbiyani, nafosat tarbiyasini hamda yoshlarni ma'lum hunarga o`rgatish masalalarini o`z ichiga oladi.

Alisher Navoiy yosh avlodlarning ilm-hunarni va eng yaxshi insoniy fazilatlarni egallagan kishilar bo`lishini orzu qiladi.

Alisher Navoiy ilmiy va adabiy faoliyatida ham, ta'lim - tarbiya xaqida bildirilgan fikrlarida ham o`zidan oldin yashab ijod qilgan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulugbek va boshqa mutafakkirlar an'anasini davom ettirdi va boyitdi.

Alisher Navoiyning ta'biricha, tarbiyaning maqsadi - yosh avlodni xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlarga ega kishi qilib voyaga etkazishdir. U injiq, yalqov, yomon xulqli bolalarni ham tarbiya va o'qitish yo'li bilan yaxshi fazilat egasi qilib tarbiyalash mumkinligiga ishonadi va jamiyatdagi ayrim axloqiy jihatdan nuqsonli kishilarni qayta tarbiyalashda tarbiya muhim ahamiyat kasb etishini uqtiradi.

Tarbiya va uning maqsadi to'g'risida fikrlar, tarbiya nazariyasining g'oyalari ancha oldindan ilgari surilgan bo'lsada pedagogik ilmiy bilim-fan sifatida bir oz keyin shakllangan.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy nomi bilan bevosita bog'liqdir. Komenskiy tomonidan taqlif etilgan printsiplar, shakl va uslublari «Pedagogikaning oltin fondi» ga kirgan. Uning mashhur «Buyuk didaktika» asari pedagogik nazariyasi va amaliyoti sohasida birinchi muhim ilmiy asar hisoblanadi.

O'quv jarayonida ta'lim, tarbiya, ma'lumot o'zaro bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Har qanday fan o'rgatilishi mobaynida o'qituvchi bolalarga bilim asoslarini bayon etadi. Shu materiallar mazmuni asosida tarbiyaning biror tomonini hal etadi, bolalar dunyo qarashini shakllantiradi, madaniy xulq atvorini tarbiyalaydi.

Pedagogika fani o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun ta'lim-tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlari va amalga oshirish yo'llarini o'rgatuvchi fandır.

«Pedagogika» atamasi «Payne» - «bola» va «agogein» - «etaklamoq» degan ma'noni bildiruvchi lotincha «daydagogos» so'zlaridan paydo bo'lgan va quyidagicha izohlanadi: Eramizdan oldingi III-I asrlarda qadimgi Gretsiyada, quldorning bolasini ovqatlantiradigan, sayrga olib boruvchi, tabiat qo'ynida o'ynatuvchi tarbiyachi - qullarni «pedagog» deb atalgan. U bolaning kamolga etishiga mas'ul bo'lgan. Quldoriing bolasini etaklab maktabga olib borgan va olib kelgan. Maktabda ishlovchi o'qituvchilarni «didaskallar» (didayko - men o'qitaman) deyishgan. Feodalizm jamiyatiga kelib esa har ikki kasbdagi kishilar hamkorligi natijasida ta'lim-tarbiya bilan maxsus shug'ullanuvchilar vujudga kelgan. Ularni chex

pedagogi Ya. A. Kamenskiy ta'kidlaganidek «pedagog» deb nomlaganlar va bu soʻz hozir ham ta'lim-tarbiya beruvchi oʻqituvchilarga nisbatan qoʻllaniladi.

Pedagogika fanining «Didaktika»- ta'lim nazariyasi qismi xuddi shu qadimiy va lotincha «oʻqituvchi» nomi bilan atalishi bejiz emas.

Pedagogika fanining ob'ekti asosan oʻquvchilaridir, predmeti esa oʻquvchilarga berilayotgan ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotidir.

Pedagogika ta'lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va oʻquvchilarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan oʻzgarib borishni oʻrgatadi, tarbiyaning tarkibiy qismlarini va ular oʻrtasidagi bogʻlanishlarni ochib beradi. Shu asnoda ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari, yoʻllarini koʻrsatib beradi.

Shuningdek u oʻquv yurtlari va oʻquv yurtlaridan tashqaridagi tarbiya muassasalari xodimlarini ham nazariy, ilgʻor tajribalar bilan qurollantiradi. Ota-onalarga yoshlarni turli tarbiya qilish, oʻqitishdagi mahoratini yanada takomillashtirish yoʻlida amaliy tavsiyalar beradi.

Koʻp vaqtlar pedagogika ilmiy fan sifatida faqat oʻsib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasini oʻrganadi, deb qaralgan. Ammo hayot amaliyoti tarbiyaning umumiy printsiplari faqat bolalar tarbiyasiga emas balki kattalar tarbiyasiga ham taluqli ekanligini koʻrsatadi. Shuning uchun ham keyingi paytlarda pedagogikani yosh avlodni va katta yoshdagi odamlarni tarbiyalash va oʻqitish, ularga ma'lumot berish qonuniyatlarini oʻrganuvchi fan, deb belgilash odatga aylandi.

Pedagogika fanining baxsi boʻlgan ilmiy bilish asosini ta'lim tarbiyaning mazmuni tashkil qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Respublika Oliy Majlisining birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida qilgan ma'ruzasida hur Oʻzbekistonda demokratik tuzumni barpo eta borish bilan birga, amalga oshirilayotgan ulkan oʻzgarishlarning asosiy ishtirokchilari boʻlgan jamiyatimiz a'zolarining ma'naviyatini butunlay yangicha qaror toptirish lozimligini ta'kidlagan edi.

Kelajagi buyuk davlatni qurayotgan kishilarning tafakkuri, axloqi yangi iktisodiy munosabatlarni tiklashga, moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga astoydil

kirishib doimo yonib yashash hissi bilan sug'orilgan bo'lishi lozim. Mana shunday ijobiy xislatlarga boy insonni tarbiyalash pedagogika o'quv yurtlarining, maktab, litsey, gimnaziya, kollej, institut va universitetlarning asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi kunda oliy o'quv yurtlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri tashkil etilayotgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga yuqori malakali pedagog va muhandis-pedagoglar tarbiyalab berishdir. Tarbiya jamiyat vazifasi bo'lib, u faqat ishlab chiqarish munosabatlari ta'sirida emas, balki turli tarixiy davrlarda ilgari suriladigan u yoki bu tarbiya nazariyasining g'oyalari ta'sirida aniq shaklga ega bo'ladi, shuning uchun ham ko'p jihatdan ma'rifatchi va pedagoglar faoliyatining natijasini ifodalaydi.

Pedagogika fanining tarixan shakllanishi, pedagogika fanlari tizimini yuzaga keltirdi. Shu sababli uzluksiz ta'lim, pedagogika fanlari tarkibiga kirgan pedagogikalar o'rtasidagi hamkorlikni taqazo etadi.

Pedagogikada tarbiyalanuvchilarning yoshiga ko'ra maktabgacha yoshdagi, maktab yoshidagi va katta yoshdagilar deb guruhlariga ajratish qabul kilingan. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar pedagogikasi mazkur guruh bolalari bilan olib boriladigan tarbiyaviy-tashkiliy ishlarning qonuniyligini tadqiq etadi hamda eng avvalo ularni bolalarning maktabgacha muassasalari shart-sharoitlarida amalga oshirish dasturini ishlab chiqadi.

Pedagogikaning fanlar bilan aloqasi va pedagogika fanlari tizimi. Pedagogika fani yakka holda mukammallikka erisha olmaydi. U ham boshqa fanlar kabi ijtimoiy fan yutuqlaridan foydalanadi va mazmunan boyib boradi. Hozirgi kunimizda umumbashariyat tomonidan yaratilgan bilimlar va kelajak xaqida ma'lumot beruvchi nazariyalar muayyan darajada pedago-gika fani uchun manba buladi. Boshqa fanlar kabi pedagogika har bir insonning ijtimoiy kamolotiga xizmat qiladi. Tabiat va jamiyatning rivojlanish qoidalari to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanadi va o'zi ham ijtimoiy fan sifatida rivojlanib boradi. Shu sababli falsafa, tarix, iqtisod, psixo-logiya va sotsiologiya, etika va estetika kabi fanlar bilan uzviy aloqadadir.

Har bir o`quvchi, o`qituvchi-tarbiyachi o`z ona yurti tarixini bilishi, vatanparvar bo`lishi lozim. Ta'lim-tarbiya tarixi, pedagogika tarixi fanidan xabardor bo`lmay turib o`qituvchilik qilish mumkin emas. Pedagogika nazariyasini chuqurroq anglash uchun esa uning o`tmishdagi taraqqiysini bilmoq kerak.

Masalan, pedagogika tarixi o`tmishda ta'lim-tarbiya borasida qanday samarali bo`lgani, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlarning o`zgarishi tufayli pedagogik g`oyalar, tarbiya muassasalaridagi ishlarning mazmuni, usullari yangilanib borganini, o`tmishda ijod etgan olimlarning pedagogik qarashlari, ularning faoliyatlari bilan tanishtiradi.

O`qituvchi-tarbiyachi o`quvchilarga bilim berish, ma'lumotli qilish, tarbiyalash maqsadida unga tizimli ta'sir ko`rsatadi. Bunda psixologiya va ijtimoiy omillarga asoslanadi. Ya'ni, ko`rsatilayotgan ta'sirning samarasini bilish uchun o`quvchining sezgi, idroki, tasavvur, diqqat va tafakkur-fikrlash jarayonining qanday kechayotganini bilishiga asoslanib ta'sir kursatish rejasini belgilaydi, Demak pedagogika fani psixologiya va sotsiologiya kabi fanlar bilan ham uzviy borlangandir. Ma'lum ma'noda o`qituvchilarga xizmat qiladigan psixologiya turkumidagi fanlarni ham pedagogik fanlar tizimiga kiritish mumkin.

Falsafa fani esa pedagogika fann uchun metodologik asos bo`lib xizmat qiladi. Chunki, xozirgi ta'lim-tarbiya nazariyasi yutuqlari falsafiy fikrlar kurashi va taraqqiyotning mahsulidir. Falsafa psdagogikani ilmiy usullar bilan qurollantiradi, ta'lim va tarbiyaning ob'ektiv qonun-qoidalarini ishlab chiqishga manba bo`ladi.

Etika va estetika fanlari pedagogikaning tarbiya nazariya-si bo`limi bo`yicha ma'lumot beradi. Bu fan o`quvchining xulqi, odobi me'yorlarini aniqlash, belgilash hamda go`zallikni chin ma'noda tushuntirish, o`quvchi ongida hayotning jozibali, nafis qirralariga bevosita rag`bat uyg`otish borasida pedagogika fa-ni bilan aloqadadir.

Fanlarni o`qitish yo`llari ham pedagogi-ka fanining didaktikasiga aloqador, chunki har qanday fanni o`qitilish usuli shu fanning mazmuni, tizimini o`quvchilar tomonidan o`zlashtirib olinishiga xizmat qiladi. Demak, peda-gogika fani bolalar

anatomiyasi, fiziologiyasi, boloalar gigienasi va pediatriya kabi fanlar bilan ham mustahkam aloqada, bu fanlar bir-birlariga chambarchas bog`liqdir.

Maktab pedagogikasi ommaviy o`rta maktabda o`quvchilarga ta'lim berish va tarbiyalashning qonuniyatlarini tadqiq etadi.

Kasb-hunar ta'limi pedagogikasi - umumiy maktablarning yuqori sinf o`quvchilari yoshida bo`lgan bolalar, akademik litsey va kasb-hunar kolleji shart-sharoitlaridagi o`quv-tarbiyaviy jarayonning o`ziga xosligini tadqiq etadi.

Ishlab chiqarish pedagogikasi - ishlab chikarishda ishlaydigan shaxslarga ta'lim va tarbiya berish qonuniyatlarini o`rganadi.

Harbiy pedagogika - milliy armiyamiz uchun mutaxassislar tayyorlaydigan harbiy o`quv yurtlarida yoshlarga ta'lim berish hamda tarbiyalash muammolari bilan shug`ullanadi.

Oliy maktab pedagogikasi - oliy o`quv yurti shart-sharoitlarida yoshlarga ta'lim tarbiya berishning nazariy masalalar va metodikasini ishlab chiqadi.

Metodika - maxsus fanlarning o`qitish hamda ularni tashkil etish qoida va usullarini tadqiq etadi.

Umumta'lim maktablarida emas, balki yordamchi maktablarda shug`ullanishlari mumkin bo`lgan bolalar, ya'ni ko`rish, eshitish, so`zlash a'zolarida kamchiliklari bo`lgan bolalarni mehnat faoliyatiga tayyorlash, tarbiya-lash va ta'lim berishning o`ziga xos tomonlarini tadqiq etuvchi fanlar pedagogika fanining maxsus guruhini tashkil etadi.

Pedagogikaning bu maxsus tarmoqlari defektologiya yoki maxsus pedagogika degan umumiy nom bilan ataladigan maxsus guruhga birlashtirilgan. Defektologiya fanlari o`z navbatida alohida mustaqil fanlarga bo`linadi: kar va gung bolalar tarbiyasi va ta'limi masalalari bilan surdopedagogika, ko`zi ojizlar bilan tiflopedagogika, aqli ojizlar tarbiyasi va ta'limi bilan oligofrenopedagogika shug`ullanadi.

Pedagogika fanining hamma tarmoqlari o`zining turli rivojlanish, taraqqiyot bosqichlariga egadir: ularning ayrimlari aniq shakllanib bo`lgan va etarli darajada keng ishlab chiqilgan (masalan, maktabgacha tarbiya pedagogikasi, maktab

pedagogikasi); boshqalari o`zining shakllanish jarayonini boshdan kechirmoqda (masalan, oliy maktab pedagogikasi, ishlab-chiqarish pedagogikasi); ba'zi bir tarmoqlar pedagogikasining ajralib chiqishi endigina boshlanmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. *Pedagogik faoliyatning paydo bo`lishi, pedagogikaning fan sifatida shakllanishi.*
2. *Pedagogikaning predmati, ob'ekti, maqsad va vazifalari.*
3. *Pedagogikaning tarkibiy tuzilishi va asosiy tarmoqlari.*
4. *Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi*
5. *Pedagogika fanlar tizimidagi o`rnini ayting.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *A.V.Petrovskiy. "YOsh psixologiya va pedagogik psixologiya". M.1979 yil.*
2. *"Umumiy psixologiya, yosh psixologiya va pedagogik psixologiya" kursi. 1982 yil.*
3. *V.A.Kruteskiy. "Pedagogik psixologiya asoslari" T. "Ukituvchi".*
4. *V.A.Kruteskiy. "Ukuvchilarning ta'lim va tarbiyasi psixologiyasi. 1976 yil*
5. *E.Goziev. "Psixologiya" T. 1994 yil.*
6. *M.V.Voxidov. "Psixologiya" T. 1981 yil.*
7. *M.G.Davletshin taxriri ostida "YOsh psixologiyasi va pedagogik psixologiya" T. 1974 yil.*
8. *SH.Baratov. "Ukuvchi shaxsini urganish usullari". T. "Ukituvchi". 1995 yil.*
9. *Turaxonova R. "6 yoshli bolalarning psixologik xususiyatlari". T. "Ukituvchi" 1990 yil.*
10. *A.I.SHcherbakov taxriri ostida. "YOsh psixologiyasi va pedagogik-psixologiyadan praktikum". T. "Ukituvchi" 1991 yil.*
11. *M.G.Davletshin. "Zamonaviy maktab ukituvchisining psixologiyasi". T. 1999 yil.*
12. www.pedagog.uz

2. Mavzu: **Ma'rifiy qadriyatlar va maqsadlar.**

Reja.

1. Insoniyat jamiyat tarixida bilishning taraqqiy etishi.
2. Dunyoqarash va uning tarkibiy qismlari.
3. Pedagogik layoqat – mutaxassisni shaxsiy va kasbiy yuksaltirish.
4. Ma'rifat shaxs kamolotining birligi sifatida.

Tayanch tushunchalar: bilish, dunyoqarash, olam, borliq, e'tiqod, ma'rifat, shaxs, akmeologiya, ta'lim, tarbiya.

Ma'lumki, kishilik jamiyatining vujudga kelishi jarayonida inson ham biologik jihatdan, ham ijtimoiy jihatdan takomillashib borgan. Dastlabki diniy e'tiqodlar, eng oddiy ixtirolarning takomillashib borishi kabi holatlar inson ongingning ham shakllanib borishiga turtki bo'ldi. Bu jarayon minglab yillarni o'z ichiga olgan bo'lib, ana shu davrda inson ongi shakllanishining asosi sifatida qabul qilingan xulq-odob qoidalari, ijtimoiy talablar yuzaga kelgan. Ushbu talablar muayyan davrda yaratilgan yodgorliklarining asosiy mazmuni va mohiyatini tashkil etadi.

Eng qadimgi kishilarga xos bo'lgan xislatlar, ularning dastlabki, oddiy istaklari, orzu-umidlari qadimgi eposlarda aks etgan afsonaviy obrazlar hamda qahramonlar qiyofasida o'z ifodasini topgan. Ruhga sig'inish (onimizm), ajdodlar ruhiga sig'inish (totemizm), sehrgarlik kabi diniy e'tiqodlar va marosimlar yoritilgan afsona va rivoyatlarda eng qadimiy ajdodlarimizning tafakkur dunyosi aks etgan. Ammo bu rivoyat va afsonalar ham massaget, sak, xorazmiy, so'g'd hamda parfiyanlar yashagan davrlar ruhini ifoda etadi, xolos.

Eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o'rganishda quyidagi uch guruhga ajratilgan manbalarga tayanamiz:

1. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko'rgazmali ashyolar.

2. Xalq og'zaki ijodi materiallari hamda yozma manbalar.

3. Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi.

Ibtidoiy jamiyatda bola o'zi uddalay oladigan faoliyatning tashkil etilishida bevosita ishtirok etib, hayot kechirish va mehnat qilish ko'nikmalarini o'zlashtirgan. Bu holat og'ir sharoitda kechgan. o'g'il bolalar erkaklar bilan ov qilish, qurol yasash kabi yumushlarni bajarsalar, qizlar ayollar tomonidan bajariladigan mehnat sirlarini o'zlashtirar edilar. Hech qaerda yozilmagan odat va an'analarga ko'ra, yosh bolalar keksalar nazorati ostida ma'lum tajribalarga ega bo'lardilar. Bola ma'lum tayyorgarliklardan so'ng maxsus sinovlardan o'tib, amaliy faoliyatda faol ishtirok eta olish huquqini qo'lga kiritar edi. Ushbu an'ana, ya'ni, bolalarni ma'lum yoshgacha enaga yoki murabbiyga topshirish yaqin davrlargacha saqlanib qolgan, hatto hozirgi kunda ham ko'zga tashlanadi.

Urug'chilik jamoasi bosqichida esa bolalar mehnatining ko'lamini kengaytib, kasb-hunar faoliyatining turlari ko'payib boradi. Tajribali kishilar bolalarni tarbiyalash bilan birga ularni yozishga ham o'rgata boshlaydilar. Asta-sekin harbiy tarbiyaning boshlang'ich ko'rinishlari yuzaga kela boshlaydi. Bolalarga harbiy san'at sirlarini o'rgatish ancha murakkab ish bo'lib, ushbu tarbiyani tashkil etish maxsus bilim hamda tayyorgarlikka ega bo'lishni taqozo etar edi. SHu bois maxsus harbiy bilim va tayyorgarlikka ega bo'lgan kishilar bolalarga bu boradagi bilimlarni berish jarayoniga jalb etila boshladilar.

Jamiyatning ijtimoiy jihatdan taraqqiy eta borishi bolalarga dalalarni o'lchash, suv toshqinlarining oldini olish, kishilarni turli kasalliklardan davolash usullariga oid bilimlarni berishga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Mazkur ehtiyojni qondirish yo'lidagi harakatning tashkil etilishi natijasida turli maktablar faoliyat yurita boshladi. Maktablarda asosiy e'tibor bolalarga ogzaki bilimlar berish bilan birga ularda yozuv ko'nikmalarining shakllantirilishiga qaratildi. Dastlab suratkashlik rivojlanib, piktografik xat paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik qo'shni mamlakatlardan kirib kelgan harflar yordamida yozish usuli paydo bo'ladi va bu usul tez tarqala boshlaydi.

2. O'sib kelayotgan yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish hamma davrlarda bo'lgani kabi, hozir ham millatning ilg'or kishilari diqat markazida bo'lib kelmoqda.

Xo'sh, dunyoqarashni o'zini qanday tushunish kerak? Dunyoqarash-bizni o'rab olgan borliq nima, u qanday rivojlangan, tabiatda qanday inson o'rin tutadi, uning ongi qanday paydo bo'ldi va kamol topdi, jamiyatning yaralish tarixi qanday, inosniyat turmush darajasini qanday qilib yaxshilash mumkin va shu kabi masalalarga kishilarning turlicha qarashlari, munosabatlaridir. Inson o'z faoliyatida ma'lum ilmiy bilimlardan, qonuniyatlardan, tushuncha va g'oyalardan foydalanadi. Ana shu bilimlarga asoslanib, tabiat, jamiyat va inson tafakkuri hodisalarini baholaydi, ularni o'ziga talqin etib, ma'lum xulosalarga keladi.

Har qanday odam o'zining yashashdan maqsadi nimaligini, hayotning ma'nosini bilishga intiladi. Bu insonning ijtimoiy ehtiyojidir. Ana shu ehtiyoj o'quvchiga ham xos bo'lib, u o'zining shu ehtiyojini qondirish bilan tevarak-atrof hayoti to'g'risida bilimlarga, tabiat va jamiyat haqidagi mulohazalarga ega bo'la boshlaydi. Umuman shaxsning turli xil ehtiyojlari uning faolligini ta'minlaydi, qiziqishlari, mayl va talablarini belgilaydi. Ana shu ehtiyojni qondirishga qaratilgan faoliyat shaxsning e'tiqod va qarashlari, kundalik xulq-atvor motivlarini hosil bo'lishiga yordam beradi.

Qarashlar va e'tiqodlar tizimi bo'lgan dunyoqarashning mohiyatidan shunday xulosa chiqarish kerakki, o'quvchining va umuman maktabning ishida muayyan tizim bo'lgandagina ilmiy dunyoqarash tarkib topishi mumkin. Asta-sekin to'plangan bilimlar yozma shaklda avlodlardan-avlodlarga qoladi. Turli davrlarda o'qimishli, ziyoli, bilimdon kishilar dunyo ilm-faniga, umuminsoniy madaniyatiga salmoqli hissalarini qo'shganlar.

Ekspluatatsiyaga asoslangan quldorlik, feodalizm, kapitalizm kabi sinfiy jamiyatlarda davrning o'qimishli, ziyoli, bilimdon kishilari dunyo ilm-faniga, umuminsoniy madaniyatiga salmoqli hissalarini qo'shganlar. Gippokrat, Demokrit, Platon, Arximed, Gegel, Marks, Engels; SHarqda ilk o'rta asrlarda musulmon dunyosi al-Kindiy, ar-Roziy, G'azzoliy, Farobiy, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Ibn

Rushd (Averros), Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy shular jumlasidandir.

Kaykovusning "Qobusnoma", IV asrdagi hind faylasufi Beydaboning "Kalila va Dimna" asarlari, "Ramayana", "Maxabhorat" dostoni, Yusuf Xos Hojibning "qutadg'u bilig", Nosir Hisravning "Saodatnoma", Sa'diyning "Guliston va Bo'ston", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", Navoiyning "Mahbub ul qulub", Ahmad Donishning "O'g'illarga nasihat" bundan tashqari o'tmishning "CHor darvesh", "Ming bir kecha", "Qur'oni karim", "Hadisi sharif"dagi asarlarda ham juda katta, qimmatbaho va boy ma'naviy-madaniy meros bo'lib, sharq va g'arb xalqlari ming yillar mobaynida bulardan bahramand bo'lganlar.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Turkiston rus mustamlakachilari tomonidan bosib olindi. Bu davrda milliy-ma'naviy merosga, madaniyatga past nazar bilan qarovchi shovinistik siyosat hukmron edi. SHunday bo'lsada bu davrda Said Ahmad Siddiqiy (Samarqand), Furqat, Muqimiy, A. Donish, Avaz O'tar o'g'li, Hamza, Abdulla Avloniy (Toshkent), Ibrat, Fitrat, Behbudiy, Munavvar qori, CHo'lpon, qori Niyoziy va boshqalar bola tarbiyasiga oid ko'plab asarlar yozdilar, yoshlarni ilm-ma'rifatli qilishga intildilar.

Ayniqsa, Abdulla Avloniyning 1913 va 1917 yilda ikki marotaba nashr qilingan "Turkiy guliston yohud axloq" asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganishda katta ahamiyatga molikdir.

Asarning "Yaxshi xulqlar" bobining birinchi qismi "Fatanat" atalib, Avloniy Fatanatni " Aql egasi bo'luv demakdir" deb ta'riflaydi, ayni zamonda Firdavsiy, Nosir Xisrav, Rudakiy, Sa'diy, A. Navoiy kabi Avloniy ham aqlga katta e'tibor beradi. U "Hukamolardan biri aqlning quli nafsning jilovini ushlasa, seni yomon yo'llarga kirishdan saqlar"- deb uqtiradi.

Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiyalash zarur. Badanni sog'lom va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. CHunki o'qimoq, o'qitmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir.

"Aql-deydi: u-piri komili, muroshidi yagonasidir. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir. Inson aql va idroki sohasida o'ziga keladigan zarar va zulmlardan saqlanur, er yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo'ynidan boylab iplarining uchini qo'llariga bergan insonlarning aqlidur".

O'zbekiston o'z mustaqilligining qo'lga kiritgan hozirgi sharoitda qadriyatlarimizni tiklashga, tariximizni o'rganishga, o'zligimizni anglab yetishga ahd qilgan va yosh avlod uchun xuddi mana shu durdona asarlar qo'l kelishi muqarrardir.

Dunyoqarash. Dunyoqarash faqat insongagina xos hususiyat bo'lib, hayvonot dunyosi, boshqa narsa, buyumlar va mavjudot uchun bu hol yotdir, ularda ham dunyoqarash bo'ladi, deb o'ylash bema'nilik bo'lur edi.

Avvalo ta'kidlash lozimki, ilmiy dunyoqarash turli kishilarda, kasb egalarida turlicha-to'larok, mukammolroq, chuqurroq yoki yuzakiroq, chalaroq, sayoz va xomroq bo'lishi mumkin. Bunda kishilar tomonidan oldingi ajdodlardan meros bo'lgan ma'naviy boyliklarni, bilimlarni va hozirgi mavjud bilimlarni o'zlashtirish darajalari muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi sharoitda kishilarning ongi, dunyoqarashida yangicha fikrlash, yashashni tarbiyalanmasa, mustaqillikning g'oyasi, mazmuni va mohiyatini tushuntirilmasa, ko'zda tutilgan natijaga erishib bo'lmaydi.

SHuning uchun hozirgi eng muhim dolzarb masala xalqning ongidagi eskicha dunyoqarashni o'zgartirish iqtisod, siyosat, madaniyat jabhalarida yangicha fikrlashni o'rgatish, mustaqillikni mustahkamlash sharoitida o'z haq-huquqlarini anglash va noxush holatlarni hayotga kirib qolmasligiga, unga qarshi kurashishga tayyor turadigan ilmiy dunyoqarashli shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

Oddiy kuzatish uy hayvonlariga, hatto vahshiy hayvonlarga ham xos bo'lib, ular ham ovqat topib yeyishni, o'yini, egasini tanishni, xavf-xatardan qo'rqishni biladilar. Bu hol shartli reflekslar yoki birinchi signal tizimlari deyilib, bunday holat jonli kuzatish bo'lib, odamlarga hayvonlarga ham bir xil ta'sir qiladi. Tafakkur, fikrlash esa insonga xos bo'lib-bu ikkinchi signal tizimidir.

Aql har bir insonga xos tug'ma xususiyat bo'lib, miya sog' bo'lsa, aql ham yaxshi ishlaydi, aksincha miya kasallangan bo'lsa, aql past, zaif bo'lib, aqli rivojlanmagan odamning yoshi katta bo'lsa ham aqli yoshidan orqada qolib ketishi, tevarak-atrofni, dunyoni bilish, oldingi avlodlar tomonidan yaratilgan ilmlarni va mavjud bilimlarni o'zinikiga aylantirib o'zlashtira olishga qiynaladi. Chunki ilm va bilim bir xil narsa emas. Ilm mavjud bor, yaratilgan narsa, bilim esa kishi tomonidan bilib olinadigan, o'ziniki qilib olinadigan narsadir. Aql, did va ilm nazariyaga; farosat, tamiz, bilim amaliyotga, tajribaga taluqlidir.

SHuni anglamoq zarurki tafakkur va til haqidagi muammo bilish bilan chambarchas bog'liq bo'lib tasavvur, tushuncha, aql, idrok, tafakkur jami bir bo'lib, ong degan pedagogik tushunchani beradi.

Dunyoni bilishda ijtimoiy-tarixiy amaliyot, tafakkur va u bilan bog'liq bo'lgan til materialistik dialektikaning bilish nazariyasi uchun asosdir.

Dunyoni bilish, idrok qilish tashqi dunyoni inson sezgilari orqali aks ettirishdan boshlanadi.

Sezgi kishini o'rab olgan moddiy dunyo predmet va hodisalarining ongimizda aks etishidir.

Hissiy bilish sezgidan tashqari, hissiy qabul qilish va tasavvur kabi shakllarga ega bo'lib, ular ham voqea - hodisalarni chuqurroq bilishga xizmat qiladi.

SHunday qilib, bilish, ilmiy dunyoqarash jonli kuzatishdan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga o'tish orqali amalga oshadi.

Ilmiy dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida doim vorislik asosida rivojlanadi. O'tmish dunyoqarashlari yangi davr dunyoqarashining ildizini tashkil etib, uni kerakli hayotbaxsh ozuqa bilan ta'minlab turadi.

Har bir tarixiy davrning dunyoqarashi o'ziga xos bo'lib, mavjud tarixiy davrda u yoki bu ta'limotni nima uchun hukmron bo'lganligini bilish uchun oldingi davr dunyoqarashini, tarixini, rivojlanishini va uning o'sha ta'limot qanday qilib shu holatga kelib qolganligini o'rganmoq zarur. Demak, jamiyatda yangicha tafakkur yuritmoq yangicha dunyoqarash, fikrlash uchun albatta o'tmishni bilish zarur, chunki

yangicha tafakkur osmondan emas, balki ajdodlardan meros qolgan vorislik asosida vujudga keladi.

Yoshlarni tarbiyalashda, ularni axloq-odobli, tartib-intizomli qilishga, ota-onaga mehribon bo'lishlarida, matonatli, chidamli, mehnatsevar, vatanparvar, insonparvar bo'lib shakllanishida mas'uldir. Dunyoqarashning shakllanishida har bir ota-ona ularni yoshlik chog'idan sabr-toqatli, bardoshli, quntli, qanoatli bo'lishga o'rgatmoqlari shartdir.

Kishining dunyoqarashini, fe'l-atvorini mavjud muhit belgilar ekan, demak yaxshi odamni kutish uchun shu muhitni yaxshi odam shakllanadigan yaxshi muhitga aylantirish kerak.

Ilmiy dunyoqarash xususida gap borganda avvalo, o'quvchilar, yoshlar, unga zid, qarama-qarshi turgan diniy, fantastik, mifologik, ateistik va boshqa g'ayri ilmiy dunyoqarashlar borligi uchun ham ilmiy dunyoqarashni shakllantirish zarurligini tushunmoqlari, bu haqda to'g'ri fikr yuritishni o'rganmoqlari kerak.

Dunyoqarash dunyoni bilish orqaligina shakllanadigan juda murakkab dialektik jarayondir. Bilish dunyoning turli tomonlari haqidagi turli fanlar bergan ishlar orqali amalga oshadi. SHuning uchun ilmsiz kishilarda dunyo to'g'risida ilmiy dunyoqarash bo'lmaydi.

Dunyoqarash kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy tasavvurlarning yig'indisidan iboratdir. Dunyoqarash ayrim kishilarning, ijtimoiy g'ururning, sinf yoki umuman jamiyatning faoliyati yo'nalishini va voqelikka munosabatini belgilaydi. Ilmiy bilimlar dunyoqarash tarkibiga qo'shilgach, insonning yoki g'ururning tevarak atrofidagi ijtimoiy va tabiiy borliqqa bevosita amaliy yo'l tutish maqsadiga xizmat qiladi.

Dunyoqarash ijtimoiy borliqning in'ikosidir. Unda ijtimoiy turmush aks etadi va u muayyan tarixiy davrda insoniyat erishgan bilimlar darajasiga hamda ijtimoiy tuzumga bog'liq bo'ladi.

Dunyoqarashning har bir turi o'ziga xos hususiyatga egadir. Mifologiya qadimgi jamiyatda keng avj olgan xalq og'zaki ijodi-naql va afsonalarda gavdalandirilgan voqelikning fantastik in'ikosidir.

Mifologik dunyoqarash tabiat kuchlarini jonlantirib xudolar, afsonaviy qahramonlar tarzida, bir xil buyumlar sifatini ikkinchisiga ko'chirish, ularni hissiy obrazlar, alohida vujudlar shaklida tasvirlashga asoslanadi.

Mifologik tarzda fikrlovchi kishi har qanday o'zgarishlar va jasoratlar ko'rsatishi, o'zi uchun keng shakl maydoniga ega bo'lishi mumkin va g'ayri tabiiy kuch haqida tasavvur borligi uchun unda din elementlari ham mavjud bo'ladi.

Diniy dunyoqarashning o'ziga xos hususiyati shundaki, u tabiiy va ijtimoiy hodisalar mohiyatini ularning o'zidan emas, balki tabiatdan tashqarida xudoning qudratiga ko'nikib hamma narsada va har yerda ilohiy kuchlarning ta'siri, mo'jizaviy kuch bor deb tushuntiradi.

Din va diniy dunyoqarashga yaqin o'tmishimizda bir tomonlama yondoshilib, uning axloqiy munosabatlarni takomillashtirishdagi rolini to'g'ri tushunilmay kelindi. Dinga qarshi kurashish paytida u bilan bog'liq bo'lgan rasm-rusumlarimiz, urf-odatlarimiz, milliy tarbiyadagi eng nozik va muhim tomonlarimizni va boshqa milliy qadriyatlarimizni ham inkor qilib yuborildi.

Endi bu sohadagi xatoliklar tuzatilmoqda. Islom madaniyati jahon madaniyatining ajralmas qismi ekanligi haqiqatligi anglanmokda.

Falsafiy dunyoqarashning o'ziga xos hususiyati, u dunyoni qanday bo'lsa, shundayligicha, hech bir yot narsani aralashtirmay, uydirmalashtirmay, mubolag'asiz tushuntiriladi.

U kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishining eng umumiy qonuniyatlari haqida bir butun yaxlit ma'lumot berib, mifologiyadan farqli ravishda insonni qurshab olgan moddiy olamni hech kim tomonidan yaratilmaganligini, abadiyligini, insoniyat jamiyati taraqqiyoti sabablari va mohiyatini, o'ziga xos hususiyatlarini va qonuniyatlarini to'g'ri, ilmiy asosda tushuntirib beradi.

3. O'qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining 5-moddasi 3-bandiga muvofiq ta'lim muassasalarida sudlangan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Bizning nazarimizda, zamonaviy o'qituvchi-bakalavr qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak (so'z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o'qituvchi-bakalavr tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifa, burch va mas'uliyatlarini ifodalaydi):

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim.

2. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim.

8. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to'g'riligi;

b) nutqning aniqligi;

v) nutqning ifodaviyligi;

g) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda kontselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan holi bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;

d) nutqning ravonligi;

j) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).

9. O'qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishishi lozim.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatlarining tarkib topishiga erishishi zarur. CHunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. O'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan mulohot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o'quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrihohlik, samimiylilik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi zarur.

O'qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

Pedagogik mahoratni egallash yo'llari. O'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, yangiliklardan xabardor bo'lish, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish asosida tarkib topadi. Yosh, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlari o'zini kasbiy jihatdan takomillashtirish yo'lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga ta'minlanadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Mustaqil o'qib-o'rganish (pedagogika fanida ro'y berayotgan yangiliklar haqida ma'lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, Internet materiallari, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma'lumotlar, shuningdek, ilg'or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash).

2. Hamkasb tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish (ta'lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etilib, vaqt, shuningdek, iqtisodiy nuqtai nazardan samarali sanaladi. Tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu borada olingan taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir).

3. Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurs (institut)larida kasbiy malakalarini oshirish.

4. Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferentsiya hamda seminarlar, pedagogik o'qish hamda treninglar)da faol ishtirok etish.

5. Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalarida ularning ish tajribalarini o'rganish (stajirovka).

Ayni vaqtda, respublikada, «Ustoz» jamg'armasining homiyligida ta'lim muassasalarining o'qituvchilar rivojlangan xorijiy mamlakatlarda bo'lib, ularning ta'lim tizimi va ish tajribalarni o'rganmoqdalar.

Pedagogik mahoratni egallashda, guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o'zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to'g'riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni aniqlash hamda ularni barataraf etish yo'llarini topish imkoniyati mavjud.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash garovi bo'libgina qolmay, ayni vaqtda o'qituvchining jamoadagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarga unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

O'z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Yan Amos Komenskiy, Lev Tolstoy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy va boshqalar o'z asarlarida o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o'qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo'lgan sifatlar xususidagi qarashlarni yoritish orqali o'zlari ham pedagogik madaniyatga ega ekanliklarini namoyon etganlar. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan shaxs ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Ularning pedagogik madaniyatlari negizini bolani tushuna olish, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, pedagogik faoliyatning haqligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik

jarayonda o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarning hayot mavjudligini ta'minlashda qudratli omil (vosita) ekanligiga ishonch kabilar tashkil etadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida malakali (mahoratli) o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularning tajribalarini ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mahoratli o'qituvchilarni aniqlash maqsadida turli ko'rik, tanlovlar tashkil etilmoqda. Xususan, «Yil o'qituvchisi» Respublika ko'rik-tanlovi ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarga pedagogik mahoratlarini individual ravishda namoyish etish imkoniyatini berayotgan bo'lsa, «Yil maktabi» Respublika ko'rik-tanlovi o'qituvchilarga jamoa asosida ta'lim muassasasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni ommaga ko'rsata olishlari uchun sharoit yaratmoqda.

SHuningdek, respublika miqyosida, pedagogik faoliyatda ulkan yutuqlarni qo'lga kiritgan o'qituvchilar ta'lim sohasida nufuzli sanaluvchi davlat mukofoti – O'zbekiston Respublikasi Xalq o'qituvchisi ko'krak nishoniga sazovor bo'lmoqdalar.

Bilimni egallash murakkab ziddiyatli jarayon bo'lib, u insondan eng avvalo fiziologik jihatdan barkamollikni, ya'ni 5 asosiy sezgi organlarini bus-butun bo'lishini, hamda bilim olish uchun tinimsiz mashq qilishni, qunt bilan mehnat qilishni talab qiladi.

Dunyoning va butun borliqning ko'rki insondir. Inson o'z go'zalligi va murakkabligi bilan yer yuzidagi barcha mavjudotlardan afzaldir. Insonning tafakkuri, aqli bor. U shu aql yordamida ilm egallaydi. Ilm tufayli dunyoni biladi va uni boshqaradi. Hayvonlar tabiatga u qanday bo'lsa, shundayligicha moslashib yashayveradilar. Inson esa tabiatni o'ziga moslashtiradi, o'zgartiradi.

Ilmiy dunyoqarashni hamma vaqt bir zaylda, o'zgarmay turaveradigan bilimlar deb qaramay, bilimlar to'la bo'lmagan bilimlardan to'la bilimlarga qarab borishligini unutmaslik zarur. Masalan, qayta qurish munosabati bilan dunyo o'zgardi, oldingi tushunchalar ham o'zgardi. Yangi tarkib topayotgan jamiyatlardagi hamma yangiliklar ham, qabul qilinayotgan qaror va farmonlar ham o'zgarmas emas. SHu bois ilmiy dunyoqarash bu hodisa va voqealarning hammasiga kishilar

oddiy tomoshabin bo'lib turaverishi kerak emasligini, bu o'zgarishlarning faol ishtirokchilari bo'lishlik, tahlil yo'li bilan umumlashtira bilishni talab qiladi.

Madomiki, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ikki yo'l: tajriba va mantiq (aql) yo'li bilan bo'lar ekan. Demak, kishi hayot to'g'risidagi, o'tmishdagi mutafakkirlarning dono fikrlariga va o'zi to'plagan shaxsiy hayot tajribasiga, bilimiga tayanmog'i kerak. Kishilarning ongi ularning borligini emas, aksincha moddiy hayot sharoitlari, ya'ni borligi ularning ongini belgilashligi, SHundan dalolat beradi. SHu bois ilmiy dunyoqarash hammaga ham nasib qilaveradigan oddiy hodisa bo'lmay, kishining nazariy va amaliy bilim darajasiga bog'liqdir.

Biroq, aqliy jihatdan sog'lom odam agar kam bilsa ham ko'p o'qishi, o'rganishi natijasida o'z bilimini oshirishi, bilimlilarga etib olishi va ma'lum darajada ilmiy dunyoqarashni shakllantira olishi mumkin. Aql va bilim tajriba orqali qo'lga kiradi. Demak, bilimli odam aqlli, mulohazali ham bo'ladi.

Biroq, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda gen (zot) ning ham juda ahamiyati katta. Oldingi yevropalashtirilgan ta'lim va tarbiya uslubimizda qilingan xatolardan eng buyugi, bizningcha, zotga e'tibor bermaslik bo'lib, biz ta'lim oluvchining qobiliyatiga, uning zotiga e'tibor berib o'tirmay, agar yetarli bilimni bersak kutilgan shaxs shakllanaveradi, deb o'ylashimiz kerak edi.

Tabiat, jamiyat va tafakkur sohasidagi fanning barcha jabhalarida insoniyat tomonidan ming yillar davomida yaratilgan va to'plangan bilimlardan hech bo'lmaganda boshlang'ich ma'lumotlarga ega bo'lmay turib, chinakam ilmiy dunyoqarash to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas. Kishi dunyoni qay darajadagi bilim asosida bilsa, dunyoqarashining chuqur va sayozligi ham shu darajada bo'ladi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda badiiy adabiyotning, xalq og'zaki ijodining, ertaklarning, hikoya va qissalarning ahamiyati katta:

Masalan: "Hadis"larda, "Kalila va Dimna", "Qobusnoma", "Ming bir kecha" va boshqalarda hissiy va mantiqiy bilishga tegishli matallar, ertaklar, hikoyalar, baytlar ko'p bo'lib, yoshlarni ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Dunyoqarash insonda ma'lum mas'uliyat hissi bo'lishini ham talab qiladi. Masalan, qo'zini eb qo'ygani uchun bo'rini qora kursiga o'tkazib, sud qilib o'tirilmaydi, to'g'ridan to'g'ri otib tashlanaveradi, chunki uning ongi yo'qligi tufayli mas'uliyati ham yo'q, u qilishi mumkin bo'lgan ishni qilgan. N'yurinberg jarayonida jahon jamoatchiligi gitlerchi fashistlarni sud qilganlarida tamomila haqli edi. CHunki, ular mas'uliyatni o'ylamay insoniyat boshiga katta kulfat soldilar.

Bozor iqtisodiga o'tish mamlakat ertami-kechmi bosib o'tishi shart bo'lgan yo'l ekanligini, unga 10-15 yildan tortib, xatto 100 yillar davomida o'tilganligini, hozirgi rivojlangan kapitalistik mamlakatlar Angliya, Fransiya, Germaniya va hatto AQSH dan ham xalq uchun zarur bo'lgan keng iste'mol mollari belgilangan narxda, qat'iy ravishda davlat do'konlarida sotilishligini bilish bu bilan chayqovchilik qilganlar qattiq jazolanishi ham dunyoqarash darajasini ko'rsatuvchi omillardandir.

Kelajagi buyuk davlatni barpo qiluvchi mamlakatning butun aholisi faqat tijorat, din, qiroat, oldi-sotdi bilangina shug'ullanavermasdan eng avvalo ishlab chiqarishni, ilm-fanni rivojlantirishi, dunyo tillarini bilishi, umuman ma'rifatga birinchi darajali e'tibor berish tufayligina ko'tarilish mumkinligini tushunish ham dunyoqarashni shakllantirishga kiradi.

O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning bozor iqtisodiga o'tishda O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'li borligi haqidagi 5 tamoyilini bilish ilmiy dunyoqarashni muhim elementidir. Bular: 1) iqtisodning siyosatdan ustun bo'lishligi; 2) Iqtisodni boshqarishda davlat asosiy isloxotchi bo'lishi; 3) qonunga hammaning itoat qilishligi; 4) kuchli ijtimoiy siyosat yurgizib, aholini kam ta'minlangan qismini ijtimoiy muhofaza qilish; 5) Bozor iqtisodiga o'tishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymay bosqichma-bosqich o'tish kabilardir.

Ilmiy dunyoqarashni amalga oshirishda kishi narsa va buyumlarning, voqea va hodisalarning ko'rinib turgan ifodasiga, shakliga qarab emas, balki ularning ichki mohiyatiga, mazmuniga qarab baho berish kerak.

SHunday qilib, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish bir, ikki, uch kishi yoki bir necha guruh tomonidan bo'lmay, balki ko'pchilik, ijtimoiy fikr tomonidan bajariladigan ijtimoiy-tarixiy harakterdagi hodisadir. Demak, ilmiy dunyoqarashni

shakllantirish kishidan ko'p mehnat, malaka talab qiladigan murakkab, sermashaqqat faoliyat sohasidir.

V.A.Slastenin o'qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi.

Akmeologiya (akme) - yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, yetuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi.

B.G. Ананьев, N.V.Kuz'mina, A.A.Derkach va boshqalar kasbiy faoliyatning samarasini oshirish bilan yo'g'rilgan inson hayotining eng ijodiy davrlari, yetuklik bosqichlari to'g'risida fikr yuritadilar. Ular yetuk insonlarning professionalizmi, shaxs rivojlanishining gullagan davridagi psixik qonuniyatlari, professionalizmga yetishdagi balandliklardan o'ta olish masalalari bilan shug'ullanganlar.

V.A.Slastenin akmeologiyaniing yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko'rishiga olib keladigan sub'ektiv va ob'ektiv omillarini asoslab berdi. Ob'ektiv omillarga olingan ta'limning sifatini, sub'ektiv omillari esa insonning iste'dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi mas'uliyati, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi.

Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- *iste'dod nishonalari;*
- *uquvlilik;*
- *qobiliyat;*
- *iste'dod;*
- *oila tarbiyasi sharoiti;*
- *o'quv yurti;*
- *o'z xatti-harakati.*

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi. Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

- *ijodiy individuallik;*
- *o'zining o'sish va takomillashish jarayoni;*

- *o'z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.*

O'qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- *intellektual - ijodiy tashabbus;*

- *bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliya ti;*

- *ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;*

- *axborotlarga tashnalik, muammolardagi g'ayri odatiylikka va yangilikka bo'lgan his-tuyg'u, professionalizm, bilishga bo'lgan chanqoqlik (N.V.Vishnekova).*

V.A.Slastenin ijodiy individualizmni ro'yobga chiqarishning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilaydi:

- *ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish;*

- *pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish;*

- *samarali va ahamiyatli me'yorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish;*

- *shaxsning o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi namoyon qila olishi asosida o'z rivojlanishini ta'minlash;*

SHu tariqa o'qituvchining ijodiy individualligini shakllantirish shaxs rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovatsion jarayoni sifatida tushuniladi.

4. Ma'rifat (pedagogik jarayon) – bu ta'lim va tarbiyaning amalga oshiruvchi insonning faoliyat sohasi. Bilimga ega va uni boshqalarga o'rgatishni o'ziga kasb qilgan “Ta'lim-tarbiya beruvchi”lar – bog'cha tarbiyachisi, ustoz, o'qituvchi, pedagog, katta o'qituvchi, assistent, dotsent, professor, ma'ruzachi deb nomlanadi. Bilimga talabgorlar, ya'ni “Bilim oluvchilar” – bog'cha bolalari, o'quvchilar, talabalar, tinglovchilar va shogird deb ataladi. Ta'lim-tarbiya muassasalariga bog'cha, maktab, akademik litsey, kollej, institut, universitet, akademiya kabilar kiradi. Ko'rib turibsizki pedagogikaning bir qator tushunchalari mavjud ekan. Bu ijtimoiy voqeilikning asosiy maqsadi bilim berish ekan u ta'lim va tarbiya jarayonida amalga oshiriladi.

O'zbekistonda chop etilgan izohli lug'atda ham "Ma'rifat – kishilarning ong – bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya" deyilgan. Demak ma'rifat deb ajdodlar to'plagan bilimlarni avlodlarga yetkazib berish yo'lida qilinadigan harakatlar majmuidir.

SHaxs rivojlanishi haqida tushuncha. Individ, shaxs, individuallik. SHaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, konkret kishi, ya'ni, muayyan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

"Individ" nima? Bola ma'lum yoshga qadar "individ" sanaladi. Individ lotincha "individuum" so'zidan olingan bo'lib, «bo'linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi.

Individuallik esa tarbiya jarayonini amalga oshirishda bolaning shaxsiy xususiyatlari va yashash sharoitlarini chuqur bilish hamda hisobga olishdan iborat.

Individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

SHaxs – muayyan jamiyatning a'zosi bo'lib, u psixologik jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida ham shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuharoning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanishning o'zi nima?

Rivojlanish oddiyda murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ta'minlovchi murakkab harakat jarayoni sanaladi. Rivojlanishning manbai qarama-qarashliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiymavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. SHuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

CHunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. CHunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi.

SHaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. SHunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

SHaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar. Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda.

Insonning shaxs sifatida rivojlanishiga ijtimoiy voqealar, tabiiy omillar yoki tarbiya ta'sir etadimi? Bu uch omilning o'zaro munosabati qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deyдилar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning rolga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir ohim – bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Proqmatizm oqimi va uning vakillari D.D'yul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni fahat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishi ijtimoiy omil omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixikrivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'lik deb ko'rsatadilar.

Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. SHu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib

kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'lik bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'lik, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga yetadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.

Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g'oyani ifodalaydi.

Jamiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat o'rtasida ham uzviy aloqa mavjud.

SHunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit, inson o'rtasidagi murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga faol ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayoti va o'z tabiatini o'zgartiradi.

SHaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi.

Birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'lik ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga yetadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir.

SHunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

2.SHaxs rivojlanishida faoliyatni o'rni. SHaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi.

Faoliyat o'zi nima? Faoliyat inson tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq o'zgartirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-tarixiy turmushning o'ziga xos shaklidir. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi.

Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi.

O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish va mehnat kiradi. Ular yo'nalishiga ko'ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishga ko'ra tanlangan sohalardan iborat. Faoliyatning asosiy turi – muloqotdir.

Faoliyat faol va passiv bo'lishi mumkin. O'smir faoliyati muhit va tarbiya ta'sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o'z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, o'zini shaxs sifatida ko'rsata olishi unda o'z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko'zga tashlanadi.

Ta'lim jarayonida faollik o'quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o'z qobiliyatini namoyon etishga yo'llaydi. Bilishga bo'lgan faollik o'quvchining intellektual rivojlanishini ta'minlaydi.

Faollik ko'rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatining ham turlarini kengaytiradi. SHunga ko'ra, o'quvchining turli yosh davrlarida ularning faoliyati turlicha bo'ladi. Ta'lim muassasasida hamma vaqt bir xil talab shaxs rivojlanishida ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o'zgarib turishi kerak.

Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. CHunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma'naviy-axlohiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ymaganligidadir.

SHuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish – uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

3.Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari. Ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlari yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. SHunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. CHunki bola orginizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. CHunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovlikma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi,

yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi, qobiliyati kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual – o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish metodikasini bilish muhim.

Nazorat uchun savollar:

1. Insoniyat, jamiyat tarixida bilishning taraqqiy etishi.
2. Dunyoqarash va uning tarkibiy qismlari qanday?
3. Pedagogik layoqat – mutaxassisni shaxsiy va kasbiy yuksaltirish jmi ekanligi.
4. Ma'rifat shaxs kamolotining birligi sifatida.
5. .Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari
6. Faoliyat o'zi nima?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abulxanova K.A. i dr. Psixologiya i pedagogika. – M.: «Sovershenstvo», 1998. – 320 s.
2. Inog'omov R., Toshmurodova Q. Pedagogika fani XXI asrda. - T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2000.
3. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T., 2005.
4. Klimov Ye.A. Основы психологии. – M., 1998.
5. Nemov R.S. Psixologiya. V 3-x kn. – M., 1998.
6. Podlasyy I.P. Pedagogika. Новыу курс v 2-x kn. – M.: Vlados, 1999.
7. Psixologo-pedagogicheskiy slovar dlya uchiteley i rukovoditeley общеобразовательных uchrejdeniy. – Rostov –na – Donu: Feniks, 1998.

3. Mavzu: **Ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti va ularning tarixiyli**

Reja

1. Ma'rifiy fikrlar tarixiyli va jahon ma'rifiy fikrlarning pedagogik tahlili.

2. O'zbekiston hududida eng qadimgi davrdan 14 asrgacha ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti (xalq og'zaki ijodi, qadimgi yozma yodgorliklari, zardushtiylik islom dini, hadis ilmi, sharq uyg'onish davri).

3. 14-16 asrda maktab va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti.

4. 17-20 asr boshlarida maktab va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti.

5. O'zbekistonda 1917-1990 yillarda maorif va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti.

Tayanch tushunchalar: Ma'naviyat, ma'rifat, qadriyat, madaniyat, san'at, g'arb mutafakkirlar, xalq og'zaki ijodi, "Avesto" , "Qur'oni Karim", hadis, sharq mutafakkirlari, jadidchilik.

Ma'naviyat, qadriyat, madaniyat, san'at, ma'naviy va madaniy meros, ma'naviy va madaniy yodgorlik degan tushunchalarning tom ma'nosini tushunib yetdik. SHu tushunchalar tizimga kiruvchi va ular bilan uzviy bog'liq bo'lgan ya'na bitta tushuncha borki, uham bo'lsa "Ma'rifat" – bu tushunchani ta'riflashga o'tamiz.

O'zbekistonda chop etilgan izohli lug'atda ham, "Ma'rifat – kishilarning ong – bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya" – deyilgan.

Demak ma'rifat deb ajdodlar to'plagan bilimlarni avlodlarga yetkazib berish yo'lida qilinadigan harakatlar majmuiga aytilar ekan. SHu bilan birga ma'rifatni "Bilim" – deb talqin qiluvchilar ham oz emas. Masalan so'fiylar ma'rifatni bilim ma'nosida tushunganlar. Bahouddin Naqshband "Ruhiy kamolotning asosiy maqsadi ma'rifatli bo'lishdir" – deydi.

Har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular pedagogika sohasidagi o'zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda o'rganishini talab etadi.

Pedagogika tarixi qadimgi zamonlardan, hozirgi kungacha bo'lgan turli xil davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyasining tarqqiyotini davrlar taraqqiyoti talabi asosida o'rganib keladi. Har bir ijtimoiy tuzum uning kelajagi insoniyat istiqboli, kishilarning turmush darajasini fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir.

Jahon pedagogika fani va rivojlanish tarixi jahon ma'rifiy fikrlarni tarixiyligi, tarixiy tarqqiyotning keyingi davrlarga kelib ibtidoiy jamoa tuzumi o'rnini yangi ijtimoiy farmatsiya quldorlik tuzumi egalladi. Qadimiy sharqda birinchi sinfiy jamiyatlar paydo bo'ldi, hamda moddiy va ma'naviy, madaniyatga asos solindi. Ayniqsa qadimgi Yunoniston va Rim xalqlari bu madaniyatni rivojlantirishda katta hissa qo'shgan.

Darhaqiqat tarixiy tarqqiyot davomida turli mamlakatlar va xalqlar jahon madaniyatiga turli yondashishlar orqali rivojlantirdilar. Masalan: Xitoyda qog'oz ixtiro qilindi, Hindistonda hisoblashning o'nlik tizimi kashf etildi, Misopatamiyada esa yer kurrasini graduslarga, sutkani soatlarga, minutlar va daqiqalarga bo'lish o'ylab topildi.

Eramiz boshlanishidan oldin O'rta Osiyoning janubiy chekkasiga yaqin bo'lgan joyda O'rta dengiz bilan Hindistonni birlashtiruvchi karvon yo'li qurildi. So'ngra O'rta Osiyo orqali Xitoydan O'rta dengiz tomon "Buyuk ipak yo'li" ochildi. Natijada O'rta Osiyo xalqaro savdo-sotiq markaziga aylandi. Bu esa o'z navbatida O'rta Osiyo vohalaridan madaniyatning rivojlanishiga ta'sir etdi va yozuvning tarqalishiga yordam berdi. Ayniqsa qadimgi Yunonistonda madaniyat, maktab va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda erta rivojlandi. Yunoniston uncha katta bo'lmagan bir qancha quldorlik davlatlardan tashkil topgan. Uning mo'tabar shaharlari Lakoniya va Attikadir. Bularning har qaysisida tarbiyaning alohida tizimlari vujudga kelib, Sparta usulidagi tarbiya va Afina usulidagi tarbiya deb ataladigan bo'ldi. Ammo ikkala davlatda ham quldorlik tuzumihukmron edi.

Yunonistonda qullarni "Gapiradigan ish quroli", deb hisoblar edilar. Qullar oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum edilar.

Lakoniya (Sparta)da 9 ming oiladan iborat bo'lgan quldor 250 000 mingdan ko'proq aholiga hukmronlik qilar edi.

Tarbiya ishlari davlat ixtiyorida bo'lib, uning asosiy maqsadi Spartaliklarning bolalarini baquvvat, jismonan sog'lom, bardoshli, chiniquqan, jangarilar qilib tarbiyalash iborat edi. Spartaliklarning bolalari 7 yoshgacha uyda yashar keyin "Agella" deb ataluvchi davlat muassasasida 18 yoshga yetguncha tarbiyalanar edi.

Qadimgi yunon tarixchisi, faylasuf olim Plutarx Sparta maktablaridagi ta'lim-tarbiya haqida gapirib shunday deydi: "O'qishga va yozishga kelganda bolalarga eng zarurlari o'rgatilar edi, tarbiyaning qolgan qismi esa bitta maqsad: hech so'zsiz itoat etishni, chidamli bo'lishni va yengish ilmini o'rgatishni ko'zda tutar edi" Sparta ta'lim-tarbiyaning ya'na bir muhim vazifasi yoshlarni qullarga nisbatan shafqatsiz ularni mensimaydigan qilib tarbiyalashdan iborat edi. SHu maqsadda yoshlar "Kreptiyalar"da, ya'ni ko'chalarda qullarni tutish mashqlarida qatnashar, shubhali bo'lib ko'ringan qullarni o'ldirar edilar. Yigitlar 18-20 yoshga yetganda "Efeblar" o'spirinlar guruhida harbiy xizmatni o'taganlar.

Spartada qizlar tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Ularni harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan qurollantirilib borilgan. CHunki erkaklar jangga ketganlarida ular shaharni qo'riqlab qullarni itoatda saqlashni ta'minlar, hatto janglarda ham qatnashar edilar. Afinada tartib intizom, maktab tizimi va undagi ta'lim-tarbiya Spartaliklardan butunlay farq qilar edi. Afinada eramizdan avvalgi 5-4 asrlarda madaniyat gullab yashnadi. Fan, me'morchilik va haykaltaroshlik rivoj topdi. Bolalar 7yoshga yetguncha uyda tarbiyalanar ug'il bolalar 7-yoshdan boshlab, maktabga qatnar, qizlar esa oilada ona ko'magida uy ro'zg'or ishlariga o'rgatilar, chunki xotin-qizlarning uy doirasidan chiqmas edi.

Afinada bolalar 7 yoshdan 13-14 yoshgacha "Grammatist"- (savod urgatish ma'nosi) yoki "Kifarist" (grekcha musiqa o'qituvchisi ma'nosida) maktablarda tahsil olganlar. Maktablarda "Didaskol"deb atalgan o'qituvchilar mashg'ulot olib borar edilar.

O'g'il bolalarni makabga qullar yetaklab borar, bunday qul "paydagogos" deb atalgan.

Nihoyat, Spartada bo'lgani kabi Afinada ham 18-20 yoshgacha bo'lgan yoshlar efeblar qatoriga o'tib harbiy xizmatga tayyorlanar va siyosiy bilimlarini oshirishni davom ettirar edilar. Aholining ko'pchilik qismi bolalarni maktablarda o'qita olmaganligi sababli ularga kasb-hunar o'rgatish odat tusiga kirgan edi. Ayrim xat savodi bor ota-onalar bolalariga o'qishni o'zlari o'rgatar edilar. Bu davlat tomonidan qonunlashtirilib qo'yilib bechora xol tabaqaga mansub ota-onalar o'z bolalariga biror kasbni o'rgatishga majbur edilar.

SHular misolida G'arb pedagoglari jumladan CHexoslavakiyalik gumanist pedagog Yan Amos Komenskiy o'zining ongli xayotini amaliy pedagog faoliyatini bolalarni o'qitish va tarbiyalashdek oliyjanob ishga bag'ishlagan, ulug' pedagogdir.

U o'zining 80 yillik umri davomida pedagogika ta'lim-tarbiya, falsafa, ilohiyotga oid 250 dan ortiq asarlar darsliklar yaratgan. SHulardan "Tillarva hamma fanlarning ochiq eshigi" (1631 yil), "Buyuk didaktika" (1632 yil), "Onalar maktabi" (1632 yil), "Panasofiya maktabi" (1651 yil), "Yaxshi tashkil etilgan maktab qonunlari" (1653), "Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari" (1658) kabi asarlari uning eng salmoqli asarlaridir.

Iogan Genrix Pistalotsi SHvetsariyaning Suyurix shahrida vrach oilasida tug'ilgan. Pestalotsi avval boshlang'ich maktabda, so'ngra lotin maktabida o'qib ilm oldi. 19 asrning boshlaridanoq Pestalotsining "Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi", "Onalar kitobi yoki onalar uchun o'z balalarini kuzatish va gapirishni qanday o'rgatish haqida" qo'llanma, "Kuzatish alifbesi yoki o'lchash haqida ko'rsatmali" qo'llanma, "Son to'g'risida ko'rsatmali ta'lim" degan kitoblari bosilib chiqdi. Pestalotsi o'z xalqini oyoqqa turg'izishni orzu qildi. Pestalotsi hamma odamlar tarbiya va ilm olish huquqiga ega bo'lishi lozim, maktablar jamiyatni ijtimoiy jihatdan o'zgartirishning muhim vositalaridan biri bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Konstantin Dmitrievich Ushinskiy mashhur rus pedagogi, rus pedagogikasi va xalq maktablarining asoschisi, "Rus o'qituvchilarining o'qituvchisi". K.D.Ushinskiy 1824 yil 19 fevralda Tula shahrida tavallud topdi. K.D.Ushinskiy pedagogik faoliyatini ilmiy-ijodiy ish bilan birga olib bordi. 1848 yil uning birinchi ilmiy

asarlari “Kameral fanlarni o’qitish haqida” nashr qilindi. Ushinskiy 1857 yildan boshlab “Tarbiya jurnali”, so’ngra “Xalq maorifi jurnali”da juda ko’p sarmazmun maqolalar e’lon qilindi. Ushinskiyning pedagogika nazariyasi xalqchilik g’oyasi asosiga qurilgan.

Ushinskiy tarbiyada xalq ruhining eng yaxshi ifodasi ona tili ekanligiga, rus bolalarini o’qitishda rus tili asos bo’lishligini, boshlang’ich maktablardagi ta’lim ham bolalarni rus tarixi, Rossiya geografisi va uning tabiati bilan tanishtirmog’i lozimligini uqtiradi. K.D.Ushinskiyning o’z vataniga, o’z xalqiga xizmat qilishini pedagogik faoliyatning asosiy burchi deb hisoblagan.

2.Hozirgi o’zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo’lib, ular o’ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda katta va mashaqqatli yo’lni bosib o’tgan. Dastlabki to qurollardan tirikchilik uchun foydalanish ancha takomillashgan mehnat qurolini yasash, urug’chilik davriga kelib xo’jalik xayoti va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlarni o’z ichiga olgan davrgacha bo’lgan tariximiz ota-bobolarimizning boy qadimiy madaniyatiga ega bo’lganligidan dalolat beradi.

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Baqtriya, Xorazm, Sug’diyona, Marg’iyona, Parfiya hamda Parkana kabi davlatlarda turli qabila va elatlar yashaganlar. Ular saklar, massagetlar, sug’dlar, xorazmiylar, baqtriyaliklar, chochliklar, parkanaliklar kabi qabilalardan iborat bo’lib, hozirgi Markaziy Osiyo hududida yashovchi xalqlarning ajdodlari hisoblanadi.

Eng qadimgi tarbiya haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Turkiy va forsiy zabon xalqlarning xayot kechirish san’ati donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo’lishni namunasi tarzida e’tirof etilgan. Ma’naviy-madaniyat yodgorliklari qadimgi grek tarixchisi Gerodotning “Tarix”, Strabonning “Geografiya” hamda Maxmud Qoshg’ariyning “Devoni lug’atit-turk” kabi asarlari, Urxun-enasoy bitiklari kabi adabiy tarixiy manbalarda saqlangan.

Ushbu yodgorliklar mohiyatini o’rganish insonning shallanishida moddiy va ma’naviy madaniyat qay daraja katta o’rin tutganidan dalolat beradi.

Eng qadimgi kishilarga xos bo'lgan hislatlar, ularning dastlabki, oddiy istaklari, orzu-umidlari, qadimgi eposlarda aks etgan, afsonaviy obrazlar hamda qahrmonlar qiyofasida o'z ifodasini topgan. Afsona va rivoyatlarda eng qadimgi ajdodlarimizning tafakkur dunyosi aks etgan.

Eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o'rganishda quyidagi uch guruhga ajratilgan manbalarga tayanamiz.

- 1.Arxiologik qazilmalar natijalarida topilgan ko'rgazmali ashyolar.
- 2.Xalq og'zaki ijodi materiallari va yozma manbalar.
- 3.Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi.

Eramizdan avvalgi mingingchi yillarning o'rtalarida eng qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qahramonlik mavzusida juda ko'p afsona va rivoyatlar yaratilgan. Agar bu afsonalar zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" mundarijasidan o'rin olmagan edi, biz bular haqida hech qanday ma'lumotlarga ega bo'lmagan bo'lar edik. "Avesto" kim tomonidan yaratilganligi borasida turli xil qarashlar mavjud bo'lib, mashhur sharqshunos olim Ye.E.Bertel'sning fikriga ko'ra, asar 1278 yili Zardusht ibn Baxrom ibn Pashdu degan kishi tomonidan yozilgan. Zardusht taxminan milloddan avvalgi 570 yili tug'ilgan bo'lib, 77 yoshida ibodat qilayotgan paytida dushman kohinlaridan biri tomonidan o'ldirilgan.

Zardusht tomonidan o'z davrida ikki xudolik g'oyasini ko'tarib chiqadi. Asta-sekin o'zini Axuramazda ya'ni oliy tangri elchisi deb e'lon qiladi. Zardusht dunyoni yaxshilik va yomonlik dunyosi tarzida ikkiga bo'ladi.

"Avesto" eramizdan avvalgi 4 asr oxiri 6 asr boshlarida yaratilgan bo'lib, u uzoq davrlar mahsuli hisoblanadi. Asarning to'liq kitob xolida shakllanishi eramizdan avvalgi 1 asrga to'g'ri kelishi barcha manbalarda qayd etilgan.

G'arb, rus va o'zbek olimlari mazkur asar mazmunining har tomonlama tahlil qilishda harakat qilganlar. Zero "Avesto" inson shaxsining kamolotga erishishga oid fikrlar ifoda etilgan.

7 asr birinchi yarmida Islom g'oyasiga asoslangan Arab xalifaliga tashkil topib, bu davlat o'z mavqeyini mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarni zabt etib boshlaydi. Butun arabiston yarimoroli, Eron, Suriya, Janubiy ispaniya, Kavkaz

hamda SHimoliy Afrikada joylashgan bir qancha mamlakatlar xalifalik tarkibiga kiritildi. Arab istilochilarining Movorunahrga bo'lgan birinchi yurishi 651 yil, Ubaydulla ibn Ziyod boshchiligida amalga oshirildi. 676 yilda esa Sayid Ibn Usmon rahbarligida Buxoro, Samarqand, Kesh hamda Nasaf kabi shaharlar bosib olindi.

Ikkinchi yurish 705 yil Xuroson xokimi Qutayba ibn Muslim boshchiligida sodir bo'ldi. Qutayba ibn Muslim 706 yil Zarafshon vodiysiga yurish boshlab oqibatda Poykent, Buxoro, Samarqand, Sug'd, Farg'ona va boshqa joylarni qo'lga kiritdi. Arab istilochilari tomonidan 8 asr o'rtalariga kelib Movarounnahrni to'la zabt etishga erishdilar.

Arablar tomonidan bosib olingan yerlarda xalqlar islom dini qabul qilishga majbur qilindi. Arab istilochilarining Movarounnahr xalqining islom dinini qabul qilish jarayoni qiyin kechgan va bu jarayon bir necha yillar davomida amalga oshirilgan. Chunki Movarounnahr yurti arab istilosiga qadar ham ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan taraqqiy etgan xalq hisoblangan. Islom dinini qabul qilinishiga erishish maqsadida harbiylar hamda islom dini targ'ibotchilarining xizmatidan birdek foydalanadilar.

Movarounnahrda islom dini yoyilgunga qadar bu yerda yashovchi xalqlar ko'p sonli xudolarga, quyoshga, ko'k din (shaman)ga hamda o'z lari muqaddas deb bilgan narsalarga sig'inishar edi. Islom dini aqidalariga bo'ysinish, yagona va qudratli ollohga sig'inish.

Arablar o'lkada islom dini g'oyalarini yoyishda turli usullardan foydalanadilar. Ana shunday usullardan biri mazkur dinga e'tiqod qilgan kishilarning jon soliqg'idan ozod etilishi bo'ldi. Islom dini kishilik jamiyatining ibtidoiy davri hususiyatlaridan voqif bo'lish va O'rta asr uyg'onish davrining ro'y berishi uchun ma'naviy-g'oyaviy poydevor qo'ygan ijtimoiy ehtiyoj sifatida yuzaga chiqdi.

Islom talimoti o'zining insonparvar g'oyalari va ularning insonlar ongida chuqur singdira olish imkoniyatlari tufayli 14 asrdan buyon borliqni ong yordamida mafkuraviy tarzida idrok etishining aosiyl shakllaridan biri bo'lib kelmoqda. Islom ta'limotining ulkan hududga yoyilishi va umuminsoniy qadriyat sifatida et'irof

etilishida ollohning rasuli bo'lgan payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salomning o'rni beqiyosdir.

Hadis ilmining paydo bo'lishi.

Islom dini ta'limoti asoslarin yorituvchi Qur'oni Karimdan keyingi asosiy manba hadis hisoblanadi. Hadislarni to'plash va ularga muayyan tartib berish asosan 8 asrning ikkinchi yarmidan boshlanib eng bilimdon, turli fan asoslarini mukammal o'rgangan, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan kishi (muhaddis)lar tartib bergan. 8-11 asrlarda to'rt yuzdan ortiq muhaddis hadis ilmi bilan shug'ullangan keyingi yillarda Muhammad alayhis-salomning hayoti faoliyati hamda uning diniy-axloqiy ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan hadislar imom Ismoil al-Buxoriyning "Al-jomiy as-sahih" (ishonarli to'plam), "Al-adab, al-mufrad" (Adab durdonalari) Muhammad Iso At-Termeziyning "As shomoil, an-nabaviy" asarlari nashr etildi.

8-9 asrlarda hadis ilmining rivojlanishining "Oltin davr" hisoblanadi. Bu davrga kelib, islom ulamolari tomonidan hadislarining qay darajada to'g'riligi, ularning qanday manbalarga tayanib to'planganligi jiddiy tadqiq etila boshlandi.

Hadislarda insonning kamolotiga erishishi uchun talab etilgan inrsoniy fazilatlar ifoda etilgan bo'lib, bu fazilatlar sirasiga o'zgalarga mehr-oqibat ko'rsatish, sahiylik, ochiq kungillilik, ota-ona, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo'lish ularga g'amho'rlik qilish, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, rostgo'ylik kabi xisltalar kiritiladi.

SHARQ UYG'ONISH DAVRINING MA'RIFIY QARASHLARI. i

Arab xalifaligida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar yagona islom dnining tarkib topishi madaniy xayotga ham ta'sir etdi. Anashu madaniy ko'tarilish butun arab xalifaligini yaqin va o'rta sharqni qamrab olganligi uchun ham SHarq uyg'onish davri deb ataldi. Bu uyg'onish davri 9 asrdan boshlab 15-16 asrgacha davom etdi.

Xalifa Xorun ar-Rashid va uning o'g'li Al-Ma'nun davrida Bog'dodda "Bayt ul-Hikma" (Donishmandlik uyi) tashkil topdi.

11 asrda Xorazmda ilm fan taraqqiy etadi. Xorazm shohi Ma'nun 2 o'z saroyiga zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan majlis ulamo – "Ma'nun

akademiyasi” deb nom qoldirgan. Bu akademiyaning rivoj topishiga Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayh, riyoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Sahl al-Maishiy, tabib Abul Hayr Hammor kabi olimlar ilmiy ijod bilan shug’ullanganlar. Lekin toju taxt kurash natijasida bu ilm o’z faoliyatini to’xtatib olimlar tarqab ketadi.

Muhammad al –Xorazmiy (783-850) yillar insonning kamolga yetishi va insoniy munosabatlarni yo’lga qo’yishda ilm-fanning muhim ahamiyati to’g’risidagi g’oyani ilgari surgan. Ayniqsa u matematika sohasida yangilik yaratgan, nazariyotchi hamda pedagog-uslibiyotchi olim sifatida tarixda qolagan. Xorazmiy o’z davrigacha bo’lgan qadimiy matematika fani rivojlangan mamlakatlar Bobil, Yunoniston, Hindiston, Xitoy, Misrdagi deyarli barcha matematiklarning kashfiyotlarini yaratdi. Muhammad Al-Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazariyasiga uning ulkan hissasini qo’shdi. Xorazmiy “Al-jabr va al-muqobila” (tiklash va qiyoslash) amallarini kiritdi. Muhammad al-Xorazmiyning ikkinchi kitobi “Hind arifmetikasi haqida kitob” asar o’nlik sistema raqamlari (1,2,3,4,5,6,7,8,9) bag’ishlangan. Muhammad Al-Xorazmiyning bu fikrlari bu faoliyatining ezgulikga xizmat qilishini yoritisa, ikkinchi tomondan, o’sha davrda ilmiy-tadqiqot ishlari va o’qitishning metod va vositalaridan qay darajada foydalanganligini ko’rsatadi.

Abu Nasr Forobiy allomaning inson kamoloti haqidagi ta’limoti ta’lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. Mashhur yunon faylasufi Arastudan keyin sharqda “Muallimi soniy” ikkinchi muallim deb ataydilar. Abu Nasr Forobiy 70 dan oshiq tillarni bilganligi haqida gapiriladi. Forobiy ta’lim-tarbiyaga bag’ishlangan asarlarida ta’lim-tarbiyada nimalarga e’tibor berish zarurligi ta’lim-tarbiya usullari va uslublari haqida fikr yuritadi. Uning “Fozil odamlar shahri”, “Baxt saoldatga erishuv tug’risida”, “Aql ma’nolari tug’risida” kabi asarlarida allomalarning ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari ifoda topgan.

Abu Ali ibn Sino u ham qomusiy olim singarimatematika, astronomiya, fizika, kimyo, tibbiyot va hokazo ta’lim-tarbiya sohalarida ijod etgan va dunyoda mashhur yirik asarlar meros qoldirgan olim. Abu Ali ibn Sino “Al qonun”, “Hay ibn-Yakzon”, “Risolat at-tayr”, “Risolat Fil-ishq” (Ishq haqida risolat) kabi asarlari shular

jumlasidandir. Ibn Sinoning shaxsiy faoliyati dunyoviy ishlarni o'rganish ta'limotlari, ta'lim-tarbiya haqidagi mulohazalari, umuminsoniy pedagogik fikr taraqqiyotida yuksak o'rinni egallaydi.

3. Qariyb bir yarim asr davomida mo'g'ullar istibdodi ostida xonavayron bo'lgan Movarounnahr xalqi XIV asrning boshlariga kelib mo'g'ul istilochilari zulmidan qutula boshladi. Movarounnahrda kuchli davlat tuzishga bo'lgan intilish g'olib keldi. Mo'g'ul istilochilariga qarshi Buxoroda xalq Mahmud Torobiy boshchiligida qo'zg'oldi, Samarqand va Xurosonda esa Sarbadorlar qo'zg'olonlari ro'y berdi. Natijada Sarbadorlar uzoq muddat hatto hokimiyatni ham boshqarib turdilar.

XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning feodal tarqoqligiga barham berildi, mamlakat mo'g'ul bosqinchilaridan tozalandi. XIV asrning oxiri va XV asrlarda Markaziy Osiyoda feodal munosabatlar yanada rivoj topa boshladi.

Sohibqiron Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnahr tarixida alohida o'rin egallaydi.

Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnahrda yana fan va madaniyat, maorif qaytadan ravnaq topa boshladi.

SHuning uchun ham XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr tarixda SHarq Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi deb ataladi. CHunki, bu davr madaniyati o'z tamoyillari, yo'nalishi, iqtisodiy asosi jihatidan IX-XII asr madaniyatining davomi sanaladi.

SHu bois XIV asr oxiri va XV asrlarda Movarounnahrda SHarq Uyg'onish davri madaniy ravnaqini IX-XII asrlardagi madaniy rivojlanishidan ajratib olib ko'rsatish mumkin emas. XIV asrning uchinchi choragi va XV asrda Markaziy Osiyoda iqtisodiyot, fan va madaniyat o'sdi. Amir Temur hukmronligi davrida jahonning ko'plab shaharlarida Samarqandga hunarmandlar, olimu fozillar, san'atkorlar, muhandislar olib kelindi va ularning boy tajribalari, ijodiy mahoratlaridan ilm- ma'rifat, madaniyat, qurilish jabhalarida keng foydalanildi. Samarqand va Hirotda madrasalar, kutubxona va rasadxona qurildi. Tibbiyot ilmini o'rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakiyot, jo'g'rofiya, tarix,

adabiyot, falsafa hamda tarbiyashunoslikka oid asarlar yaratildi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom, Sa'diy meroslarini, shuningdek, yunon-rim madaniyatini o'rganishga havas kuchaydi.

SHuni ta'kidlash kerakki, Temur va uning izdoshlari, temuriylar davrida fan va madaniyat rivojlandi. Ayniqsa Samarqand va Hirot shaharlari madaniyat, ilm-ma'rifat markaziga aylandi.

Amir Temur saltanatni bino qilish va uni mustahkamlash uchun juda katta xizmat qildi. Ana shunday buyuk xizmatlaridan eng muhimi mamlakatda ta'lim tizimini rivojlantirish sohasiga qaratilganligi edi. CHunki uning e'tiqodiga ko'ra bilimdon va tadbirkor insongina mamlakatning rivojlanishiga hissa qo'sha oladi. SHuning uchun ham sohibqiron bilimli va ishbilarmon, tadbirkor kishilarni tarbiyalashga katta e'tibor beradi. Bu borada ta'lim tizimining o'ziga xos o'рни bo'lishi kerakligini anglagan holda maktab va madrasalar qurdiradi. Saltanat poytaxti Samarqand atrofida o'n ikki bog' va qasr yaratadi, shahar arki Ko'ksaroy, uning atrofida esa Bo'stonsaroylar bino etadi. Jome' masjidi, maqbaralar, me'moriy yodgorliklar qurdiradi. Bu ishlarga faqat Amirning o'zi emas, uning atrofidagi yaqinlari ham turli madrasalar qurishga bosh-qosh bo'ladilar. Bulardan Amir Temurning amirlaridan Idigu Temur, mavlono Qutbiddin, umr yo'ldoshi Saroymulkxonim, nabirasi Muhammad Sultonlar ham madrasalar qurdiradilar.

Madrasalar ma'lum darajada ixtisoslashgan edi. Masalan, boshqaruv kadrlarni tayyorlash Muhammad Sulton madrasasida, diniy muassasalar uchun kadrlar tayyorlash mavlono Qutbiddin sadr madrasasi, umumiy mutaxassislar, ya'ni ziyoli, imom, olim, maktab o'qituvchisi tayyorlashga Idigu Temur, Saroymulkxonim madrasalari ixtisoslashgan. Lekin ularning hammasida Qur'on, Hadis, fiqh o'rganilgan. SHuningdek madrasalarning ixtisosligiga ko'ra umumi aqliya, umumi askariya, umumi ma'muriyalar ham o'rgatilgani haqida ma'lumotlar bor.

Madrasalarda darslar arab, fors, turkiy (o'zbek) tillarida olib borilgan. Arab tili grammatikasini o'rgatishga ko'proq vaqt ajratilgan. SHuning uchun Sa'diy SHeroziyning "Guliston", "Bo'ston", Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" va boshqalar ham o'qitilgan.

Har bir madrasaning vaqfnomasida tolibi ilmlar, mudarrislar va boshqa xodimlarni qabul qilish, o'quv ishlarini yuritish belgilangan¹.

Ulug'bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya kabi fanlar ayniqsa rivoj topdi. Tibbiyot, tarix, adabiyot va shular bilan barobar diniy bilimlarning ham ravnaq topishiga katta e'tibor berildi. Oliy maktab — madrasalar qurildi. Buxoro, Samarqand va G'ijduvonda qurilgan uch madrasada fan taraqqiyotida ilmiy markaz bo'lib keldi.

Buxorodagi madrasa peshtoqiga bitilgan quyidagi yozuvlar haligacha ko'zga yaqqol tashlanadi: “Ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun qarzu farzdir”.

Ulug'bek 1428—1429 yillarda Samarqandda rasadxona qurdiradi. 1437 yilda ana shu rasadxonada “Ko'ragoniy jadvali”ni, ya'ni yulduzlar jadvalini tuzadi. U yaratgan kutubxonada esa fanning turli sohalariga oid 1500 jild kitob mavjud edi.

Samarqand shahrida X asrda 17 ta madrasa bo'lib, ularda yirik olimlar dars bergan bo'lsa, XIV— XV asrlarga kelib ular soni yanada ortdi. Tabobat ilmi, tarix, adabiyot va san'at ham rivojlandi. Boysunqur Mirzo davrida saroy kutubxonasi keng rivoj topadi. Uning rahbarligida kitoblarni ro'yxatdan o'tkazish va ilmiy matn ishlari ham olib borilgan. Firdavsiyning “SHohnoma” asarining shu davrda to'liq matni tuzilib, miniatyuralar bilan bezatilgan.

Samarqand shahrida X asrda 17 ta madrasa bo'lib, ularda yirik olimlar dars bergan bo'lsa, XIV— XV asrlarga kelib ular soni yanada ortdi. Tabobat ilmi, tarix, adabiyot va san'at ham rivojlandi. Boysunqur Mirzo davrida saroy kutubxonasi keng rivoj topadi. Uning rahbarligida kitoblarni ro'yxatdan o'tkazish va ilmiy matn ishlari ham olib borilgan. Firdavsiyning “SHohnoma” asarining shu davrda to'liq matni tuzilib, miniatyuralar bilan bezatilgan.

Bular XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr Markaziy Osiyo tarixida uyg'onish davri bo'lib tarixga kirgan deya olishimizga asos bo'la oladi.

¹Валихўжаев Ботурхон. Самарқандда олий таълим—мадрасаи олия—Университет тарихидан лавҳалар. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, Самарқанд, 2001. 38—47-бетлар

Ulug'bekning shogirdi Aloviddin Ali ibn Muhammad Qushchi Samarqandiy (1403—1474) o'sha davrda Movarounnahrning madaniy va ilmiy hayotida katta rol o'ynadi. Astronomiya to'g'risida “Risolai dar falakiyot” degan kitob yozgan Ali Qushchini o'z davrining Ptolomeyi deyishardi. Uning mazkur asarida geometrik bilimlarning asoslari bayon qilindi, nuqta, chiziq, yuza, aylana va shu kabi tushunchalar to'la ta'riflab berildi, tabiiyot fanlari va shuning singarilar sohasida boshlang'ich bilimlar bayon qilindi. Bu asar hamma narsa oddiy va murakkab narsalarga bo'linib ta'riflanadi.

Sulton Husayn Boyqaro davrida olimlar va shoirlar Samarqanddan Hirotga ko'chib o'tdilar. Hirot ilmiy-madaniy markazga aylandi. Alisher Navoiy Hirotga fan, madaniyat, ma'rifat ishlarini yo'lga qo'yishda, u yerni obodonlashtirishda katta xizmatlar qildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da Hirot to'g'risida yozar ekan butun dunyoda bunday obod shaharni ko'rmaganligini aytadi.

Alisher Navoiy ham masjidlar, madrasalar, hammomlar, kasalxonalar, hovuz va ko'priklar, rabotlar qurdirgan. U shaharning eng xushhavo joyida barpo etgan Xalosiya va Ixlosiya binolari guruhi fan, adabiyot, san'atga xizmat qiladigan madaniy markazga aylangan.

Hirotga Alisher Navoiy bilan birga Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod, xattotlar — Sulton Ali Mashhadiy, kotib Mir Ali, sozanda — Qulmuhammad, tarixchilar — Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir va boshqalar yashab ijod etgan.

Hirotga xattotlik san'ati rivojlangan. Hatto Buxoroda “Hirot yozuvi” mirzalar, xattotlar tomonidan 1920 yilgacha qo'llanilganini tarixchilar manbalarda keltiradilar.

Bu davrda Movarounnahrda ham san'at, arxitektura, binokorlik texnikasi ancha ravnaq topdi. Musiqa, tasviriy san'at, madaniyat, adabiyot, ta'lim-tarbiyaga oid qator asarlar yaratildi. Hasan Buxoriy Nisoriyning (1556) “Muzakkir al-ahbob” tazkirasi, Mutribiyning “Tazkira — tush shuaro” (1604—1605) to'plamlari, tarixiy va adabiy yodgorlik bo'lgan “Boburnoma” o'sha davrda yaratilgan asarlar orasida o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Amin Ahmad Roziy “Haft iqlim” (“Etti iqlim”) degan geografik bibliografik lug'at tuzdi.

XVI asrda xattotlik san'ati yuksak darajaga yetdi. Sulton Ali Mashhadiy, Mirali Halaviy, Mahmud ibn Ishoq ash-SHixaybiy va boshqalar ustoz xattot bo'lib nom qozondilar. Darvesh Muhammad ibn Do'stmuhammad Buxoriy xattotlik san'atining nazariyasi to'g'risida asar yozdi.

Bu davrda bir qator ilm maskanlari bunyod etildi. jumladan: SHayboniyxon madrasasi, Abdurahim sadr madrasasi, Mirarab madrasasi, masjidi Kalon va boshqa inshootlarning qurilishi ta'lim-tarbiya jarayonida muhim bosqich bo'ldi.

Aholining savodxonligini oshirish, bolalarga ta'lim-tarbiya berish borasida ham ma'lum darajada imkoniyatlar yaratildi. Xususiy maktablar yuzaga keldi, muallim yollab bolalarni uyda o'qitish tadbirlari odat tusiga kirdi.

SHahar va qishloqlarda, ovullarda ochilgan maktablarda bolalarni o'qitish 6 yoshdan boshlandi. Olti yoshli bolalar maktabga borib, alifbeni o'rganar, uning ayrim harflarini chizishni mashq qilar edilar. O'quvchilar maktablarda savod chiqarganlaridan keyin madrasaga kirib ham diniy, ham dunyoviy fanlardan bilim olar edilar.

SHulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, XIV— XVI asrlarda Movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi.

4. Movarounnaxrda bir yuz ellik yil asrning birinchi yarmida xukumronlik qilgan temuriylar sulolasi inkirozga yuz tutib, uning xonxikxarida ilm-fan va o'rniga SHayboniylar xukumronligi o'rnatildi. Lekin SHayboniyxon xam (1451-1510) kuchli markazlashgan davlat barpo kilishga qay darajada xarakat qilgan bo'lsa xam, uning o'limidan so'ng o'zaro urushlar avj olib ketib, bu xududda uch xonlik, avvalo Buxoro va Xorazm, XVIII asr oxiriga kelib, Qo'qon xonligi paydo bo'ldi.

Xonliklar davrida boshqa davlatlar bilan aloqalar o'rnatildi. Jumladan, Hindiston SHox Akbar, SHarqiy Ovrupodan Ivan Grozniylar bilan do'stona aloqa o'rnatildi.

Buxoro xoni Abdullaxon 1001 ta rabot va sardobalar qurdirdi, madrasa, masjidlar, xonaqox va ko'priklar, suv omborlar va boshqa inshootlar qurildi- Bu davrda «Abdullanoma» nomli tarixiy kitob yozildi. Tibbiyot soxasida Sultonali

Samarqandiyning «Dastur al-iloj», Muqammad Yusuf Mahxolning «Taxqiq al xumayyot», «Zubdat ul-qaxxolin» asarlari, SHayboniyxonning «Tavorixi guzidayi nusratnoma», Boburning «Boburnoma», Vosifiyning «Badoe' ul-vaqoe», fazliddin Ibn Ro'zbekxonning «Mexmonnomayi Buxoro» kabi asarlarida o'sha davrning ijtimoiy, siyosiy, tarixiy, adabiy, ma'rifiy xayoti o'z aksini topgan.

Jahon Otin Uvaysiy va uning ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ayollar ta'limi xam rivojlana boshladi.

CHo'iiian hissasi. Uqimishli, ma'rifatli, ziyoli ayollar tomonidan maktablar tashkil etiladi va bu maktablar otinlar maktabi deb nomlandi. o'zbek diyorida otinlar maktabining yirik namoyondalaridan biri — Jaxon otin Uvaysiy edi.

Jaxon otin Uvaysiy (1789-90 Marg'ilon — 1850 y. Marg'ilon)-XIX asr Qo'qon madaniy muxitning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri yetuk shoira va maktabdor muallimalardandir. Jaxon otin Uvaysiyning she'rlar va maktabdorlik xizmatlari xalq ommasi orasida keng yoyilgan.

U Marg'ilonning CHilduxtaron maxallasida she'riyatga ixlosmand Siddiq bobo (Qaynar devona xam deb atashadi) va CHinni bibilar oilasida dunyoga keladi. Otasi kosibchilik qilgan, onasi esa savodli ayol bo'lib, maktabdorlik qilgan va maxalla axli qizlarini o'qitgan.

Marg'ilon tumanining xokimi Umarbek bo'lganidan keyin, bu paytda maktabdor va shoira sifatida shuxrat qozongan Uvaysiy Nodira bilan yaqinlashadi. Bu yaqinlik keyincha Qo'qonda Nodirabegimning fojiali qatl etilguncha davom etadi. Uvaysiy qizi Quyoshxonga xomilador ekanligida eri Hojixon vafot etadi. SHunda Uvaysiy erining yilini o'tkazib ikki bolasi bilan Nodira taklifiga binoan, Qo'qonga keladi. Endi Uvaysiy Nodirabegim ximoyasida bo'ladi.

Qo'qonda Uvaysiy xon saroyida yashaydi. U xaramdagi qizlarga, kanizaklarga xam xat-savod o'rgatadi. Kanizaklarga boshlang'ich ta'lim, ya'ni alifboni o'qitishdan, yozishdan tortib, to ilm musiqiyning amaliy jixatdan ta'lim berish bilan shug'ullanadi. Uvaysiy xon saroyida 3-4 yildan ortik yashay olmaydi va boshqa yerga ko'chib o'tadi. SHoira bu yangi joyda yana o'zi sevgan mashg'ulotini davom ettiradi. SHu bilan birga Nodira iltimosi bi/chn uning ximoyasidagi

tutqunlarni xam o'qitadi. Uvaysiy qizlarga xat-savod o'rgatish bilan birga, sozanda-xonanda kizlar guruxini ixlosi bor qizlar ichidan yig'ib, ularga san'atning ayrim sirlarini o'rgatadi. Yangi xovlida dars berayotgan bir paytda Uvaysiy Nodira xuzuriga borib qaytsa, eshigining qulfi singan, xona ichidagi tanburlar yo'q ekan. Uvaysiy surushtirib bilsa, bu ig'vogarlarning ishi bo'lib chiqadi. Bu xususida Nodira Umarxon orqali tanburlarni o'rniga qaytarishda yordam beradi.

Ma'lumki, qizlar maktabida talabalar zexnini tarbiyalash, bilimlarni mustaxkamlash, uzoq esda saqlab qolish, tafakkur qobiliyatini mustaxkamlash xam katta e'tibor beriladi. SHu maqsaddachiston(topishmoq)larni yechish, muvashshaxlar yozish, adabiy asarni sharxlash va izoxlash kabilardan foydalanilgan. Bu usullar talabani rag'batlantirgan, uning o'qishga bo'lgan qiziqishini va qobiliyatini oshirgan.

CHunonchi, Jaxon otin(Uvaysiy) mashxur shoira bo'lishi bilan birga moxir muallima xam bo'lgan.

Taniqli o'zbek pedagogi va olimi A.avloniyning pedagogikaga oid asari asarlari ichida uning 1913 yilda yozgan va 1917 yilda ikkinchi bor nashr qilingan «Turkiy guliston yoxud axloq» nomli asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish soxasida katta axamiyatga molikdir. Bu asar mazmun tomonidan muallifning boshqa ijtimoiy va pedagogik asarlari bilan uzviy bog'liqdir.

«Turkiy guliston yoxud axloq» asari axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni «yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi» ilm-axloq xaqida fikr yuritiladi. SHu jixatdan qaraganda bu asar Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig», Kaykovusning «Qobusnoma», Nosir Xusravning «Saodatnoma», Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston», Jomiyning «Baxoriston», Alisher Navoiyning «Maxbub ul-qulub», Axmad Donishning «Farzandlarga vasiyat», Voiz Koshifiyning

«Futuvvatnomai sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati» asarlari shaklidagi o'ziga xos tarbiyaviy asardir. SHuni ta'kidlash lozimki, XX asr boshlarida bunday asarni yaratish, milliy g'oya, milliy rux singdirilgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning tatbiq etilishi pedagogika olamidagi yirik kashfiyotdir.

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli xaqida fikr yuritib «Agar bir kishi yoshligida nafsi buzilib, tarbiyasiz, axloksiz bo'lib o'sdimi, ollohu

akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmok, yerdan turib yulduzlarga ko'l uzatmok kabidur», - deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muxit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar katta ahamiyatga ega.

O'zbek pedagogikasi tarixida A.Avloniy birinchi marta pedagogikaga «Pedagogiya», ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir», deb ta'rif berdi.

Tabiiy, bunday ta'rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi. Abdulla Avloniyning ko'plab xorijiy tillarni bilishi, arab, fors, rus, ozarboyjon tillarini mukammal egallashi.

Darxaqiqat, Abdulla Avloniy tarbiyadagi asosiy g'oya, bu bizlar uchun: «Yo hayot, yo mamot, yo halovat, yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir» deya mushoxada qilishi, uning tarbiya sohasida juda katta va keng bilimga ega ekanligi, komil insonni tarbiyalashda ta'lim-tarbiyaning har bir yo'nalishiga e'tibor berish kerakligini, ong va tafakkurni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda tarbiya katta rol o'ynashini moxirona ifodalai bilishi, taxsinga loyiqdir.

Yurtboshimiz Islom Karimovning «Men Abdulla Avloniining «Tarbiya biz uchun «Yo xayot yo mamot, yo najot - yo halokat, saodat - yo falokat masalasidir» - degan fikrini ko'p mushohoda qilaman.

Abdulla avloniyning ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limoti

Asosiy g'oya: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir"

XX asr boshlariga kelib, Turkiston o'lkasidagi yirik markaziy shaharlarda oliy ta'lim maskani hisoblangan quyidagi madrasalar:

Buxoroda – 80, Qo'qonda – 40, Samarqandda – 22, Marg'ilonda – 28, Toshkentda -17 mavjud bo'lib, ularda 400 dan 5000 tagacha talaba tahsil olar edi.

1906 yilga kelib, birgina Samarqand viloyatining o'zida 1510 ta musulmon maktabi bor edi, ularda 1482 o'qituvchi 12740 talabaga saboq bergan.

Umuman olganda Turkiston o'lkasida 1905-1906 yillarda 5290 ta maktab bo'lib, ularda 70955 talaba ta'lim olgan.

Bu davrga kelib mahalliy fuqaro bolalaridan ilmiy kishilar tayyorlash

maqsadida Xeva xoni Sayid Muhammad Rahimxon Bahodirxoni soniy – Feruz (1844-1910 y.) katta ishlarni amalga oshirdi. Bevosita uning tashabbusi bilan 1884 yili o'z saroyida maktab ochilib, bu maktabda rus o'qituvchisi va Mirzo. Rahmonquli qori kabi mahoratli ta'lim-tarbiya ustalari yoshlarga bilim berish ishi bilan shug'ullandilar.

Feruz farmoniga muvofiq 1904 yilning 10 noyabrida Urganchda birinchi yangi usul maktabi ochildi. Unda Husayn Qo'shaev degan Turkiyadan kelgan o'qituvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya bera boshladi.

Husayn Qo'shaev 1906-1907 o'quv yilida xonlikdagi ilg'or ma'rifatparvar kishilarning istaklarini hisobga olib, Urganchda qizlar maktabini ham tashkil etdi. Feruz unga homiylik qilib, Xazina hisobidan maktab uchun alohida mablag' ajratib berdi.

Feruz homiyligidagi bu maktabda Husayn Qo'shaevning turmush o'rtog'i Komila Qo'shaeva qizlarga bilim bera boshladi.

1909 yilga kelib Feruz quli ostidagi madrasalar soni 130 taga yetib, undagi mullavachchalar 2300 kishidan ortib ketdi.

Feruz Xeva ziyolilari orasida nufuzli o'rinni egallagan ma'rifatparvar Komil Xorazmiyni Toshkent shahrida gimnaziya va maktablardagi o'qitish usulini o'rganib kelishi maqsadida safarga jo'natadi. Safardan qaytgach Komil Xorazmiy bu sohadagi ishlarni anchagina jonlantirib yubordi.

Mazkur maktab o'quv dasturi hamda rejasiga – riyoziyot, tarix, jo'g'rofiya, tabiat, rus tili, mahalliy savod (ona tili) va islomshunoslik fanlarini o'qitish belgilanadi. Mashg'ulot jarayonida SHarq mutafakkirlari – Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Sa'diy SHeroziy, Mashrab, So'fi Olloyor kabilar bilan bir qatorda rus shoir, yozuvchilarining asarlari ham o'rganildi. SHuningdek, u, vohada san'at, maorif va madaniyat rivojiga rahnamolik qilib, saroyda “Podshohi zamon tipolitografiyasi”ni tashkil qildi.

“Litografiya” - yunoncha so'z bo'lib “Litos” - tosh va “grafos” yozaman degan ma'noni bildiradi. Bu atama o'zbek tilida toshbosma tarzida qo'llanib kelingan.

Feruz saroyidagi bu toshbosmaxonada ilk bor Abu Nasr Forobiyning “Nisobus - sibiyo” (Bolalar nasibasi), Alisher Navoiyning “Xamsa” asaridan parcha, “Hayrat ul-abror” dostoni, SHermuhammad Munisning “Munis ul ushshoq” devoni, Yoqubxo’ja ibn Ibrohimxo’janing “Devoni Xolis” to’plami, Feruzning “Devoni Feruz” va boshqa o’nlab asarlar nashr etilgan.

Turkiston o’lkasi Rossiya tomonidan bosib olingach, chor ma’murlari ming-minglab rus oilalarini Markaziy Osiyoga ko’chirib keltiradi. Farg’ona viloyati, Sirdaryo, Samarqand va boshqa viloyatdagi (shaharlar) mahalliy dehqonlarning serunum yerlari tortib olinib, ularga beriladi.

Rus muhojirlari Turkiston general – gubernatorining farmoniga binoan o’lkada rus maktablari, rus tuzem maktablari, gimnaziya kabi maktablarni ochish va bu maktablarni kengaytirish hisobiga mahalliy maktablar, maktab madrasalarni siqib chiqarish maqsadida maorif islohotini o’tkaza boshladilar.

Bu bilan go’yoki, ular Markaziy Osiyo aholisining savodxonlik darajasini oshirmoqchi bo’ldilar va har bir qilingan ishni bo’rttirib ko’rsatishga urindilar.

1917 yilgi to’ntarishgacha 21 foiz savodxon bo’lgan o’lka aholisini, yoppasiga savodsiz edi, deya kamsitishga urindilar, quruq bo’hton yog’dirdilar.

O’lka aholisini savodxon qilish uchun eng avvalo rus, rus tuzem, gimnaziya kabi o’quv maskanlari kerak, madrasa va “usuli qadimiya” eski usul maktablarida, otinlar maktablarida savod chiqarib bo’lmaydi degan siyosatni yurgizishga harakat qildilar.

Bunga biz 1897 yildagi Rossiya tomonidan o’tkazilgan aholini ro’yxati ma’lumotlarini ko’rsatishimiz mumkin. Masalan, o’sha aholi ro’yxatida qayd etilishicha, Markaziy (O’rta) Osiyo aholisining savodxondik darajasi quyidagicha belgilangan:

Tojiklar – 99,5 % savodsiz;

Qirg’izlar – 99,4 % savodsiz;

Turkmanlar – 99,3 % savodsiz;

O’zbeklar – 98,4 % savodsiz;

Qozoqlar – 97,9 % savodsiz deb hisoblangan.

Aslida Turkiston o'lkasi xalqlarining savodxonlik darajasi chor Rossiyasi aholisining savodxonlik darajasidan past emas edi. Chunki, Turkiston o'lkasi xalqlari 1917 yilgi to'ntarishdan oldin shaxsiy va ommaviy maktablar, madrasalarda bilim olganlar, yuksak ilm egasi bo'lganlar.

5. 1917 yil to'ntarishidan keyin Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy va xalq maorifi sohalarida keskin o'zgarish yuz berdi.

Turkiston o'lkasida milliy demokratiya vakillari, mashhur ma'rifatparvar ziyolilar tomonidan yangi usuldagi maktablarning keng tarmog'ini yaratish, maktab-maorif borasida zudlik bilan islohotlarni amalga oshirish yuzasidan bir qator takliflar ilgari surildi.

Bu davrda milliy ziyolilar faoliyati keng tus oldi, jumladan: jadidchi ziyolilar Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Sadriddin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza, G'ozi Yunus, Xurshid va boshqa ziyolilar madaniyat, maorif sohalarida jonbozlik qildilar va yangi usuldagi maktablarning keng tarmoqlarini yaratish sohasida faoliyat ko'rsatdilar.

1917 yil fevralidan oktyabr orasida Turkistonning yirik shaharlarida turli tillarda dars beriladigan xususiy maktablar ochildi.

Turkiston o'lkasining markazi — Toshkentda 1917 yil 9—14 may kunlari o'qituvchilarning 1-o'lka qurultoyi bo'lib, bunda “Turkiston o'qituvchilar ittifoqi” tashkil etildi.

1918 yilning 23 martida RSFSR Maorif Xalq Komissarligi Turkiston o'lkasi Xalq Komissarligi Kengashi o'lka xalq ta'limi kengashini tashkil etish haqida buyruq chiqardi. Mazkur Kengash Turkiston hududida xalq ta'limi tizimiga rahbarlik qilishi lozim edi. Joylarda ularning viloyat, shahar, uezd kengashlari huzurida xalq ta'limi kengashlari tashkil etildi.

1918 yilning yozida Samarqandda “musulmon o'qituvchilari uchun pedagogik kurslar” ochildi. O'sha yilning kuzida Toshkentda — Toshkent uezdining tub yerli aholisi uchun maktab o'qituvchilari kurslari ochildi.

1918 yil 9 aprelda Munavvar Qori uyida to'plangan jadidlar Turkiston Xalq dorilfununining musulmon bo'limini tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkilot komissiyasini tuzadi. Ular 22 kun ichida musulmon bo'limi dasturlarini tuzadilar. O'sha yilning 3 mayida dorilfununning musulmon bo'limi rahbariyatiga saylov bo'lib, unda Munavvar Qori rais (rektor), Iso To'xtaboev birinchi muavin, Burxon Habib ikkinchi muavin, Abdusamad Qori Ziyobov xazinador, Muxtor Bokir sarkotib bo'lib saylandi. 13 may (yakshanba) kuni Toshkentning eski shahar qismida Vikula Morozovning sobiq do'koni binosi (hozirgi o'zbek yosh tomoshabinlar teatri)da musulmon aholi uchun "Xalq dorilfununi" ochiladi. Bu bo'lim tez orada o'ziga xos yirik bilim maskaniga aylanadi.

Universitet tarkibida ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-matematika, tarix-filologiya, qishloq xo'jaligi va texnika fakul'teti bor edi. 1919 yil fevraldan universitet qoshida ishchi fakul'teti ham faoliyat ko'rsata boshladi.

1918 yil noyabrda Toshkentda maxsus sharqshunoslik ixtisosligidagi oliy ta'limning to'ng'ichi — Turkiston sharq instituti tashkil qilindi. Institut haqidagi Nizomda uning asosiy vazifalari qilib Turkiston mahalliy aholisi va qo'shni mamlakatlar aholisi tilini yaxshi biladigan sharqshunos olimlar va amaliyotchi xodimlar tayyorlashdir, deb belgilab qo'yilgan edi.

1920 yilda Turkiston xalq universitetiga muqobil Turkiston davlat universiteti (keyin O'rta Osiyo, hozirgi M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti) tashkil qilindi¹.

Universitet faoliyatining birinchi yili oxiriga kelib unda 6 ta fakul'tet: ijtimoiy-iqtisodiy, tarix-filologiya, fizika-matematika, texnika, tibbiyot, qishloq xo'jalik fakul'tetlari ish olib bordi.

Vaqt o'tishi bilan universitet faqat eng yirik o'quv yurtigina emas, balki ilmiy-nazariy va amaliy tafakkurning, tabiiy va amaliy fanlarning juda xilma-xil sohalari bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarning eng muhim markazi ham bo'lib qoldi.

¹O'zbekistonning yangi tarixi. (tuz. N.Jyrg'ayev va bosh.). 2-kitob, T., "SHar=" 2000 yil 148-bet.

Bol'sheviklarning aksil milliy, umuminsoniy ilg'or ma'rifatchilikka dushmanlik qilishlariga qaramasdan 1917—1924 yillarda O'zbekistonning hozirgi hududida madaniy-ma'rifiy turmush vujudga keldi, xalq ma'naviyatida o'z aksini topdi.

Xalq ta'limining iste'dodli tashkilotchilari Abdulqodir SHakuriy, Ismatulla Rahmatullaev, Ishoqxon Ibrat, Munavvar Qori, Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy, Abdulla Avloniy va boshqalar katta pedagogik ish olib bordilar.

Uzoq tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi, ijtimoiy-siyosiy, diniy to'siqlarga qaramay, Markaziy Osiyodagi boshqa xalqlar kabi ilg'or fikr egalarini, buyuk olimlarni yetkazdi, insoniyatga ilm-fan, ma'naviyat sohasida o'lmas durdona asarlar, fikrlar qoldirdi.

Bunday ilg'or fikrli mutafakkir olimlarning asarlari Turkiston o'lkasi maktablarida to 1917 yil oktyabr to'ntarishiga qadar asosiy manba sifatida foydalanib kelingan. Jumladan, "Haftiyak" kitobi bo'lib, unda Qur'on suralaridan yettitadan biri tanlab olingan. Taxminan, VIII asrlarda yozilgan. X—XII asrlarda fors-tojik tilida islom dini ruknlari bayon etilgan "CHorkitob", XII asrlardan boshlab esa Ahmad Yassaviyning hikmatlari asosida bilimlar berilgan.

Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Abulqosim Mahmud bin Umar Zamaxshariy, Alisher Navoiy asarlaridan ham keng foydalanilgan. Zero, bunday nodir asarlar va sharq mutafakkirlarining oliyjanob hikmatlari, g'oyalari XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkiston o'lkasida pedagogik va uslubiy fikrlarning taraqqiy etishida muhim rol o'ynadi. Ayniqsa Turkiston xalqlarining ma'rifatparvarlik pedagogikasi taraqqiyotida asosiy zamin bo'ldi.

Markaziy Osiyo, jumladan Turkiston o'lkasida mahalliy maktablarning xususiyati, ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni, uni tashkil etish usullari o'sha davr tarbiyasi maqsadiga mos bo'lgan.

Umuman Markaziy Osiyoda Oktyabr to'ntarishiga qadar bir necha turdagi maktablar mavjud edi. Ular:

1. Musulmon diniy maktablar:

- a) maktab (xona) — eski maktab;
- b) qorixona;
- v) madrasa;

2. Rus maktablari:

- a) umumiy ma'lumot maktablari;
- b) kasb maktablari;
- v) rus-tuzem maktablari;
- g) rus tilini o'rgatish maktablari.

3. “Yangi usul” maktablari (usuli jadid).

Bu davr ijtimoiy-madaniy hayotidagi kuchlar o'rtasida yuz berayotgan sinfiy kurashning murakkabligi maktab-maorif masalalarida ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Demak, endi turli vositalarni ishga solib yangi mazmundagi ma'rifatni tashviq qilish, tarbiya usullarini zamonaviylashtirish ta'limda qulay usullarni topish muammolari turar edi. Bu borada Turkiston o'lkasidagi dastlabki maktablarda ilg'or-ma'rifatparvar pedagoglar — toshkentlik Saidrasul Saidazizov, Abdulla Avloniy, namanganlik Ishoqjon Junaydullaev — Ibrat, samarqandlik Abduqodir SHakuriy, Saidahmad Siddiqiy, Ismatulla Rahmatullaev, qo'qonlik Hamza Hakimzoda Niyoziyalar muhim rol o'ynashdi.

Xalq ta'limi tizimida muhim o'rinni egallagan umumiy ta'lim maktablari respublikamiz hayoti bilan chambarchas bog'langan bo'lib, davlatning mafkuraviy, madaniy vazifalariga xizmat qiladi. SHuning uchun ham respublikamizda hukumati, xalq ta'limi vazirligi joylardagi hokimiyatlar va jamoatchilik xalq ta'limi tizimini, jumladan, umumiy ta'lim maktablarini rivojlantirish, ularning tarmoqlarini kengaytirish va yangi binolar bilan ta'minlash, o'quv moddiy va texnika bazasini mustahkamlash hamda ularni yuqori bilimga ega bo'lgan o'qituvchilar bilan ta'minlash borasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi.

Jamiyatimizdagi mavjud maorif tizimining barcha bo'g'inlarida jamiyat taraqqiyoti talablari asosida yosh avlodning kamolotga yetishi, bir butun shaxs sifatida shakllanishiga nihoyatda kam e'tibor berilar edi. Natijada umumiy ta'lim

maktablarida ta'lim-tarbiya tizimi, mazmuni, shakl va metodlari, yosh avlodni har tomonlama shakllangan yaxlit shaxs sifatida shakllantirishga mos kelmay qoldi.

Bu esa umumiy ta'lim va hunar maktablarni isloh qilishni taqozo etdi.

Islohotda umumiy o'rta ta'lim o'n bir yillik bo'lib, I—IV sinflar — boshlang'ich maktab, V—IX sinflar esa to'liqsiz o'rta va X—XI sinflar — barchasi umumta'lim maktabini tashkil qiladi. SHuningdek, o'rta hunar-texnika bilim yurtlari, o'rta maxsus o'quv yurtlari kabi nomlangan. Mazkur tuzilishga binoan o'rta umumiy ta'lim maktablarida bolalarni olti yoshdan boshlab o'qitish nazarda tutiladi.

Hunar-texnika ta'limi esa qayta tubdan o'zgartirilib, “O'rta hunar-texnika bilim yurtlari”ga aylantirildi.

O'rta ma'lumotga ega bo'lmagan, ishlab chiqarishdagi faol yoshlar uchun kechki (smenali) va sirtqi maktablar saqlanib qolindi.

Umumiy o'rta va hunar ta'limi tizimining o'zgarishi bilan, oliy o'quv yurtlari, bilim dargohlariga qabul qilishning yangi qoidalari, talablari ishlab chiqiladi.

Umumiy o'rta va hunar ta'limi bilan unda beriladigan ta'limning mazmuni, shakllari, metodlari va usullarini ham tashkil etilishini o'zgartirishni taqozo etadi. Buning uchun islohot taqozo etganidek, ta'limning mazmunini takomillashtirish zarur. Ta'limning mazmunini takomillashtirishning muhim shartlari o'quv dasturlari va darsliklari materiallarini o'quvchilarning yoshiga mos holda soddalashtirish, ortiqcha ikkinchi darajali materiallardan xalos etish zarur edi.

O'quv fanlarining amaliy yo'nalishini kuchaytirish, mehnat tarbiyasi va kasb tanlashga o'rgatishni yo'lga qo'yish, ta'lim mazmunining politexnik yo'nalishini ta'minlash masalasi asosan amalga oshiriladi.

O'quv darsliklari, metodik qo'llanmalar yaratildi; o'quv rejasiga “Atrof muhit bilan tanishish” (I—II sinflarda), “Informatika fa hisoblash texnikasi asoslari” (X—XI sinflarda), “Oila etikasi va psixologiyasi” (X—XI sinflarda), “Ishlab chiqarish asoslari. Kasb tanlash” (VIII—X sinflarda) kabi fan asoslari kiritildi va o'qitilmoqda, o'qituvchilar mehnatiga tabaqalashtirib haq to'lash joriy etildi, o'qituvchilar malakasini oshirish va qaytadan tayyorlash masalasida ijobiy siljishlar ro'y berdi, o'quvchilarni mehnat ta'limi va tarbiyasining mazmuni takomillashtirildi; hunar-

texnika ta'limi tizimida ishchi xodimlar tayyorlash kengaytirildi; maorifning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalasiga nisbatan jamoat tashkilotlarining munosabatlari birmuncha o'zgargandek tuyuldi. Biroq, bu o'zgarishlar ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, uyushtirish uchun yetarli emas edi, albatta. Islohot birinchidan, "qayta qurish" sharoitida, maktab islohotining evolyutsion xarakterga egaligi, maktab ishining mazmuni, ilmiy-pedagogik kadrlar, moddiy-texnikaviy ta'minlanish, boshqarishning tubdan o'zgartirilmaganligi ta'lim-tarbiyaning rivojlanishiga to'siq bo'ldi. Islohni amalga oshirishdagi tashkilotchilik ishlarining yetarli bo'lmayotganligi, boshqarishdagi byurokratik metodga asoslanilayotganligi, xalq xo'jaligining ehtyojiga mos ravishda kadrlar tayyorlash mo'ljallanmaganligi ham islohot talablarini qiyinchilik bilan ham etilayotganligiga sabab bo'ldi. Bular esa o'z navbatida ta'lim-tarbiya saviyasini oshirishga salbiy ta'sir etdi.

SHuni qayd etish zarurki, o'zbek maktablari sobiq ittifoq davrida milliy zamindan batamom uzilib qolgan edi. O'qish-o'qitishda Ovro'po, xususan o'rus tizimi qabul qilindi. Yangi davrdagi zamonaviylashtirishning "bilimdon" va "zukko" tashkilotchilari ming yillik yozuvimizni ham qayta-qayta almashtirib, natijada maktablarimiz o'quv-tarbiyaviy ishlar va xalq ruhiyatidan deyarli ajralib qoldi, avlod-ajdodlarimizning dunyoviy, ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy merosi esa umuman o'qitilmay, o'rgatilmay tashlab qo'yildi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ma'rifiy fikrlar tarixiyligi va jahon ma'rifiy fikrlarning pedagogik tahlili.
2. O'zbekiston hududida eng qadimgi davrdan 14 asrgacha ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti misollar ayting (xalq og'zaki ijodi, qadimgi yozma yodgorliklari, zardushtiylik islom dini, hadis ilmi, sharq uyg'onish davri).
3. 14-16 asrda maktab va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti.
4. 17-20 asr boshlarida maktab va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti.
5. O'zbekistonda 1917-1990 yillarda maorif va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abulxanova K.A. i dr. Psixologiya i pedagogika. – M.: «Sovershenstvo», 1998. – 320 s.
2. Inog'omov R., Toshmurodova Q. Pedagogika fani XXI asrda. - T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2000.
3. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T., 2005.
4. Klimov Ye.A. Основы психологии. – M., 1998.
5. Nemov R.S. Psixologiya. V 3-x kn. – M., 1998.
6. Podlasyy I.P. Pedagogika. Новыи курс v 2-x kn. – M.: Vldos, 1999.
7. Psixologo-pedagogicheskiy slovar dlya uchiteley i rukovoditeley obshchey obrazovatel'nykh uchrejdeniy. – Rostov – na – Donu: Feniks, 1998.

4. Mavzu: Zamonaviy ta'lim-tarbiya va uning mohiyati.

Reja:

- 1. Pedagogika fanining ob'ekti, predmeti va tuzilishi.**
- 2. Pedagogik tizimlarning ilmiy metodologik asoslari, manbalari, tasniflash asoslari.**
- 3. Asosiy ta'limiy kontseptsiyalar va yondoshuvlar.**
- 4. Falsafiy antropologiya pedagogik tadqiqotlarning metodologik asosi va pedagogik antropologiya va uning qoidalari.**

Tayanch tushunchalar: ta'lim-tarbiya, jamiyat talablari, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, mazmun, tajriba, rivojlanish, istiqbol, ma'lumot, metod, intizom, jamoa, irsiyat, muhit.

Pedagogika faniga tavsif berilganda «ta'lim», «tarbiya», hamda «ma'lumot» degan so'zlarni ishlatdik. Bu so'zlar o'zaro bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Ularni pedagogikaning asosiy kategoriya-tushunchalari deb nomlaymiz. Bulardan

tashqari «o`quvchi», «o`qituvchi», «metod», «intizom», «jamoat», «irsiyat», «muhit», «direktor» kabi tushuncha-nomlar mavjudki, bu haqida mavzular yuzasidan fikr yuritilganda alohida to`xtaymiz.

Tarbiya tarixini o`rganar ekanmiz, u juda qadimiy jarayon ekanligini insoniyat butun hayoti davomida tarbiya bilan Shug`ullanganligiga ishonch hosil qilamiz. Tarbiya jarayonida ajdodlarimiz tarbiyaviy ta`sirning samarali yo`l, metodlari va manbalarini qidirib hayotga tadbiq qila boshlaganlar, buning natijasida tarbiya haqidagi g`oyalar, nazariya va tavsiyalar paydo bo`la boshlagan. Bu pedagogika fanining paydo bo`lishiga sabab bo`ldi. Jahon mutafakkirlari o`zlarining pedagogik g`oyalari bilan fanning rivojlanishiga hissa qo`shdilar. Bu jarayonda o`zbek mutafakkirlarining jahon pedagogikasi tarixiga qo`shgan hissalar cheksizdir. Tarbiya haqidagi g`oyalar eramizdan oldingi VI asrda shakllanganligi haqida ma`lumotlar mavjud. Keyingi davrlarda pedagogik g`oyalarning shakllanishida zardushtiylik ta`limoti, uning muqaddas kitobi «Avesto»da qimmatli fikrlar talqin etilgan. Kishilik tarixida islom ta`limotining tarbiya haqidagi g`oyalarining shakllanishida ahamiyati cheksizdir. Qur`oni Karim va hadisi-shariflarda musulmon ahlining dunyoqarashi, falsafasi, ma`naviyati, axloqi, e`tiqodi, har tomonlama barkamolligi kabi insoniy sifatlarni shakllantirish yo`llari bayon qilingan.

Tarbiya haqidagi g`oyalarning rivojlanishida Imom Buxoriy, At-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Axmad Yassaviy, Naqshbandiy, Navoiy, Behbudiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning xizmatlari kattadir.

Prezidentimiz aytganlaridek: «Fuqarolar endi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ishtirokchisi, bajaruvchisi emas, balki bunyodkori va tashkilotchisidir». Bunday yangicha yondashishlar pedagogika fanining ob`ekti va predmetini kengaytirdi. Endilikda pedagogika fanining ob`ekti faqat ta`lim-tarbiya jarayonining nazariy, metodologik amaliy ta`minlovchi emas, balki komil inson shakllanishi, rivojlanishini ta`minlaydigan keng sohalarni o`z ichiga oladi. Shuning uchun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturida»gi milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh ob`ekti va sub`ekti sifatida qoraladi. Bundan tashqari pedagogika fani oldiga yangicha fikrlaydigan, yangicha tafakkur, milliy mafkuraga ega komil insonni shakllantirish vazifalari qo`yildi.

Pedagogika fanining metodologiyasida, mazmunida, tarbiya nazariyasida, ta'limning tashkiliy shakllarida, komillik darajasi, sifatlarini aniqlashda katta islohiy o'zgarishlar bo'ldi. Bu o'zgarishlar yangi pedagogik texnologiyalarda o'z aksini topishi lozim.

Pedagogikaning asosiy kategoriyalari

Pedagogika ta'lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o'zgarib borishini o'rgatadi, mukammal inson tarbiyasining tarkibiy qismlarini va ular o'rtasidagi aloqa va bog'lanishlarni ochib beradi. Shu asnoda ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini, yo'llarini ko'rsatib beradi.

Pedagogika maktab, kollej va akademik litseylar va maktabdan tashqari muassasalari xodimlarini ham nazariy, ilg'or tajribalar bilan qurollantiradi. Ota-onalarga yoshlarni to'g'ri tarbiya qilish, o'qitishdagi mahoratini yanada takomillashtirish yo'lida amaliy tavsiyalar beradi.

Tarbiya - o'sib kelayotgan avlodlarda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamoloti va dunyoqarashini, insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya bola tug'ilganidan boshlab umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Shu sababli, tarbiya so'zi ko'p vaqtlarda ta'lim, ma'lumot jarayonlariga kiradigan ishlarining mazmunini ham anglatadi. Tarbiya-ta'lim va ma'lumot natijalarini o'zida aks ettiradi.

Ta'lim-maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilish qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir.

Agar tarbiya bola tug'ilganidan boshlab, umrining oxirigacha oilada, maktabda va jamoatchilik ta'sirida shakllansa, ta'lim chegaralangan (masalan: sinf xonasi, laboratoriya xonalar) joyda tashkil etiladi. O'qituvchi-tarbiyachi rahbarligida muayyan belgilangan vaqtda olib boriladi.

Ma'lumot ta'lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir.

Ta'lim, tarbiya va ma'lumot uyg'unlashgan yagona jarayon bo'lib, o'qituvchi-tarbiyachi ularning shakllanishida yetakchilik qiladi. O'qituvchi maktabda dars berar ekan, o'quvchilarni fan olami yangiliklaridan xabardor qiladi, ma'lumotli qilishni maqsad qilib qo'yadi, ayni paytda ularda insoniy sifatlarni shakllantiradi, tarbiyalaydi.

Pedagog o'quvchilarning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini tarbiyalash uchun, ularning kundalik xatti-harakat va fe'l-atvorlariga doimo ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy hayot tajribasining ko'rsatishicha, agar inson o'z shaxsiy manfaatini ko'zlab o'qisa, o'rgansa, o'z ustida tinmay qunt bilan shug'ullansa, u oliy ma'lumot olishi mumkin. Lekin haqiqiy mukammal kamolot egasi bo'lishi uchun u ta'lim va ma'lumotdan tashqari, yuksak insoniy fazilatlar asosida tarbiyalangan bo'lishi shart. Ana shu fazilatlarga ega bo'lgan odamni tarbiya ko'rgan odam deyiladi.

Pedagogika fanining ilmiy – tadqiqot metodlari

Har qanday fan o'zining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Bu metodlari orqali o'z mazmunini boyitib, yangilab boradi.

Hayotda va ob'ektiv dunyoni bilish nazariyasida nimani o'rgatish va qanday o'rgatish kerak, kimni va qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo'lib, ular o'zaro bog'liqdir.

Nima qilish kerak va qanday amalga oshirish lozim degan muammolar o'rtasida dialektik birlik mavjuddir.

Pedagogika o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi. Shu ma'noda pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari deganimizda yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish metodlari, uslublari va vositalari majmuini tushunamiz.

Pedagogika o`qitish, bilim berish, tarbiyalash jarayonlarini va ularning mohiyatini quyidagicha o`rganish-bilishni nazarda tutadi:

1) ularning umumiy aloqasi, bir-birini taqozo etishi va o`zaro ta`sir jarayonida bolalarni o`qitish va tarbiyalash, fan, madaniyat, ahloq va san`at, ta`lim va tarbiyaning qayerda amalga oshirilishidan qat`iy nazar uzviy aloqada bo`lishi;

2) ularning to`xtovsiz harakati, o`zgarishi va taraqqiy etish jarayonida vujudga keladigan o`qitish va tarbiyalash vazifalari, metodlarining o`zgarishi, hamma bolalarni bir xil andozada o`qitish va tarbiyalash mumkin emasligi;

3) bolalarning o`shishida ularning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, aqliy va hulqiy faoliyat, so`z va ish birligi mezonlariga tayanish;

4) bolalar kamolotiga ta`sir etuvchi an`ana, urf-odatlar, ular o`rtasidagi tafovutlarni bilish, aniqlash asosida yaxshi bilan yomon, eskilik bilan yangilik, o`rtasida yuz beradigan nizolarni hisobga olish, o`zaro tanqid va hokazo;

Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari qanchalik mukammal, aqlga muvofiq, to`g`ri tanlansa ta`lim-tarbiya mazmunni yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fani ham boyib boradi.

Hozirgacha mavjud va ishlab chiqilgan quyidagi ilmiy tadqiqot metodlariga tayanib fikr yuritsa bo`ladi: 1) kuzatish metodi; 2) suhbat metodi; 3) bolalar ijodini o`rganish metodi; 4) test, so`rovnomalar metodi; 5) maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi; 6) eksperiment-tajriba sinov metodi; 7) statistika ma`lumotlarini tahlil qilish metodi; 8) matematika-kibernetika metodi;

Kuzatish metodi

Pedagogikaning kuzatish metodi ta`lim-tarbiya jarayonlarining amaldagi holati bilan tanishtiradi, ularning oqibat natijalarini bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yig`ish imkonini tug`diradi. Bu metodni qo`llanish jarayoni ancha murakkab bo`lib, nazarda tutilgan maqsad qanday amalga oshayotganligini aniqlash, o`qituvchi va o`quvchilarning o`zaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun ham qo`llaniladi.

Tajribalarning ko`rsatishicha, maqsad asosidagi kuzatuv ma`lum reja asosida yig`ilgan dalillarni haqiqiy tahlil qilish, qiyoslash asosida tashkil etilsagina samarali bo`ladi.

Kuzatishlar faqat oddiy hodisalarni kuzatish, ayrim dalillarni yig`ish, hisobga olish, aniqlash uchungina emas, balki ta`lim-tarbiya jarayonini yaxshilash va mukammallashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Odatda pedagogik kuzatish orqali o`quvchilarning fanlarni o`zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o`zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta`limiy-tarbiyaviy ta`sir ko`rsatish yo`llarini belgilash uchun qo`llaniladi.

Ilmiy kuzatishlar esa nafaqat o`quvchilarning tabiiy faoliyatini, balki ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllanishi, fikrlash jarayoni kuchi, xulosalar chiqarishdagi faolliklarini aniqlaydi, ularni tahlil etadi va tegishli xulosalar chiqarishga imkoniyat tug`diradi. Bunday kuzatishlar pedagogika fani mazmunining boyishiga sabab bo`ladi.

Suhbat metodi

Ta`lim-tarbiya jarayonini yaxshilash yoki yaratilgan ilmiy farazlarning qanchalik to`g`ri ekanligini aniqlash maqsadida suhbat metodidan foydalaniladi. Odatda, suhbat metodi maktab o`qituvchilar va o`quvchilar jamoasi bilan, ota-ona va keng jamoatchilik bilan yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo`llaniladi. Bunda suhbat metodini tadbqiq etishdan oldin maqsadli reja tuziladi, amalga oshirish yo`llari belgilanadi, natijalar tahlil qilinadi va tegishli xulosa chiqariladi. Shuningdek, tadqiqotchining suhbat olib borish va uni kerakli tomonga yo`naltira olishni bilishi, suhbatdoshining ruhiy holatiga qarab suhbat ohangini moslashtira bilishi g`oyat muhimdir. Bunda:

- 1) suhbat uchun oldindan savol tuzish;
- 2) vaqti va o`tkazish joyini belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni va kasblaridan xabardor bo`lishi;
- 4) suhbat uchun qulay sharoit va erkin gaplashish imkonini yaratish;
- 5) mahmadona va bachkana bo`lmaslik;

6) suhbatdoshning kimligini, harakter hususiyatini esdan chiqarmaslik;

7) suhbat natijalarini zudlik bilan tahlil qilish, qiyoslash, tegishli xulosa chiqarish, lozim bo'lsa qo'shimchalar kiritish va maktab hayotiga tadbiq etish pedagogik jihatdan qimmatlidir.

Bolalar ijodini o'rganish metodi

Pedagogik tadqiqot metodlari ichida bolalar ijodini tabiiy holatda o'rganish va ilmiy xulosalar chiqarish metodi mavjud. Bunda maktab o'quvchilarning o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir ma'lumotlar tahlil qilinadi, xulosalar chiqariladi. Maqsad O'zbekiston yoshlarining tipik obrazlari va ularda ijobiy xislatlarni shakllantirishdir. Shu sababli yoshlarning turli yozma daftarlari, tutgan kundaliklari, yozgan xatlari, she'r va hikoyalari, hayotiy rejalari, insholari, turli yozma hisobotlari bolalar ijodini o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Oqibatda, maktab o'quvchilari orasidan etishib chiqayotgan qobiliyatli, iste'dodli yoshlarni ertaroq aniqlash, ularning iste'dodlarining namoyon bo'lishi uchun reja va sharoitlar yaratish imkoni yaratiladi. Odatda, bolalar ijodini o'rganish manbai ko'p bo'lib, ular: fan olimpiadalari, mavzular bo'yicha konkurslar, maktablar bo'yicha ko'rgazmalar, musobaqalar, ekskursiyalar va sayllar va hokazo.

Test, so'rovnomalar metodi

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari ichida yetakchi metod so'rovnoma va test savollardan foydalanishdir. So'rovnoma-anketa (fransuzcha "tekshirish" ma'nosini bildiradi) metodi qo'llanilganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, o'quvchilarning yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

O'zbekiston, ta'bir joiz bo'lsa Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib test metodini maktab, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga tadbiq etdi. Test sinovlaridan ko'zlangan maqsad oz vaqt ichida o'quvchilarning bilimlarini yoppasiga aniqlash, baholashdir.

Bunda test savollarini qanchalik aniqlik va aql bilan, fikrlash jarayoniga zarar tegmaydigan qilib tuzish ahamiyatli ekanligini nazarda tutish lozim. Test savollarining o`rni va ularni mazmunan rang-barang qilib tuzilishi, o`quvchilarning mustaqil fikrlarini o`stiradi, kelajakni real baholash imkonini beradi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi

Respublikamiz rahbariyatining xalq ta`limi yuzasidan qabul qilingan qaror va yo`l-yo`riqlari asosida maktabda bajarilgan va bajarilayotgan ta`lim-tarbiya ishlarini yuritilgan hujjatlar orqali aniqlash metodi ham mavjuddir.

Maktab hujjatlarini tekshirish orqali o`qituvchilar va o`quvchilar jamoasi, ularning pedagogik faoliyati haqida aniq ma`lumotlar olinadi.

Umuman, maktab hujjatlari deyilganda; o`qituvchi va o`quvchilarning soni va sifati; o`quvchilarning shaxsiy hujjatlari, sinf jurnallari, kundalik daftarlari, buyruq daftarlari, pedagoglar kengashining qarorlari daftari, maktabning rejadagi pul hisobi va uning sarflanishiga doir hujjatlar, turli inventarlar daftari va boshqalar tushuniladi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilishda o`quvchilarning umumiy miqdori, uning o`sishi yoki kamayish sabablari tavsifi, o`quvchilarning fanlar bo`yicha o`zlashtirish darajasiga, sinfda qolishning oldini olish, rag`batlantirish va jazolash choralari, turlariga, maktabning moddiy bazasiga e`tibor beriladi.

Ularni tahlil qilish, hisobotlarni ko`zdan kechirish, to`g`ri yoki noto`g`riligini aniqlash, o`quvchilar faolliklarining o`sishi bilan taqqoslash, ilg`or pedagogik tajribalarning umumlashtirilishi va joriy etilishi va nihoyat, o`qituvchi-tarbiyachilarning ilmiy-pedagogik faoliyatlarini tekshirish, tegishli chora, tadbirlar belgilash maqsadida o`tkaziladi.

Eksperiment-tajriba sinov metodi

"Eksperiment" so`zi lotincha "sinab ko`rish", "tajriba qilib ko`rish" ma`nosini anglatadi.

Odatda eksperimental-tajriba ishlari ta`lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbqiqarayonlarini tekshirish, aniqlash

maqsadida o'tkaziladi. Bunda ham ilmiy farazlarning didaktik yoki amaliy ahamiyatiga e'tibor beriladi.

O'tkaziladigan tajriba ishlari ta'lim va tarbiya o'rtasidagi qonuniy aloqalarni aniqlash, natijalarni hisobga olish asosida yangi metodlarni tadbiq etishga, ta'lim-tarbiya samaraligini oshirishga qaratiladi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining borishini, tuzilishi va natijalarini oldindan ko'ra bilish imkoniyatini beradi.

Eksperiment metodi sharoitga qarab 3 xilda o'tkaziladi:

- 1) tabiiy eksperiment;
- 2) laboratoriya eksperimenti;
- 3) amaliy tajriba.

Pedagogik eksperiment o'z mazmuniga ko'ra didaktik, tarbiyaviy, maktabshunoslik muammolari yuzasidan o'tkaziladi.

Pedagogik eksperiment tajriba ishlarini o'tkazishda quyidagi talablar mavjud:

1) ishning aniq, ilmiy jihatdan asoslangan farazini aniqlash va kutilishi lozim bo'lgan natija uchun reja belgilash lozim.

2) ilmiy ish yoki pedagogik faoliyat uchun aniq ob'ekt belgilash, amalga oshirish borasida qo'shimcha metodlarni aniqlash.

3) tajriba ishi o'tkazish vaqtini va muddatini belgilash.

4) tajriba uchun lozim bo'lgan asbob-uskuna va boshqa hokazolarning tayyor turishi;

4) eksperiment natijalarini zudlik bilan tahlil qilish va tegishli xulosa chiqarish va tavsiyalar berish kerak.

Statistik ma'lumotlarini tahlil qilish metodi

Pedagogik tadqiqot statistika ma'lumotlarisiz, ularning tahlilisiz o'zligini namoyon eta olmaydi. Chunki nafaqat ilmiy izlanishlar borasidagi, balki xalq ta'limi sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning oshirilishi, xalq ta'limi muassasalarining doimo o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalari, xo'jalik

shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag'larni statistika metodi orqali aniqlanadi.

Respublikamizning deyarli barcha ta'lim-tarbiya muassasalari statistika ma'lumotlari bilan qurollangan, kelajak rivojlanish rejalariga ega.

Respublikamizning mustaqil bo'lguniga qadar statistika sohasidagi chalkashliklar, atayin ortirib, qo'shib yozishlar xalq ta'limi tizimida ham mavjud edi. Ularning nazorati bo'shligi va ob'ektiv emasligi xalq ta'limi sohasidagi chuqur islohot o'tkazilishiga olib keldi. Demak, statistik ma'lumot aniq, hayotiy bo'lsa bajarilayotgan ta'lim-tarbiya yoki ilmiy tadqiqotning qimmati yuqori bo'ladi.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi va pedagogika fanlari tizimi

Pedagogika fani yakka holda mukammallikka erisha olmaydi. U ham boshqa fanlar kabi ijtimoiy fan yutuqlaridan foydalanadi va mazmunan boyib boradi. Hozirgi kunimizda umumbashariyat tomonidan yaratilgan bilimlar va kelajak haqida ma'lumot beruvchi nazariyalar ma'lum darajada pedagogika fani uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Boshqa fanlar kabi pedagogika har bir insonning ijtimoiy kamolotiga xizmat qiladi.

Tabiat va jamiyatning rivojlanishi qonuniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanadi va o'zi ham ijtimoiy fan sifatida rivojlanib boradi. Shu sababli u falsafa, tarix, iqtisod, psixologiya, sotsiologiya, etika va estetika kabi fanlar bilan uzviy aloqadadir.

Ma'lumki, har bir o'qituvchi-tarbiyachi, o'quvchi o'z ona yurti tarixini bilishi, vatanparvar bo'lishi lozim. Ta'lim-tarbiya tarixi, pedagogika tarixi fanidan xabardor bo'lmay turib, o'qituvchilik qilishi mumkin emas. Pedagogika nazariyasini chuqurroq anglash uchun uning o'tmishdagi taraqqiyotini bilish kerak. Masalan, pedagogika tarixi o'tmishda ta'lim-tarbiya borasida qanday kurashlar bo'lgani va qanday qilib ijobiy yoki salbiy yakunlangani, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlarning o'zgarishi tufayli pedagogik g'oyalar, tarbiya muassasalaridagi ishlarning mazmuni va metodlari qanday o'zgarib borganini,

tarixda ijod etgan olimlarning pedagogik g'oyalari va ularning faoliyatlari bilan tanishtiradi.

O'qituvchi-tarbiyachi o'quvchilarga bilim berish, ma'lumotli qilish, tarbiyalash maqsadida unga tizimli ta'sir ko'rsatadi. Bunda psixologiya va ijtimoiy omillarga asoslanadi. Ya'ni ko'rsatilayotgan ta'sirning samarasini bilish uchun pedagog o'quvchining sezgi, idroki, tasavvur, diqat va tafakkur, fikrlash jarayonining qanday kechayotganini bilishi va ularga asoslanib ta'sir ko'rsatish rejasini belgilaydi.

Demak, pedagogika fani psixologiya va sotsiologiya kabi fanlar bilan ham uzviy bog'langandir. Ma'lum ma'noda o'qituvchilarga xizmat qiladigan psixologiya turkumidagi fanlarni ham pedagogik fanlar tizimiga kiritish mumkin.

Etikavaestetikafanlaripedagogikaningtarbiyanazariyasibo'limibo'yichama'lumotberadi. Bu fan o'quvchining xulqi, odobi me'yorlarini aniqlash, belgilashhamdago'zallikni chin ma'nodatushuntirish, o'quvchiongidahayotningjozibali, nafisqirralarigabevositarag'batuyg'otishborasidapedagogikafanibilan aloqadadir. Fanlarni o'qitish yo'llari ham pedagogika fanining didaktika bo'limiga aloqador. Chunki har qanday fanni o'qitish metodi shu fanning mazmuni, tizimini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olinishiga xizmat qiladi. Chunonchi, pedagogika fani bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi, bolalar gigiyenasi va bolalar kasalliklari kabi fanlar bilan ham mustahkam aloqada. Bu fanlar bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Pedagogika fani ob'ekti yil sayin kengayib bormoqda, natijada uning tarmoqlari ham bir necha guruhlariga ajralmoqda. Ular pedagogika fanlari tizimini tashkil etadi.

Ma'lumki, turli sohada bilim oluvchi o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashning nazariy hamda amaliy tomonlarini yolg'iz pedagogika fanining o'zi mufassal yoritib bera olmaydi. Pedagogika fani tarmoqlari mazkur muammolarni ijobiy hal etishda muhim omil hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda pedagogika bir nechta tarmoqlarga bo'lingan. Jumladan, umumiy pedagogika (maktab yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalash va o'qitish haqida bahs yuritadi), maktabgacha tarbiya pedagogikasi (maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash muammolari bilan shug'ullanadi), madaniy-oqartuv pedagogikasi (madaniy-

ma'rifiy ishlarni boshqarish muammolarini o'rganadi), harbiy pedagogika (armiya sardorlari va o'quvchilarini vatanimizning shon-sharafi va or-nomusi uchun yetuk kurashchi, harbiy qurol-yarog'lardan samarali foydalana oladigan yoshlarni tarbiyalash yo'nalishida) kabi tizim-tarmoqlari mavjuddir.

Pedagogika faqat sog'lom o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi bilangina emas, balki shaxsida qusuri bor bolalar ta'lim- tarbiyasi bilan ham shug'ullanadi. Bunday tarmoqlarni maxsus pedagogika tizimiga oligofrenopedagogika (aqliy jihatdan orqada qolgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish), tiflopedagogika (ko'zi ojiz bolalarni tarbiyalash), surdopedagogika (kar-soqov bolalarni tarbiyalash) kabi fanlar kiradi.

O'zbekiston mustaqilikka erishgandan so'ng o'z tarixini, jumladan pedagogika tarixini o'rganish uchun keng yo'l ochildi. O'tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g'oyalarini hayotga tadbiq etishdek ulug' ishlar amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, ota-bobolarimiz yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga alohida e'tibor berganlar. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Islom dini-bu ota bobolarimiz dini, u biz uchun ham imon, ham axloq, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik, Olloh qalbimizda, yuragimizda».

3.Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimi. Muayyan fanga xos bo'lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to'plangan bilimlar aks etadi. Mavjud ilmiy tushunchalar ikki asosiy guruhga ajratiladi:

- 1) falsafiy tushunchalar;
- 2) xususiy ilmiy, ya'ni, muayyan fangagina xos bo'lgan tushunchalar.

Didaktika uchun “umumiy va alohida”, “mohiyati va hodisa”, “qarama-qarshilik”, “bog'liqlik” kabi falsafiy tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega. Didaktikada qo'llaniladigan umumiy-ilmiy tushunchalar orasida “tizim”, “tuzilma”, “vazifa”, “element” kabilar alohida o'rin tutadi. Pedagogikaga xos didaktik tushunchalar sirasiga quyidagilar kiradi:

- 1) ta'lim - o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon;

2) dars – bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli;

3) bilim olish – idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

4) ta'lim jarayoni – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

5) o'quv fani – ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan hamda o'zida muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manba.

6) ta'lim mazmuni – davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Didaktikada “idrok etish”, “o'zlashtirishi”, “mahorat”, “rivojlanish” va boshqalar (psixologiya) hamda “boshqarish”, “qayta aloqa” (kibernetika) kabi turdosh fanlarga xos bo'lgan tushunchalar ham qo'llaniladi.

Didaktikaning tushunchali-terminologik tizimi muntazam yangilanib va to'ldirilib borilmoqda.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: dars, bilim olish, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, ta'lim jarayoni, ta'lim jarayonini tashkil etish, ta'lim turlari, shakllari, metodlari va vositalari, ta'lim natijasi.

So'nggi paytlarda asosiy didaktik kategoriyalar sirasiga ta'limning didaktik tizimi va ta'lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham kiritish taklifi ilgari surilmoqda.

1) bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui;

2) bilim olish – idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

3) ko'nikma – olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi;

4) malaka – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi;

5) ta'lim – o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon;

6) ta'lim metodlari – ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui;

7) ta'lim mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati;

8) ta'lim vositalari – ta'lim samaradorligini ta'minlovchi ob'ektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va sub'ektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar;

9) ta'lim jarayoni – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon;

10) ta'lim mazmuni – davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati;

11) ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya;

12) ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) – ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi;

13) ta'limni boshqarish – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollari belgilash;

14) ta'lim tizimi – yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi o'quv-tarbiya muassasalari majmui.

Didaktik nazariya (kontseptsiya)lar va ularning falsafiy asoslari. Ta'lim jarayoni psixologik-pedagogik kontseptsiyalar (ular aksariyat hollarda didaktik tizimlar ham deb ataladi) asosida tashkil etiladi.

Didaktik tizim (yunoncha «systema» – yaxlit qismlardan tashkil topgan, birlashtirish) – ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayoning yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish demakdir. U ta'limning maqsadi, tamoyillari, mazmuni, shakli, metod va vositalarining birligi asosida tashkil etilgan tuzilmalarning ichki yaxlitligini ifodalaydi. Tadqiqotchilar mavjud didaktik kontseptsiya (tizim)larni umumlashtirib quyidagi guruhlariga ajratadilar:

- 1) an'anaviy;
- 2) progressiv;
- 3) zamonaviy.

Ta'lim nazariyasida Ya.A.Komenskiy, I.Pestallotsi va I.Gerbartlarning didaktik kontseptsiyalari muhim ahamiyatga ega.

An'anaviy didaktik tizimning yaratilishi nemis faylasufi, psixolog va pedagog I.F.Gerbart (1776-1841 yillar) nomi bilan bog'liq. U Ya.A.Komenskiyning sinf-dars an'anaviy tizimini tanqidiy nuqati nazardan qayta asoslab, etika va psixologiyaning nazariy yutuqlariga tayangan holda ta'lim tizimini yaratdi.

I.F.Gerbart ta'lim tizimining asosiy belgisi quyidagilardan iborat. o'quvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlash maktabning asosiy vazifasi; bolani tarbiyalash esa oilaning vazifasidir.

Progressiv (pedotsentrik) tizim bolaning bilim olishida faoliyatining asosiy rol' o'ynashini e'tirof etadi. Mazkur tizim asosini D.Dьyui tizimi, G.Kershteynning mehnat maktabi, V.Lay nazariyalari tashkil etadi.

Zamonaviy didaktik tizim. XX asrning 50-yillarida psixolog va pedagog B.Skinner qismlarga bo'lingan axborotlarni yetkazish, bu jarayonni muntazam

nazorat qilish asosida materialni o'zlashtirishda samaradorlikka erishish g'oyasini ilgari suradi. Mazkur g'oya keyinchalik dasturiy ta'lim deb ataladi. Keyinchalik N.Krauder nazorat natijalariga qarab o'quvchiga mustaqil ishlash uchun turli materiallarni taklif etadigan tarmoqlashtirilgan dasturlarni yaratdi.

D.Dbyuining nazariy g'oyalari muammoli ta'limning asosi bo'lib qoldi. Bugungi kunda muammoli ta'lim deb nomlanuvchi, ushbu g'oya o'qituvchi rahbarligi ostida muammoli vaziyatni yaratish va ularni hal etishda o'quvchilarning faollik va mustaqilliklarini ta'minlashga erishishni nazarda tutadi. Muammoli ta'limning vazifasi faol o'rganish jarayonini rag'batlashtirish, o'quvchilarda fikrlash, tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

L.V.Zankovning (1901-1977 yillar) rivojlantiruvchi ta'lim kontseptsiyasi XX asrning 50-yillarida keng tarqaldi. Uning g'oyalari amalga oshirish ta'lim jarayoniga insonparvarlik g'oyasini singdirish, shaxsni barkamol rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

Psixolog L.S.Vo'gotskiy (1896-1934 yillar) tomonidan 30-yillarda ilgari surilgan "Yaqin rivojlanish zonasi" g'oyasi ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra bola kattalar yordamida bilim olib, o'zi mustaqil bajara olmagan ishlarni bajara boshlaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ta'lim va tarbiyani insonparvarlik, demokratik g'oyalarga muvofiq tashkil etilishi e'tirof etilgan.

Ta'limni insonparvarlashtirish ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini hurmat qilish, uning sha'ni, obro'si, qadr-qimmatini poymol etmaslik, mavjud iste'dodini rivojlantirishni nazarda tutadi. Demokratlashtirish esa pedagogik jarayonda rasmiyatchilikka yo'l qo'ymaslik, ta'lim dasturlarini tanlashda o'quvchilarning fikrlarini inobatga olishni ifodalaydi.

Respublika uzluksiz ta'lim tizimi ijtimoiy buyurtmani bajarishga xizmat qiladi, barkamol shaxs va yetuk mutaxassisni tarbiyalash vazifasini bajaradi.

Inson muammosiga qisqacha tarixiy-falsafiy nazar tashlash XX asr boshiga kelib falsafada bilimning yangi mustaqil sohasi – *inson haqidagi ta'limot*, ya'ni

falsafiy antropologiya vujudga kelishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilganini ko'rsatadi.

Falsafiy antropologiyaning vujudga kelishi va rivojlanishi. Yunoncha *sophia* – donishmandlik, *anthropos* – inson va *logos* – ta'limot so'zlaridan kelib chiqqan «*falsafiy antropologiya*» atamasi etimologik jihatdan inson haqidagi falsafiy ta'limotni anglatadi. *Falsafiy antropologiya insonning alohida borliq manbai sifatida kelib chiqishi, tadrijiy rivojlanishi va mavjudligining o'ziga xos xususiyatlariga doir falsafiy qarashlarni* aks ettiradi.

Yuqorida qayd etilganidek, inson haqidagi falsafiy ta'limotlar qadimda vujudga kelgan va butun falsafa tarixi orqali o'tadi. Konfutsiy, Suqrot, Geraklit, stoiklar, kiniklar, Avgustin, Foma, Forobiy, Ibn Sino, A.Navoiy, A.Jomiy, Dekart, Russo, Kant, Feyerbax, Nitsshe va boshqalar insonning falsafiy, nazariy obrazini yaratib, falsafiy antropologiya falsafiy bilimning mustaqil bo'limi sifatida vujudga kelishi uchun zamin hozirladi.

SHu ma'noda falsafiy antropologiyaning ilk ildizlariga XVIII asr frantsuz materialistlarining asarlarida duch kelish mumkin. Ammo Kant, shuningdek, insonning mohiyati muammosini falsafaning «birdan-bir, universal va oliy» predmeti darajasiga ko'taruvchi antropologik tamoyillarni falsafaga kiritgan va asoslab bergan Feyerbax sa'y-harakatlari bilan falsafiy antropologiya mustaqil falsafiy fan sifatida shakllana boshladi.

Falsafiy antropologiya XX asrning 20-yillarida asosan *M.SHeler*, *A.Gelen*, *X.Plesner* asarlari ta'sirida uzil-kesil vujudga keldi. Xususan, M.SHelelning «Insonning kosmosdagi o'rni» asarida inson haqida fundamental fan yaratish lozimligi qayd etiladi va uni falsafiy bilish dasturi taklif qilinadi. Muallif fikriga ko'ra, insonni yaxlit falsafiy bilish inson borlig'ining turli jabhalariga nisbatan olingan muayyan ilmiy natijalar bilan birikishi lozim.

M.SHeler falsafiy antropologiya insonning yaxlit kontseptsiyasini yaratib, uni muayyan ilmiy, falsafiy va diniy jihatdan anglab yetishda birlashtiruvchi rol o'ynashi lozim, deb hisoblaydi. U «Falsafiy antropologiyaning vazifasi insonning barcha o'ziga xos monopoliyalari, ishlari va amallari: til, vijdon, asboblari, qurol... davlat,

rahbarlik, mif, din, fan... inson borlig'ining asosiy strukturasidan qanday kelib chiqishini aniq ko'rsatib berishdan iboratdir»¹, deb qayd etadi.

Falsafiy antropologiya fanining mohiyati. Inson haqidagi bilimlarni birlashtirish lozimligi xususida SHelerdan oldinroq ham so'z yuritilgan edi. XIX asr o'rtalariga kelib inson o'ta murakkab struktura ekanligi, uni faqat falsafa yoki boshqa biron-bir muayyan fan metodlari bilan to'la anglab yetish mumkin emasligi, ya'ni inson jamuljam holda aniq bilim predmeti bo'la olmasligi aniq-ravshan bo'lib qoldi. SHuningdek, ayrim tabiiy fanlar, har biri o'z sohasida, vaqt o'tishi bilan umumiyroq xulosalarga kelishni talab etuvchi salmoqli material to'pladi.

Bunday umumlashtirishga ehtiyoj Darvinning evolyutsion nazariyasi paydo bo'lishi bilan ayniqsa bo'rtib ko'rina boshladi. Bu nazariya insonga oid tabiiy-ilmiy tadqiqotlarga kuchli turtki berdi, shuningdek materialistik falsafiy kontseptsiyalar rivojlanishi uchun qo'shimcha asos bo'lib xizmat qildi.

Mazkur yondashuv tarafdorlari inson ko'p o'lchovli va muttasil o'zgaruvchi mavjudot ekanligidan kelib chiqadi. Garchi uning muhim xususiyatlari ming yillar mobaynida o'zgarishsiz qolayotgan bo'lsa-da, ular insonning mohiyatini to'la namoyon etmaydi. Bu yondashuv tarafdorlari inson o'z oldiga yangi va yangi jumboqlar qo'yayotgan, tashqi dunyoni, o'zining undagi o'rnini aniqlashga harakat qilayotgan, atrof muhitni o'rganish orqali uni o'z ixtiyoriga ko'ra o'zgartiradigan faol asos sifatida amal qiladigan mikrokosm hisoblanishiga ham e'tiborni qaratmoqdalar.

Boshqacha aytganda, inson bunyodkor va ayni vaqtda madaniyat mahsuli, o'zini qolgan jonli dunyodan farqlash imkonini beruvchi ma'naviyat manbaidir.

Falsafiy antropologiya tarafdorlari insonning mazkur talqinidan kelib chiqib, bu fan izchil ilmiy qarashlarni ilgari surishga da'vogar bo'la olmasligini va ayrim fanlar: psixologiya, sotsiologiya, biologiya va boshqa ijtimoiy fanlarning turli yondashuvlari va xulosalarini sintezlovchi inson haqidagi bilimlar tizimini yaratishga qaratilishi lozimligini qayd etmoqdalar. Ularning fikricha, *bu fan o'z predmeti sifatida inson borlig'ini belgilaydi, uning mohiyatini va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etib, shu tariqa insonning o'zini ham, uni qurshagan dunyoni ham falsafa*

¹Шелер М. Избранные произведения. – М.: 1994. –С. 187.

nuqtai nazaridan anglab yetishga harakat qiladi. «Antropologiya yoki aniqroq aytganda – antropologik ong nafaqat ontologiya va kosmologiyaga, balki gnoseologiya va bilish falsafasiga, har qanday falsafa va har qanday bilishga zamin yaratadi»¹.

XX asrning 60-70-yillarida falsafiy antropologiya shunday bir g'oyaviy harakatga aylandiki, uning doirasida olimlar insonning hozirgi holatini nazariy jihatdan anglab yetish va talqin qilish, uning tabiatiga nisbatan yangicha yondashuvni ilgari surishga harakat qildilar. Bu davrda yuz bergan fan-texnika taraqqiyoti va insonning o'z ilmiy va amaliy faoliyati natijalari uchun javobgarlik tuyg'usining kuchayishi falsafiy antropologiya rivojlanishiga qo'shimcha turtki berdi. SHunday qilib, u endi inson haqidagi bilimlarning umumiyroq majmui – umumiy antropologiya tarkibiy qismiga aylandi. Bu fan turli-tuman ta'limotlar, kontseptsiyalar va yo'nalishlarni o'z ichiga oladiki, ularning orasida falsafiy yo'nalishdan tashqari biologik, teologik (diniy), sotsiologik, psixologik, madaniy (etnografik), strukturalistik, pedagogik va boshqa yo'nalishlarni qayd etish mumkin.

Ularning har biri, falsafiy yo'nalishdan farqli o'laroq, insonning muayyan bir tomonini yoritadi. Masalan, biologik antropologiya anatomiya, fiziologiya, irq haqidagi ta'limot va shu kabilarga tayanib, insonning qolgan barcha tirik mavjudotlardan farqini uning jismoniy tuzilishi nuqtai nazaridan aniqlaydi. Teologik antropologiya inson haqidagi tegishli tasavvurlarni uni Xudo yaratgani nuqtai nazaridan shakllantiradi. Falsafiy antropologiya esa butunlay boshqa vazifani hal qiladi – u vaziyatga yaxlit yondashadi va fanlararo xususiyatga ega bo'lgan xulosalar chiqaradi.

Falsafiy bilimning tarkibiy qismi sifatida falsafiy antropologiya ijtimoiy falsafa, axloq, sotsiologiya va psixologiya bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular bilan birgalikda inson haqidagi fanlar majmuini tashkil etadi.

Insonning bioijtimoiy mohiyati. Falsafiy antropologiya yechadigan muhim muammolar orasida inson biologik va ijtimoiy mohiyatining o'zaro nisbati to'g'risidagi masala alohida o'rin egallaydi. Inson jonli tabiatning bir qismi,

¹Berdyaev N.A. Smsltvorchestva. – M., 1989. – S.293.

shuningdek biologik evolyutsiya mahsuli ekanligi hozirgi zamon tabiatshunosligi fanida nafaqat olimlar va mutaxassislar, balki ma'rifatli odamlarning keng doirasi uchun ham aniq-ravshan va deyarli shak-shubhasiz dalilga aylandi. Har bir inson o'z biologik xususiyatlari: genetik kodi, vazni, bo'yi, mijozi, terisi va sochining rangi, yashash muddati va shu kabilarga ko'ra betakrordir. Biroq ayni vaqtda inson ijtimoiy mavjudot ekanligi, uning o'ziga xosligi va betakrorligi odamzotning ijtimoiy tabiati, u kamol topgan, ta'lim-tarbiya olgan, madaniy va axloqiy qadriyatlar va mo'ljallarni o'zlashtirgan ijtimoiy muhit bilan belgilanishi ham shak-shubhasizdir.

Ayni shu sababli inson individi nafaqat biologik, balki ijtimoiy mavjudot sifatida ham o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, insonning kamol topishi jamiyatda va faqat jamiyatda yuz beradi.

ijtimoiy mustahkamlovchi irqiy qonunlar qabul qilindi.

Nazorat uchun savollar:

1. Pedagogika fanining ob'ekti, predmeti va tuzilishi.
2. Pedagogik tizimlarning ilmiy metodologik asoslari, manbalari, tasniflash asoslari.
3. Asosiy ta'limiy kontseptsiyalar va yondoshuvlar.
4. Falsafiy antropologiya pedagogik tadqiqotlarning metodologik asosi va pedagogik antropologiya va uning qoidalari.
5. Insonning bioijtimoiy mohiyati.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abulxanova K.A. i dr. Psixologiya i pedagogika. – M.: «Sovershenstvo», 1998. – 320 s.
2. Inog'omov R., Toshmurodova Q. Pedagogika fani XXI asrda. - T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2000.
3. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T., 2005.
4. Klimov Ye.A. Основы психологии. – M., 1998.
5. Nemov R.S. Psixologiya. V 3-x kn. – M., 1998.

6. Podlasyy I.P. Pedagogika. Novyy kurs v 2-x kn. – M.: Vldos, 1999.
7. Psixologo-pedagogicheskiy slovar dlya uchiteley i rukovoditeley obshchey obrazovatel'nykh uchrejdeniy. – Rostov – na – Donu: Feniks, 1998.

5. Mavzu: **Pedagogik muloqot.**

Режа:

1. Педагогик мулоқотни такомиллаштиришнинг психологик шарт-шароитлари.
2. Педагогларнинг уз ва укувчилар рухий хусусиятларини билиши муомала маданияти шаклланишининг дастлабки шарт-шароити сифатида.
3. Мулоқот учун бола темпераменти ва уни аниклаш йуллари.
4. Мулоқотда укувчининг синф жамоасидаги мавқеини аниклаш йуллари.
5. Самарали тарбиявий таъсир курсатиш

Инсон тугилган кундан эътиборан дунёни билишга ва унинг ижтимоий жихатларини ушлаштиришга ҳаракат қилади. Тадқиқотимизнинг долзарблиги укувчи билан укутувчи уртасидаги муносабатлар, мулоқотлар ва шу асосида укувчиларнинг хиссий оламини урганиш асосий мезонлигини очиб беришдир. Педагогик кадрларнинг асосий иш жараёни семантик фаолият билан биргаликда лоқаматор ҳаракатлардан иборат. Ҳар иккаласини жиқслаштирган ҳолда бевосита педагогик мулоқот муҳим аҳамият касб этади. Тарбия жараёни тарбияланувчилар билан маълум бир мақсадга асосланган бўлиб, уз ичига таълим жараёнини ҳам олади.

Бу жараёни етказиб бериш укутувчининг нуткий қобилияти ва мулоқотига боғлиқ бўлади. Педагогик ва психологик билимлар шуни курсатадики, қўлаб махсус адабиётларни қўриб чиққанимизда тадқиқ этилаётган муоммоларнинг ишлаб чиқилганлигига ғувоҳ бўлдиқ. Демак тарбия жараёнининг самарадорлигини ошириш укутувчилар ва укувчилар уртасидаги узаро мулоқот жараёнини такомиллаштиришни объект қилиб олади. Ҳар қандай мураккаб муоммоларни ечишда педагогик мулоқот ва коммуникатив жараён муҳим аҳамият касб этади. Шу муаммоларни ҳал этиш учун ва тадқиқод олиб бориш учун биз Тойлок туман 5-урта мактабни тадқиқот объекти қилиб олдик.

Мактабда педагогик мулоқот билан боғлиқ қатор суровнома ва тестлар утказишга ҳаракат қилинди. Натижа шуни курсатдики, педагогик мулоқот укутувчидан қўчли билим ва малака талаб қилар экан. Шу муаммоларни ҳал

килиш жараёнида ишимизда бир канча максадларни урганишга қарор қилдик. Жумладан:

- Мулоқотда бўлишнинг шарт-шароитлари;
- Педагогик мулоқотнинг амалга оширилиши лозим бўлган жиҳатлари;
- Уқувчилар ўртасида обрўга эга бўлиш ва уни эгаллаш усуллари қабилар;

Шу аснода педагогик мулоқотнинг психологик томонларини очиқ бериш асосида иш режамизга қуйидаги вазифаларни қиритдик.

1. Мулоқот ўчун ўқувчи темпераментини аниқлаш
2. Тестлар ўтказиш
3. Натижаларни таҳлил қилиш
4. Мулоқот ва ташкилотчилик қобилиятларини аниқлаш
5. Синалувчиға қўрсатмалар бериш асосида биз тадқиқотимизнинг вазифаларини ечишға ҳаракат қилдик.
1. Тадқиқотимизнинг янгилик элементлари шундан иборатки бир канча вақтлардан бери ўрганилиб келинаётган мулоқотнинг психологик томонлари ҳақида қатор адабиётларни амалиёт билан ўйгунлаштириб таҳлил қилиб бўлғувси педагог ва психологик кадрларға илмий ва амалий ёрдам беришдан иборат.

Тадқиқ этилаётган ишнинг илмий ва амалий аҳамияти шундан иборатки, тест орқали педагогик мулоқотни шакллантириш ҳамда ўқувчининг темперамент хусусиятларини ўрганишни бўлғуси кадрларға тавсия қилишдан иборат эканлиғига амин бўлдик.

I. Педагогик мулоқотни такомиллаштиришнинг психологик шарт-шароитлари.

Маълумки, педагогик фаолиятда ўқувчилар билан ўзаро муносабатда бўлишда мулоқот жараёни етакчи ўринни эгаллайди. Ўқитувчи мулоқот орқали ўқувчиларға билим беради, тарбиявий таъсир қўрсатади яъни ўнинг фаолиятининг ақсарият қисмини мулоқот ташкил қилади. Одатда мулоқот деганда кишиларнинг ўзаро маълумот, фикр, ҳис-тўйғу, қайфиятлар ва ҳақозолар алмашиш асосида бир-бири билан нутқли ёки нутқсиз алоқалар ўрнатиш ва ривожлантириш жараёни тушунилади. Бундай таърифға таяниб таълим ва тарбия жараёниға ҳам мулоқот тушунчаси орқали ёндашиш мумкин. Бундай ҳолда таълимни ўқувчиларда маълум билим, қўникма малакаларни шакллантиришға йўналган, системали ташкил қилинган ўқитувчи ва ўқувчи ўртасидаги мулоқот жараёни сифатида қараш мумкин. Тарбия жараёни эса тарбияланувчиларда мақсадға мувофиқ шахс хусусиятларини ўзгартиришға йўналган тарбиячилар ва тарбияланувчилар ўртасидаги ўзаро мулоқот жараёнидан иборатдир.

Демак, таълим-тарбия жараёнининг самарадорлигини ошириш ўқитувчилар ва ўқувчилар ўртасидаги ўзаро мулоқот жараёнини такомиллаштиришни талаб қилади.

Бундай мураккаб муоммони ечиш педагогларда коммуникатив яъни мулокот куникмаси, малакаларни шакллантириш билан богликдир.

Хар бир педагог мулокотда уз махоратини ошириш учун укувчилар билан мулокотни самарали ташкил килиш йулларини, унинг ижтимоий психологик асосларини чукур билиши лозим.

Педагогик мулокот жараёни дастлабки карашда содда туйилади. Педагог гапиради, укувчи эшитади ёки аксинча лекин бу мулокотнинг факат ташки, юзаки томони, аксинча, мулокот жараёни жуда мураккаб, куп киррали жараёндир. Одатда мулокотнинг учта томонини ажратиш мумкин. Мулокот жараёнида кишилар узаро мулокот алмашишадилар, бир-бирларига маълум таъсир курсатадилар ва бир-бирни идрок килишади. Шунингдек педагог мулокотида ҳам узаро узвий боглик булган учта таркибий кисм бор.

Улар куйидагилар:

-доимий мулокотда буладиган укувчиларнинг рухий хусусиятлари хакида маълумотга эга булиш;

-укувчилар билан максадга мувофик муносабат урнатиш;

-самарали тарбиявий таъсир курсатиш.

Укитувчининг муомала маданияти унинг куйидаги билим, куникма ва малакаларга эга булишида номоён булади:

1. Узининг психологик хусусиятларини билиш ва узини бошкара олиш;
2. Мулокотда булаётган кишининг ташки киёфаси гапириш, имо-ишоралар ва юриш туришига караб унинг психологик хусусиятлари хакида тугри хулоса чикариш;
3. Мулокотда булиш яъни одамларга ёкиш ва уларга таъсир курсата олиш куникмаларига эга булиш;
4. Шахслараро вазиятларни тугри бахолай билиш ва шу вазиятга мос хатти-харакат килиш;
5. Узини укувчи урнига куя билиш ва ходисаларга укувчи нуктаи назаридан карай олиш;

Бошкача килиб айтганда, муомала маданиятига эга булиш бу кишининг қачон, каерда, кандай муомалада булиши, мулокотда узини кандай тутиш кераклигини билиши шахслараро муносабатда фаросатлилик демакдир.

Одатда ёш укитувчилар дастлабки иш бошлаганларида мактабда таълим тарбия жараёнини узгартириш учун янги гоёлар фикрлар мулохазаларга бой буладилар. Муносабат психологиясини билмаган ёш укитувчи узининг янги фикрларини дабдурустан, худди тажрибали укитувчиларни менсимагандай килиб, педагог жамоани узига карши килиб куяди. Аксинча, ижтимоий психологик етук киши уз гоёсининг тарафдорини топиб, улар билан маслаҳатлашган холда, биргаликда фикр юритади ва купчилик томондан бу ташаббуснинг кулланилишига эришади.

Иккинчи бир мисол, укитувчи узининг касбдоши ёки укувчи фаолиятида, хулк-атворида бирор бир камчилик сезиб колди дейлик. Муносабат қонуянтини билмаган киши дархол уша камчиликни, танкид килишга ёки маслаҳат беришга киришади.

Ижтимоий психологик билимдон киши эса бундай холда кулай вазият топиб у кишининг аввал яхши ижобий фазилатларини таъкидлаб, кейингина карши томоннинг узгартириши лозим булган хулк-атвор хусусиятларини курсатиши мумкин чунки факат шу услул билангина бошка кишига таъсир килиш мумкин.

Демак, укитувчилар укувчилар билан самарали мулокот урнатишлари учун аввало узларининг ва укувчилар шахсининг рухий хусусиятларини мукамал билишлари, уларнинг хулк-атворини тугри тушуна олишлари, улар билан мақсадга мувофик муносабат урната олишлари ва тарбиявий таъсир курсатиш куникмаларига эга булишлари зарур.

Энди юкорида кайд килинган педагогик мулокот таркибий кисмларини такомиллаштиришнинг психологик томонларини алохида караб чикайлик.

2. ПЕДАГОГЛАРНИНГ УЗ ВА УКУВЧИЛАР-РУХИЙ ХУСУСИЯТЛАРИНИ БИЛИШ-МУОМАЛА ШАКЛЛАНИШИНИНГ ДАСТЛАБКИ ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ.

Педагогларнинг укувчилар рухий хусусиятларини билишлари зарурлиги ҳеч қандай шубҳа тугдирмайди. Лекин қўпгина укитувчилар уз укувчиларининг асосий психологик хусусиятлари ҳақида юзаки маълумотга эга эканлиги сир эмас. Қўпинча бундай аҳвол баъзи укитувчиларнинг уз маҳоратининг шаклланмаганлиги сабабли укувчиларнинг рухий сифатларини билишга ҳаракат қилмаслиги билан боғлиқдир.

Бошқа педагоглар эса укувчиларнинг ўзига ҳос хулк-атвори хусусиятларини билишга интиланларида бунинг учун зарур қўпмага эга булмаганликлари ва бундай услубларни эгалламаганликлари натижасида қийинчиликларга дуч келмоқдалар.

Педагоглар укувчилар шахсини объектив баҳолашлари, ҳатти-ҳаракатларининг ҳақиқий мотивларини (сабабларини) аниқлашлари ва хулк атворининг кейинги ўзгаришларини олдиндан тасаввур қилишлари учун биринчи навбатда уларнинг қўидаги ўзига ҳос рухий хусусиятларини билишлари лозим.

-укувчининг оилавий аҳволи, оиладаги моддий маданий ва ижтимоий муҳитни, боланинг оиладаги ижтимоий ўрнини;

-боланинг соғлиги ва ҳозирги вақтгача босиб ўтган ҳаёт йўли ҳақидаги асосий биографик маълумотларни;

-укувчиларнинг синф жамоасида тутган ўрни, обрусини, яъни шахслараро муносабати тизимидаги мавқеини. Бола синфда «йўлбошчи» (лидер) «ёқимли муносабатдан четда қолган» ёки қўпчилиқ томонидан инқор қилинган бўлиши мумкин. Синф раҳбарлари айниқса муносабатдан четда қолган ёки инқор қилинган укувчиларга алохида эътибор бериб, синф жамоасида уларнинг мавқеини яхшилаш чораларини қўришлари мақсадга мувофикдир.

-укувчиларнинг билиш жараёнларининг (диккат хотираси, тафаккури ва х.к) узига хос хусусиятларини;

-укувчилар хис туйгуларини ва иродавий сифатларини;

-боланинг темперамент хусусиятларини билиш улар хатти-харакатини маълум вазиятларда олдиндан куриш имкониятини беради.

Маълумки, сангвиник темпераментли укувчи янги шароитларга тез мослашади, одамлар билан тез тил топа олади, мулоқотга киришувчан, сангвиникларда хис-туйғу тез ҳосил булади ва тез алмашади мимиклари бой, ҳаракатчан, иродали.

Жиддий гоя, мақсад, ижодий фаолият булмаган ҳолларда сангвиникларда нотургунлик, юзакилик шаклланиши мумкин.

Холерик темпераментли укувчи юкори даражада кузғолувчан, жуда эмоционал, жушқин, импульсив, (уйламай ҳаракат қилади) булади. Улар кизиккон, жаҳли тез, мақсадга интилувчан, ишбилармон кишилардир.

Холерик темпераментнинг номоён булиши шахс йуналишига боғлиқ булади.

Ижтимоий етук шахсларда холериклик унинг ташаббускорлигида, ишчанлигида, принципаллигида номоён булади. Агар шахс маънавий жихатдан бой булмаса, холерик темпераментини уларнинг жаҳли тезлигида, аффективлиги ва агрессивлик каби салбий ҳислатларда номоён булиши мумкин.

Флегматик темпераментли укувчи одатда сокин хотиржам, босиқ, эмоционал ҳолатлари ифодаланиши юзидан билинмайдиган, аффектив ҳолатларга моил булади. Шароитга қараб баъзи ҳолларда флегматиклар ижобий жумладан катиятли, фикрлар чуқурлиги мақсадга йуналганлик каби ҳислатларга эга булиши мумкин. Баъзи ҳолларда ялқовлик, атрофда бўлаётган ҳодисаларга бефарқлик, иродасизлик каби салбий сифатларга эга булиши мумкин. Флегматикларда ҳулқ-атворнинг янги формалари секин шаклланади, аммо улар жуда тургун булади.

Мелонхолик темпераментли бола хатти-харакатлари купинча ташқи таъсир қучига мос булмайди. У жуда таъсирчан, қучли таъсир уларда давомли тормизланиш ҳосил қилиш мумкин мураккаб шароитларда улар қурқокқрок, ҳаёжонли, тортинчок булиши мумкин.

Таълим-тарбия жараёнида укувчиларнинг темперамент хусусиятларини ҳисобга олиш уларга индивидуал ёндашиш яъни ҳар бир укувчига узига ҳос муносабат урнатиш имкониятини яратади. Айниқча тарбиявий таъсир қурсатишда таъсирчанлик даражаси юкори булган мелонхолик ва холерик темпераментли укувчилар билан эҳтиётқор мулоқотда булиш жоиздир.

-укувчининг характер хусусиятлар ҳам педагоглар билиши зарур булган сифатлардан бири ҳисобланади. Боланинг характерини унинг бошқа одамларга, тирик табиатга мол-мулкка, уз фаолиятига ва узига нисбатан туғри муносабатларини аниқлаш орқали урганиш мумкин.

Бу уринда укувчининг узига муносабати, яъни уз-узига берган бахосини хакида тухталиш уринлидир.

Маълумки хар бир киши узи хакида маълум тасаввурга эга. У бошкалар томонидан берилган бахоларга, узи эришган ютуқларга таяниб узига бахо беради. Бундай бахо 3 хил булиши мумкин: 1 тугри бахо; 2 бир оз оширилган ёки бир оз пасайтирилган бахо; 3 меъёридан ортикча оширилган ёки аксинча. Булардан биринчиси энг ижобий бахо, аммо хаётда унчалик куп учрамайди. Купчилик укувчилар узларининг имконияти ва хусусиятларининг ижобийлигини бир оз ошириб ёки пасайтириб бахолашга мойил.

Учинчи типдаги бахо хам куп булмаса хам учраб туради. Шахснинг узига берган бахоси унинг хулк-атворига кучли таъсир курсатади.

Укувчининг узини кандай тутиши муаммоси интилувчанлик даражаси ва таъсирчанлиги куп жихатдан узига берган бахосининг унинг хулк-атвори кучи даражасига боглик. Таълим-тарбия жараёнида педагог эътиборининг марказида айникса меъёридан ошириб ёки пасайтириб узини бахоловчи укувчилар булиши мумкин. Чунки улардан биринчиси тарбиявий таъсирга сезгирлик даражаси юкори булса, иккинчиси узини жуда паст бахолаганлиги учун хам хар кандай танкид, танбехларга ута тъсирчан булишади, улар шахснинг ижобий ривожланиши учун уларнинг узига булган муносабатини узгартиришнинг тадбирларини белгилаш ва бу йуналишда катор ишлар олиб бориш максадга муофикдир.

Укитувчининг билиши зарур булган хусусиятлари таркибига укувчиларнинг эҳтиёжлари, кизикишлари, кобиятлари ва дунёкараши хам кириши мумкин. Бу уринда шуни алохида таъкидлаб утиш лозимки, рухий соглом булган болалар ичида умуман кобиятсиз укувчилар булмайди, хар бир укувчи маълум сохада кобиятга эга туюлади.

-укувчиларнинг ёш хусусиятларини хисобга олиш хам алохида ахамият касб этади. Хар бир ёш даври муайян психологик хусусиятларга эга булади. Айникса усмирлик ёшига утиш даври педагоглардан узига хос муносабатда булишни талаб килади.

Биз юкорида тухталиб утган шахс сифатлари укувчилар билими ва таълим-тарбия жараёнида хисобга олиш зарур булган укувчилар рухий хусусиятларининг хаммасини камраб олмайди. Балки уларнинг бир кисми булиб бизнинг фикримизча асосийларини ташкил килади.

Биз талабаларга услубий ёрдам сифатида узларининг ва укувчиларнинг темпераментини, узига берган бахосининг даражасини, мулокот ва ташкилотчилик кобиятини аниклашга хамда укувчиларнинг синф-жамоасидаги обрусини урганишга мулжалланган бир неча услубларни тавсия киламиз.

II.2. Мулокот учун бола темпераменти ва уни аниклаш йуллари.

Кишилар узига хос хулк-атвор хусусиятлари билан бир биридан ажралиб туришади. Баъзилар жуда серхаракат жушкин, кузголувчан булишса баъзилар босик хотиржам булишади.

Мана шундай одамларнинг узига хос (индивидуал) психологик хусусиятларидан бири темпераментдир. Психологияда темперамент деганда киши психик фаолиятининг, характерининг утиш тезлигини (динамикасини), хис-туйгуларининг ифодаланишини, мулоқотга киришувчанлигини белгилайдиган нисбатан барқарор тугма индивидуал-психологик хусусияти тушунилади.

Одатда темпераментнинг сангвиник, холерик, флегматик, меланхолик каби типлари ажратилади.

Юқорида биз ҳар бир темперамент типига мос булган кишилар хулк-атворининг умумий ва асосий хусусиятларига тухталиб утгандик. Дастлабки қарашда баъзи темперамент хусусиятлари «яхши» баъзилариники «ёмон» туюлиши мумкин. Аслида эса темперамент типларининг «яхши» ёки «ёмон»и булмайди.

Барча темперамент типларининг ҳам ижобий ва салбий томонлари мавжуд.

Бундан ташқари реал ҳаётда юқоридаги темперамент типлари «тоза» ҳолда қам учрайди, яъни бир киши хулк-атворида сангвиник ва холерик темпераментга хос хусусиятлар учраб туради.

Одамлар темпераментини уларнинг хулк-атворини мунтазам кузатиш мумкин, бунда улар характернинг ва хис-туйгуларининг ифодаланишини янги шароитга, фаолиятга мослашиш ҳамда мулоқотга киришувчанлиги алоҳида эътибор бериш лозим. Темперамент хусусиятларини тугри ва аниқ урнатиш учун махсус мулжалланган тест услубларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Шундай услублардан бирини тавсия этишдан олдин укувчилар темпераментини билиш ва таълим тарбия жараёнида ҳисобга олишнинг баъзи бир муҳим психологик томонларига тухталиб утмоқчимиз.

Агар укувчилар темпераментини узгартириб булмаса, уни аниқлашдан мақсад нима, деган уринли савол тугилиши мумкин. Тугри темперамент хусусиятлари тугма булганлиги учун бутунлай узгартириб булмайди. Шундай экан, ота-оналари, укувчилар ва тарбиячилар интилиши болалар темпераментини узгартиришга эмас, балки уни мулоқот жараёнида ҳисобга олишга йуналган булиши зарур.

Таълим-тарбия жараёнида холерик темпераментли болалар фаолиятини тез-тез назорат қилиб туриш, йул қуйган ҳатоларини ёки хулк-атворидаги қамчиликларни уз вақтида қурсатиб туриш, уларга нисбатан талабчан булиш уринли. Улар билан мулоқотда киши узини дадилроқ тутиш, лекин қаттиқ ёки қупол муомалада булмаслиги, уларнинг эмоционал ҳолатларини ҳисобга олган ҳолда муносабат урнатиши жоиздир.

Сангвиниклар олдига имқоният борича у учун қизикарли ва янги вазифалар қуйиш, ҳар бир ютугини рағбатлантириб туриш унинг

фаолиятининг самарали булишини тامينлайди. Флегматикларни фаоликка ундаб, кизиктириб, мунтазам равишда уларга эътиборни қаратиб туриш лозим. Уқиш, ёзиш тезлигининг сустлигини, бир фаолиятдан иккинчи фаолиятга ўтиш, мослашиши кийинлигини ҳисобга олиш лозим. Меланхоликлар билан алоҳида эҳтиёткорона муносабатда бўлган маъқул. Имконияти борича уларни камроқ танқид қилиб, қупроқ макташ ва рағбатлантириш зарур.

Бирон-бир камчилигини қурсатмоқчи бўлсангиз ҳам, бир ўзига алоҳида аввал ижобий ҳислатларни таъкидлаб, хатосини тушунтиришга ҳаркат қилиш мумкин. Улар билан мулоқотда қуполлик, каттик гапириш, қупчилик олдида изза қилиш мумкин эмас.

Бола темпераменти хусусиятларини билиш учун ҳулқ-атворини маълум вазифаларда олдиндан тасаввур қилиш имкониятини беради. Масалан, укувчилар театр ёки кино бошланишига кечикиб келади, деб тасаввур қилайлик. Холерик одатда, бундай вазиятда шошиб-пишиб қандай бўлмасин қиришга ҳаракат қилади. Сангвиник назоратчининг қунглига йул топиб ҳушмомалалик билан қиришга интилади. Флегматик эса бемолол кейинги сеансни қутиши ёки ҳеч нарса бўлмагандек қайтиб кетиш мумкин. Меланхолик бу вазиятдан қучли таъсирланиши ўзини омадсиз ҳисоблаб ҳафа бўлиши мумкин.

Демак укувчилар темпераментини билиш улар билан педагогик мулоқотни оқилона ва самарали ташкил қилиш имкониятини беради.

Ўқитувчилар қуйида тавсия қилинаётган тест орқали ўзларининг ва укувчиларнинг темперамент хусусиятларини аниқлашлари мумкин. Бу усул Г.Айзеник томонидан ўзбек тилига таржима қилиниб, маҳаллий шароитга мослашган. Ўрганишни ташкил қилиш учун синалувчига жавоблар ёзиладиган қогоз саволларга қандай жавоб бериш бўйича қурсатма ва саволлар матни берилади.

III-боб. Мулоқотда укувчи синф жамоасида маъқейини аниқлаш йуллари.

Бола шахси асосан бошқа одамлар билан мулоқотда бўлиш ва биргаликдаги фаолият қараёнида шаклланади. Шахс шаклланишига бошқа омиллар билан биргаликда у ўлғаяётган ижтимоий муҳит жамоа ва гуруҳлардаги муносабатлар тизими қуда қаттадир. Шунингдек укувчилар шахсининг ривожланишида ўнинг синф жаомасида тутган ижтимоий ўрни, жамоадаги психологик иқлим синф жамоасининг қипслиги ва ўнда қабул қилинган гуруҳий нормалар, ўрф-одатлар ва анъаналар муҳим аҳамият қасб этади.

Педагоглар билан биргаликда педагогларнинг бу билимларига асосланган ҳолда синф жамоаси билан мос мулоқот ўрнатиш ва ўни бошқариш қуникмаларига эга бўлиши укувчилар жамоасининг тарбиявий потенциалини оширади.

Ўқувчилар жамоасидаги шахслараро муносабатлар ҳақида объектив маълумотларни олиш педагоглардан жамоани ўрганишнинг психологик

услугларини педагогик фаолиятда куллаш сирларини эгаллашларини талаб килади. Синф жамоасини урганишда кузатиш, суҳбат, тажриба (эксперимент) анкета ва куплаб шунга ухшаш психологик тадқиқот услублари кулланилади. Мана шундай услублардан бири социометрия методидир. Социометрия атамаси америкалик психолог Д.Ж. Мерено томонидан фанга киритилган бўлиб, гуруҳларда «муносабатларни аниклаш» деган маънони билдиради. Социометрия методи гуруҳлар ва жамоаларда кишиларнинг шахслараро муносабатларнинг хусусиятларини, гуруҳ аъзоларининг жамоада тутган ижтимоий урнини (статусини) ва жамоадаги кичик гуруҳчалар таркибини аниклаш учун кулланилади.

Социометрик метод орқали синф жамоасидаги шахслараро муносабатлар хусусиятларини урганиш куйдагича утказилади.

Аввал шахслараро муносабатларнинг у ёки ёқтирмаслигига қараб бири-бирини туплашларини аниклаш учун бериладиган саволларадан иборат бўлади. Масалан, «синфдошларнинг ичидан сен кимлар билан бир партага утиришни хоҳлайсан» Синфдошларинингдан кимлар билан биргаликда дарс тайёрлашни хоҳлар эдинг? Ёки «яқинда биз синф уқувчилари билан саёҳатга чиқмоқчимиз. Саёҳатга 4-5 кишидан иборат гуруҳларга бўлиниб чиқишга тугри келади. Шунинг учун шундай гуруҳлар таркибини уқувчиларнинг узларининг хоҳишига қараб аниклаш ниятидамиз. Сен синфдошларингдан кимлар билан биргаликда саёҳатга боришни истайсан. «Синфдошларингдан кимларни тугилган кунгини нишонлашга таклиф қилган булар эдинг?» каби саволлар тузилади. Саволларни тузишда куйидагиларни ҳисобга олиш зарур а) куйилаётган ҳар бир савол муайян ҳаётий вазиятлар билан боғлиқ бўлиши лозим. б) уқувчиларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда тузилади. в) саволлар уқитувчилар муносабатларининг ички томонини урганишга йуналган бўлиши мумкин. Уқувчиларнинг иш фаолиятига бўлган муносабатларини аниклаш учун уқиш вазиятлари билан боғлиқ саволлар берилади. Уқувчиларнинг шахсий муносабатларини аниклаш бўйича мос саволлар танлаш лозим бўлади. Бундай саволар сифатида юқоридаги мисолларнинг учун туртинчи саволларини курсатиш мумкин. Синф жамоасининг ижтимоий психологик хусусиятларини урганиш учун кимда иккита савол бўйича, яъни иш бўйича муносабатларини ва шахсий муносабатларини аниқлайдиган саволлар бўйича тадқиқот утказилади.

Саволлар тузилиб бўлгандан кейин уларни махсус қогоз қарточкаларга ёзиб олувчиларга тақдим этиш ёки оғзаки айтиш ҳам мумкин. Кейин шу саволлар асосида ҳар бир уқувчи билан алоҳида суҳбат утказилади. Буни синалувчи уқувчиларга куйидагича курсатиб беради. «Ҳозир сизга синф жамоасидаги узаро муносабатингизга тааллуқли савол берилади. Масалан синфдошларингиз билан саёҳатга чиқишни хоҳлайсизми? Мана бу тоза бир варақнинг юқорисига уз фамилянгизни ёзиб кейин варақнинг уртасидан вертикал қизик утказиб варақни икки қисмга ажратинг. Варақнинг чап қисмига синфдошларингиздан кимлар билан саёҳатга чиқишни хоҳласангиз шу кишилар фамилиясини ёзинг». Синалувчилар учун берилган курсатмада неча кишини

танлаш мумкинлиги ёки танлаш чекланганлигини ҳам эслатиб утиш зарур. Чунки тадқиқотда қуйилган вазиятга қараб баъзан нечта кишини танлаш курсатилади баъзан эса танлов сони чекланмайди шунингдек курсатмада ким-кимни танлагани ёки танламаганлиги сир сакланиши ҳамда укувчиларда бу нарсаларга ишонч ҳосил қилдириш муҳимдир.

Тадқиқотчи (синф раҳбари, тарбиячи) ва. х.з саволга жавоб сифатида фамилия ёки исмлар ёзилган варақларни олиб уларда акс этган натижаларни махсус «социометрия» деб аталадиган жадвалга жойлаштириб чиқади. Бу жадвал қуйидаги қуринишга эга бўлади.

№	Танланаётган гуруҳ аъзоларининг фамилиялари	Танланаётган гуруҳ аъзоларининг тартиб рақамлари				
		1	2	3	4	5
1	Алимов Ш		+	-		-
2	Ботирова Г	+		+		
3	Валиева Д	+	+			-
4	Рустамова Л	+				
5	Шокиров Г	+	-			-

ва бошқалардан олинган танловлар.

(-), 4 2 2 0 0

(+) 0 1 1 0 3

(ж) 4 3 3 0 3

Бу жадвалда юқоридан пастга қараб тажрибада қатнашган биринчи танлаётган синф жамоаси аъзоларининг фамилиялари ёзилган. Жадвалда мисол тариқасида беш киши курсатилган. Ётиқ қизик бўйлаб жадвал юқорисида шу фамилияларнинг тартиб рақамлари ёзилган. Фақат бунда жамоа аъзолари танлаш объекти (танлаётган киши) сифатида белгилаётган жадвалдаги «+» белгиси ижобий танловни билдиради. Бизнинг мисолимизда (жадвалга қараган) Алимов Ш 2 3 тартиб рақамли яъни Ботирова Г ва Валиева Д каби синфдошлари билан биргаликда сарҳатга бориш истагини билдирган. 5 рақамли Шокиров Г билан бундай истаги йуқлиги ифода этилган.

Урганиш жараёнида олинган натижаларни қурғазмали тасаввур қилиш учун график усулидан фойдаланиш мумкин. Бу қурғазмали график социограмма деб аталади.

Самарали тарбиявий таъсир курсатиш

Педагогик мулоқотнинг учинчи томони укутувчининг укувчилар билан муомаласида, тарбиявий таъсир воситаларида номоён бўлади. У реал қузатиш мумкин бўлган мулоқотнинг ташқи томонини ташқил қилади. Юқорида қараб утилган биринчи ва иккинчи яъни укувчиларнинг рухий сифатларини билиш, уларни тушуниш, улар билан мақсадга мувофиқ муносабат урнатиш каби ички компонентлари билан узвий боғлиқ бўлиб маълум маънода уларнинг натижаси сифатида юзага келади. Педагог вербал ва невербал мулоқот орқали уз фаолиятини амалга оширади. Укувчиларда маълум билим, қуниқма, малакалар шаклланишига эришади ва тарбиявий таъсир курсатади. Ушбу вазифаларни беришда мулоқотнинг асосий воситаси нутқ ҳисобланади. Педагогик мулоқотда нутқнинг қуйидаги функцияларини ажратиш мумкин.

-маълумот берувчи яъни уқитувчининг уқувчиларга нисбатан муносабатини ифодаловчи (тон, овоз тембири, интонация ва суз мазмуни оркали)

-ундовчи тарбиявий таъсир курсатиш

Одатда синф раҳбарлари, тарбиячилар, уқувчиларнинг хулқ-атворини ёки маълум муносабатларини узгартириш мақсадида индивидуал суҳбатда педагог уқитувчининг бирор қилган ишини танқид қилади. Номакбул эканлигини таъкидлайди. Уқувчи эса гоҳида индамай сукут саклаб туради ёки узини оклашга ҳаракат қилади. Қупинча бу унинг такрорламаслиги ҳақидаги мажбурий ваъдаси билан яқунланади. Бундай ҳолларда уқувчи бефарқ ёки узини ҳимоялаш позитциясида туради. Синф жамоасида ташкил қилинган суҳбатлар бирор уқувчининг хулқ-атворини муҳофафа қилган ёки тарбиявий аҳамиятга эга умумий мавзулардаги суҳбат тарзида утади.

Бундай суҳбатлар қупчилик ҳолларда етарли самара бермайди. Суҳбат самарадорлигини ошириш учун унга педагоглар дарсга тайёрланишдан ҳам зиёдрок ҳозирлик қуришлари лозим. Уқувчини бефарқлик ҳолатидан чиқара олмайдиган, қалбни титрата олмайдиган, унинг хулқ-атворида мақсадга мувофиқ узгариш юзага келтира олмайдиган суҳбат утқазилган қура утқазмагани маъқул, чунки у фойдадан қура қупрок зарар беради.

Уқувчилар билан тарбиявий таъсир курсатиш мақсади суҳабталашганда қуйидаги мулоқот қоидаларига амал қилиш мақсадга мувофиқ.

1. Суҳбат мақсадини аниқлаш (нима мақсадда суҳбат утқазмоқчисиз ва натижада нимага эришасиз?)
2. Суҳбатнинг тахминий планига эга бўлиш.
3. Узаро ишонч атмосферасини вужудга келтириш.
4. Педагог ёки уқувчи жаҳли қиккан жушқин эмоционал қузғалиш ҳолатида бўлган пайтда суҳбатни бошқламаслик. Суҳбатни дарҳол уқувчининг қамчиликларини ёки ҳатосини курсатишдан танқид қилишдан эмас, балки унинг ижобий ҳислатларини, афзалликларини таъкидлаб кейингина узгартириши лозим бўлган хулқ-атвор ҳусусиятларини ёки ҳатосини курсатиш мақсадга мувофиқ.

-уқувчининг бу ҳатосини тушунишга ёки хулқ-атвор ҳусусиятини узгартиришга тулик имқонияти ва қобилят мавжудлигини таъкидланг.

- уқувчи шахсининг ҳусусиятларини яҳлид қолда умумий баъҳолаш урнига, унинг йул қуйган муайян ҳатосини ёки қонқрет ҳаракатларин баҳолашга ҳаракат қилинг.
- уқувчилар ҳатосини дастлаб бевосита эмас балки билвосита курсатишга интилинг.
- Суҳбатдошингизга бирор нарсани бўқуриш урнига илтимос қилинг ёки савол беринг
- Қишиларга доимо узининг обрусини ижобий мавқейини саклашга имқоният беринг.
- Қишиларнинг энг қикқик мувофакқиятларини қуллаб қувватлаб, эришган ютуқларини таъкидланг.

- Макташда сахий баҳолашда самимий ва ростгуй булинг
- Кишилар тугрисида доимо репутация (ном) яратишга ҳаракат килинг. Улар шу мовкейини номни саклашга интилинлар.
- Сухбат жараёнида узингизнинг эмоционал ҳолатларингизни назорат килишга педагогик тактни йукотмасликка интилинг.
- Укувчини диққат билан гапини булмай тинглашга урганинг.
- Боланинг устидан кулишдан мазах килишдан, шахсини, гурурини ерга уришдан узингизни тухтатинг.
- Укувчининг шахси ҳақида шошилиш ва айниқса «якуний» ҳулоса чиқаришдан узингизни сакланг.
- Умуман «ёмон» ёки бутунлай «яхши» киши булмай ҳаётдаги реал кишиларнинг ҳар бири ҳам ижобий ҳам салбий хусусиятларга эга булишини унутманг.
- Юкорида мулоқот қоидаларини муқаммал узолаштириш ва педагогик амалиётда уларга амал қилиш укувчилар билан булган мулоқот жараёнини такомиллаштириш учун кенг имконият яратади..

Муомила ҳамкорлик фаолиятининг эҳтиёжидан вужудга келиб чикувчи шахслараро мулоқот ривожланишининг қуп қиррали жараёнидир. Педагогик мулоқот бу укутувчининг укувчиларга таъсир этказиш усулларини муайян тизимини ақс эттиришидир.

-ҳамкорлик иштирокчиларининг узаро ахборот алмашинувчи

Турлича коммуникатив воситалар ёрдамида укутувчи томонидан укувчилар билан узаро таъсир ва узаро муносабаталарни ташкил қилиш;

-муайян мақсадни дастур асосида амалга оширишни ривожлантириш ва утказиш функциясини бажариш қабилар;

-педагогик фаолиятда муомала биринчидан укув фаолиятини яққоҳол бажаришнинг воситаси, иккинчидан тарбия жараёнини таъминлашнинг ижтимоий психологик тизими; учинчидан таълим тарбиянинг муваффақиятини таъминловчи укутувчи билан укувчиларнинг узаро муносабатининг муайян тизимини ташкил қилиш усули; туртинчидан укувчи индивидуаллигини такомиллаштириш, истеъдодини қарор топтириш имконини берувчи жараён эканлиги; бешинчидан яққоҳол фаолиятни «субъект-субъект» сифатида руёбга қикариш асосидадир.

Муомала жараёнида ва ҳамкорлик фаолиятида укутувчининг укувчиларга таъсир утказиши натижасида уларда:

- уз-узини ва узгаларни ҳурмат қилиш;
- уз-узини ва бошқалар фаолиятини, ҳулқини баҳолаш;
- уз-узини ва узгаларни назорат қилиш;
- уз-узини ақглаш ва узгаларни тушуниш
- уз-узини бошқариш (ҳам билиш фаолиятида ҳам ҳулқ-атворида)
- уз-узини такомиллаштириш ва янги фазилатларни эгаллаш;

-вокейлик махсулини олдиндан билиш, олдиндан башорат килиш шаклланади;

Хулоса килиб айтганда мазкур малакавий ишимизнинг ахамиятли томони шундаки, педагогик мулоқотнинг психологик жihatларини асослаш ва уни тахлил килишнинг булажак кадрларни тайёрлашда мухим хизмати булади деб хисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати.

1. Э.Гозиев. Психология. Тошкент 1993.
2. К.К.Плотнонов. Кизикарли психология. Тошкент 1971.
3. А.Шчербаков. Умумий психологиядан амалий машгулотлар.
4. Петровский А.В. Илмий психология.
5. М.В.Вохидов. Психология фани нимадан бахс этади?.
6. Э.Гозиев Тафаккур психологияси. Тошкент 1994.

6. mavzu: Oilada tarbiya asoslari

Reja:

1. *Oila jamiyatning kichik yacheykasi. Oila, uning maksadi va vazifalari.*
2. *Oila tarbiyasini takomillashtirish omillari.*
3. *Oila tarbiyasida ota-onaning obro'si. Ota-onaning farzand oldidagi va aksincha farzandning ota-ona oldidagi burchlari.*
4. *Oilaning maktab va jamoatchilik bilan hamkorligi.*

Tayanch tushunchalar: burch, mas'uliyat, oilaviy muhit, ota-onaning obro'si, to'g'ri kundalik rejim, o'qish, mehnat kilish, muvaffakiyat, akl, farosat, tafakkur, kamolot, fazilat, sezgirlik, mas'uliyat, andisha, javobgarlik.

Oila jamiyatning bir bo'lagi. Shunday ekan, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy, axlokiy, mafkuraviy va ruxiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Oila tor

maishiy tushuncha emas, balki u ijtimoiy jamoadir. Shu sababli oilalar birlashib jamiyatni tashkil etadi.

Jamiyatdagi o'zgarishlar oilaga ta'sirini ko'rsatganidek, oiladagi o'zgarishlar ham jamiyatga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Buni biz 1998 yil mamlakatimizda "Oila yili" deb e'lon kilinishi misolida ko'rishimiz mumkin. Shu munosabat bilan xukumatimiz ishlab chikkan tadbirlar oilani ijtimoiy muxofaza kilish, oilada yoshlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, oilaning huquqiy tamoyillarini kengaytirish va boshka oilani mustaxkamlash bilan boglik masalalarga karatildi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: "Xalkimiz kadim-kadimdan oilani mukaddas deb bilgan. Oila axil va totuv bo'lsa, jamiyatda tinchlik va hamjixatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barkarorlik xukm suradi. Oila farovonligi - milliy farovonlik asosidir".

Shuni unutmashlik lozimki, farzandlarimizning har tomonlama kamol topishi uchun kulay sharoitlar yaratilsagina oila tarbiyasi muvaffakiyatli bo'lishi mumkin. Yosh avlod xayotining ko'p kismi oilada o'tadi. Shu boisdan turmushning murakkab muammolari bilan oilada tanishadilar. Oiladagi mavjud an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida yigit-kizlar asta-sekin kamol topib boradilar. An'ana va marosimlar tarbiyaning kudratli kuroliga aylanadi.

Kelajagimizning kanday bo'lishi xozirgi kunda biz tarbiyalayotgan yoshlarga boglik. Bu konuniyat oilaning tarbiya borasidagi faoliyatiga ham boglik. Oilaviy tarbiyaning murakkabligi shundaki, har bir oila o'ziga xos bir olam. U tarbiya ishida ham o'ziga xos xususiyatlarni namoyon kiladi.

Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiya bilan uzviy alokada bo'lsagina, o'sib kelayotgan yosh avlod farovonligini ta'minlash mumkin. Oila tarbiyasidagi yutuklar ota-onalarga pedagogik bilimlar berish, oilaviy tarbiya bo'yicha tajribalar almashishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga kizgin jalb kilishga ham boglikdir.

Har bir ota-ona o'z farzandlarini tarbiyalash borasidagi burch va mas'uliyatlarini chukur anglashlariga boglikdir. Bundan tashkari normal oilaviy muxit, ota-onaning obro'si, to'gri kundalik rejim, bolani kitobga va o'kishga, mexnat kilishga o'z vaktida jalb kilishlari ham muvaffakiyat garovidir.

Ko‘rinib turibdiki, kadimdan ham, bugun va ertaga ham, bundan keyin ham aklli, farosatli, tafakkuri chukur - bir so‘z bilan aytganda kamolotli farzand tarbiyalash muammosi dolzarbdir. Xalk bunday fazilatli insonlarni sevadilar, e‘zozlaydilar va xurmat kiladilar.

Bunday tafakkurga boy kamolotli farzand tarbiyasining sarchashmasi oiladan boshlanadi. Oila ana shunday tabarruk kal’adir. U kanday kurulishi lozim? Oila o‘zi nima va uning maksad, vazifalari nimalardan iborat?

Oila – voyaga yetgan ikki jinsning sevisht, ardoklash, xurmat kilish asosida, ixtiyoriy ravishda, kalb xohishi bilan tuzilgan konuniy ittifokidir.

Mo‘‘jazgina bir kal’a kurildi. Endi bu kal’ada bekinmachok o‘ynalmaydi. Yoshlikdagi o‘yinkaroklik, beboshlik, erkalik, beparvolik o‘rnini sezgirlik, mas’uliyat, andisha, javobgarlik kabi fazilatlar egallay boshlaydi. Bunga har bir yosh tayyorlanib, mas’uliyat ko‘nikmasini his kilib, oila maksad va vazifalarini tushunib, ukib bormogi lozim.

Oila maksadi – ikki jinsning o‘zaro kelishuvi asosida farzandni dunyoga keltirish hamda tabiat va jamiyatning davomiyligini ta‘minlash.

Oila vazifasi – er-xotinning birgalikda xo‘jalik yuritish asosida oilani ham ma’naviy, ham iktisodiy jixatdan ta‘minlash hamda jamiyatga soglom, aklli, har tomonlama barkamol farzand tarbiyalash.

2. Ota-onaning farzand oldidagi va aksincha farzandning ota-ona oldidagi burchlari

Komil farzandli bo‘laman, baxtli oila kuraman degan maksad bilan oila kurdingiz. Ammo bu maksadga erishish farzand tarbiyalashdagi muxim omillarni, farzand oldidagi burchlarni bilib ish ko‘rishni takozo etadi.

Ota-onaning farzand oldidagi burchlari

farzandga chiroyli ism ko‘yish (farzandingiz o‘z ismini o‘zgalarga aytganda orlanmasin); savodini chikarish, iktidoriga karab bilim berish, imkoniyatiga yarasha o‘kitish va kasb-xunar o‘rgatish;

- uylantirish. turmushga chikarish;

- uyli-joyli kilish;

- farzandlar orasidagi meros taksimotida adolatli bo‘lish.

Farzandning ota-ona oldidagi burchlari

- Ota-onaning pand-nasixatlariga kulok solish, ularga har doim yordam berish, mexribon, e'tiborli bo'lish, oila ishlariga ham ma'naviy, ham iktisodiy yordam berish;

- har bir farzand o'z singil va ukalariga mexribon, yo'lboshchi va yo'ldosh, odobda, axlokda, ishda, ilm-xunar o'rganishda o'rnak bo'lish;

- ota-onalarining nimaga muxtoj ekanliklarini kalban his qilish, ularga bu borada amaliy mexribonlik ko'rsatish;

- oilaga berayotgan ma'naviy va iktisodiy yordamini minnat kilmaslik;

- tavallud, bayram va xayit kunlarida yo'klab turishni kanda kilmaslik;

- kekxa ota-onalariga aloxida gamxo'rlik kilishi, shirin muomalada bo'lishi, orzu-niyatlarining amalga oshishida yordam berish;

- vakti-soati yetib, bandalikni bajo keltirsalar, izzat-ikrom bilan oxirgi manzilga kuzatish, ma'rakalarini kamtarona, dabdabasiz, karindosh-uruglar, uni bilgan, xurmat kilgan eng yakin odamlar bilan o'tkazish.

3. Oila a'zolarining huquqlari

Oilada va jamiyatda er va xotin teng huquqlarga ega. Bu yerda konunda belgilangan huquqlar haqida gap ketmokda. Bunday tenglik saylash, saylanish, kasb tanlash, ishlash, bilim olish, o'ziga yor tanlash va xokazo huquqlarda o'z ifodasini topadi. Lekin ikki jinsning biologik, ruxiy tuzilishi nuktai-nazaridan bunday tenglik yo'k. Shuning uchun ayol va erkakning oilada ro'zgor tebratish, farzandlarni tarbiyalash, farzandlarning oila yumushlari va vazifalaridagi mexnat taksimoti masalalaridagi huquq va burchlarida birmuncha tafovutlar mavjud.

Erkakning vazifasi – oilani ma'naviy, iktisodiy ko'llab-kuvvatlash. Ayoli va farzandlarining tashvishlariga sherik bo'lish. Oilaga soya solayotgan xavf-xatarlarga kalkon bo'la bilish. Oila a'zolariga gamxo'r bo'la bilish.

Ayolning vazifasi – oilada farzand tarbiyasi bilan shugullanish. Ularni ok yuvib, ok tarash. Erkakning tashib kelgan ozik-ovkatlarini pishirish, mexmon kutish. Er va bolalarini ishga va o'kishga kuzatish, kutib olish.

Er va ayolning vazifalari yukorida sanab o'tilganlardangina iborat emas, albatta. Bu vazifalarning barchasini sanab o'tishning xech kanday iloji yo'k. Oila sharoitidan kelib chikkan xolda, har bir inson o'z tafakkurini ishga solib, vazifalarini belgilab olmogi va ularni shunday bajarmoklari lozimki, uyga kelgan har bir mexmon tuz-nasibasini totib, kaytayotganida oila a'zolari orasidagi o'zaro xurmat, ularning har birini aklu farosatiga tasannolar o'kib ketsinlar.

Oila deb atalmish aravani tortib borayotgan er va xotinning bir-biriga yelkadosh bo'lishini, o'zaro odoblarini, bir-biriga bo'lgan mexribonliklarini ko'rgan farzandlar ulardan o'rnak oladilar va ularga o'xshashga harakat kiladilar. Chunki farzand aytgan nasixatingizni esidan chikarishi mumkin, ammo ko'rganini xech esidan chikarmaydi. Oilada farzand tarbiyasining bu jixatini xech kachon esdan chikarmaslik lozim.

Aytaylik, bozordan shirinlik harid kildingiz, kelgan zaxotiyok uni kichigingizga berdingiz-u, xech kimga ko'rsatma dedingiz. U esa bolaligiga borib, shirinlikni hamma akalariga ko'z-ko'z kilib chikdi. Lekin ularga yo'k. Ular o'ksinishadi. Kichik bo'lgan yaxshi ekan deyishadi. Hamma narsa kichikka, sovga ham, shirinlik ham, erkalatish ham, deb bolalar orasidagi yakkalik, o'zini uzok tutish kayfiyatlari paydo bo'la boshlaydi. Bunday xolatlarga yo'l ko'ymaslik uchun, uyga biror narsa harid kilib, olib kelganingizda har doim uni adolatli taksim kiling. Taksimlash jarayonida ota-ona o'zlarini ham unutmashliklari kerak. Bu juda muximdir. Bolalaringiz bu jarayonni ko'rsa, vakti kelib ular ham topib keladigan bo'lganlarida sizga ulush ajratishni unutmaydilar. Bolalar oldida kilgan bu adolatli taksimingiz ular uchun eng katta sabok bo'ladi. Birinchidan, ular bir-birlariga mexrlari orta boradi. Ikkinchidan, doimo ota-onani eslab turadigan bo'ladilar. Aks xolda olib kelgan narsalaringizni fakat bolalaringizga taksim kiladigan bo'lsangiz, keyinchalik ular sizni eslamaydigan, fakat o'zlarini o'ylaydigan bo'lib koladilar. Ayniksa, karib kuch-kuvvatdan kolganingizda tarbiyada yo'l ko'ygan bu xatoingiz siz uchun juda katta azobga, tuzatib bo'lmas armonga aylanadi.

Farzandlaringizga bir ko'z bilan karangiz, kattasini katta, kichigini kichik deb, shunga yarasha ish tutsangiz, kichiklarning kattalari bilan maslaxatlashib ish tutishlariga, kattalarining kichiklarini izzat kilishga, ularni ximoya kilishga

odatlantirsangiz, ularni yaxshi ishlarini ma’kullab, ragbatlantirib borsangiz, yomon ishlarini o‘z vaktida kaytarib, bu ishning nima uchun yomonligini yotigi bilan tushuntirib borsangiz, farzandlaringizning kamoli, o‘zingizning kelajakdagi roxat-farogatingiz uchun juda muxim va katta tarbiyaviy ishni amalga oshirgan bo‘lasiz. Ulardagi mexr-okibatni, obro‘larini ko‘rib, o‘z xayotingizdan mamnun bo‘lasiz, farzandlaringiz tarbiyasi borasidagi chekkan zaxmatlaringiz, mashakatlaringiz unutiladi.

Kuyidagi tarbiyaviy masalalarni taxlil kiling:

Masala-1. O‘ziga to‘k otaxonning uch kiz, bir o‘gli bor edi. U kishi kariganlarida mexrni shu yagona o‘gillaridan kutgan edi. Ammo kelini noboprok chikib, ular otaga karashmadi. Ikki katta kizi ham o‘z oilalari bilan bo‘lib, otadan xabar olmas edilar. Otaning kuniga kenja kizi yaradi. Ok yuvib, ok taradi, ko‘nglini ko‘tarishga harakat kildi. Otaxon olamdan o‘tganlaridan keyin kenja kizdan tashkari hamma meros talashib, yettisi o‘tmasdan janjallashishdi.

Masala-2. Besh oga-inining uchinchisi biznes kilaman deb katta qarzga botib koldi. Nixoyatda axvoli tang bo‘lgan uka akalariidan qarz so‘radi. O‘ziga to‘k akalari qarzni kaytarib bera oladimi, yo‘kmi? deb unga qarz berishmadi. Uka nima kilishini bilmay, o‘zini har tomonga urdi. Oxiri noiloj bir kaltis ishga ko‘l urib, kamalib ketdi. Mahallada: “Ukamning bolalarini biz bokayapmiz, xech narsaga muxtojlik joyi yo‘k“, - deb ko‘kragiga urib yurgan akalarni kanday baxolaysiz?

Nazorat uchun savollar:

1. *Oila, uning maksadi va vazifalari.*
2. *Oila tarbiyasini takomillashtirish omillari.*
3. *Oila tarbiyasida ota-onaning obro‘si. Ota-onaning farzand oldidagi va aksincha farzandning ota-ona oldidagi burchlari.*
4. *Oilaning maktab va jamoatchilik bilan hamkorligi.*
5. *Farzandning ota-ona oldidagi burchlari*
6. *Oila a‘zolarining huquqlari qanday?*
7. *Ota-onaning farzand oldidagi oldidagi burchlari.*

ADABIYOTLAR

1. Tursunov I., Nishonaliyev U. *Pedagogika kursi*. T. 1996.
2. Munavvarov A.K. *Pedagogika. "O'qituvchi"*. 1996.
3. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". T. 1997.
4. *Pedagogika. O'quv ko'llanma*. T. 1996.

www.pedagog.uz

www.ziyonet.uz

7. Mavzu: Ma'rifiy tizimlarni boshqarish

Reja:

1. O'zbekistonning Kadrlar tayyorlash milliy modeli
2. Texnologiya va pedagogik texnologiya tushunchalarining talqini va o'zaro qiyosi
3. Pedagogik texnologiyalar mohiyati

Tayanch tushunchalar: pedagogik texnologiya, maqsad, mazmun, o'quv jarayoni, loyihalash, V.P.Bespalko, pedagogik texnologiya, o'qituvchi mahorati, pedagogik amaliyot, nazariya, amaliyot, bilish faoliyati.

O'zbekistonning Kadrlar tayyorlash milliy modeli

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri "shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi"dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi.

Uning asosiy tashabbuskori va rahnamosi bo'lgan mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov tomonidan mazkur modelni pedagogik jarayonda amalga oshirish bilan bogliq bo'lgan, hayotimiz jabhalarida ro'y beradigan "portlash effekti" natijalari ro'y-rost ko'rsatib berildi, ya'ni u:

- ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhit butunlay o'zgaradi;
- insonning hayotdan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi;
- jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin Shaxsning shakllanishiga olib keladi;
- jamiyatimizning ijobiy potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi;
- fuqarolik, erkin, demokratik jamiyati qurilishini ta'minlaydi, mazkur model vositasida dunyodan munosib o'rin olishga, o'zbek nomini yanada keng yoyib tarannum etishga erishiladi .

"Portlash effekti" sari shijoat bilan qadam tashlash, yo'llarda uchraydigan "to'siq"larni bosqichma-bosqich va izchil hal etish masalalari nafaqat pedagog nazariyotchi va amaliyotchilarni junbushga keltiradi, balki jamiyatimizni to'liq pedagoglashtirish muammosini ijtimoiy buyurtma sifatida keltirib chiqaradi. Demak, jamiyatimizning har bir fuqarosini tarbiyashunoslik asoslari bilan tanishtirish, yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga yetkazish jarayonini yangi pedagogik "qurol" va vositalar bilan ta'minlashni davr taqozo etadi.

Texnologiya va pedagogik texnologiya tushunchalarining talqini va o'zaro qiyosi

Pedagogik texnologiya - shunday bilimlar sohasiki, ular vositasida uchinchi ming yillikda davlatning ta'lim sohasidagi siyosatida tub burilish yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, isonparvarlik tuygulari tizimi shakllantiriladi.

Ma'lumotlilik asosida yotuvchi bosh goya ham tabiat va inson uzviyligini anglab yetadigan avtoritar va soxta tafakkur yuritish usulidan voz kechgan, sabr-bardoshli, qanoatli, o'zgalar fikrini hurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar kabi shaxsiy sifatlarni shakllantirishni ko'zda tutgan insonparvarlik

hisoblanadi. Bu masalaning yechimi qaysidir darajada ta'limni texnologiyalashtirish bilan bogliqdir.

Dastlab "texnologiya" tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z texnikaviy taraqqiyot bilan bogliq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan - "texnos" (techne) - san'at, mahorat, hunar va "logos" (logos) - fan so'zlaridan tashkil topib "hunar fani" ma'nosini anglatadi. Biroq, bu ifoda ham, zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon, har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda, operasiyalarning muayyan ketma-ketlikda bajarilishni ko'zda tutadi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon - bu mehnat qurollari bilan mehnat obyektlari (xom ashyo)ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi mashina)ning faoliyatidir. Ana shu ta'rifni tadqiqot mavzusiga o'chiradigan bo'lsak, ya'ni: Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning ta'lim-tarbiya vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayonidir.

Yuqorida keltirilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, pedagogik texnologiya tushunchasini izohlashda texnologiya jarayoni asos qilib olindi. Aslini olganda ham, bu tushunchaga berilgan ta'riflar pedagogik adabiyotlarda nihoyatda ko'pdir. Pedagogik adabiyotlarda "texnologiya" atamasining xilma-xil ko'rinishlarini uchratish mumkin: "o'qitish texnologiyasi", "ta'limli texnologiya", "ma'lumot texnologiyasi", "o'quv jarayoni texnologiyasi" va hokazo. o'qitish texnologiyasi pedagogik texnologiyaga yaqin tushuncha bo'lsa-da, aynan o'xshash ma'noni anglatmaydi, chunki u ma'lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o'quv materialini o'zlashtirish yo'lini muayyan texnologiya atrofida ifoda etadi. U ko'proq xususiy metodika bilan bir qatorda turadi.

Pedagogik texnologiya esa ma'lumot texnologiyasini joriy etish taktikasini ifodalaydi va "o'qituvchi - pedagogik jarayon o'quvchi (talaba)" funksional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida quriladi.

Xozirgi kunda o'qituvchilar metodikani ko'p hollarda texnologiyadan ajrata olmayaptilar. Shu boisdan bu tushunchalarga aniqlik kiritish kerak bo'ladi. Metodika

.o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasidan iborat. Pedagogik texnologiya esa o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasi, yigindisidir.

Shu bilan birgalikda, qator yillar davomida pedagogik texnologiya olimlar orasida o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish sifatida qarab kelindi. Faqat 70-yillarga kelib pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati yangicha talqin etila boshlandi. Yapon olimi T.Sakamoto tomonidan "o'qitish texnologiyasi - bu o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l yo'riqlar tizimi bilan bogliq bilimlar sohasi" ekanligi e'tirof etiladi (Takashi Sakamoto.- Telewizja i kszalcenie pracu-jacych).

Obyektiv borliqni o'rganishga sistemali yondoshuv metodi fanda keng ko'lamda qo'llanilgach, uning ta'siri ostida asta-sekinlik bilan pedagogik texnologiya mohiyatiga ham aniqlik kiritila bordi: taniqli pedagog olim N.F.Talizina texnologiyani "belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat"¹ deb tushuntiradi.

I.Ya.Lernerning fikricha pedagogik texnologiya - "o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli, anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadni ifodalashni taqozo etadi"².

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, pedagogik texnologiya belgilab olingan boshlangich maqsad va mazmun asosida o'quv jarayonini loyihalash sifatida talqin etilyapti. Bu bir jihatdan to'g'ri, lekin teranroq fikr yuritilsa, uning bir yoqlamaligi yaqqol ko'zga tashlanadi chunki bunday yondoshuvlarda o'quvchi shaxsi inkor etilyapti. Bu kamchilikni birinchi bo'lib akademik V.P.Bespalko payqadi va o'zining yirik asarida "pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi mahoratiga bogliq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir" deb ta'rifladi³.

Pedagogik texnologiya tushunchasini oydinlashtirishga qaratilgan ta'riflarning xilma-xilligi, bir tomondan, rivojlangan mamlakatlarda bu mavzuning u yoki bu darajada yechilayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan pedagogik texnologiyani pedagogik amaliyotga joriy etishga bo'lgan urinishlarning ma'lum natijasini ifodalaydi.

Uzoq yillar davomida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti bir-biriga bogliq bo'lmagan holda o'rganib kelindi. Natijada, o'qitish jarayonini takomillashtirishga yoki o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan u yoki bu ilgor metodikalar texnologiya darajasiga ko'tarila olmay, asta-sekinlik bilan o'z mavqeini yo'qotib pedagogika fanidan uzoqlasha boshlagan edi. Masalan, asrimizning 60-yillarida katta shovqinga sabab bo'lgan "Dasturlashtirilgan ta'lim" (programmirovannoye obucheniye) yoki 70-yillarda sobiq ittifoq miqyosidagi "Shatalovchilik harakat"ini eslashning o'zi kifoyadir.

Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli. Nazariya va amaliyot birligini ta'minlanishi pedagogik texnologiyaning asl mohiyatini aniqlashga yo'l ochadi. Fikrimizcha, yangi pedagogik texnologiya pedagogika fanining alohida tarmogi sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim, deb qarash mumkin emas. Pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi.

Pedagogik texnologiyalar mohiyati

Pedagogik texnologiyalar, ular elementlarining hozirgi zamon ta'lim amaliyoti jarayonida qo'llanilishi va shakllanayotganligi haqida xorijiy nazariyotchi pedagoglar qatorida K.Zaripov, N.Sayidahmedov, U.Nishonaliyev, Parpiyev, X.Abdukarimov kabi mamlakatimizning taniqli olimlari ham bir qator ilmiy maqolalar e'lon qildilar.

Darvoqe, pedagogik texnologiyaga "yangi" so'zini qo'shib ishlatilishi nazariyotchi olimlar va o'qituvchilarni bir qadar o'ylantirib qo'ydi, ular endilikda ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirishga eskicha yondoshish mumkin emasligini anglashga harakat qilmoqdalar. Shunday ekan, "yangi pedagogik texnologiya" nimani anglatadi?

Birinchidan, pedagogik texnologiya ta'lim (tarbiya) jarayoni uchun loyihalanadi va belgilangan maqsadni yechishga qaratiladi.

Binobarin, har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab beradi va shunga mos holda ma'lum pedagogik tizim (maktab, lisey, kollej, oliy o'quv yurti) mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi.

"Maqsad" esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.

Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishga burmoqda, unda: "o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitdan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash" deb belgilandi. Demak, ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilandi, unga mos holda mazmunning ham, pedagogik jarayonning ham yangilanishi tabiiydir.

Ikkinchidan, fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib boryapti, auditoriyaga o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalar (sanoat, elektron, axborot) kirib kelmoqda. Ro'y berayotgan sifat o'zgarishlar shundan dalolat beradiki, endilikda "o'rganish"ning birlamchi jarayonlari an'anaviy metodika va o'qitish vositalari qolipiga sigmay, o'qituvchining individual qobiliyatlariga mos kelmay qoldi. Yangi metodikalarni talab etadigan va

ta'lim jarayonining ajralmas komponentiga aylanib borayotgan va unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, poligrafik, audiovizual vositalar mavjudki, ular yangi pedagogik texnologiyani real voqyelikka aylantirmoqda.

Pedagogik texnologiya mohiyat jihatdan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga ega, ma'lum "material" bilan ish ko'radi. Biroq pedagogik texnologiya inson ongi bilan bogliq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifodalashi bilan ishlab chiqarish, biologik, hatto axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos tomonlari - tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganligidadir.

Pedagogik texnologiya boshqa sohalaridagi texnologik tajribalar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Afsuski bu jarayon hozirgi ta'lim tizimida juda qiyin kechyapti, haqiqiy kompyuterlashgan pedagogik texnologiya o'zining ilmiy ishlanmasini kutyapti: "kompyuterlarning shu kundagi qo'llanilishi - ekstensivlik xolos, an'anaviy o'quv kurslari shunchalik ekran monitoriga joylashtirilyapti".

Shu yerda pedagogik texnologiya va axborot texnologiyasi o'rtasidagi o'zaro munosabatni oydinlashtirish lozim bo'ladi. Keyingi vaqtlarda ba'zi bir olimlar (ayniqsa, informatika fani vakillari) pedagogik texnologiyani axborotlashtirishga qo'shish yoki tenglashtirish (ba'zan ustun qo'yish)ni yoqlamoqdalar. Bu urinishlar, agar xato bo'lmasa, shubhasiz, "podadan oldin chang chiqarish" bilan barobardir. Ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, bu jarayon XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab obyektiv voqyelikka aylandi. Axborotlashtirish esa, bu jarayondagi inqilobiy "burilish"dir. Oddiy til bilan aytganda ta'limda axborot texnologiyasi - bu "o'quvchi-kompyuter" o'rtasidagi muloqotdir.

Axborotli texnologiya pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi, texnik vositalarning mukammallashtirilgan zamonaviy turi sifatida ta'lim jarayonida qo'llanila boshlandi. Kelajakda iqtisodiy buhronlar ortda qolib, o'quv yurtlari dasturli

"mashina" bilan yetarli darajada ta'minlanadi. Shundagina, axborotli texnologiya asosida, o'quvchi (talaba)larning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tugiladi va u o'qituvchining yaqin ko'makdoshiga aylanadi va uning funksiyalarini qisman o'z zimmasiga oladi.

Ta'limni texnologiyalashtirish obyektiv jarayon ekanligini, zamonaviyligi esa ilmiy-texnik taraqqiyot yo'nalishi bilan belgilanishini e'tirof etgan holda pedagogik texnologiyaning o'ziga xos tomonlari va yaqin kelajakda u bilan bogliq bo'lgan vazifalar, bizningcha, quyidagilardan iboratdir:

1) ko'p bosqichli ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarning mohiyatini asoslash va zaruriy tavsiyanomalar ishlab chiqish;

2) zamonaviy sanoat, tibbiyot, iqtisodiyot, ekologiya kabi soha texnologiyalari bilan pedagogik texnologiyalarni muntazam ravishda yangilab borish va tabaqalashtirilgan yondoshuv asosida ularni qo'llash mezonlarini aniqlash;

3) istiqbolli o'qitish vositalarini yaratish va ularga tayangan holda ilgor pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish, pedagogik amaliyotga joriy etish, ommalashtirish va samaradorlik darajasini aniqlash;

4) tegishli boshqaruv organlari (ta'lim markazlari) tomonidan o'quv muassasalari faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etilish darajasini nazorat qilish va baholash;

5) respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarni malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ilgor pedagogik va axborot texnologiyalari kabi yangi bilimlar tizimi bilan qurollantirishni muntazam tashkil etish;

6) oliy o'quv yurtlari talabalari, ayniqsa mutaxassis-pedagog (iqtisodchi-pedagog, huquqshunos-pedagog, muhandis-pedagog va boshqa) lar uchun 20 soat hajmida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti bo'yicha maxsus kurs joriy etish;

7) Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan ijodkor o'qituvchilar ish tajribalarini muntazam o'rganib tahlil etish, umumlashtirish va ular tomonidan yaratilgan metodik ishlanmalar, pedagogik texnologiya elementlarini yangi

pedagogik texnologiya darajasiga ko'tarish borasidagi ilmiy-nazariy, amaliy ishlarni ro'yobga chiqarish lozim.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.:1997, 20-29 b. 31-62 b.
2. Bepalko V.P.Slagayemye pedagogicheskoy texnologii. M.: Pedagogika. 1989. 190 s.
3. Tolipov.O'.Q, Barakayev. M, Sharipov. Sh.S. Kasbiy pedagogika. - T., 2001.
4. O'.Q.Tolipov. Pedagogik texnologiya taraqqiyoti va ta'lim nazariyasi muammolari. T., «Ma'rifat» gazetasi, 31.03.99 y.
5. O'.Q.Tolipov. O'qituvchilar tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyalar. T., «Xalq ta'limi», 2000 y. №2.
6. O'.Q.Tolipov. Shaxs va kasb, yohud shaxsni tarbiyalashda kasbga yo'naltirishning o'rni. T., «Ma'rifat» gazetasi. 2001.
7. Begmatova B. Kasb-hunar kollejlarda tadbirkorlikni shakllantirish texnologiyasi. Magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent, TDPU 2002.
8. www.glef.org. Djordj Lukasning Ta'limning fondi.
9. www.newhorizons.org. Ta'limning yangi ufqlari.
10. www.rhecherswithoutborders.org. Chegarasiz o'qituvchilar.
11. www.thelearningweb.net. Ta'lim tarmogi.
12. www.inetlibrary.com. Internet-kutubxona.
13. www.learning-revolution.com. Djanet Vos kurslari.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'zbekistonning Kadrlar tayyorlash milliy modeli
2. Texnologiya va pedagogik texnologiya tushunchalarining talqini va o'zaro qiyosi
3. Texnologiya tushunchasining pedagogikaga kirib kelish tarixi
4. Pedagogik texnologiyalar mohiyati

5. "Portlash effekti" natijalari
6. Metodika va pedagogik texnologiya tushunchalarining ʻizaro farqi
7. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida aks ettirilgan ta'lim-tarbiyaning maqsadi.

8. Mavzu: Psixologiya fanining predmeti, vazifalari va tadqiqot metodlari.

Reja:

1. "Psixologiya" fani haqida. "Psixologiya" tabiiy va ijtimoiy ilmiy fan sifatida.
2. Psixologiya fanining predmeti. Psixik aks ettirish- obyektiv olamning mubyektiv obrazi ekanligi. Psixikaning aks ettirish va boshqaruvchanlik vazifalari.
3. Psixika va ong. Ong darajalari.
4. Psixologiya fani haqidagi tasavvurlar taraqqiyotining asosiy bosqichlari.
5. Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi, tarmoqlari va uning tamoyillari.
6. Psixologiya fanining ilmiy tadqiqot metodlari, hamda nazariy hamda amaliy vazifalari.

Tayanch tushunchalar: Psixologiya, fan, qobiliyat, metod, tafakkur qilish, o'z - o'zini bilish, konkret shaxs, umumiy qonuniyatlar, prinsiplar, differensiasiya, tarmoqlar, etnopsixologiya, oilaviy hayot, psixodiagnostika.

Psixologiyaning predmeti. "Psixologiya" so'zi ikkita grek so'zlaridan - "psyche" - jon, ruh va "logos"- ta'limot, ilm so'zlaridan iborat bo'lib, an'anaviy ma'noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha xodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, psixologiyaning predmeti har birimizning tashqi olamni va o'z - o'zimizni bilishimizning asosida yotgan jarayonlar, xodisalar, xolatlar va shakllangan xislatlar tashkil etadi. Psixologiya bo'yicha adabiyotlarda uning predmetini qisqacha qilib, psixikadir, deb ta'rif berishadi. Psixika - bu inson ruhiyatining shunday xolatiki, u tashqi olamni (ichki

ruhiy olamni ham) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya'ni bilishimiz, anglashimizni ta'minlaydi. Lekin bu qisqa ta'riflardan psixikaga aloqador jarayonlar ongning aks ettirish shakllari ekan, degan yuzaki xulosaga kelish noto'g'ri bo'ladi. Chunki inson psixikasi va uning ruhiy olamiga aloqador xodisalar va jarayonlar shu qadar murakaab va xilma - xilki, biz ba'zan o'z - o'zimizni ham tushunmay qolamiz. Shuning uchun ham odamlarning bilimdonligi nafaqat tashqi olamda ro'y berayotgan obyektiv xodisalar mohiyatiga aloqador bilimlar majmuiga ega bo'lish bilan, balki hayotda munosib o'rin egallash, o'z ichki imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalangan xolda faoliyatini oqilona tashkil etishning barcha sirlaridan boxabar bo'lish, o'ziga va o'zgalarga ta'sir ko'rsatishning usullarini bilish va ulardan o'z o'rnida unumli foydalanishni nazarda tutadi. Psixologik bilimdonlikning murakkabligi aynan shundaki, atrofimizdagi narsalar va xodisalarning mohiyatini bevosita his qilib bilishimiz mumkin, lekin psixik hayotga aloqador bo'lgan jarayonlarni, o'zimizda, miyamiz, ongimizda ro'y berayotgan narsalarning mohiyatini bilvosita bilamiz. Masalan, o'rtoqlarimizdan biri bizga yoqadi, doimo bizda yaxshi, ijobiy taassurot qoldira oladi, lekin uning u yoki bu xatti - xarakatlarini bevosita ko'rib, baholab, tahlil qilolsak-da, unga nisbatan his qilayotgan mehrimizni, uzoq ko'rishmay qolganimizda uni sog'inayotganligimiz bilan bog'liq hisni bevosita ko'rib, idrok qilish imkoniyatiga ega emasmiz. Aynan shunga o'hshash xolatlar psixologiya o'rganadigan xodisalar va xolatlarning o'ziga xos tabiati va murakkabligidan darak beradi va ularni boshqa turli xodisalardan farq qiladi.

Shunday qilib, psixologiya fani o'rganadigan jarayonlar va xodisalar murakkab va xilma-xil. Ularni o'rganishning ikki jihati bor : bir tomondan, ularni o'rganish qiyin, ikkinchi tomondan oson ham. Oxirgi jihati xususida shuni aytish mumkinki, bu xodisalar bevosita bizning o'zimizda berilgan, ularni uzoqdan qidirish, mavhum analogiyalar qilish shart emas, boshqa tomondan, ular o'zaro bir - birlari bilan bog'liq va umumiy qonuniyatlar va prinsiplarga bo'ysunadi. 1 - rasmda psixik jarayonlarning namoyon bo'lish shakllari, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aks ettirilgan.

Demak, qisqa qilib, psixologiyaning predmeti konkret shaxs, uning jamiyatdagi

xulq - atvori va turli faoliyatlarining o'ziga xos tomonlaridir, deb ta'riflash mumkin.

Psixologiyaning tarmoqlari. Psixologiyaning alohida tarmoqlarini differensiasiya qilish eng avvalo ishlab chiqarishdagi inson faoliyati kechadigan sohalar va ularning vazifalaridan kelib chiqadi. hozirgi davrga kelib psixologiyani inson shaxsi xaqidagi eng muhim fanlardan biri sifatidagi ahamiyatini hamma tan olmoqda. Inson shaxsning esa bevosita kirib bormagan sohasini topish qiyin. Psixologiya iqtisod, pedagogika, falsafa, mantiq, sosiologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqador fan hisoblanadi. Chunki hamma sohada inson shaxsi faoliyat ko'rsatar ekan, har bir sohada ishni samarali tashkil etish, olib borish uchun kishilar psixologiyasini, shaxslararo munosabatlar psixologiyasini, odamlarning turli vaziyatlardagi xulq-atvor normalarini bilish va shunga ko'ra ish olib borish muhimdir. Shuning uchun hozirgi davr mutaxassisleri psixologik bilimlardan boxabar bo'lishlari lozimdir.

Psixologiyaning 300dan ortiq tarmoqlari fan sifatida rivojlanayotganligi hozirgi kunda psixologiyaning fanlar tizimida yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi:

- umumiy psixologiya - psixologiyaning barcha masalalarining o'ziga xos jihatlarini o'rganadigan maxsus sohasi;
- pedagogik psixologiya - kishiga ta'lim va tarbiya berishni psixologik qonuniyatlarini o'rganishni o'z predmeti deb biladi;
- yosh davr psixologiyasi - turli yoshdagi odamlarning tug'ilgandan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi va o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini o'rganadi;
- ijtimoiy psixologiya - odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o'rganadi;
- mehnat psixologiyasi - kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o'rganadi;
- injenerlik psixologiyasi - avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari operatorning faoliyatini, odam-texnika o'rtasida funksiyalarni taqsimlash va

muvoqilashirishning xususiyatlarini o'rganadi;

- yuridik psixologiya - huquq sistemasining amal qilishi bilan bog'liq masalalarning psixologik asoslarini o'rganadi;

- harbiy psixologiya - kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo'ladigan xulq-atvorini, boshliqlar bilan ijro etuvchilar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o'rganadi;

- savdo psixologiyasi - jamiyatda tijoratning psixologik sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga oid, jinsga oid xususiyatlarini, xaridorga xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi, modalar psixologiyasi kabi masalalarini ko'radi;

- tibbiyot psixologiyasi - shifokor faoliyati psixologiyasini, bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o'rganadi.

Shuningdek psixologiyada etnopsixologiya, oilaviy hayot psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, rahbar psixologiyasi, psixodiagnostika va boshqa ko'plab sohalari mavjud.

Psixologiyaning obyekti. Psixologiyaning fan sifatidagi xususiyatlari quydagilardan iborat:

1. Psixologiya insoniyatga tanish bo'lgan eng murakab ilm haqidagi fandır. Psixologiya psixikani o'rganadi.

2. Psixologiya vazifalari boshqa fan vazifalaridan ancha murakkabroq, chunki psixologiyada bilishning obyekti va subyekti o'zaro bir biriga kirib ketadi.

3. Psixologiya eng yosh fanlardan biridir. Fanning ilmiy shakllanishi 1879 yil bilan bog'liq. Bunda Leypsig shahrida dunyoda birinchi marta V. Vundt tomonidan eksperimental psixologiya Laboratoriyasi ochilgan edi.

4. Psixologiya takrorlanmas amaliy ahamiyatga ega. Chunki psixologiya:

- O'z-o'zini bilishga va o'zgartirishga;

- O'z psixologik funksiyalarini, xulq-atvorini boshqarishga;

- Boshqalarni tushunishga va ular bilan hamkorlik qilishga yordam beradi.

Psixologiyaning fan sifatidagi xususiyatlari. Psixologiya fan sifatida hayotiy psixologiyadan farq qiladi.

1. Ilmiy bilimlarga qo'ra hayotiy bilimlar konkret, ilmiy psixologiya esa umumlashtirishga xarakat qiladi, shaxs va guruhlarining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi;

2. Hayotiy psixologik bilimlar amaliyotda olinadi, ilmiy psixologik bilimlar esa ongli o'zlashtiriladi;

3. Psixologiya fan sifatida juda boy materialga ega;

4. Psixologiyada fan sifatida bilim olish uchun fundamental va har xil turdagi usullar mavjud.

Eng avvalo psixologiyaning metodologik asoslarini ajratish mumkin. Inson o'z hayot mazmunini topishga xarakat qiladi.

V. Franklning aytishicha, har bir inson o'z xayoti mazmuni o'zi topishi kerak.

Bu masala turli davrlarda turlicha kechgan.

Bugun dunyoning to'rt ko'rinishi haqida gapirish mumkin:

1. Ajralmagan dunyo. Inson o'zini dunyoda ajratmagan. Ruh va tana muammosi bir bo'lgan.

2. Ajralgan dunyo. Bunda inson va olamni alohida ko'rsatishga xarakat qilingan. Platondan (428-347 eramizdan oldin) boshlab ikki substansiya – inson va olam ajralgan.

3. Inson hayot subyekti sifatida. Inson o'z xayotini o'z manfaatlariga ko'ra o'zgartirishi. Bunda atrofdagi olamni o'zgartirish ehtiyoti namoyon bo'ladi.

4. Inson tabiiy olamning ustuvori sifatida. Bu ertangi kunning ko'rinishi.

Shunday qilib, olamning ko'rinishi va fan u yoki bu o'quv predmetining xarakterini, olimning qarashlari, dunyoqarashini, o'z vazifalarini belgilab beradi.

Psixologiyaning predmeti sifatida turli davrlarda quyidagilar ajratilgan:

-ruh;

-xodisa;

-ong;

-Xulq-atqor;

-ongsizlik;

-axborotni qayta ishlash va bu jarayonlarning natijalari;

-insonning shaxsiy tajribasi.

Bu sohalarning barchasi har xil ilmiy yo'nalishlar, nazariya va konsepsiyalarda o'z aksini topgan.

Psixologiyaning asosiy metodlari. Aniq izlanish predmetiga ega bo'lgan har qanday fan, o'sha predmetining mohiyatini yoritish va materiallar to'plash uchun maxsus usullar va vositalardan foydalanadi va ular fanning metodlari deb yuritiladi. Fanning salohiyati va obro'si ham birinchi navbatda o'sha metodlar yordamida to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi va validliligiga bog'liq bo'ladi. Bu fikrlar bevosita psixologiyaga ham aloqador bo'lib, metodlar masalasi bu fanda juda katta ahamiyatga molik masala sifatida qaraladi. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, psixik xodisalarni bevosita qo'l bilan ushlab, ko'z bilan ilg'ab, quloq bilan sezish qiyin. Lekin juda ko'plab fanlar bilan faol xamkorlik shunga olib kelganki, psixologiyaning har bir tarmog'i o'z vazifalarini yechish va ma'lumotlarga ega bo'lish uchun ko'plab metodlarni sinovlardan o'tkazib, eng ishonchli va mukammallarini saqlab qolgan.

Matematik statistika va ehtimollar nazariyasining psixologiya sohasida qo'llanilishi va unda erishilgan muvaffaqiyatlar avvalo har bir metodning ishonchlilik darajasini aniqlash, qolaversa, to'plangan ma'lumotlarning qay darajada asosli va valid ekanligini isbotlashga yordam beradi.

1 - jadvalda asosiy psixologik metodlar va ularni qo'llash shakllari keltirilgan.

Jadvalda keltirilgan metodlar yordamida tadqiqotchi yoki qiziqqan shaxs u yoki bu psixik jarayon, xolat yoki shaxs xususiyatlari to'g'risida birlamchi ma'lumotlar to'playdi, to'plangan ma'lumot yana taxlil qilinadi va maxsus tarzda ishlatilishi mumkin.

1-jadval

Psixologiyaning asosiy metodlari

Asosiy metodlar	Asosiy metodlarning variantlari
KUZATISH METODI	Tashqi (obyektiv kuzatish) Ichki (subyektiv, o'z-o'zini kuzatish) Erkin kuzatuv Standartlashtirilgan Guruh ichida kuzatish Guruh tashqarisida kuzatish
SO'ROQ METODLARI	Og'zaki so'roq Yozma so'roq Erkin so'roq (suhbat) Standartlashtirilgan so'roq
TESTLAR METODI	Test - so'rov Test - topshiriq Proyektiv test Sosiometrik test
EKSPERIMENT	Tabiiy eksperiment Laboratoriya eksperimenti
MODELLASHTIRISH	Matematik modellashtirish Mantiqiy modellashtirish Texnik modellashtirish Kibernetik modellashtirish

Kuzatish metodi tabiiy metodlar jumlasiga kiradi. Tashqi kuzatuv mohiyatan kuzatiluvchi xulq - atvorini bevosita tashqaridan turib, kuzatish orqali ma'lumotlar to'plash usulidir. O'z - o'zini kuzatish esa odam o'zida kechayotgan biror o'zgarish yoki xodisani o'zi o'rganish maqsadida ma'lumotlar to'plash va qayd etish usulidir.

Erkin kuzatuv ko'pincha biror ijtimoiy xodisa yoki jarayonni o'rganish maqsad

qilib qo'yilganda qo'llaniladi. Masalan, bayram arafasida aholining kayfiyatini bilish maqsadida kuzatuv tashkil qilinsa, oldindan maxsus reja yoki dastur bo'lmaydi, kuzatuv obyekti ham qat'iy bo'lishi shart emas. Yoki dars jarayonida bolalarning u yoki bu mavzu yuzasidan umumiy munosabatlarini bilish uchun ham ba'zan erkin kuzatish tashkil etilishi mumkin. Standartlashtirilgan kuzatuv esa, buning aksi bo'lib, nimani, qachon, kim va kimni kuzatish qat'iy belgilab olinadi va maxsus dastur doirasidan chiqmasdan kuzatuv olib boriladi.

Ijtimoiy hamda pedagogik psixologiyada guruhij jarayonlarning shaxs xulq - atvoriga ta'sirini o'rganish maqsadida bevosita ichkaridan kuzatuv tashkil qilinadi, bunda kuzatuvchi shaxs o'sha guruh yoki oila hayotiga tabiiy ravishda qo'shiladi va zimdan kuzatish ishlarini olib boradi. Bu bir qarashda kontrrazvedkachilarning faoliyatini ham eslatadi. Shu yo'l bilan olingan ma'lumotlar bir tomondan tabiiyligi va mufassalligi bilan qimmatli bo'lsa, ikkinchi tomondan, agar kuzatuvchida konformizm xislati kuchli bo'lsa, o'zi ham guruh hayotiga juda kirishib ketib, undagi ayrim xodisalarni subyektiv ravishda qayd etadigan bo'lib qolishi ham mumkin. Guruhij fenomenlarni tashqaridan kuzatish buning aksi, ya'ni kuzatuvchi guruhga yoki kuzatilayotgan jarayonga nisbatan chetda bo'ladi va faqat bevosita ko'zi bilan ko'rgan va eshitganlari asosida xulosalar chiqaradi.

Umuman kuzatish metodining ijtimoiy hayot, professional ko'rsatgichlarni qayd qilishda so'zsiz afzalliklari bor, lekin shu bilan birga kuzatuvchining professional mahorati, kuzatuvchanligi, sabr - qanoatiga bog'liq bo'lgan jihatlar, yana to'plangan ma'lumotlarni subyektiv ravishda taxlil qilish xavfi bo'lgani uchun ham biroz noqulayliklari ham bor, shuning uchun ham u boshqa metodlar bilan birgalikda ishlatiladi.

So'rov metodi ham psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma'lumotlar to'plashning an'anaviy usullaridan hisoblanadi. Unda tekshiriluvchi tekshiruvchi tomonidan qo'yilgan qator savollarga muxtasar javob qaytarishi kerak bo'ladi.

Og'zaki so'roqni yoki ba'zan uni oddiygina qilib, suhbat metodi deb ataladi, o'tkazadigan shaxs unga ma'lum darajada tayyorgarlik ko'rgach so'roq o'tkazadi. Agar mabodo uning professional mahorati yoki tajribasi bunga yetarli bo'lmasa,

so'rov o'z natijalarini bermasligi mumkin. Lekin mahoratli so'rovchi ushbu metod yordamida inson ruhiy kechinmalariga aloqador bo'lgan noyob ma'lumotlarni to'plash imkoniga ega bo'ladi.

Yozma so'roq yoki anketaning afzalligi shundaki, uning yordamida bir vaqtning o'zida ko'pgina odamlar fikrini o'rganish mumkin bo'ladi. Unga kiritilgan savollar, ulardan kutiladigan javoblar (yopiq anketa), yoki erkin o'z fikrini bayon etish imkoniyatini beruvchi (ochiq anketa) so'rovnomalar aniq va ravon tilda javob beruvchilar tushunish darajasiga monand tuzilgan bo'lsa, shubxasiz, qimmatli birlamchi materiallar to'planadi.

So'roqning ham erkin va standartlashtirilgan shakllari mavjud bo'lib, birinchisida oldindan nimalar so'ralishi qat'iy belgilab olinmaydi, ikkinchi shaklida esa, xattoki, kompyuterda dasturi ishlab chiqilib, minglab odamlarda bir xil talablar doirasida so'roq o'tkazilishi nazarda tutiladi.

Testlar oxirgi paytda hayotimizga dadil kirib kelgan tekshiruv usullari sirasiga kiradi. Ular yordamida biror o'rganilayotgan xodisa xususida ham sifat, ham miqdor xarakteristikalarini olish, ularni ko'pchilikda qayta - qayta sinash va ma'lumotlarni korrelyasion analiz orqali ishonchlilikka tekshirish mumkin bo'ladi. Ayni testga qo'yilgan talab hyech qachon o'zgarmaydi, xattoki, shunday testlar borki, ular turli millat va elat vakillarida, turli davrlarda ham o'zgarmagan holda ishlatilaveradi. Masalan, Ravenning aqliy intellektni o'lchash, Kettelning va Ayzenkning shaxs testlari shular jumlasidandir.

Test - so'rov oldindan qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi. Masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat testi shaxsdagi introversiya - ekstroversiyani o'lchaydi, savollarga "ha" yoki "yo'q" tarzida javob berish so'raladi.

Test - topshiriq odam xulqi va xolatini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi. Masalan, shaxs tafakkuridagi kreativlikni aniqlash uchun ko'pincha bir qarashda oddiygina topshiriq beriladi: berilgan 20 ta doira shaklidagi shakllardan o'zi xoxlagancha rasmlar chizish imkoniyati beriladi. Ma'lum vaqt va tezlikda bajarilish sur'ati, rasmlarning o'ziga xos va betakrorligiga qarab

shaxs fikrlashi jarayonining naqadar nostandart, ijodiy va kreativligiga baho berilib, miqdoriy ko'rsatgich aniqlanadi. Bu metodlarning umumiy afzalligi ularni turli yosh, jins va kasb egalariga nisbatan qo'llashning qulayligi, bir guruhda natija bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv o'tkazish imkoniyatining borligi bo'lsa, kamchiligi - ba'zan tekshiriluvchi agar testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, sun'iy tarzda uning kechishiga ta'sir ko'rsatishi, faktlarni falsifikasiya qilishi mumkinligidir.

Testlar ichida proyektiv testlar deb nomlanuvchi testlar ham borki, testning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo'ladi. Ya'ni shunday topshiriq beriladiki, tekshiriluvchi topshiriqni bajarayotib, nimani aniqlashi mumkinligini bilmaydi. Masalan, mashhur Rorshaxning "siyoh dog'lari" testi, yoki TAT(tematik appersepshion test), tugallanmagan xikoyalar kabi testlarda bir narsaning proyeksiyasidan go'yoki ikkinchi bir narsaning mohiyati aniqlanadi. O'sha 1921 yilda kashf etilgan "siyoh dog'lari" va ularga qarab tekshiriluvchining nimalarni eslayotganligi, dog'lar nimalarga o'xshayotganligiga qarab, uning shaxs sifatidagi yo'nalishlari, hayotiy tamoyillari, qadriyatlariga munosabati, ishni bajarish paytidagi emosional holatlari aniqlanadi. Bu testlar juda noyob, qimmatli, lekin uni faqat professional psixologgina qo'llashi va natijalarni mohirona tahlil qilishi talab qilinadi.

Psixologik eksperimentning mohiyati shundaki, unda ataylab shunday sun'iy bir vaziyat shakllantiriladi va tashkil etiladiki, aynan shu vaziyatda qiziqtirayotgan psixik jarayon yoki xodisa ajratiladi, o'rganiladi, ta'sir ko'rsatiladi va baholanadi. Agar tabiiy eksperiment o'sha qiziqtirayotgan fenomen tekshiriluvchi uchun tabiiy hisoblangan sharoitlarda (masalan, mehnat jarayonida, kanikulda yozgi lagerda, lisey auditoriyasida va shunga o'xshash) maqsadli tashkil etilib, o'rganilsa, laboratoriya eksperimenti maxsus joylarda, maxsus asbob - uskunalar vositasida ataylab o'rganiladi. Masalan, diqqatingizning xususiyatlarini bilish kerak bo'lsa, psixologiya laboratoriyasida maxsus taxistoskop deb atalgan moslama yordamida yoki "Landolt xalqachalari" deb nomlangan jadvallar yordamida o'rganish mumkin bo'ladi. Xattoki, ijtimoiy munosabatlar borasida ham o'zaro hamjihatlik, liderlik va

konformlilik xodisalarini tekshirish uchun gruppaviy integratorlar va gomeostat deb nomlanuvchi moslamalar yaratilgan va ular yordamida guruhdagi turli xil xodisalar o'lgangan.

Modellashtirish metodi kuzatish, so'roq, eksperiment yoki boshqa usullar yordamida o'rganilayotgan xodisaning tub mohiyati ochilmagan sharoitlarda qo'llaniladi. Bunda o'sha xodisaning umumiy xossasi yoki asosiy parametrlari modellashtirilib, o'sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihat o'rganiladi va xulosalar chiqariladi.

Modellar texnik, mantiqiy, matematik yoki kibernetik bo'lishi mumkin. Matematik model asosida o'rganilgan xodisaga mashhur tadqiqotchilar Veber - Fexnerlarning sezgirlikning quyi va yuqori chegarasini aniqlashga qaratilgan matematik formulasi va shu asosda to'plangan ma'lumotlar taxlilini misol qilish mumkin. Mantiqiy modellar yordamida ko'pincha inson aqli va tafakkuri jarayonlari va qonunlarini hisoblash mashinalari ish prinsiplari bilan qiyoslash orqali tuzilgan g'oyalar va simvollar ishlatiladi. Kibernetik modellashtirishda esa g'oyalar psixologiyasini EXM dagi matematik programmalashtirish tamoyillariga moslashtirish nazarda tutiladi. Hozir ko'pgina murakkab shaxs xususiyatlari ham programmalashtirilgan bo'lib, ular algoritmlar asosda qisqa fursatda ko'pgina sifatlarni ko'plab parametrlar nuqtai nazaridan hisoblab, natijalarni umumlashtirishga imkon bermoqda. Ko'pincha matematik o'yinlar g'oyasi odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sohasini o'rganishda ham qo'llanilmoqda. Ma'lum bo'lishicha, odamning fikrlash operasialari bilan EXM larning ishlash prinsiplari o'rtasida ma'lum uyg'unlik bor ekan, bu esa murakkab psixik jarayonlarni modellashtirish orqali inson aqlu - zakovati chegarasini yanada kengaytirish istiqbolini beradi.

Umuman, psixologiyaning va uning har bir alohida tarmoqlarining o'ziga xos metodlari bor. Ular ijtimoiy xulq va alohida individ ichki dunyosini kompleks tarzda o'rganish imkonini beradi. Gap shundaki, ularni o'z vaqtida va professional tarzda qo'llay bilish va olingan natijalardan to'g'ri xulosalar chiqara olishdir.

Nazorat savollari:

1. Psixologiya fanining xususiyatlari.
2. Psixologiya fanining shakllanishi tarixi.
3. Psixologiyaning amaliy ahamiyati.
4. Psixologiya fani bilan hayotiy psixologiyaning farqi.
5. Psixologiyaning asosiy metodlari.
6. Psixologik eksperimentning mohiyati.
7. Kuzatish metodining ahamiyati.
8. So'roq metodlarining turlari.
9. Testlar metodining ahamiyati.
10. Eksperiment modellashtirishning asosi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Inog'omov R., Toshmurodova Q. Pedagogika fani XXI asrda. - T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2000.
2. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T., 2005.
3. Klimov Ye.A. Основы психологии. – M., 1998.
4. Nemov R.S. Psixologiya. V 3-x kn. – M., 1998.
5. Подласый I.P. Pedagogika. Новый курс v 2-x kn. – M.: Vados, 1999.
6. Psixologo-pedagogicheskiy slovar dlya uchiteley i rukovoditeley общеобразовательных учреждений. – Rostov –na – Donu: Feniks, 1998.

9. Mavzu: Shaxs va uning faoliyati

Reja:

1. Shaxs haqida tushuncha. Indivud, shaxs, individuallik. Shaxsning tuzilishi.
2. Shaxs taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar. Shaxsni eksperimental tadqiq qilish metodlari. Shaxs shakllanishining ijtimoiy shart-sharoitlari va uning yo'nalishi.
3. Shaxs faoliyati va uning yo'nalishi. Faoliyatning tuzilishi. Tashqi va ichki harakatlar. "Men" - obrazi va o'z- o'ziga baho berish.

Shaxs va uning faolligi.

2. Faoliyatning turlari. Jismoniy va aqliy xarakatlar.

3. Ijtimoiy hulq motivlari va shaxs motivasiyasi.

4. Motivlarning turlari.

5. Motivlarning anglanganlik darajasi: ijtimoiy ustanovka va uni o'zgartirish muammosi

Tayanch tushunchalar: Shaxs, ijtimoiy muhit, ijtimoiylashuv, shaxs yo'nalganligi, o'z-o'zini anglash, "Men" – obrazi, maqsad, ideal, qiziqish, etiqod, dunyoqarash, Nativizm, Empirizm, qobiliyatlar, irsiy xususiyatlar, faoliyat, tashqi va ichki faollik.

Shaxs ijtimoiy ta'sirlar mahsuli sifatida. "Shaxs" tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bo'lgan aloqasi masalasini chetlab o'tolmagan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, "Homo sapiens" - "aqlli zot" tushunchasini o'zida ifoda etuvchi jonzotning paydo bo'lganiga taxminan 40 ming yildan oshibdi. Bu davrda olimlarning e'tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan emish. Darwin ta'biri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida yer yuzida saqlanib qolgan minglab millat va elatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti ko'proq biologik omillardan ko'ra, ijtimoiy - sosial omillar ta'sirida ro'y bermoqda. Shuning uchun ham xar bir individni yoki shaxsni o'rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o'rganishni taqozo etadi.

Sosial yoki ijtimoiy muhit - bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Psixologiya ilmining namoyondalari bo'lmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Farobiy, A.Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy va

ijtimoiy sirlarini ochishga o'zlarining eng durdona asarlarini bag'ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiy bo'lgan narsa shu bo'lganki, odamni, uning mohiyatini anglash uchun avvalo uning shu jamiyatda tutgan o'rni va mavqeyini bilish zarur. Shaxsni o'rganishning birlamchi mezoni ham shundan kelib chiqqan holda, uning ijtimoiy mavqeyi, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni bilan belgilanishi kerak.

Shaxs haqidagi an'anaviy nazariyalar. Shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar masalasi birdaniga, bir xil yechimga kelinmagan. Bu o'zaro munosabatlar asosan ikki polyar nuqtai nazardan kelib chiqadi.

Nativizm yo'nalishining tarafdorlari insonlardagi barcha xususiyatlarni tug'ma xarakterga ega, deb e'tirof etadilar. (Lens, Gruber va boshqalar).

Empirizm tarafdorlarining fikricha, yangi tug'ilgan bola go'yoki "top - toza taxta" (tabula rasa), unga hayot va undagi talablar o'zining qonuniyatlarini yozadi va bola ularga so'zsiz bo'ysunishga majbur. Bu yo'nalishning asoschilaridan biri Dj. Lokk bo'lib (1632 - 1704) uning fikricha, tug'ma fikrlar yoki g'oyalar bo'lishi mumkin emas, ular xoxish - tilak va og'riq kabi elementar sezgilarning qayta ishlanishi natijalaridir. Xayotda ana shunga o'xshash turli xil sezgilar va g'oyalarning assosiasiyasi ro'y beradi.

G. Leybnis (1646-1716) Lokka e'tiroz bildirib, hayotda umuman toza, sof doskaning o'zi bo'lmaydi, xattoki, eng yaxshi silliqlangan marmar yuzasida ham sezilarli teshiklar, do'ngliklar yoki tug'ma asoratlar bo'ladiki, ular layoqatlardek, inson taqdirida ma'lum rol o'ynaydi. Bu ikkala yirik yo'nalish o'rtasidagi tortishuvlarga chek qo'yish maqsadida F. Galton qator eksperimental tadqiqotlar o'tkazib, har bir individga xos differensial xususiyatlar mavjudligini "egizaklar metodi" yordamida asoslashga harakat qildi. 1 - jadvalda Galton tomonidan irsiy va orttirilgan sifatlar munosabati yuzasidan aniqlangan natijalardan keltirilgan.

1 - jadval

Musiqiy qobiliyatlardagi irsiy xususiyatlar

Ota - onalar Bolalar	musiqaga moyil	musiqaga moyil emas
Musiqaga moyil	85 %	7 %

Musiqaga moyil emas	25 %	58 %
---------------------	------	------

Egizaklardagi musiqaga moyillikning korrelyasion ko'rsatgichi ham yuqori bo'lib ($p = 0,7$), egizak bo'lmaganlardan ancha farq qiladi ($p = 0,3 - 0,4$).

Galtondan keyingi tadqiqotlarda musiqaga bo'lgan qobiliyatga ona tilining xususiyati ta'sir qilishi aniqlandi: yumshoq - tonal yoki keskin - tonal bo'lmagan tillar. Masalan, keskinroq hisoblangan rus tilida gapiruvchi bolalardagi musiqani idrok qilish yumshoq, tonal tillarda so'zlashuvchi vyetnamliklarning idrokidan ancha past chiqqan.

Lekin yuqoridagi fikrlar va tortishuvlarning kelib chiqish sababi tushunarli bo'lishi kerak: ular insonning asl mohiyatini tushunish va uning xulqini boshqarish ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Demak, inson jamiyat a'zosi sifatida uning normalariga bo'ysunadi, uning kutishlariga javob berishga xarakat qiladi va o'z xulqini uning talablariga monand qilishga intiladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, shaxs fenomeniga ta'rif berish mumkin.

Shaxs - ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning subyekti bo'lmish individdir. Shaxsga taaluqli bo'lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham obyekt, ham subyekt bo'lishlikdir.

Shaxsga taaluqli bo'lgan fazilatlardan eng muhimi shuki, u shu tashqi, ijtimoiy ta'sirlarni o'z ongi va idroki bilan qabul qilib (obyektni), so'ngra shu ta'sirlarning subyekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanoq "mening hayotim", "bizning dunyo" degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o'sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, ahloq olamidir. Bu muhit - kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an'analar, udumlar, turli xil tillar olami bo'lib, undagi ko'plab qoidalarga ko'pchilik mutloq qo'shiladi, ba'zilar qisman qo'shiladi. Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo'ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta'qiblanadi. Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib - qoidalarni qabul qiluvchi subyekt bo'lsa, jamiyat - ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko'rinishidir.

Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar ta'sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy,

iqtisodiy, ma'naviy, ahloqiy va boshqalar. Bu ta'sirotlar mohiyatan aslida jamiyat a'zolari bo'lmish shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ayrim alohida yo'nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'sirida bo'ladi va ko'plab ijtimoiy institutlar (oilalar, mahallalar, o'quv maskanlari, mehnat kollektivlari, norasmiy tashkilotlar, din, san'at, madaniyat va boshq.) bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, shaxsdagi turli g'oyalar, fikrlar va mafkura mafkuraviy munosabatlar tizimi ta'sirida shakllanib, ular bevosita oilalar, bog'chalar, maktab va boshqa o'quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tiqodi darajasida ko'tarilsa, va unda yana yangidan - yangi fikrlar va g'oyalarning paydo bo'lishi va o'sishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, o'z qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirib borib, ziyoli sifatida yo o'qituvchi, yoki vrach, yoki olim, kashfiyotchi, muxandis bo'lib, elu - yurtiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlari shakllanishida katta rol o'ynaydi. Masalan, bosqichma - bosqich bozor munosabatlariga o'tayotgan O'zbekiston sharoitini oladigan bo'lsak, yangicha iqtisodiy o'zgarishlar, bozor, raqobat, legalizatsiya va shunga o'xshash yangiliklar har bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bo'lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy xulqi normalarini belgilaydi.

Ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxs. Ijtimoiy norma - shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq - atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan xarakteristikalar talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, "Assalomu alaykum" deb kelishi - norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi - norma; xotinning er hurmatini o'rniga qo'yishi, qaynonaga gap qaytarmaslik - norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rin bo'shatishi - norma va hokazo. Bu normalarni ayrim - alohida odamlar ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, xayotiy vaziyatlarda

ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muhrlanadi.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi. Ijtimoiy sanksiyalar - normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri obyektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, yuqoridagi misolda, agar jamoat transportida katta muysafid kishiga o'rin bo'shatishni norma deb qabul qilmagan o'smirga nisbatan ko'pchilikning ayblovi ko'zi bilan qarashi, yoki og'zaki tanbeh berishi, juda kam hollarda o'zini bebosh tutayotgan o'smirning qo'lidan tutib, nima qilish kerakligini o'rgatib, "ko'zini moshday qilib ochib qo'yish" ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko'rinishidir.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi. Rol - shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi xuquq va burchlaridan iborat xarakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish - u yoki bu oliy o'quv yurtida taxsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a'zo bo'lish, stipendiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator xuquqlar bilan birgalikda o'sha oliygoh ichki tartib - intizomi normalariga so'zsiz bo'ysunish, darslarga o'z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o'zlashtirish normalarini bajarish, amaliyotda bo'lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarni ham o'z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan "farzandlik" roli (ota va ona, yaqin qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya'ni, konkret shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli - tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, kimdir "tartibli, ba'mani, fozil, ahloqli va odobli" deyilsa, kimdir - be'mani, bebosh, o'zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda

qobil, boshqa yerda - betartib) degan hayotiy mavqyega ega bo'lib qoladi.

Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko'pligi sababli ham, turli vaziyatlardagi uning mavqyei - statusi ham turlicha bo'lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o'zi uchun o'ta ahamiyatli bo'lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o'sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboproq mavqyeni egallab qolishi mumkin. qolaversa, rollarning ko'pligi ba'zan rollar ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda - shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshdan kechirishi mumkin. Masalan, sirdan taxsil olayotgan talaba sessiya paytida ishlab turgan korxonasiga komissiya kelishi va uning faoliyatini tekshirayotganligini bilib, ruhiy azobga tushadi - bir tomondan, talabachilik va uning talablari, ikkinchi tomondan - kasbdoshlar oldida uyalib qolmaslik uchun har kuni ishxonaga ham borib kelish.

Hozirgi ijtimoiy - iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi raqobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o'zida qator qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniqsa, yoshlar o'zgaruvchan sharoitlarga tezroq moslashish uchun ba'zan bir - biriga zid xislatlarni ham xulqda namoyon qilishga majbur bo'lishmoqda. Masalan, yosh oila boshlig'i, talaba, ota - onalarga moddiy jihatdan qaram bo'lmaslik uchun, bir vaqtning o'zida ham itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa - chaqqon va uddaburon, tadbirkor, tijoratchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lishi mumkin. Bu xolat tabiiy, shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va o'z ustida muttasil ishlashni talab qiladi.

Ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan anglanishi. Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq - atvorini ma'lum ma'noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin insonning komilligi, uning ahloq - ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul xarakati uning o'ziga ham bog'liqdir. Odamning o'z - o'zini anglashi, bilishi va o'z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o'ziga, o'z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari, xissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya'ni, ijtimoiy xulq - shaxs tomonidan uni o'rab turgan odamlar, ularning xulq - atvorlariga e'tibor berishdan tashqari, o'zining shaxsiy xarakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali,

rollarni muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi.

Shaxsning o'zi, o'z xulq -atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeyini tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obraz - "Men" - obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va realikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi.

"Men" - obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qargalanda, tarbiya shaxsning o'zi va o'z sifatleri to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin. Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo'ladi, ya'ni u tarbiyalangan bo'ladi.

O'z - o'zini anglash, o'zidagi mavjud sifatleri baholash jarayoni ko'pincha konkret shaxs tomonidan og'ir kechadi, ya'ni, inson tabiati shundayki, u o'zidagi o'sha jamiyat normalariga to'g'ri kelmaydigan, no'maqul sifatleri anglamaslikka, ularni "yashirishga" harakat qiladi, xattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi (avstriyalik olim Z. Freyd nazariyasiga ko'ra). Bu ataylab qilinadigan ish bo'lmay, u har bir shaxsdagi o'z shaxsiyatini o'ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko'pincha turli xil yomon asoratlardan, xissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, "Men" - obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o'sha shaxsni o'rab turgan tashqi muhit, o'zgalar va ularning munosabati katta rol o'ynaydi. Odam o'zgalarga qarab, go'yoki oynada o'zini ko'rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada refleksiya deb ataladi. Uning mohiyati - aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Refleksiya "Men" - obrazi egasining ongiga taalluqli jarayondir. Masalan, ko'chada bir tanishingizni uchratib qoldingiz. Siz tinmay unga o'z yutuqlaringiz va mashg'ulotlaringiz haqida gapirmoqdasiz. Lekin gap bilan bo'lib, uning qayergadir shoshayotganligiga e'tibor bermadingiz. Shu narsani siz uning betoqatlik bilan sizni tinglayotganligidan, hayoli boshqa yerda turganligidan bilib qolasiz va shu orqali ayni shu paytda "mahmadona, laqmaroq" bo'lib qolganingizni sezasiz. Keyingi safar shu o'rtog'ingiz bilan

uchrashganda, oldingi xatoga yo'l qo'ymaslik uchun "O'rtoq, shoshmayapsanmi?" deb so'rab ham qo'yasiz. Ana shu ilgarigi refleksiyaning natijasidir. Ya'ni, suhbatdosh o'rniga turib, o'zingizga tashlangan nazar ("men unga qanday ko'rinyapman?") -refleksiyadir.

Shaxsning o'zi xaqidagi obrazi va o'z - o'zini anglashi yosh va jinsiy o'ziga xoslikka ega. Masalan, o'ziga nisbatan o'ta qiziquvchanlik, kim ekanligini bilish va anglashga intilish ayniqsa, o'smirlik davrida rivojlanadi. Bu davrda paydo bo'ladigan "kattalik" xissi qizlarda ham, o'smir yigitchalarda ham nafaqat o'ziga, balki o'zgalar bilan bo'ladigan munosabatlarini ham belgilaydi. qizlardagi "Men" - obrazining yaxshi va ijobiy bo'lishi ko'proq bu obrazning ayollik sifatlarini o'zida mujassam eta olishi, ayollik xislatlarining o'zida ayni paytda mavjudligiga bog'liq bo'lsa, yigitlardagi obraz ko'proq jismonan barkamollik mezonlari bilan nechog'li uyg'un ekanligiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham o'smirlikda o'g'il bolalardagi bo'yning pastligi, muskullarning zaifligi va shu asosda qurilgan "Men" - obrazi qator salbiy taassurotlarni keltirib chiqaradi. qizlarda esa tashqi tarafdan go'zallikka, kelishganlik, odob va ayollarga xos qator boshqa sifatlarning bor - yo'qligiga bog'liq xolda "Men" obrazi mazmunan idrok qilinadi. qizlarda ham ortiqcha vazn yoki terisida paydo bo'lgan ayrim toshmalar yoki shunga o'xshash fiziologik nuqsonlar kuchli salbiy emosiyalarga sabab bo'lsa - da, baribir, chiroyli kiyimlar, taqinchoqlar yoki sochlarning o'ziga xos turmagi bu nuqsonlarni bosib ketadigan omillar sifatida qaraladi.

"Men" - obrazi va o'z - o'ziga baho. "Men" - obrazi asosida ham bir shaxsda o'z-o'ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadiki, bu tizim ham obrazga mos tarzda har xil bo'lishi mumkin. O'z-o'ziga nisbatan baho turli sifatlar va shaxsning orttirilgan tajribasi, shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog'liq holda turlicha bo'lishi mumkin. Ya'ni, ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketsa, boshqasi ta'sirida - aksincha, pastlab ketishi mumkin. Bu baho aslida shaxsga boshqalarning real munosabatlariga bog'liq bo'lsa-da, aslida u shaxs ongi tizimidagi mezonlarga, ya'ni, uning o'zi subyektiv tarzda shu munosabatlarni qanchalik qadrlashiga bog'liq tarzda shakllanadi. Masalan, maktabda bir fan o'qituvchisining bolaga nisbatan ijobiy

munosabati, doimiy maqtovlari uning o'z - o'ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o'qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin. Ya'ni, bu baho ko'proq shaxsning o'ziga bog'liq bo'lib, u subyektiv xarakterga egadir.

O'z-o'ziga baho nafaqat xaqiqatga yaqin (adekvat), to'g'ri bo'lishi, balki u o'ta past yoki yuqori ham bo'lishi mumkin.

O'z-o'ziga bahoning past bo'lishi ko'pincha atrofdagilarning shaxsga nisbatan qo'yayotgan talablarining o'ta ortiqqligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e'tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o'qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida xosil bo'lishi mumkin. Bunday o'smir yoki katta odam ham, doimo tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilardan chetroqda yurishga harakat qilishi, o'zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchsizlik kayfiyatida bo'lishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda qator salbiy sifatlar va hattixarakatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Xattoki, bunday xolat suisidal harakatlar, ya'ni o'z joniga qasd qilish, real borligidan "qochishga" intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin.

O'zi-o'ziga baho o'ta yuqori ham shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki, u ham shaxs yutuqlari yoki undagi sifatlarning boshqalar tomonidan sun'iy tarzda bo'rttirilishi, noo'rin maqtovlar, turli qiyinchiliklarni chetlab o'tishga intilish tufayli shakllanadi. Ana shunday sharoitda paydo bo'ladigan psixologik xolat "noadekvatlilik effekti" deb atalib, uning oqibatida shaxs xattoki, mag'lubiyatga uchraganda yoki o'zida nochorlik, uquvsizliklarni sezganda ham buning sababini o'zgalarda deb biladi va shunga o'zini ishontiradi ham (masalan, "xalaqit berdi-da", "falonchi bo'lmaganida" kabi bahonalar ko'payadi). Ya'ni, nimaiki bo'lmasin, aybdor o'zi emas, atrofdagilar, sharoit, taqdir aybdor. Bundaylar xaqida bora-bora odamlar "oyog'i yerdan uzilgan", "manmansiragan", "dimog'dor" kabi sifatlar bilan gapira boshlaydilar. Demak, o'z-o'ziga baho realistik, adekvat, to'g'ri bo'lishi kerak.

Realistik baho shaxsni o'rab turganlar - ota-ona, yaqin qarindoshlar, pedagog va murabbiylar, qo'ni-qo'shni va yaqinlarning o'rinli va asosli baholari, real samimiy munosabatlari mahsuli bo'lib, shaxs ushbu munosabatlarni ilk yoshligidanoq xolis

qabul qilishga, o'z vaqtida kerak bo'lsa to'g'rilashga o'rgatilgan bo'ladi. Bunda shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruhi - referent guruhning roli katta bo'ladi. Chunki biz kundalik hayotda hammaning fikri va bahosiga quloq solavermaymiz, biz uchun shunday insonlar mavjudki, ularning hattoki, oddiygina tanbehlari, maslahatlari, hattoki, maqtab turib bergan tanbehlari ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruh real mavjud bo'lishi (masalan, ota-ona, o'qituvchi, ustoz, yaqin do'stlar), yoki noreal, hayoliy (kitob qahramonlari, sevimli aktyorlar, ideal) bo'lishi mumkin. Shuning uchun yoshlar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga muvofiq ta'sir yoki tazyiq ko'rsatish kerak bo'lsa, ularning etalon, referent guruhini aniqlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Shunday qilib, o'z - o'ziga baho sof ijtimoiy xodisa bo'lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o'rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e'zozlanadigan qadriyatlarga bog'liq bo'ladi. Keng ma'nodagi yirik ijtimoiy jamoalar etalon rolini o'ynashi oqibatida shakllanadigan o'z-o'ziga baho - o'z-o'zini baholashning yuksak darajasi hisoblanadi. Masalan, mustaqillik sharoitida mamlakatimiz yoshlari ongiga milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik, adolat va mustaqillik mafkurasiga sadoqat xislarining tarbiyalanishi, tabiiy, har bir yosh avlodda o'zligini anglash, o'zi mansub bo'lgan xalq va millat ma'naviyatini qadrlash xislarini tarbiyalamoqda. Bu esa, o'sha yuksak o'z - o'zini anglashning poydevori va muhim shakllantiruvchi mexanizmidir. Demak, o'z-o'zini baholash - o'z-o'zini tarbiyalashning muhim mezonidir. O'z-o'zini tarbiyalash omillari va mexanizmlariga esa, quyidagilar kiradi:

- o'z-o'zi bilan muloqot (o'zini konkret tarbiya obyekti sifatida idrok etish va o'zi bilan muloqotni tashkil etish sifatida);
- o'z-o'zini ishontirish (o'z imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonish orqali, ijobiy xulq normalariga bo'ysundirish);
- o'z-o'ziga buyruq berish (tig'iz va ekstremal holatlarda o'zini qo'lga olish va maqbul yo'lga o'zini chorlay olish sifati);
- o'z-o'ziga ta'sir yoki autosuggestiya (ijtimoiy normalardan kelib chiqqan holda o'zida ma'qul ustanovkalarni shakllantirish);

- ichki intizom - o'z-o'zini boshqarishning muhim mezon, har doim har yerda o'zining barcha harakatlarini muntazam ravishda korreksiya qilish va boshqarish uchun zarur sifat.

Shaxsning qanday sifatlarga ega ekanligi, undagi baholarning obyektivligiga bog'liq tarzda o'z - o'zi bilan muloqatga kirishib, jadvaldagiga muvofiq shaxs o'zini nazorat qila oladi. Shuning uchun ham hayotda shunday kishilar uchraydiki, katta majlisda ishi tanqidga uchrasa ham, o'ziga holis baho berib, kerakli to'g'ri xulosalar chiqara oladi, shunday odamlar ham borki, arzimagan xatolik uchun o'z "ich - etini yeb tashlaydi". Bu o'sha ichki dialogning har kimda har xil ekanligidan darak beruvchi faktlardir.

Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar. Milliy va ma'naviy qadriyatlarning roli. Dunyoqarash - shaxsning shaxsligini (individa emas), uning ma'naviyatini, ijtimoiylashuvi darajasini ko'rsatuvchi kuchli motivlardandir. Shuning uchun ham uning shakllanishi va o'zgarishi masalasi muhim masalalardan bo'lib, hamma vaqt va davrlarda ham o'ta dolzarb bo'lib kelgan. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, jamiyatda tub islohotlar boshlandi. Ana shu islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri - ma'naviy - ma'rifiy islohotlar bo'lib, uning asosiy maqsadi jamiyat a'zolari dunyoqarashini istiqbol ruhida shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi. Davlatimizning yoshlar borasidagi siyosatining asosini ham ularda yangicha xurfiylik bilan yangicha dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu o'rinda psixologiya o'zgarishlar sharoitida e'tiqod, dunyoqarash va ideallar o'zgarishiga sabab bo'luvchi omillar xususida quyidagilar ajratadi:

1. Ma'naviyat va ma'rifat. Avvalo ma'rifat xususida. Bu - odamning tabiat, jamiyat va insonlar to'g'risidagi turli bilimlari, tushunchalari, ma'lumotlari majmui bo'lib, uning mazmuni bevosita shaxs dunyoqarashining mazmun - mohiyatini belgilaydi. Demak, yoshlarga qaratilgan va ular o'qib, o'rganishi uchun yo'naltirilgan barcha turdagi ma'lumotlar (kitoblar, ommaviy - ahborot vositalari orqali, muloqot jarayonida), ular asosida shakllanadigan yangicha tasavvurlar yangicha dunyoqarash uchun zamindir.

2. Oila. Yurtimizda oila hamisha davlat himoyasida va oliy qadriyat sifatida

e'zozlanadi. Oila ijtimoiylashuvning asosiy va muhim o'chog'i bo'lgani uchun ham uning shu muhitda tarbiyalanayotgan yoshlar e'tiqodi va dunyoqarashidagi roli sezilarlidir.

3. Ma'fura. Har bir davrning o'z ma'furasi bo'ladi va u shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida uning ongiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan hisoblanadi.

4. Ijtimoiy ustunovkalar. Sof psixologik ma'noda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm - bu ijtimoiy ustunovkalardir. Bu - shaxsning atrof muhitida sodir bo'layotgan ijtimoiy xodisalarni, obyektlarni, ijtimoiy guruhlarini ma'lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o'rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdagi dunyoqarashni ham o'zgartirishga aloqador kategoriyadir.

Rus olimi V.A. Yadov o'zining dispozision konsepsiyasini yaratib, unda ustunovkalarni to'rt bosqich va to'rt tizimli sifatida tasavvur qilgan.

A) elementar ustunovkalar (set) - oddiy, elementar ehtiyojlar asosida ko'pincha ongsiz tarzda hosil bo'ladigan ustunovkalar. Ularni o'zgartirish uchun moddiy shart - sharoitlarni va odamdagi ehtiyojlar tizimini o'zgartirish kifoya.

B) ijtimoiy ustunovkalar (attitud) - ijtimoiy vaziyatlar ta'sirida ijtimoiy obyektlarga nisbatan shakllanadigan ustunovkalar. Ularni o'zgartirish uchun ijtimoiy shart - sharoitlar va shaxsning ularga nisbatan baho va munosabatlari tizimini o'zgartirish kerak.

V) bazaviy ijtimoiy ustunovkalar - ular shaxsning umumiy yo'nalishini belgilaydi va ularni o'zgartirish e'tiqodlar va dunyoqarashlarni o'zgartirish demakdir.

G) qadriyatlar tizimi - ular avlodlararo muloqot jarayonining mahsuli sifatida jamiyatda qadr - qimmat topgan narsalarga nisbatan ustunovka. Masalan, sahih hadislar shunday qadriyatlardir, biz ularni tanqidsiz, muhokamalarsiz qabul qilamiz, chunki ular ham ilohiy, ham eng buyuk insonlar tomondan yaratilgan va avloddan avlodga o'z qadrini yo'qotmay kelayotgan qadriyatlardir.

Ijtimoiy ustunovkalarni o'zgartirishning eng sodda va qulay yo'li - bu ayni vaziyatlar va ulardagi ta'sirlarni qaytarishdir. Bu qaytarish qayd qilingan obraz sifatida inson ongida uzoq muddatli xotirada saqlanadi va vaziyat paydo bo'lganda,

obyektivlashadi, ya'ni o'z kuchini va mavjudligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham agar chet el tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, u yerda biror g'oyani ongga singdirish uchun bir odam yoki biror guruh o'z siyosiy, mafkuraviy yoki boshqa qarashlarini bir xil so'zlar va iboralar, xarakatlar bilan qaytaraveradi va shu yo'l bilan ko'pchilikning ma'qullashiga erishadi. Ayniqsa, saylov oldi tadbirlarida ana shu usul keng qo'llaniladi. Shulardan kelib chiqib, ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirishning usullari va psixologik vositalari orqali ham dunyoqarashni o'zgartirishga erishish mumkin.

ShAXSNING IChKI VA TASHQI FAOLLIGI

Shaxsning strukturasiga, birinchi navbatda, uning individualligining kishi ehtirosining, ichki qiyofasining, qobiliyatlarining tuzilishida mujassamlashgan, shaxs psixologiyasini anglab yetish uchun zarur, lekin yetarli bo'lmagan sistemali tarzda tuzilishi kiradi. Shu tariqa shaxs strukturasining **birinchi tarkibiy qismi** – uning individ ichkarisidagi (interindivid) kichik sistema alohida namoyon bo'ladi.

Shaxs o'zi birikib ketgan jamiyat bilan, guruhlar bilan haqiqiy munosabtlar sistemasida subyekt bo'lib, individning organik gavdasi ichidagi allaqanday yepiq bo'shliqdagina joylashgan bo'lishi mumkin emas, balki u o'zini individlararo munosabatlar bo'shlig'ida namoyon qiladi. Individ o'z xolicha emas, balki shaxslararo o'zaro birgalikda harakatning hyech bo'lmaganda ikkita individ jalb etiladigan jarayonlari ana shu o'zaro birgalikdagi harakat ishtirokchilaridan har birining shaxsi namoyon bo'lishi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Shaxs strukturasining **ikkinchi tarkibiy qismi** – shaxsning interindivid kichik sistemasini tashkil etadigan individning organik tarzdgagi gavdasidan tashqaridagi “bo'shliq” da namoyon bo'ladi.

Shaxs strukturasining **uchinchi tarkibiy qismi**. Metandid (individning ustki ko'rinishi) kichik tuzilishini ham alohida ko'rsatish imkoniyati mavjuddir. Bunda ichkarisidagi (interindivid) kichik sistema alohida namoyon bo'ladi. Bunda shaxs individning organik gavdasidan tashqariga chiqarilib qolmasdan, balki uning boshqa individlar bilan “shu yerda va endilikda” mavjud bo'lgan aloqalaridan ham tashqarida

joylashtiriladi.

Shaxs va uning faolligi.

Kishining tevarak-atrofdagi munosabat, birgalikdagi faoliyat va ijodiy ish jarayonida namoyon bo'ladigan ijtimoiy ahamiyatga molik o'zgarishlar qilish layoqati shaxsning faolligi sifatida tushiniladi.

Inson faolligi "harakat", "faoliyat", "xulq" tushunchalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs va uning ongi mas, Shaxs va uning faolligi. Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan, eng muhim va umumiy xususiyat - bu uning faolligidir. Faollik (lotincha "actus" - harakat, "activus" - faol so'zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha xatti - harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir. Bu - o'sha oddiy qo'limizga qalam olib, biror chiziqcha tortish bilan bog'liq elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg'onish paytlarimizda amalga oshiradigan mavhum fikrlashimizgacha bo'lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o'z-o'zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashi aloqador sifatlari orqali bayon etiladi.

Fanda inson faolligining asosan ikki turi farqlanadi:

A. Tashqi faollik - bu tashqaridan va o'z ichki istak-xoxishlarimiz ta'sirida bevosita ko'rish, qayd qilish mumkin bo'lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo'ladigan faollik.

B. Ichki faollik - bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar, (moddalar almashinuvi, qon aylanish, nafas olish, bosim o'zgarishlari) hamda, ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya'ni aslida ko'rinmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'z ichiga oladi.

Misol tariqasida hayotdan shunday manzarani tasavvur qilaylik: uzoq ayriliqdan so'ng ona o'z farzandi visoliga yetdi. Tashqi faollikni biz onaning bolasiga intilishi, uni quchoqlashi, yuzlarini siylashi, ko'zlaridan oqqan sevinch yoshlarida ko'rsak,

ichki faollik - o'sha ko'z yoshlarini keltirib chiqargan fiziologik jarayonlar, ichki sog'inchning asl sabablari (ayriliq muddati, nochorlik tufayli ayriliq kabi yashirin motivlar ta'siri), ko'rib idrok qilgandagi o'zaro bir-birlariga intilishni ta'minlovchi ichki, bir qarashda ko'z bilan ilg'ab bo'lmaydigan emosional holatlarda namoyon bo'ladi. Lekin shu manzarani bevosita guvohi bo'lsak ham, uni ifodalagan rasmni qursak ham, taxminan qanday jarayonlar kechayotganligini tasavvur qilishimiz mumkin. Demak, ikkala turli faollik ham shaxsiy tajriba va rivojlanishning asosini tashkil etadi. Bir qarashda har bir konkret shaxsga va uning ehtiyojlariga bog'liq bo'lib tuyulgan bunday faollik turlari aslida ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, shaxsning jamiyat bilan bo'ladigan murakkab va o'zaro munosabatlarining oqibati hisoblanadi. Alasiga borib taqaladi. Shaxs aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o'zligini namoyon qiladi ham. Demak, faollik yoki inson faoliyati passiv jarayon bo'lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni faoliyat deb yuritiladi. Ya'ni, faoliyat - inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan, hamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos faollik shaklidir. Bu - yosh bolaning real predmetlar mohiyatini o'z tasavvurlari doirasida bilishga qaratilgan o'yin faoliyati, bu - moddiy ne'matlar yaratishga qaratilgan mehnat faoliyati, bu - yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy - tadqiqotchilik faoliyati, bu - rekordlarni ko'paytirishga qaratilgan sportchining mahorati va shunga o'xshash. Shunisi xarakterliki, inson har daqiqada qandaydir faoliyat turi bilan mashg'ul bo'lib turadi.

Faoliyat turlari. Jismoniy va aqliy xarakatlar. har qanday faoliyat real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Qilinayotgan har bir harakat ma'lum narsaga - predmetga qaratilgani uchun ham, faoliyat predmetli harakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Predmetli harakatlar tashqi olamdagi predmetlar xususiyatlari va sifatini o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, ma'ruzani konspekt qilayotgan talabaning predmetli harakati yozuvga qaratilgan bo'lib, u avvalo o'sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o'zgarishlar qilish orqali, bilimlar zahirasini boyitayotgan bo'ladi. Faoliyatning va uni tashkil etuvchi predmetli

harakatlarning aynan nimalarga yo'naltirilganiga qarab, avvalo tashqi va ichki faoliyat farqlanadi. Tashqi faoliyat shaxsni o'rab turgan tashqi muhit va undagi narsa va hodisalarni o'zgartirishga qaratilgan faoliyat bo'lsa, ichki faoliyat - birinchi navbatda aqliy faoliyat bo'lib, u sof psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki - aqliy, psixik faoliyat tashqi predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab, predmetli tashqi faoliyat ro'y beradi, tajriba orttirib borilgan sari, sekin-asta bu harakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Buni nutq faoliyati misolida oladigan bo'lsak, bola dastlabki so'zlarni qattiq tovush bilan tashqi nutqida ifoda etadi, keyinchalik ichida o'zicha gapirishga o'rganib, o'ylaydigan, mulohaza yuritadigan, o'z oldiga maqsad va rejalar qo'yadigan bo'lib boradi.

Har qanday sharoitda ham barcha harakatlar, ham ichki-psixologik, ham tashqi - muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy - motor harakatlar mujassam bo'ladi. Masalan, fikrlayotgan donishmandni kuzatganmisiz? Agar o'ylanayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi yetakchi faoliyat aqliy bo'lgani bilan uning peshonalari, ko'zlari, xattoki, tana va qo'l harakatlari juda muhim va jiddiy fikr xususida bir to'xtamga kelolmayotganidan, yoki yangi fikrni topib, undan mamnuniyat his qilayotganligidan darak beradi. Bir qarashda tashqi elementar ishni amalga oshirayotgan, misol uchun, uzum ko'chatini ortiqcha barglardan xalos etayotgan bog'bon harakatlari ham aqliy komponentlardan xoli emas, u qaysi bargning va nima uchun ortiqcha ekanligidan anglab, bilib turib olib tashlaydi.

Aqliy xarakatlar - shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli-tuman harakatlaridir. Eksperimental tarzda shu narsa isbot qilinganki, bunday harakatlar doimo motor harakatlarni ham o'z ichiga oladi. Bunday harakatlar quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- perseptiv – ya'ni, bular shunday harakatlarki, ularning oqibatida atrofdagi predmetlar va xodisalar to'g'risida yaxlit obraz shakllanadi;
- mnemik faoliyat-narsa va xodisalarning mohiyati va mazmuniga aloqador materialning eslab qolinishi, esga tushirilishi, hamda esda saqlab turilishi

bilan bog'liq murakkab faoliyat turi;

- fikrlash faoliyati - aql, fahm - farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboqlarni yechishga qaratilgan faoliyat;
- imajitiv - ("image" -obraz so'zidan olingan) faoliyati shundayki, u ijodiy jarayonlarda hayol va fantaziya vositasida hozir bevosita ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash va hayolda tiklashni taqozo etadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har qanday faoliyat ham tashqi harakatlar asosida shakllanadi va motor komponentlardan iborat bo'lishi mumkin. Agar tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o'tish ro'y bergan bo'lsa, bunday jarayonni psixologiyada interiorizasiya deb ataladi, aksincha, aqlida shakllangan g'oyalarni bevosita tashqi harakatlarda yoki tashqi faoliyatga ko'chirilishi eksteriorizasiya deb yuritiladi.

Faoliyat turlari yana ongning bevosita ishtiroki darajasiga ko'ra ham farqlanadi. Masalan, shunday bo'lishi mumkinki, ayrim harakatlar boshida har bir elementni jiddiy ravishda, alohida-alohida bajarishni va bunga butun diqqat va ongning yo'nalishini talab qiladi. Lekin vaqt o'tgach, bora-bora unda ongning ishtiroki kamayib, ko'pgina qismlar avtomatlashib boradi. Bu oddiy tilga o'girilganda, malaka hosil bo'ldi deyiladi. Masalan, har birimiz shu tarzda xat yozishga o'rganganmiz. Agar malakalarimiz qat'iy tarzda bizdagi bilimlarga tayansa, faoliyatning maqsadi va talablariga ko'ra harakatlarni muvaffaqiyatli bajarishni ta'minlasa, biz buni ko'nikmalar deb ataymiz. Ko'nikmalar - doimo bizdagi aniq bilimlarga tayanadi. Masalan, ko'nikma va malakalar o'zaro bog'liq bo'ladi, shuning uchun, ham o'quv faoliyati jarayonida shakllanadigan barcha ko'nikmalar va malakalar shaxsning muvaffaqiyatli o'qishini ta'minlaydi. Ikkalasi ham mashqlar va qaytarishlar vositasida mustahkamlanadi. Agar, faqat malakani oladigan bo'lsak, uning shakllanish yo'llari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- oddiy namoyish etish yo'li bilan;
- tushuntirish yo'li bilan;
- ko'rsatish bilan tushuntirishni uyg'unlashtirish yo'li bilan.

Hayotda ko'nikma va malakalarning ahamiyati katta. Ular bizning jismoniy va aqliy urinishlarimizni yengillashtiradi va o'qishda, mehnatda, sport sohasida va

ijodiyotda muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta'minlaydi.

Faoliyatni klassifikasiya qilish va turlarga bo'lishning yana bir keng tarqalgan usuli - bu barcha insonlarga xos bo'lgan asosiy faollik turlari bo'yicha tabaqalashdir. Bu - muloqot, o'yin, o'qish va mehnat faoliyatlaridir.

Muloqot - shaxs individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo'ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri. Bu faoliyat insondagi kuchli ehtiyojlardan biri - inson bo'lish, odamlarga o'xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Shaxs o'z taraqqiyotini aynan shu faoliyat turini egallashdan boshlaydi va nutqi orqali (verbal) va nutqsiz vositalar (noverbal) yordamida boshqa faoliyat turlarini mukammal egallashga zamin yaratadi.

O'yin - shunday faoliyat turiki, u bevosita biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlar yaratishni nazarda tutmaydi, lekin uning jarayonida jamiyatdagi murakkab va xilma-xil faoliyat normalari, harakatlarning simvolik andozalari bola tomonidan o'zlashtiriladi. Bola toki o'ynamaguncha, kattalar xatti-harakatlarining ma'no va mohiyatini anglab yetolmaydi.

O'qish faoliyati ham shaxs kamolotida katta rol o'ynaydi va ma'no kasb etadi. Bu shunday faollikki, uning jarayonida bilimlar, malaka va turli ko'nikmalar o'zlashtiriladi.

Mehnat qilish ham eng tabiiy ehtiyojlarga asoslangan faoliyat bo'lib, uning maqsadi albatta biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlarni yaratish, jamiyat taraqqiyotiga xissa qo'shishdir.

Har qanday kasbni egallash, nafaqat egallash, balki uni mahorat bilan amalga oshirishda faoliyatning barcha qonuniyatlari va mexanizmlari amal qiladi. Oddiygina biror kasb malakasini egallash uchun ham unga aloqador bo'lgan ma'lumotlarni eslab qolish va kerak bo'lganda yana esga tushirish orqali uni bajarish bo'lmay, balki ham ichki (psixik), ham tashqi (predmetga yo'naltirilgan) harakatlarni ongli tarzda bajarish bilan bog'liq murakkab jarayonlar yotishini unutmaslik kerak. Lekin har bir shaxsni u yoki bu faoliyat turi bilan shug'ullanishiga majbur qilgan psixologik omillar, sabablar muhim bo'lib, bu faoliyat motivlaridir.

Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivasiyasi. Yuqorida biz tanishib chiqqan faoliyat turlari o'z - o'zidan ro'y bermaydi. Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o'zini qanday tutishi, egallagan mavqeyi ham sababsiz, o'z - o'zidan ro'y bermaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq - atvorini tushuntirish uchun psixologiyada "motiv" va "motivasiya" tushunchalari ishlatiladi.

"Motivasiya" tushunchasi "motiv" tushunchasidan kengroq ma'no va mazmunga ega. Motivasiya - inson xulq-atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini tushuntirib berish kerak bo'lganda ishlatiladi, ya'ni: "nega?", "nima uchun?", "nima maqsadda?", "qanday manfaat yo'lida?" degan savollarga javob qidirish - motivasiyani qidirish demakdir. Demak, u xulqning motivasion tasnifini yoritishga olib keladi.

Shaxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqi va o'zini tutishi sabablarini o'rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan narsa bo'lib, masalani yoritishning ikki jihati farqlanadi: a) ichki sabablar, ya'ni xatti-harakat egasining subyektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo'ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar); b) tashqi sabablar - faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari. Ya'ni, bular ayni konkret holatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladigan tashqi stimullardir.

Shaxs xulq-atvorini ichkaridan, ichki psixologik sabablar tufayli boshqarish odatda shaxsiy dispozisiyalar ham deb ataladi. Ular shaxs tomonidan anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin. Ya'ni, ba'zan shunday bo'ladiki, shaxs o'zi amalga oshirgan ishi yoki o'zidagi o'zgarishlarga nisbatan shakllangan munosabatning xaqiqiy sababini o'zi tushunib yetmaydi, "Nega?" degan savolga "O'zim ham bilmay qoldim, bilmayman", deb javob beradi. Bu anglanmagan dispozisiyalar yoki ustanovkalar deb ataladi. Agar shaxs biror kasbga ongli tarzda qiziqib, uning barcha sir-asrorlarini egallash uchun astoydil harakat qilsa, bunda vaziyat boshqacharoq bo'ladi, ya'ni, dispozisiya anglangan, ongli hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan motiv - konketretroq tushuncha bo'lib, u shaxsdagi u yoki bu xulq-atvorga nisbatan turgan moyillik, hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni

nazarda tutadi. Mashhur nemis olimi Kurt Levin motivlar muammosi, ayniqsa, shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o'ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo'ladi. Shunisi ajablanarlilik, o'sha bir konkret vaziyat xususidagi turli shaxslarning baholari ham turlicha bo'ladi. Bundan tashqari, bir shaxsning o'zi ham o'zidagi xolat, kayfiyatga bog'liq holda bir xil vaziyatni alohida xollarda turlicha idrok qilishga moyil bo'larkan. Shuning uchun ham odamning ayni paytdagi real harakatlarini o'sha ma'lum sharoitdagi ichki va tashqi stimullarga uning bergan bahosi yoki reaksiyasi sifatida qaramay, balki unda shunga o'xshash xolatlarni idrok qilishga ichki bir xozirlik - dispozisiyaning mavjudligi bilan tushuntirish to'g'riroq bo'ladi. Shu ma'noda shaxs xulqining motivatsiyasi turli sharoitlardan orttirilgan tajribaga tayangan, ongli taxlillar, xattoki, ijtimoiy tajriba normalarining ta'sirida shakllanadigan sabablar kompleksini o'z ichiga oladi. Masalan, texnika oliygoxlarida: "Materiallarning qarshiligi" nomli kurs bor deylik. Shu kursni o'zlashtirish va undan sinovdan o'tish ko'pchilikka osonlikcha ro'y bermaydi. hali kurs boshlanmasdanoq, yosh talabalarda shu kurs va uning talablariga nisbatan shunday ustanovka shakllanadiki, albatta, bu kurs qiyin, uni olib boruvchi o'qituvchi o'ta talabchan, qattiqqo'l va xokazo degan. Bunday motivatsiya mana necha avlod talabalar boshdan kechirayotgan xolat. Endi konkret shaxsning dars jarayoni boshlangan keyingi harakatlari konkret motivlar bilan izoxlanadi va tirishqoq talaba uchun bu fan ham boshqa fanlar qatori tinimsiz izlanish, o'z vaqtida darslarni tayyorlashni talab qilsa, boshqasi uchun (dangasaroq talaba uchun) bu darsdan keyin dars yo'q va u qachon shu semestr tugashini kutib harakat qiladi.

Xar qanday motivlarning orqasida shaxsning ehtiyojlari yotadi. Ya'ni, maqsadli hayotda shaxsda avval u yoki bu ehtiyojlar paydo bo'ladi va aynan ularning tabiati va zaruratiga bog'liq tarzda xulq motivlari namoyon bo'ladi. Misol uchun talabaning o'quv faoliyatini olish mumkin. Bilim olish maqsadi bilim, ilm olish, qiziquvchanlik ehtiyojini paydo qiladi. Bu ehtiyoj taraqqiyotning ma'lum bir davrida, masalan, bog'cha yoshidan boshlab qoniqtirila boshlaydi. Bolaga sotib olib berilgan kitoblar, daftar va boshqa o'quv qurollari, ma'lum ta'lim maskanida tashkil etilgan shart -

sharoitlar va u yerdagi bevosita bilim olishga qaratilgan faoliyatning o'zi, bola uchun motiv o'rnini bosadi. Yana bir oddiy misol: qo'lingizda kitob bor. Siz xali uni o'qishni boshlamadingiz. Lekin o'qish istagi bor, shu istakning ortida esa, o'sha mazmunni bilish va uning tagiga yetish ehtiyoji turadi. Rus olimi R. Nemov shaxsdagi motivasion sohani quyidagicha tasavvur qiladi. Umuman, har qanday shaxsdagi mavjud ehtiyojlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

Biologik ehtiyojlar - bu - fiziologik (tashnalik, ochlik, uyqu), jinsiy, moslashuv ehtiyojlari.

Ijtimoiy ehtiyojlar - bu - mehnat qilish, bilish, estetik va ahloqiy-ma'naviy ehtiyojlar.

Ehtiyojlarni biologik hamda ijtimoiy turlarga bo'lganimiz bilan shu narsani unutmasligimiz lozimki, shaxsdagi har qanday ehtiyojlar ham ijtimoiylashgan bo'ladi, ya'ni, ular o'sha jamiyat va muhitdagi qadriyatlar, madaniy normalar va insonlarni munosabatlar xarakteriga bog'liq bo'ladi. Masalan, eng tabiiy va tushunarli hisoblangan bizning yemishga - ovqatga bo'lgan ehtiyojimizni olsak, u ham konkret muhitga qarab turlicha xarakatlarni keltirib chiqaradi. Yana misol uchun, to'y marosimlari yoki juda to'kin dasturxon atrofida o'tirgan odam nima uchun shunchalik ko'p ovqat iste'mol qilib yuborganini bilmay qoladi. Agar bu tabiat qo'yni yoki paxta dalasidagi xashar bo'lsa-chi, bir burda issiq non ham butun tanaga rohat baxsh etuvchi malham bo'lib, ochlikni bilintirmaydi. Kamtarona dasturxondan ovqat yeb o'rgangan kishi oz-oz yeyishga o'rgansa, yoshligidan normadan ortiq yeb o'rgangan odam vrach oldiga borib, o'zi uchun ozdiruvchi dori-darmon so'rasa so'raydiki, lekin uyda o'zi yemishini nazorat qilishi kerakligini bilmaydi. Demak, bu ham madaniyatga, etikaga, oila muhitiga bevosita bog'liq narsa ekan -da.

Umuman shaxs ijtimoiy xulqi motivi xaqida gap ketganda, uning ikki tomoni yoki elementi ajratiladi: harakat dasturi va maqsad. Harakat dasturi maqsadga erishishning vositalariga aniqlik kiritadi. Shuning uchun ham dasturda nazarda tutilgan vositalar maqsadga erishishni oqlashi kerak, aks holda dastur xech narsa bermaydi. Masalan, ba'zi ota-onalar farzandlarini yaxshi tarbiyalash va undan ideallaridagi shaxs yetishib chiqishini orzu qilib, uning oldiga juda og'ir tarbiyaviy shartlarni

qo'yadilar, bola erkinligi bo'g'iladi, u qat'iy nazorat muhitida ushlanadi. Oqibatda bola keyinchalik boshqarib bo'lmaydigan, qaysar, uncha-muncha tashqi ta'sirga berilmaydigan bo'lib qolib, har qanday boshqa ijtimoiy sharoitda qiynaladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ham motiv har doim anglangan, ehtiyojlar muvofiqlashtirilgan va maqsadlar va unga yetish vositalari aniq bo'lishi kerak. Shundagina ijtimoiy xulq jamiyatga mos bo'ladi.

Motivlarning turlari. Turli kasb egalari faoliyati motivlarini o'rganishda motivlar xarakterini bilish va ularni o'zgartirish muammosi ahamiyatga ega. Shunday motivlardan biri turli xil faoliyat sohalarida muvaffaqiyatga erishish motivi bo'lib, bunday nazariyaning asoschilari amerikalik olimlar D. Makklelland, D. Atkinson va nemis olimi X. Xekxauzenlar hisoblanadi. Ularning fikricha, odamda turli ishlarni bajarishini ta'minlovchi asosan ikki turdagi motiv bor: muvaffaqiyatga erishish motivi hamda muvaffaqiyatsizliklardan qochish motivi. Odamlar ham u yoki bu turli faoliyatlarni kirishishda qaysi motivga mo'ljal qilishlariga qarab farq qiladilar. Masalan, faqat muvaffaqiyat motivi bilan ishlaydiganlar oldindan ishonch bilan shunday ish boshlaydilarki, nima qilib bo'lsa ham yutuqqa erishish ular uchun oliy maqsad bo'ladi. Ular hali ishni boshlamay turib, yutuqni kutadilar va shunday ishni amalga oshirishsa, odamlar ularning barcha xarakatlarini ma'qullashlarini biladilar. Bu yo'lda ular nafaqat o'z kuch va imkoniyatlarini, balki barcha tashqi imkoniyatlar - tanish - bilishlar, mablag' kabi omillardan ham foydalanadilar.

Boshqacha xulq - atvorni muvaffiqiyatsizlikdan qochish motiviga tayangan shaxslarda kuzatish mumkin. Masalan, ular birinchilardan farqli, ishni boshlashdan avval nima bo'lsa ham muvaffiqiyatsizlikka duchor bo'lmaslikni o'ylaydilar. Shu tufayli ularda ko'proq ishonchsizlik, yutuqqa erishishga ishonmaslik, pessimizmga o'xshash xolat kuzatiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, oxir - oqibat ular baribir muvaffiqiyatsizlikka uchrab, "O'zi sira omadim yurishmaydigan odamman-da" degan xulosaga keladilar. Agar birinchi toifali shaxslar bir ishni muvaffiqiyatli tugatgach, ko'tarinki ruh bilan ikkinchi ishga kirishishsa, ikkinchi toifa vakillari, har qanday ishni yakunlagandan so'ng, uning natijasidan qat'iy nazar, ruhan tushkunlikka tushadilar va og'rinish hissi bilan boshqa ishga kirishadilar. Bu o'rinda talabchanlik

degan sifatning roli katta. Agar muvaffiqiyatga yo'nalgan shaxslarning o'zlariga nisbatan qo'ygan talablari darajasi ham yuqori bo'lsa, ikkinchi toifa vakillarining talablari aksincha, past bo'ladi. Bunday tashqari har birimizdagi o'zimizdagi real qobiliyatlar to'g'risidagi tasavvurlarimiz ham ushbu motivlarning faoliyatdagi o'rniga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, o'zidagi qobiliyatlarga ishongan shaxs xattoki, mag'lubiyatga uchrasa ham, unchalik qayg'urmaydi, keyingi safar hammasi yaxshi bo'lishiga ishonadi. Ishonchsiz shaxs esa kichkina berilgan tanbeh yoki tanqidni ham juda katta ruhiy azob bilan qayg'urib boshdan kechiradi. Uning uchun ham shaxsning u yoki bu vaziyatlarda qayg'urish sifati ham ma'lum ma'noda motivlar xarakterini belgilaydi.

Shunday qilib, motivlar tizimi bevosita shaxsning mehnatga, odamlarga va o'z - o'ziga munosabatlaridan kelib chiqadi va undagi xarakter xususiyatlarini ham belgilaydi. Ularning har birimizda real shart-sharoitlarda namoyon bo'lishini biror mas'uliyatli ish oldidan o'zimizni tutishimiz va muvaffaqiyatlarga erishishimiz bilan baholasak bo'ladi. Masalan, mas'uliyatli imtihon topshirish jarayonini olaylik. Ba'zi talabalar imtihon oldidan juda qayg'uradilar, xattoki, qo'rqadilar ham. Ular uchun imtixon topshirish juda katta tashvishday. Boshqalar esa bu jarayonni bosiqlik bilan boshdan kechirib, ichidan hayajonlanayotgan bo'lsalar ham, buni boshqalarga bildirmaydilar. Yana uchinchi toifa kishilari umuman beg'am bo'lib, sira koyimaydilar. Tabiiy, shunga muvofiq tarzda, har bir toifa vakillari ishining muvaffaqiyati va faoliyatning samarasi turlicha bo'ladi. Bunga har bir shaxsdagi da'vogarlik darajasi ham ta'sir qiladi. Da'vogarlik darajasi yuqoriroq bo'lganlar bilgan - bilmaganini isbot qilishga urinsalar, ana shunday darajasi pastlar bor bilganini ham yaxshi aytib berolmay, yana o'qituvchi bilan tortishmaydilar ham.

Shuning uchun ham har birimiz ijtimoiy faoliyat motivlaridan tashqari, shaxsiy xislatlarimizni ham bilishimiz va ongli tarzda xulqimizni boshqara olishimiz kerak.

Motivlarning anglanganlik darajasi: ijtimoiy ustanovka va uni o'zgartirish muammosi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, motivlar, ya'ni xatti-xarakatlarimizning sabablari biz tomonimizdan anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin. Yuqorida keltirilgan barcha misollarda va xolatlarda motiv aniq, ya'ni shaxs nima uchun u yoki

bu turli faoliyatni amalga oshirayotganligini, nima sababdan muvaffaqiyatga erishayotganligi yoki mag'lubiyatga uchraganini biladi. Lekin har doim ham ijtimoiy xulqimizning sabablari bizga ayon bo'lavermaydi. Anglanmagan ijtimoiy xulq motivlari psixologiyada ijtimoiy ustanovka (inglizcha "attitud") xodisasi orqali tushuntiriladi.

Ijtimoiy ustanovka shaxsning ijtimoiy obyektlar, xodisalar, guruhlar va shaxslarni idrok qilish, baholash va qabul qilishga nisbatan shunday tayyorgarlik xolatiki, u bu baho yoki munosabatning aslida qachon shakllanganligini aniq anglamaydi. Masalan, Vatanimizni hammamiz sevamiz, bayrog'imiz muqaddas, nemis investorlarga ishonamiz, negrlarga rahmimiz keladi, tijorat ishlari bilan shug'ullanadiganlarni albatta puldor, badavlat, deb hisoblaymiz va xakozo. Bu tasavvurlar, baho va hissiyotlar qachon va qanday qilib ongimizda o'rnashib qolganligiga e'tibor bermasdan yuqorida sanab o'tgan hissiyotlarni boshdan kechiraveramiz. Mana shularning barchasi ijtimoiy ustanovkalar bo'lib, ularning mazmun mohiyati aslida har bir inson ijtimoiy tajribasi davomida shakllanadi va uzoq muddatli xotirada saqlanib, konkret vaziyatlarda ro'yobga chiqadi.

Amerikalik olim G. Ollport ijtimoiy ustanovkaning uch komponentli tizimini ishlab chiqqan:

A. Kognitiv komponent - ustanovka obyektiga aloqador bilimlar, g'oyalar, tushuncha va tasavvurlar majmui;

B. Affektiv komponent - ustanovka obyektiga nisbatan subyekt his qiladigan real hissiyotlar (simpatiya, antipatiya, loqaydlik kabi emosional munosabatlar);

V. harakat komponenti - subyektning obyektga nisbatan real sharoitlarda amalga oshirishi mumkin bo'lgan harakatlari majmui (xulqda namoyon bo'lish).

Bu uchchala komponentlar o'zaro bir - birlari bilan bog'liq bo'lib, vaziyatga qarab u yoki bu komponentning roli ustivorroq bo'lishi mumkin. Shuni aytish lozimki, komponentlararo monandlik bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, ayrim talabalar talabalik burchi va tartib - intizom bilan juda yaxshi tanish bo'lsalarda, har doim ham unga rioya qilavermaydilar. "Tasodifan dars qoldirish", "jamoatchilik joylarida tartibni buzish" kabi xolatlar kognitiv va harakat komponentlarida uyg'unlik

yo'qligini ko'rsatadi. Bu bir qarashda so'z va ish birligi prinsipining turli shaxslarda turlicha namoyon bo'lishini eslatadi. Agar odam bir necha marta bila turib, ijtimoiy xulqqa zid xarakat qilsa, va bu narsa bir necha marta qaytarilsa, u bu xolatga o'rganib qoladi va ustanovkaga aylanib qolishi mumkin. Shuning uchun ham biz ijtimoiy normalar va sanksiyalar vositasida bunday qarama - qarshilik va tafovut bo'lmasligiga yoshlarni o'rgatib borishimiz kerak. Bu shaxsning istiqboli va faoliyatining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Nazorat savollari:

1. Inson faoliyati va uning psixologik tuzilishi.
 2. Faoliyat va ijtimoiy xulq motivasiyasi.
 3. Malaka, ko'nikma va odatlar va ularning shakllanishi.
 4. O'z - o'zini baholash va xulq motivlari.
 5. Motiv va motivasiya asoslari.
 6. O'z - o'zini baholash va xulq motivlari.
 7. Shaxs va uning motivlari: muvaffaqiyatga erishish va mag'lubiyatlardan qochish motivlari.
 8. Ijtimoiy ustanovka nima?
 9. O'zgartirish muammosi nima?
 10. Talabchanlik va ustanovka haqida gapirib bering.
1. Shaxs va ijtimoiy muhit masalasi.
 2. Xulq normalari.
 3. Ijtimoiy sanksiyalar va shaxs xulqining muvofiqlagi.
 4. Shaxsning o'z-o'zini anglashi. "Men" obrazi.
 5. Shaxs, uning ijtimoiylashuvi omillari.
 6. Ijtimoiylashuv o'choqlari va sharoitlar.
 7. Ijtimoiylashuv bosqichlari.
 8. Shaxs va jamiyat.
 9. Shaxs yo'nalishining psixologik tizimi.
 10. Shaxs dunyoqarashi. Mustaqillik dunyoqarashining obyektiv shart - sharoitlari.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abulxanova K.A. i dr. Psixologiya i pedagogika. – M.: «Sovershenstvo», 1998. – 320 s.
2. Inog'omov R., Toshmurodova Q. Pedagogika fani XXI asrda. - T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2000.
3. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T., 2005.
4. Klimov Ye.A. Основы психологии. – M., 1998.
5. Nemov R.S. Psixologiya. V 3-x kn. – M., 1998.
6. Podlasyy I.P. Pedagogika. Новыи курс v 2-x kn. – M.: Vldos, 1999.
7. Psixologo-pedagogicheskiy slovar dlya uchiteley i rukovoditeley общеобразовательных uchrejdeniy. – Rostov –na – Donu: Feniks, 1998.

10. Mavzu: **Muloqot**

Reja:

1. Muloqot to'g'risida tushuncha va muloqotning ko'pqirrali xarakteri.
2. Muloqotda qaytarma aloqa, muloqot treningi.
3. Pedagogik muloqot. Til.
4. Nutq haqida tushuncha, uning turlari, funksiyalari.

Tayanch tushunchalar: muloqot, miya, nutq, kommunikativ muloqot, interaktiv muloqot, perseptiv muloqot, pedagogik muloqot, muloqot treningi, muloqot madaniyati.

Muloqot – odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunday axborot ayirboshlash munosabatining kommunikativ shakli sifatida ta'riflanadi. Odamlar muloqotga kirishayotganda ular tildan foydalanadilar. Muloqotning ikkinchi jihati – muloqotga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati – nutq jarayonida

faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar, hatti-harakatlar bilan ham bir-birini tushunishdan iborat.

Nihoyat, muloqotning uchinchi jihatida muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok etishlarida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, yagona muloqot jarayonida shartli ravishda uchta tomonni – kommunikativ /axborot uzatish/, o'zaro birgalikdagi harakat qilishni va o'zaro bir-birini idrok qilishni ko'ramiz.

Kishi birgalikda faoliyat ko'rsatayotganda zaruratga ko'ra boshqa odamlar bilan birlashishi, ular bilan muloqotga kirishishi, ya'ni aloqa o'rnatishi, o'zaro hamjihatlikka erishishi, kerakli axborot olishi va javob tariqasida axborot berishi lozim va hokazo. Bu o'rinda muloqot faoliyatining bir tomoni, bir qismi, uning eng muhim informativ kommunikasiya sifatida namoyon bo'ladi.

Insoniy munosabatlar psixologiyasi. Shaxs — ijtimoiy munosabatlar mahsuli deyilishining eng asosiy sababi — uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini anglatadi. Bu shaxsning eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi.

Muloqotning turi va shakllari turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita «yuzma-yuz» bo'lishi yoki u yoki bu texnik vositalar (telefon, telegraf va shunga o'xshash) orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do'stona bo'lishi; subyekt-subyekt tipli (dialogik, sheriklik) yoki subyekt-obyektli (monologik) bo'lishi mumkin.

Insoniy munosabatlar shunday o'zaro ta'sir jarayonlariki, unda shaxslaro munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Bunday jarayon dastlab odamlar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvish-u — quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo'lishgani sari, ular o'rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari ular o'rtasida umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'ladiki, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan yoki «yarimta jumladan» ham fikr ayon bo'ladigan bo'lib qoladi, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi teskari reaksiyalarni — bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig'iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday

tig'izlik oilaning barcha a'zolari o'rtasida emas, uning ayrim a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin (ona-bola, qaynona-kelin va h.k.).

O'zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlar munosabatdan ko'zlaydigan asosiy maqsadlari — o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo'lsa, «jozibasi», betakrorligi shundaki, o'zaro bir xil til topishish yoki tomonlarning aynan bir xil o'ylashlari va gapirishlari mumkin emas. Agar ana shunday vaziyatni tasavvur qiladigan bo'lsak, bunday muloqot eng samarasiz, eng beta'sir bo'lgan bo'lar edi. Masalan, tasavvur qiling, uzoq vaqt ko'rishmay qolgan do'stingizni ko'rib qoldingiz. Siz undan hol-ahvol so'radingiz, lekin u tashabbusni sizga berib, nimaiki demang, sizni ma'qullab, gapingizni qaytarib turibdi. Bunday muloqot juda bemaza bo'lgan va siz ikkinchi marta o'sha odam bilan iloji boricha rasman salom-alikni bajo keltirib o'tib ketavergan bo'lardingiz. Ya'ni, muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma-xilligi namoyon bo'ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o'ziga jalb etadi.

Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat odam muloqotdan, ayniqsa, uning norasmiy samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar.

XXI asr bo'sag'asida odamning eng tabiiy bo'lgan muloqotga ehtiyoji, uning sirlaridan xabardor bo'lish va o'zgalarga samarali ta'sir eta olishga bo'lgan intilishi yanada oshdi va buning qator sabablari bor.

Birinchidan, industrial jamiyatdan axborotlar jamiyatiga o'tib bormoqdamiz. Axborotlarning ko'pligi aynan inson manfaatiga aloqador ma'lumotlarni saralash, u bilan to'g'ri munosabatda bo'lishni taqozo etdi. Axborot XXI asrda eng nodir kapitalga aylanadi va bu o'z navbatida insonlarga zarur axborotlar uzatilishi tezligi va tempini o'zgartiradi.

Ikkinchidan, turli kasb-faoliyat sohasida ishlayotgan odamlar guruhining ko'payishi, ular o'rtasida munosabatlar va aloqaning dolzarbligi axborotlar tig'iz sharoitda oddiygina muloqotni emas, balki professional, bilimdonlik asosidagi muloqotni talab qiladi. Umuman, XXI asrning korporasiyalar asri bo'ladi, deb

bashorat qilayotgan iqtisodchilar ham bu korporasiya insonlarning o'zaro til topishlariga qaratilgan malakalarning rivojlangan, mukammal bo'lishi haqida gapirmoqdalar. Undan tashqari, bu kabi korporativ aloqa ko'p xollarda bevosita yuzma-yuz emas, balki zamonaviy texnik vositalar — uyali aloqa, fakslar, elektron pochta, Internet kabilar yordamida aniq va lo'nda fikrlarni uzatishni nazarda tutadi. Bu ham o'ziga xos muloqot malakalarining ataylab shakllantirilishini taqozo etadi.

Uchinchidan, oxirgi paytlarda shunday kasb-hunarlar soni ortdiki, ular sosionomik guruh kasblar deb atalib, ularda «odam-odam» dialogi faoliyatning samarasini belgilaydi. Masalan, pedagogik faoliyat, boshqaruv tizimi, turli xil xizmatlar (servis), marketing va boshqalar shular jumlasidandir. Bunday sharoitlarda odamlarning ataylab muloqot bilimdonligining oshirilishi mehnat mahsulini belgilaydi.

Shuning uchun ham muloqot, uning tabiati, texnikasi va strategiyasi, muloqotga o'rgatish (sosial psixologik trening) masalalari bilan shug'ullanuvchi fanlarning ham jamiyatdagi o'рни va salohiyati keskin oshdi.

Insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari. Odamlar bir-birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri — o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr-g'oyalariga ko'ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. Psixologik ta'sir — bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va hatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir.

Ijtimoiy psixologiyada psixologik ta'sirning asosan uch vositasi farqlanadi.

1. Verbal ta'sir — bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimizdir. Bundagi asosiy vositalar so'zlardir. Ma'lumki, nutq — bu so'zlashuv, o'zaro muomala jarayoni bo'lib, uning vositasi — so'zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam o'zidagi barcha so'zlar zahirasiidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni topib, sherigiga ta'sir ko'rsatishni hohlaydi.

2. Paralingvistik ta'sir — bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyasiya, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan

amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. Shunga qarab, masalan, do'stimiz bizga biror narsani va'da berayotgan bo'lsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz. Kuyib-pishib, ochiq yuz va dadil ovoz bilan «Albatta bajaraman!», desa ishonamiz, albatta.

3. Noverbal ta'sirning ma'nosi «nutqsiz»dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan o'rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Masalan, agar uchrashuvning dastlabki daqiqalarida o'rtog'ingiz sizga qaramay, atrofga alanglab, «Ko'rganimdan biram xursandman», desa, ishonasizmi?

Muloqot jarayonidagi xarakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir-birlariga ta'sir ko'rsatmoqchi bo'lishganda, dastavval nima deyish, qanday so'zlar vositasida ta'sir etishni o'ylar ekan. Aslida esa, o'sha so'zlar va ular atrofidagi harakatlar muhim rol o'ynarkan. Masalan, mashhur amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko'ra, birinchi marta ko'rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo'lishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38%, va noverbal harakatlar 58% gacha ta'sir qilarkan. Keyinchalik bu munosabat o'zgarishi mumkin albatta, lekin xalq ichida yurgan bir maqol to'g'ri: «Ust—boshga qarab kutib olishadi, aqlga qarab kuzatishadi».

Muloqotning qanday kechishi va kimning ko'proq ta'sirga ega bo'lishi sheriklarning rollariga ham bog'liq. Ta'sirning tashabbuskori — bu shunday sherikki, unda ataylab ta'sir ko'rsatish maqsadi bo'ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida ta'kidlangan vositalardan foydalanadi. Agar boshliq ishi tushib, biror xodimni xonasiga taklif etsa, u o'rnidan turib kutib oladi, iltifot ko'rsatadi, hol-ahvolni ham quyuqroq so'raydi va so'ngra gapning asosiy qismiga o'tadi.

Ta'sirning adresati — ta'sir yo'naltirilgan shaxs. Lekin tashabbuskorning suhbatga tayyorgarligi yaxshi bo'lmasa, yoki adresat tajribaliroq sherik bo'lsa, u

tashabbusni o'z qo'liga olishi va ta'sir kuchini qayta egasiga qaytarishi mumkin bo'ladi.

Muloqot va uni o'rganish muammolari. Oxirgi yillarda «professionalizm» tushunchasi tez-tez ishlatiladigan bo'lib qoldi. Chunki jamiyatda tub islohotlarni amalga oshirish, mehnat unumdorligini «inson omili»ni takomillashtirish hisobiga oshirish davr talabi bo'lib qoldi. Ayniqsa, odamlarni boshqarish sohasidagi professionalizmga katta e'tibor qaratilmoqda. Juda ko'pchilik mutaxassislar barcha bajaradigan funksiyalari orasida odamlar bilan til topishish, ularga ta'sir ko'rsatish, ular faoliyatini to'g'ri tashkil qilish va boshqarish eng murakkablaridan ekanligini e'tirof etmoqdalar. Odamlar bilan normal munosabatlarni o'rnatish, ayniqsa, biznes sohasida amaliy sheriklarning holatlari, kutishlarini aniqlay olmaslik, o'z nuqtai-nazariga o'zgarishlarni professional tarzda ko'ndira olmaslik, «birov»ni, uning ichki kechinmalari va o'ziga bo'lgan munosabatini aniq tasavvur qila olmaslik amaliy psixologiyada *kommunikativ uquvsizlik*, yoki *diskommunikatsiya* holatini keltirib chiqaradi. Bunda odamlar oddiy til bilan aytganda, bir-birlarini tushunolmay qoladilar, shuning oqibatida pishib turgan loyiha yoki yaxshi reja amalga oshmasligi, bir necha oylarga cho'zilib ketishi mumkin.

Shuning uchun ham hozirgi zamon ijtimoiy psixologiyasining tadbqiqiy yo'nalishida, boshqaruv psixologiyasida katta yoshli odamlarni kommunikativ bilimdonlikka o'rgatish, ularda zarur kommunikativ malakalarni hosil qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Har bir korxona, xususiy firma yoki davlat muassasasini boshqaruvchi menejer, rahbar tayyorlash muammosi ana shu rahbarlarni, boshqaruvchilarni psixologik jihatdan odamlar bilan ishlashga o'rgatish muammosini chetlab o'tolmaydi. Umuman, hozirgi davrda har qanday mutaxassis — vrach, muhandis, o'qituvchi, iqtisodchi, agronom, quruvchi, jurnalist, madaniyatshunos yoki boshqalar ham kommunikativ malakalarga ega bo'lmaguncha, bozor munosabatlari sharoitida tezda jamoaga kirishib, ko'pchilik bilan til topishib, o'z professoinal mahoratini ko'rsata olmaydi. Har bir ziyoli inson boshqalar bilan hamkorlik qilish mahorati va san'atiga ega bo'lishi kerak.

Bu vazifa odamlarni muomala va muloqot etikasiga o'rgatishni har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ymoqda. To'g'ri, muloqotga kirishish — ijtimoiylashuv jarayonida barcha sifatlardan oldinroq shakllanadigan qobiliyatlardan, u tabiiy va hayotiy narsa. Bola tili juda yaxshi chiqib ulgurmay, atrofidagilar bilan aktiv muloqotga kirisha boshlaydi. Lekin masalaning paradoksal tomoni ham shundaki, yillar o'tgan sari ongli, aqlli odam har bir gapini o'ylab gapiradigan, har bir qadamini o'ylab bosadigan bo'lib qoladi, bu uning jamiyatlardagi mavqeyini belgilovchi vositadir. Bu muloqotga kirishishga ruhan tayyorlanishning ahamiyatini ham odam anglashini taqozo etadi. Shunday qilib, ana shu eng tabiiy va bir qarashda oddiy inson faoliyati shu qadar murakkab va serqirradi, uning mexanizmlarini o'rganish, guruhlarda to'g'ri munosabatlarni tashkil etish va odamlarni samarali muloqotga o'rgatish muammosi bugungi ijtimoiy psixologiyaning muhim masalalaridandir.

Ma'lumki, gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishiga bog'liq ekan. Noto'g'ri tasavvurlardan biri shuki, odamni muomala yoki muloqotga o'rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib, ta'sirchan gapirishga o'rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni — tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi «Yaxshi suhbatdosh — yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir» deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi.

Mutaxassislarning aniqlashlaricha, ishlayotgan odamlar vaqtining 45%i tinglash jarayoniga ketar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo'ladiganlar 35 — 40% oylik maoshlarini odamlarni «tinglaganlari» uchun olarkanlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kommunikasiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko'proq foyda keltirarkan.

Shuning uchun bo'lsa kerak, nemis faylasufi A. Shopengauer «Odamlarni o'zingiz to'g'ringizda yaxshi fikrga ega bo'lishlarini hohlasangiz, ularni tinglang» deb yozgan ekan. Darhaqiqat, agar siz kuyunib gapirsangizu, suhbatdoshingiz sizni

tinglamasa, boshqa narsa bilan ovora bo'laversa, undan ranjiysiz, nafaqat ranjiysiz, balki u bilan aloqani ham uzasiz. O'qituvchi gapirayotgan paytda uni tinglamaslik odobsizlikning eng keng tarqalgan ko'rinishi deb baholanishini bilasizmi?

Nima uchun biz ko'pincha yaxshi gapiruvchi, so'zlovchi bo'la olamiz-u, yaxshi tinglovchi bo'la olmaymiz? Psixologlarning fikricha, asosiy halaqit beruvchi narsa — bu bizning o'z fikr—o'ylarimiz va hohishlarimiz og'ushida bo'lib qolishimizdir. Shuning uchun ham ba'zan rasman sherigimizni tinglayotganday bo'lamiz, lekin aslida hayolimiz boshqa yerda bo'ladi. Tinglashning ham xuddi gapirishga o'xshash texnikasi, usullari mavjud. Ularning turi ham ko'p, lekin asosan biz kundalik hayotda uning ikki usulini qo'llaymiz: *so'zma-so'z qaytarish* va *boshqacha talqin etish*. Birinchisi, suhbatdosh so'zlarining bir qismini yoki yaxliticha qaytarish orqali, sherikni qo'llab-quvvatlashni bildiradi. Ikkinchi usul esa — sherigimiz so'zlarini tinglab, undagi asosiy g'oyani muxtasar, o'zimizning talqinimizda ifoda etish. Ikkala usul ham sherik uchun muhim, chunki u sizning tinglayotganingizni, hattoki, undagi g'oyalarga qarshi emasligingizni bildiradi. Bundan tashqari, biz yaxshi tinglayotgan bo'lib, «Yo'g'-e?», «Nahotki?», «Qaraya?», «Yasha!» luqmalari bilan ham suhbatdoshimizni gapirishga, yanayam o'z fikrlarini oydinlashtirishga chaqirib turamiz.

Demak, aslida bizdagi gapirayotgan shaxs yetakchi, u suhbatning mutloq hokimi, degan tasavvur unchalik to'g'ri emas. Yaxshi tinglashda ham shunday kuch borki, u suhbatdoshni Sizga juda yaqinlashtiradi, ishonchni tug'diradi. Chunki muloqot jarayonidagi eng qimmatli narsa — bu axborotning o'zi. Tinglayotgan odam ma'nili, yaxshi dialogdan faqat yaxshi, foydali ma'lumot oladi. Gapirgan esa aksincha, o'zidagi borini berib, gapirmaydigan suhbatdoshdan «teskari aloqani» olib ulgurmay, hyech narsasiz qolishi ham mumkin. Shuning uchun muloqotga o'rgatishning muhim yo'nalishlaridan biri — odamlarni faol tinglashga, bunda barcha paralingvistik va noverbal omillardan o'rinli foydalanishga o'rgatishdir.

Professional tinglash texnikasiga quyidagilar kiradi:

- *aktiv holat*. Bu — agar kreslo yoki divan kabi mebel bo'lsa, unga bemaolol yastanib yoki yotib olmaslik, suhbatdoshning yuzidan tashqari joylariga qaramaslik,

mimika, bosh chayqash kabi harakatlar bilan uning har bir so'ziga qiziqayotganligingizni bildirishni nazarda tutadi;

- *suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish*. Bu nafaqat suhbatdoshni o'ziga jalb qilib, balki keyin navbat kelganda o'zining har bir so'ziga uni ham ko'ndirishning samarali yo'lidir.

- *o'ychan jimlik*. Bu suhbatdosh gapirayotgan paytda yuzda mas'uliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o'zingizning suhbatdan manfaatdorligingizni bildirish yo'li.

Agar biz suhbatdoshimizni yaxshi, diqqat bilan tinglasak, bu bilan biz unda o'z-o'ziga hurmatni ham tarbiyalaymiz. Demak, tinglash jarayoni ko'pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas ekan. Uning muloqotning samarali bo'lishidagi ahamiyati nihoyatda katta. Chunki tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar, g'oyalarning shakllanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun ma'ruzachi professorning har bir chiqishi va ma'ruzasi agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

Agar muloqot jarayonida ishtirok etuvchi ikki jarayon — gapirish va tinglashning faol o'zaro ta'sir uchun teng ahamiyatini nazarda tutsak, bu jarayon qatnashchilarining psixologik savodxonligi va muloqot texnikasini egallashining ahamiyatini anglash qiyin bo'lmaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada odamlarni samarali muloqotga ataylab o'rgatishga juda katta e'tibor beriladi. Bu boradagi fanning o'z uslubi bo'lib, uning nomi ***ijtimoiy psixologik trening*** (IPT) deb ataladi. IPT — muloqot jarayoniga odamlarni psixologik jihatdan hozirlash, ularda zarur kommunikativ malakalarni maxsus dasturlar doirasida qisqa fursatda shakllantirishdir. Eng muhimi IPT mobaynida odamlarning muloqot borasidagi bilimdonligi ortadi.

Amaliy muloqot treningi — IPTning bir ko'rinishi bo'lib, u yoki bu professional faoliyatni amalga oshirish jarayonida zarur bo'ladigan kommunikativ malaka, ko'nikma va bilimlarni hosil qilishga qaratilgan tadbirdir. Guruh va

jamoalarda muloqot treningi vositasida muzokaralar olib borish, ish yuzasidan hamkorlik qilish yo'l-yo'riqlarini birgalikda topish, katta auditoriya oldida so'zlashga o'rgatish, majlislar o'tkazish, janjalli, konfliktli holatlarda o'zini to'g'ri tutish malakalari hosil qilinadi. Bunday asosiy narsa — trening qatnashchilari ongiga birovlarini tushunish, o'zini o'zga o'rniga qo'ya olish, boshqalar manfaatlari bilan o'zinikini uyg'unlashtira olish g'oyasini singdirishdir. Treninglar mobaynida *guruhiy munozaralar, rolli o'yinlarning* eng optimal variantlari sinab, mashq qilinadi.

Pedagogik muloqot. Ta'lim – bu avvalo muloqot jarayonidir. O'qituvchi o'quvchiga bilimlarni ma'lum qiladi /tegishli axborot beradi/ va o'z navbatida teskari aloqa tarzida undan bayon qilingan bilimlar qanday o'zlashtirilganligi haqida tasavvur hosil qiladigan axborot oladi. Bu axborot o'quvchilarning diqqat bilan o'tirishlarida, o'qituvchiga qarab turishlarida, yuz ifodalarida o'z aksini topadi. Agar teskari aloqa bo'lmaganda edi o'qituvchi bergan axborotining o'quvchilar tomonidan qanday qabul qilinayotganini bilmagan bo'lur edi. Teskari aloqa o'qituvchiga o'z nutqini davom ettirish yoki to'xtatish, ish turini o'zgartirish, umuman faoliyatini korrektura qilish imkonini beradi.

Pedagog bolalarga axborot uzatish jarayonida ularga tarbiyaviy ta'sir etib ham boradi, ya'ni o'zining ideallari, qarashlari, odobi, harakat usullarini ularga o'tkazib ham boradi. Muloqotning uchinchi vazifasi – bu kishining kishi tomonidan idrok etilishi, tushunilishi va bajarilishi demakdir. Kishi boshqa odamlarni o'rganar ekan, ular bilan birgalikda faoliyat ko'rsatadi, istiqbollari yaxshiroq va yanada ishonchliroq aniqlab olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kelishib olingan harakatlarning muvaffaqiyati ular ichki dunyosining aniq o'qib chiqilganligidir. Kishilarda muloqot madaniyatini tarkib toptirish ham muhim ahamiyatga egadir. Muloqot madaniyati kishilarda tasodifan yoki maktab ta'limi ta'sirida shakllanadi. Masalan, o'qituvchi birinchi sinfdanoq o'quvchilarga to'g'ri gapirishni, savollarga keng va batafsil javob berishlikni, so'raganda o'rnidan turib gapirish lozimligini o'rgatib boradi. Bolalar yoshi ulg'aygach, masalan, katta maktab yoshida o'quvchilar badiiy adabiyot yoki maxsus

pedagogik adabiyotlarni o'qish orqali muomala madaniyati haqida yana ham kengrok tushunchaga ega bo'ladilar.

Lekin muomala madaniyatini maxsus mashq qilish orqali o'rganishning zarurligi hych kimga sir emas. Psixologik trening, ya'ni muomalani mashq qilish ikki xil vazifani bajarishni nazarda tutadi, birinchidan muomalaning, ayniqsa pedagogik muomalaning umumiy qonuniyatlarini o'rganishni, ikkinchidan, pedagogik kommunikasiyaning «texnologiyasini» egallash, ya'ni professional pedagogik muomala ko'nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Psixologik trening nazariy va amaliy tomonlarga ega. Amaliy tomoni o'quvchilar bilan bo'ladigan muomala ko'nikmalari va malakalarini egallashga hamda ularni chiniqtirishga qaratilgan mashqlar: darsning barcha bosqichlarida izchillik bilan harakat qilish ko'nikmalarini, pedagogik ish davomida mushaklarning zo'riqishini sundirish malakalarini, ixtiyoriy diqqatni taqsimlash malakasini shakllantirishga, kuzatuvchanlikni o'stirishga qaratilgan mashqlarni taqozo qiladi.

Muloqot madaniyatini egallashni mashq qilishda magnitafon yozuvlari, videotasvirlardan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Chunki bunday yozuvlar bo'lajak o'qituvchining o'z nutqini takomillashtirish, ovozini sozlash, gapirayotganda qomatini to'g'ri, tik tutish, ortiqcha, keraksiz harakatlar, mimikalardan holi bo'lish imkonini beradi. Shuning uchun bo'lajak pedagoglar nutq madaniyatini, muomala madaniyatini egallashda ana shunga o'xshash mashqlardan foydalanish kerak.

Nutq to'g'risidagi tushuncha. Nutqning turlari va funksiyalari.

Yuqorida aytganimizdek, muloqotda biz tildan foydalanamiz. Til muloqotga kirishuvchilar o'rtasida aloqa bog'lanishini ta'minlaydi. Negaki, til shu maqsad uchun tanlangan so'zlar mohiyatiga ko'ra ***kodlashtirgan*** holda axborotni berayotgan kishi ham, uning kodini ochgan, ya'ni uning ma'nosini tushungan va shu axborot asosida o'z xulq-atvorini o'zgartirgan, bu axborotni qabul qilayotgan kishi ham tushunadi. Agar kodni tushunmaganda edi, tomonlar bir-birini tushunmas va

noto'g'ri hatti–harakatlar qilgan bo'lur edi. Masalan, qadimgi Vavilondagi minora qurilishi.

Nutq – bu og'zaki kommunikasiya, ya'ni til yordamida muloqot o'rnatish jarayoni demakdir. Ijtimoiy tajribada biron–bir mazmunni anglatadigan so'zlar og'zaki kommunikasiya vositasi hisoblanadi. So'zlar eshittirilib yoki ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib qo'yilishi yoki kar–soqov kishilarda ma'lum bir mazmunga ega bo'lgan imo–ishoralar vositasida almashtirilishi mumkin.

Quyidagi nutq turlari farq qilinadi: yozma va og'zaki nutq. O'z navbatida og'zaki nutq diologik va monologik nutqlarga bo'linadi. Og'zaki nutqning eng sodda turi **diolog**, ya'ni biror narsani muhokama qilayotgan suhbatdoshlar nutqidir. Og'zaki nutqning ikkinchi turi **monolog** nutq bo'lib, uni bir kishi boshqasiga yoki uni tinglayotgan ko'plab kishilarga qarata gapiradi. Bunga o'qituvchining hikoyasi, o'quvchining kenggaytirilgan javobi, ma'ruza va shu kabilar kiradi.

Dialog nutqda til qoidalariga unchalik rioya qilinmasa ham suhbatdoshlar bir–birlarini tushunaveradilar.

Yozma nutq insoniyat tarixida og'zaki nutqdan ancha keyin paydo bo'lgan. Yozuv tufayli odamlar to'plangan tajribalarni avloddan-avlodga to'lasicha yetkazish imkoni tug'ildi. Bordi-yu bu tajribalar og'zaki nutq tarzida o'tkazilganda buzilishi, o'zgarishi, hatto yo'kolib ketishi mumkin edi. Masalan, bobokolonimiz Imom al-Buxoriy tomonidan «Hadis»larni yozma to'plashga o'tilganligi.

Yozma nutq ham dialog va monolog shakllarida uchraydi. Nutqning nerv – fiziologik mexanizmini eshitish va harakat analizatorlari tashkil etadi. Chunki axborotni qabul qilish va uni boshqalarga berish uchun avvalo eshitish analizatorlari yaxshi ishlashi kerak. Gapirayotganda esa o'pka, og'iz muskullari faol harakatga keladi. Ayniqsa, artikulyasion apparat yaxshi ishlashi kerak. Buning faoliyatisiz birorta harf yoki so'z hosil bo'lmaydi. Nutqning nerv–fiziologik mexanizmlarini bosh miyadagi nutq markazlari ham tashkil etadi. Olimlarning, ayniqsa, A.R.Luriyaning tajribalari shuni ko'rsatadiki, bosh miyadagi nutq markazlari ishdan chiqsa, nutqni tushunish yoki nutq so'zlash birdaniga izdan chiqar ekan. Biz o'zaro muloqotda til, nutqning o'zidagina foydalanib qolmasdan, balki qo'l, barmoq va yuz harakatlari,

imo–ishora, ohang, pauza, kulgu, ko'z yoshi qilish va shu kabilardan ham foydalanamiz. Bular og'zaki kommunikasiya vositalari – so'zlarni to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi, ba'zan esa o'rnini bosuvchi belgilar tizimini tashkil etadi.

Eng muhimi, kishi nutqni tarbiyalash bo'yicha oldiga aniq maqsad qo'yishi va ana shu maqsad asosida qat'iy mashqlar olib borishi lozim. Masalan, kishi adabiy tilda so'zlashga o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, faqat dars paytidagi javoblaridagina emas, har qanday sharoitda, har bir kishi bilan bo'lgan muloqotda ham o'zini gaplarini nazorat qilib borishi, shevachilikka yo'l qo'ymasligi lozim. O'z–o'zini nazorat qilish bo'lmasa kishi hyech qachon nutq madaniyatini, muomala madaniyatini egallay olmaydi, u notiq bo'la olmaydi.

5. ***Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar:*** muloqot, miya, nutq, kommunikativ muloqot, interaktiv muloqot, perseptiv muloqot, pedagogik muloqot, muloqot treningi, muloqot madaniyati. Muloqot to'g'risida tushuncha va muloqotning ko'pqirrali xarakteri.

Nazorat uchun savollar:

1. Muloqat nima?
2. Muloqotning vazifalarini ayting
3. Muloqotda qaytarma aloqa, muloqot treningi.
4. Pedagogik muloqot. Til.
5. Nutq haqida tushuncha, uning turlari.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abulxanova K.A. i dr. Psixologiya i pedagogika. – M.: «Sovershenstvo», 1998. – 320 s.
2. Inog'omov R., Toshmurodova Q. Pedagogika fani XXI asrda. - T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2000.
3. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T., 2005.
4. Klimov Ye.A. Основы психологии. – M., 1998.
5. Nemov R.S. Psixologiya. V 3-x kn. – M., 1998.
6. Подласый I.P. Pedagogika. Новый курс v 2-x kn. – M.: Vldos, 1999.

7. Psixologo-pedagogicheskiy slovar dlya uchiteley i rukovoditeley obshchey obrazovatel'nykh uchrejdeniy. – Rostov – na – Donu: Feniks, 1998.

11. Mavzu: **Boshqaruv psixologiyasi**

Reja:

1. Boshqarishning rivojlanish tarixi.
2. Boshqaruv usulari.
3. Samarali boshqaruv faoliyatining psixologik asoslari.
4. Boshqaruv samaradorligini baholash.
5. Psixologiyada boshqarish muammosi.
6. Guruhlarda rahbarlik va liderlik.
7. Liderlik uslublari haqida tushuncha.
8. Rahbarlik sifatlari.
9. Liderlik va superliderlik

Tayanch tushunchalar: qadimgi boshqaruv, sanoat revolyusiyasi, teylorizm, ma'muriy bosqich, tashkilot, davlat, mahalliy, korxona, muvaffaqiyatli qaror, unumdorlik, boshqaruvning rasionalligi, tezkorlik. Inson omili, boshqarish psixologiyasi, boshqaruv faoliyati, boshqarish muammolari, individual xususiyatlar, lider, xarizmatik nazariya, vaziyatga bog'liqlik nazariyasi, sintetik nazariya, avtoritar uslub, demokratik, liberal uslub.

Boshqarishning rivojlanish tarixi. Boshqaruvning amaliyoti xuddi tashkilotlar kabi kelib chiqishi jihatidan ancha qadimiy. Eramizgacha bo'lgan uchinchi ming yillikka oid bo'lgan loydan qilingan jadvallar topilmalarida tijorat amallari, qadimgi Shumeriyaning tijorat qoidalar haqida ma'lumotlar olingan. Bular boshqaruv amaliyoti qadimdan mavjudligidan dalolat beradi. Albatta qadimgi boshqaruv xuddi tashkilotlari kabi tubdan hozirgilaridan farq qilib turadi. Boshqaruv o'zi qadimgi, boy tarixga ega, tarixan ancha asrlar davomida shakllangan bo'lsa ham,

fan sifatida, mustaqil faoliyat yo'nalishi sifatida faqat yigirmanchi asrdagina tan olingan. Shuning uchun, odatda izlanishlarda 1900 yilgacha bo'lgan boshqaruv va tashkilotlar, hamda 1900 yillardan so'nggi boshqaruv va tashkilotlar deb ajratiladi. Makedoniya davridan qadimgi Rim, qadimgi Persiyagacha, Yuliy Sezardan Amir Temurgacha barcha tarixiy va biroz bo'lsada ulug' ishlarni amalga oshirishning uddasidan chiqqan shaxslar boshqaruv amaliyotiga o'z hissasini qo'shganlar. Aynan boshqaruv xususiyatlari borasida Arximed, Al Xorazmiy, G. Galiley, B.Paskal', Diofant, G.Leybnis, Sh.Lagranj, M.Lomonosov, D. Rikardo, V.Petti, U.Djuort, ulardan so'ng F.Engels, K. Marks, A. Smit, D.Rikardo, Keyns, R. Ouen menejmentning tarixiy ildizlarini yaratishda o'z hissalarini qo'shganlar. Ammo boshqaruvga sistemali yondashuvning shakllanishi va uning fan, alohida faoliyat turi sifatida tan olina boshlanishi 1900 yillardan boshlangan.

Boshqaruvga ilmiy yo'nalish sifatida birinchi qiziqishning uyg'onishi 1911 yili F.Teylorning «Ilmiy boshqaruv tamoyillari» kitobining chop etilishi bilan bog'liq. Aynan shu kitobning chop etilishi boshqaruvning fan sifatida tan olinish davrining boshlanishi deb hisoblanadi. Ushbu konsepsiya asoslari XIX asrning o'rtalaridan XX asrning 20 yillarigacha bo'lgan davrni qamrab oldi. U shu vaqtgacha og'zaki va onda-sonda bo'lgan munozaralardan boshqarish borasidagi mustaqil izlanishlar natijalari va birinchi xulosalarning chop ettirilishi izlanish va tadqiqotlar borasida keng doirada fikr almashishlarga olib keldi.

Boshqaruvga bo'lgan qiziqishning kuchayishiga birinchi turtki sifatida Yevropa mamlakatlaridagi jadal o'zgarishlar, xususan, Angliya'dagi sanoat revolyusiyasining ro'y berishi sabab bo'lgan. Ammo tashkilotning muvaffaqiyatini samarali boshqaruv tashkil qilishi mumkinligi haqidagi sistemalashgan fikrlar Amerikada yuzaga keldi va bunga bir necha sabablar bor, bular:

- Amerikadagi o'sha davrdagi irqiy, iqtisodiy erkinlik hamda kishilarning moddiy kelib chiqishi va sinfiy tabaqalarning ahamiyatsizligi;
- XIX asrning oxirida Amerika yakunlangan transkontinental temir yo'llarining to'qnashuv joyi bo'lganligi;
- davlatning aralashmaslik siyosati.

Har xil milliy, iqtisodiy asosdan kelib chiqqan odamlar o'z omadini sinash maqsadida Amerikaga yo'l olib, bu davrda iqtisodiyotning rivojlanishi va tadbirkor odamlarning ko'payishi boshqaruvning fan sifatida shakllanishiga olib keldi. Bunga:

- yirik tadbirkorlarning ehtiyoji va yirik biznesning rasmiylashgan boshqaruv vositalariga ehtiyojining kuchliligi;
- sanoat revolyusiyasi natijasida texnika afzalliklarini qo'llashning zarurligi;
- ishni samarali tashkil qilish va o'z maqsadlariga erishish yo'llarini axtarayotgan bir qator izlanuvchi-tadqiqotchilarning yuzaga kelishi va o'z g'oyalarini targ'ib qilish zarurati qo'l keladigan shart-sharoitni yaratib berdi.

Boshqaruv borasidagi g'oyalar rivojlanishining birinchi bosqichi teylorizm davri deb atalib, bu davrning eng xos g'oyasi ilmiy asosda boshqarish mumkin ekanligini targ'ib qilishdir. Bu davrda muhandislik fanlari g'oyalarining eng quyi ishlab chiqarish bo'g'iniga singdirilishi xos bo'lib, keyinchalik aynan shunda teylorizmning cheklanganligi namoyon bo'ladi.

Ikkinchi bosqich-klassik yoki ma'muriy bosqich, ya'ni A.Fayol tomonidan uning mashhur boshqaruv tamoyillarining keng tarqalishi bilan bog'liq. Buni ma'muriy maktabning birinchi mustaqil natijasi deb bilish mumkin. Ushbu davr izlanishlari formal tashkiliy tuzilmalar va tizimlarni tashkil qilishga, shakllantirishga qaratilgan. Amerikaliklar Anri Fayolni bekorga "menejment otasi" deb atashmagan, u birinchi bo'lib butun bir samarali boshqaruv tuzilmasini shakllantirish, uning yuqoridan pastgacha barcha bo'g'inlari faoliyatini tavsiflash, ularning birgalikdagi faoliyati muvaffaqiyatini ta'minlovchi tamoyillarini ishlab chiqishning uddasidan chikdi.

1930-yillarda boshqaruv tarixida yana bir o'ziga xos bosqich ko'zga tashlandi. Bu bosqich ko'pincha "neoklassik davr" deb ataladi va ahamiyati jihatidan birinchi va ikkinchi maktablardan orqada qolmaydi. Bu davr "insoniy munosabatlar" deb nom olgan maktabning yuzaga kelishi bilan xarakterli. 1940-60 yillar davomida bu yo'nalish tashkilotlarni "ijtimoiy tizim" sifatida qarash lozim degan fikrlar bilan davom etdi. 30-yillardan so'ng ayniqsa bu yangi g'oyalar yapon menejerlari tomonidan chuqur o'rganilib, amalda qo'llab kelindi. Xarakteriga ko'ra bu davrning

g'oyalari psihologiya va sosiologiyaning, ya'ni inson xulq-atvori borasidagi fanlarning erishgan yutuqlarini boshqaruvga qo'llab ko'rishdan iborat edi.

1950-60 yillarda boshqaruv g'oyalarida qarorlarni miqdoriy usullar jihatidan asoslash rivojlandi. Bu siljish boshqaruvda matematikani hamda kompyuterlarni qo'llashning natijasida ro'y berdi. Aynan, miqdoriy maktab deb nom olgan maktab tomonidan kibernetikaning tizimlar nazariyasi, ya'ni murakkab hodisalarni integrasiyalashtiruvchi, sintezlovchi fan yo'nalishlarining asosiy g'oyalari, xulosalarining boshqaruvga jalb qilinishi shu davrning o'ziga xos jihatidir.

70-yillarda "tashkilot -bu ochiq tizim", u doimiy tarzda o'zining ichki va tashqi muhitiga moslashib yashaydi, biror qiyinchiliklar negizini nafaqat tashkilotning ichki muhitidan, balki tashkilotning tashqi omillari doirasidan ham izlamok kerak, degan g'oya keng tarqaldi. Bu amaldagi "universalizmdan", ya'ni har bir narsada rasmiy shakl, usul, vosita izlash holatidan "vaziyatli yondashuvga" o'tishni anglatadi.

80-yillarda esa ko'pchilik amerikaliklar uchun kutilmaganda yaponlar tomonidan samarali qo'llanilib kelingan "tashkiliy madaniyat" tushunchasining boshqaruvda kuchli ta'sir vositasi ekanligini tan olish davri bo'ldi. Hozirgi kunda ko'pchilik amerikaliklar madaniyatni, ta'sir kuchi jihatidan, boshqaruv instrumenti bo'lgan tashkil qilish bilan bir qatorga qo'yishadi, tashkilot ichidagi madaniyatni tashkil qilish borasidagi o'quv dasturlari esa yetakchi biznes maktablarida ko'zga ko'ringan yangilik. Demak, ko'pchilik menejerlar tashkilotning asosiy potensiali, progressiv o'zgarishlar manbai-inson va uning ongi, madaniyatida ekanligini tan oladilar.

90-yillar bosqichini esa qisqacha uchta tendensiyaning belgilash bilan ta'riflash mumkin. Birinchidan, bu ma'lum jihatdan ortga qaytish, ya'ni moddiy texnologik baza ahamiyatini tushunib yetish. Ikkinchidan, nafaqat tashkiliy madaniyatga e'tiborning kuchayishi, balki boshqaruv demokratlashuvining turli shakllariga e'tiborning kuchayishi. Uchinchidan, boshqaruvning xalqaro xarakterining kuchayishidir.

Boshqaruv usullari - boshqarilayotgan obyektga boshqaruv subyekti tomonidan amalga oshiriladigan maqsadli ta'sir vositalari, yo'llaridir. Aniqrog'i,

boshqaruv usullari rahbarning o'z qo'l ostidagi xodimlariga belgilab berilgan maqsadlarga erishishlarini ta'minlash yoki ularning o'zaro hatti-harakatlarini, birgalikdagi faoliyatlarini ta'minlash borasidagi maqsadli ta'sir o'tkazish vositalaridir. Boshqaruv usullari boshqaruvning qonunlari va tamoyillari bilan o'zaro bog'liq bo'lib, boshqaruv fanida muhim o'rin tutadi.

Albatta, hozirgi boshqaruv mexanizmida bozor iqtisodiyoti sharoitidagi boshqaruvning obyektiv qonunlariga to'liq mos keladigan, davr talablariga javob beradigan usullargina ahamiyatlidir. Aynan shu ma'noda boshqaruv usullari obyektiv iqtisodiy qonunlar tizimi bilan bog'liq.

Boshqaruv usullari doimiy o'zgarishda bo'lib, ularga bir nechta tashqi va ichki omillar o'z ta'sirini o'tkazadi. Umuman, boshqaruv usullari ishlab chiqarish usuli, ishlab chiqarish kuchlarining va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar o'zgarishi bilan bevosita bog'liq ravishda takomillashib boradi. Boshqaruv usullarini to'g'ri tanlash iqtisodiy rivojlanishda muhim o'rin tutadi.

Boshqaruv usullarini boshqaruv bosqichlari bo'yicha (davlat, mahalliy, korxona doirasida), tarmoqlar bo'yicha, turli boshqaruv subyektlari tomonidan amalga oshirilishiga ko'ra har xil turlarga ajratish mumkin. Boshqaruv fani va amaliyotida mavjud turli tuman boshqaruv usullari o'ziga xos boshqaruv usullari tizimini tashkil etadi. Barcha boshqaruv usullarini yirik uchta guruhga ajratish mumkin. Bular iqtisodiy boshqaruv usullari, tashkiliy ko'rsatma va ijtimoiy-ruhiy (psixologik) boshqaruv usullaridir. Bu usullarning barchasini birgalikda va o'zaro uzviy bog'liqlikda qo'llash lozim. Ularni qo'llashda to'g'ri tanlab, amalga oshirilgan mutanosiblik boshqaruv muvaffaqiyatining garovidir.

Insoniyat o'z rivojlanishi tarixida uchta ta'sirchan boshqaruv vositasini ishlab chiqqan. Bular: iyerarxiya, ya'ni bevosita bo'ysindirish; madaniyat, ya'ni jamiyat miqyosida shakllanib kelgan an'ana, qoida va namunalar asosida ta'sir o'tkazish; va bozor, ya'ni talab va taklif yuzaga keltiruvchi munosabatlar. Shu usullar ichida eng ta'sirchan usul deb, albatta, kishini o'z-o'zidan harakatga soluvchi bozor vositasi tan olinadi. Umuman, bozor vositasi deganda iqtisodiy usullar, iyerarxiya deganda tashkiliy ko'rsatma usullar, madaniyat deganda esa ijtimoiy-ruhiy usullar anglanadi.

Yuqori foyda darajasi va korxonaning hajmi uning muvaffaqiyati mezonlari bo'lib xizmat qila olmaydi. Demak, nafaqat yirik korxonalar, balki kichik biznes korxonalari ham muvaffaqiyatli deb sanalishi mumkin. Umuman, tashkilot agar o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishsa, u muvaffaqiyatli deb sanaladi. Tashkilot muvaffaqiyatini tashkil qiladigan jihatlar quyidagicha: uning hayotiyligi, natijaliligi, samaradorligi, unumdorligi, faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlari.

Ko'pchilik tashkilotlarning birlamchi maqsadi- iloji boricha uzoq umr ko'rishdir. Buning uchun har bir tashkilotning potentsiali mavjud. Faqat tashkilot o'z vaqtida maqsadlarini o'zgartirib, tashqi va ichki muhit o'zgarishiga moslasha bilishi lozim. U vaqtida strategiyani o'zgartirib, shunga mos ravishda tuzilma tanlashi, ijtimoiy muhitni o'zgarishini oldindan ko'ra bilishi va unga moslashishi zarur.

Samarali boshqaruv faoliyatining psixologik asoslari. Tashkilot muvaffaqiyatini uning ishlab chiqarish faoliyati va boshqaruv faoliyatining natijaliligi, **samaradorlikni oshirishga** intilishi tashkil qiladi. Piter Druker fikriga ko'ra "natijalilik to'g'ri narsalar qilinishining oqibatidir; samaradorlik esa shu narsalarni to'g'ri yaratilishining natijasidir". Demak, ikkala tushuncha mohiyatan bir-biriga yaqin. Natijalilikni miqdoran ifoda qilish qiyin, samaradorlikni esa, aksincha. Xuddi shunday ravishda, unumdorlik ham muvaffaqiyat garovidir. Unumdorlik, odatda, ishlab chiqarish natijasidagi birliklar miqdorining (tayyor mahsulot miqdorini) kirishdagi birliklar (materiallar, xom ashyo) miqdoriga nisbatidir. Tashkilot qanchalik samarali bo'lsa, uning unumdorligi shuncha yuqori. Tashkilot mahsulot hajmini oshirib borsa-yu, sifat haqida uylamasa, yoki uni ta'minlab bera olmasa bu holda unumdorlik borasida gapirish noo'rin. Raqobat kuchli bo'lgan hozirgi davr iqtisodiyotida unumdorlik masalasiga befarq bo'lish raqobatni ko'tara olmaslik bilan teng. Menejerlar tashkilot unumdorligi doirasida qanday maqsadlar bo'lishi lozimligini hamda mahsulot ishlab chiqarishning qanday usullari qo'llanishini hal qiladilar. Shunga mos ravishda, rag'batlantirishning qanday usullari qo'llanishi ham hal qilanadi. Tashkilot siyosatini ishlab chiqish va rahbarning shaxsiy ibrati orqali menejerlar tashkilot faoliyatiga tus beradi. Demak, ish unumi tashkilot rahbariyatining umumiy bilim saviyasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Ayniqsa,

rivojlangan iktisodiyot sharoitida menejment tashkilot samaradorligini belgilaydi. Chunki, muvaffaqiyatning yana bir tashkiliy jihatida boshqaruv qarorlarining ishlab chiqilishi va amaliy qo'llanilishiga bog'liqdir. Boshqaruv qarorlari qanchalik ilmiy nazariy jihatdan asoslangan bo'lmasin, tadqiqotlar bilan mustahkamlangan bo'lmasin, ular g'oyalar darajasida qolib ketmasligi lozim. Boshqaruvning maqsadi - real ishni real odamlar yordamida bajarilishidir. Muvaffaqiyatli qaror deb amaliy tarzda bajariladigan, natijaga aylanadigan harakat va samaradorlikka olib keladigan qarorga aytiladi. Tashkilot samaradorligini ta'minlash jarayonida vaziyatli yondashuvni qo'llash hozirgi kunda muvaffaqiyat va samaradorlikni ta'minlashga asos bo'lishi mumkin. Umuman samaradorlikning tub negizini unumdorlik tashkil qiladi. Biz yuqorida unumdorlikning tor ma'nosini berdik. Ammo unumdorlik tushunchasining keng ma'nosi ham bor, u barcha tarmoklarda, tashkilotning hamma bosqichlari va bo'g'inlarida amalga oshishi zarur. Ayniqsa u inson resurslarini boshqarish borasida va bevosita tashkilotning ishlab chiqarish operatsiyalari doirasida birinchi galda ta'minlanishi lozim. Bu sohalar tashkilotdagi boshqaruv harakatlarini boshqalariga nisbatan ko'proq talab qiladigan faoliyat doiralari bo'lib, eng murakkab sohalarini sanaladi.

Boshqaruv samaradorligini baholash. Samaradorlik borasida korxonaning erishgan natijalari bo'yicha fikr yuritiladi. Samaradorlikning miqdorini ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning bozor qiymatini tashkilot tomonidan sarflangan barcha resurslar summasiga nisbati sifatida aniqlash mumkin. Ammo samaradorlik faqatgina miqdoriy ifodasiga emas, balki sifat ifodasiga ham ega ekanini unutmaslik kerak. Keng ma'nodagi samaradorlik ishning natijaliligini ifoda etuvchi, ushbu natijani tavsiflovchi tushunchadir, ya'ni ishlab chiqarish sarf-harajatlariga nisbatan erishilgan maqsadlarning ifodasidir. Ishlab chiqarish samaradorligini ishlab chiqarishni boshqarish samaradorligidan farq qilish lozim. Ishlab chiqarish samaradorligi bu sarf etilgan resurslarga nisbatan olingan natijaviy ko'rsatkichlar. Bu tushuncha ishlab chiqarishning rivojlanish dinamikasini hamda bu jarayondagi sifat o'zgarishlarini ifoda etadi.

Ishlab chiqarishni boshqarish samaradorligi deganda menejmentda boshqaruv faoliyatining jarayon sifatida natijaliligi tushuniladi. Agarda boshqaruv faoliyatining natijalari jamoa faoliyatining natijalari bilan mos tushishini hisobga olsak, bu holda boshqaruv jarayonining samaradorligi - bu juda murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya ekanligi ma'lum bo'ladi. U o'z ichiga boshqaruvning barcha jihatlarini oladi, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, marketing, texnologik va boshqa munosabatlar samarasiga bog'liq bo'ldi. Boshqaruvning har qanday bo'g'ini uchun xos bo'lgan hamda samaradorlikni ifoda etuvchi tushunchalar:

- xodimlarning mehnati samaradorligi;

- boshqaruv apparati, uning turli bo'g'inlari va bosqichlari faoliyatining samaradorligi;

- aniq qaror ishlab chiqish va uni amalga oshirish jarayonidagi boshqaruv jarayonining samaradorligi;

- boshqaruv iyerarxiyasidan kelib chiqib hamda ishchi-xodimlarni boshqaruvda ishtiroki darajasiga bog'liq boshqaruv tizimining samaradorligi;

- boshqaruv mexanizmining, ya'ni boshqaruv usullari, uslubi va shakllarining samaradorligidan iborat bo'ladi.

Har bir qayd etilgan tushunchaning biridan ikkinchisiga o'tishi bilan har bir keyingi tushunchaning mohiyati kuchaya boradi.

Mazmuni jihatidan boshqaruv samaradorligi ham iqtisodiy, ham ijtimoiy mohiyatga ega. Bu esa tashkilotlarning maqsadlari turliligi hamda samarasining shakllarini o'ziga xosligi bilan farq qiladi. Boshqaruv samaradorligini aniqlash jarayonida uning namoyon bo'lish doiralarini ham hisobga olish zarur (masalan, ishlab chiqarish va iste'mol sohalari). Birinchi holda firma boshqaruvini xo'jalik hisobi samaradorligi, ikkinchi holda esa umumiy iqtisodiy ahamiyati hisob qilinadi. Bundan tashqari baholash obyektiga ko'ra to'liq (umumiy) yoki lokal (xususiy joylardagi) samaradorlik haqida gapirish mumkin. Maqsadli yo'nalishi jihatidan samaradorlik: rejali; haqiqiy; normativ yoki salohiyatli; loyihaviy va hakoza bo'lishi mumkin. Hisob qilinish usuliga ko'ra samaradorlik absolyut va nisbiy bo'lishi mumkin.

Boshqaruv samaradorligini baholashda boshqaruvning quyidagi jihatlaridan kelib chiqiladi:

- tezkorlik, ya'ni boshqaruv tadbirlarining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, o'z vaqtida amalga oshirilishi;

- boshqaruvning rasionalligi va tashkillashtirilganligi, ya'ni funksional bo'g'inlari orasidagi aniq o'zaro faoliyatni hamda ishlab chiqarish va boshqaruv birligini ta'minlanishi;

- boshqaruvning natijaliligi, tejamkorligi, ya'ni boshqariluvchi obyektga eng kam mehnat, moddiy va moliya resurslari sarfi yo'li bilan ta'sir eta olishi.

Boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlarini shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin:

- texnik ko'rsatkichlar, ya'ni qo'llanayotgan texnik boshqaruv vositalarini ishlatilish sifatlarini aniqlovchi ko'rsatkichlar;

- tashkiliy ko'rsatkichlar, ya'ni boshqaruv jarayonini tashkil etilishi, tashkiliy tuzilma, axborotlar va xujjatlar bilan ishlashni tavsiflovchi ko'rsatkichlar;

- ijtimoiy ko'rsatkichlar, ya'ni boshqaruv apparatini mehnat sharoiti, sanitar, ruhiy, estetik va ijtimoiy omillarini aniqlovchi ko'rsatkichlar.

Boshqaruv samaradorligini aks ettiruvchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar qatoriga esa:

- yillik iqtisodiy samara;

- boshqaruvni takomillashtirishga bo'lgan bir vaqtlik xarajatlarning qoplanish muddati;

- boshqaruv apparatining mehnat unumdorligini oshishini ifodalovchi ko'rsatkichlari kiradi.

Psixologiyada boshqarish muammosi. Oxirgi yillarda inson omiliga e'tiborning ortib borishi munosabati bilan boshqarish psixologiyasi masalalariga ham qiziqish kuchaydi. Shu asosda ijtimoiy psixologiyaning maxsus bo'limi — **boshqarish psixologiyasi** paydo bo'ldi. Boshqarish psixologiyasi psixologiyaning shunday tarmog'iki, u boshqaruv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni, shaxs

va shaxslar guruhi tomonidan boshqa guruhlar faoliyatini samarali tashkil etish va birgalikdagi faoliyatini amalga oshirishning psixologik mexanizmlarini o'rganadi.

Boshqarish muammolari ham bir qancha fanlar tomonidan o'rganiladi, jumladan, falsafa, tarix iqtisod, xuquqshunoslik va psixologiya uning o'ziga xos tomonlarini ochish bilan shug'ullanadi. Psixologiya boshqarishning ham obyekti, ham subyektini o'rganadi. Psixologik tadqiqotlarda o'rganiladigan olimlar jamoasi, alohida shaxs, ularning psixologik holatlari, ulardagi ayrim jarayonlar va vazifalari boshqaruv obyekti deb aytiladi. Boshqaruvning subyekti o'rganilganda esa odatda boshqaruvchi shaxs yoki odamlar guruhi nazarda tutiladi.

Psixologiya ko'proq boshqaruvchi shaxs faoliyatining psixologik asoslarini o'rganadi va shu asosda buysunuvchilar ishlarinn samarali tashkil etish, aniq va to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun qanday psixologik xolat va jarayonlarni o'zida tarbiyalash lozimligi kabi qator muammolarni yechadi. Masalan, konkret hayotiy sharoitlarda agar boshliq majlis olib borayotgan bo'lsa, har bir so'zga chiquvchilarning fikrlari, ma'ruzalari va hokazolar orqali ularning psixologik holatlari aniqlanadi, yangi ish dasturlari ishlab chiqariladi, qabul qilingan qarorlarga ko'ra boshliqning va xodimlarning har biriga alohida ilmiy ko'rsatmalar va maslahatlar beriladi.

Boshqaruv psixologiyasi boshliq faoliyatini analiz qilganda asosiy diqqatni boshqarish uning ehtiyoji yoki qobiliyatlariga mos yoki mos emasligi, qaysi individual xususiyatlariga ko'ra u boshliq darajasiga ko'tarildi, ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun u boshqaruvning qay usullaridan foydalanyapti, xodimlarga psixologik ta'sir ko'rsatish maqsadida u qanday ta'sir uslublarini qo'llayapti kabi qator masalalarga qaratadi. Boshliq bo'lish ishiga turli shaxslarning munosabatlari har xil, chunki kimdir boshliqda bo'lgan imtiyozlarga beriladi, kim uchundir unga berilajak huquqlarni afzal ko'rish xos, kimgadir yuksak mas'uliyatlarni bo'yinga olish ma'qul keladi. Shaxslarning boshliq funksiyalari haqidagi tasavvurlari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, boshliqdan real sharoitlarda odamlar guruhini aniq maqsad asosida faoliyatga yo'llash, ularga bosh bo'lish, turli tadbirlarni amalga

oshirish, obro'ga ega bo'lish, har bir qilingan ish uchun javobgarlikni o'z buyniga olish kabi ko'plab sifatlarning mujassam bo'lishi talab qilinadi.

Ayniqsa boshliq uchun turli guruhlardagi, ko'p holda bir boshliq uchun bir vaqtning o'zida bir qancha guruhlardagi shaxslararo munosabatlarning xarakteriga javobgar bo'lish qiyinchiliklar turdiradi, chunki o'sha guruhlarini tashkil etgan har bir shaxsning o'ziga xos individualligi, boshqaruvchi haqidagi ular tasavvurining har xilligi va guruhlarda norasmiy liderlarning borligi boshliqdan odamlar bilan ishlash borasida ham tajribaning, ham psixologik fahm-farosatning va sabr-qanoatning bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun ham kundalik hayotimizda, ham ilmiy adabiyotlarda tez-tez yonma-yon ishlatiladigan "lider" va "boshliq" tushunchalarining psixologik mazmunlarini analiz qilib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Guruhlarda rahbarlik va liderlik. Guruhlardagi o'zaro munosabatlar yuqoridan pastga yoki aksincha bo'lib, guruh a'zolarining konkret mavqiyelari, boshliq bilan bo'ysunuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bu borada "lider" va "boshliq" tushunchalari o'rtasidagi farqlar hakida gapirish lozim. B.D. Parigin bu ikki tushunani farqlab shunday yozadi:

1) lider asosan guruxdagi shaxslararo munosabatlarni boshqarsa, rahbar — shu guruhdagi rasmiy munosabatlarni boshqaradi;

2) liderlik kichik guruhlargagina xos bo'lgan hodisa bo'lsa, rahbarlikning haq-xuquqlari katta guruhlar doirasida ham sodir bo'lishi, amalga oshirilishi mumkin;

3) agar liderlik stixiyali, betartib jarayon bo'lsa, rahbarlik maqsadga qaratilgan, jamiyatda ishlab chiqilgan normalar, tartiblar asosida saylovlar oqibatida sodir bo'ladigan hodisadir;

4) liderlik rahbarlikka nisbatan vaqtinchalik hodisa bo'lib, guruh a'zolarining kutishlari, ularning kayfiyatlari, faoliyat yunalishiga qarab, uzoqroq muddatda yoki qisqa muddatda ro'y beradi;

5) rahbarning liderdan farqi yana shundaki, u liderda yo'q bo'lgan jazolash va ragbatlantirish tizimiga ega bo'lib, shu asosda o'z xodimlariga ta'sirini o'tkazishi mumkin;

6) lider guruhda u yoki bu qarorlar, ko'rsatmalar, tashabbuslarni o'z ixtiyoricha, bevosita chiqarishi mumkin, rahbarda esa bu yo'nalishda ko'plab rasmiy ko'rsatmalar, rejalar, normalar, buyruqlar mavjudki, ular doirasidan chiqib ketishi kiyin;

7) liderning faoliyati faqat kichik guruhlar doirasida amalga oshirilsa, rahbar shu guruhdagi, kengroq ijtimoiy doiradagi, jamiyatdagi vakili bo'lganligi uchun, uning vakolatlari ham keng, faoliyat imkoniyatlari ham ortiqdir.

Lider hyech qachon yolg'iz bo'lmaydi, u doimo guruh a'zolari orasida bo'ladi, u shu guruh a'zolarini u yoki bu harakatlarga chorlaydi. Chunki lider guruh a'zolarining psixologiyasi, ularning kayfiyatlari, intilishlari, qiziqishlari va hokazolarni hammadan ham yaxshi biladi, ular ichida eng tashabbuskoridir. Agar sinf doirasida olib qaraladigan bo'lsa, turli xil lider borligini aniqlash mumkin. Masalan, guruh a'zolari ichida eng bilag'oni, aql o'rgatuvchisi, topqiri, intellektual lideri, bolalar ichida eng hazilkashi, dilkashi, xushchaqchag'i, ko'ngil so'rovchisi, o'zgalarni tushuna oladigan — emosional lider, guruhni ish faoliyatga chorlay oladigan, dadil, qatiyatli, irodali-irodaviy liderlar bo'lishi mumkin. Ular ayni vaziyatlarda vaziyat talabiga ko'ra paydo bo'ladilar hamda bolalar ongida o'z sifatlariga ko'ra obro' qozonadilar. Lider sifatlari ichida yaxshi va yomonlari ham bo'lishi mumkin, lekin guruh liderga ergashganda, uni ibrat sifatida tanqidsiz qabul qiladi va shuning uchun ham barcha ishlariga ergashib, ko'rsatmalariga amal qiladi. Maktabda bolalar yoshida xulqi maktab normalariga to'g'ri kelmaydigan liderlarning borligi, ular ma'lum guruh ichida so'zsiz obro'ga ega ekanligi ham shu bilan tushuntiriladi. Masalan, lider “ketdik” deb ko'rsatma bersa, unga ergashganlarning darsni ham tashlab keta olishi shu bilan tushuntiriladi.

Shuning uchun ham sinf rahbari o'z sinfidagi rasmiy liderlar bilan ishlash bilan cheklanmaydi, balki norismiy liderlarni ham aniqlay bilishi, ular bilan hamkorlikda ishlashi zarur. To'g'ri, ba'zi hollarda rasmiy va norasmiy lider bir shaxs bo'lishi ham mumkin. Bu juda qulay, lekin liderlik vaziyatga bog'liq bo'lgani uchun ham ularning o'zgarib turishini hisobga oladigan bo'lsak o'qituvchining boshqarish maxorati yoki san'ati uning norasmiy liderlar bilan samarali ishlash usulidir.

Shunday qilib, har qanday lider obro'ga ega. Obro'lilik shaxsning shunday xususiyatiki, u boshqa shaxslarga ham hissiy-emosional, ham irodaviy ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga egadir. Norasmiy obro'lilik ya'ni shaxslararo munosabatlar mahsuli sifatida orttirilgan obro' juda samaralidir. Odamlar ko'ngliga yo'l topish, ularni turli vaziyatlarda tushuna olish, ishonch va shunga o'xshashlar obro' orttirish mezonlaridandir.

Liderlikka oid nazariyalar. Liderlik hodisasi to'g'risida gap ketar ekan, liderlik nazariyalari xaqida ham qisqacha to'xtalib o'tish o'rinlidir. Hozirgi kunga qadar liderlik to'g'risida asosan uchta nazariya mavjud:

- Xarizmatik nazariya;
- vaziyatga bog'liqlik nazariyasi;
- sintetik nazariya.

Xarizmatik nazariya. Birinchisi "**liderlik sifatlari nazariyasi**"dir yoki **xarizmatik nazariya**. Uning mohiyati shuki, hamma ham lider bula olmaydi, ayrim shaxslarda shunday sifatlar yig'indisi tug'ma mavjud bo'lib, ular uning guruhda lider bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, 1940 yilda amerikalik K. Berd 79 sifatdan iborat bo'lgan liderlik qirralari ro'yxatini tuzdi. Bu ro'yxatda jumladan tashabbuskorlik muloqotga kirisha olish, yumor hissi, o'ziga ishonch, tez va aniq qarorlar qabul kila olish, tashkilotchilik kabi sifatlar bor edi. Lekin bu nazariyaning xatoligi shunda ediki, birinchidan, u yuqoridagi sifatlar qanday qilib namoyon bo'ladi-yu, qanday shakllanishini tushuntirib bera olmadi, ikkinchidan, so'roqlar mobaynida birorta sifat ham mutlaq ko'p marta qayd etilmadi.

Vaziyatga bog'liqlik nazariyasi. Ikkinchi nazariya **liderlikning vaziyatga bog'liqligi nazariyasidir**. Bu yerdagi asosiy g'oya — lider vaziyatning mahsuli degan g'oyadir. Har bir odamda liderlik sifatlari bor, lekin ayrim vaziyatlar ayrim shaxslarning o'zlarini ko'rsatishlari, lider bo'lishlari uchun qulay hisoblanadi.

Sintetik nazariya. Yuqoridagi ikki nazariyani tanqid qilish natijasida paydo bo'lgan uchinchi nazariya liderlikning **sintetik** nazariyasidir. Bu nazariya liderni guruhliy munosabatlarning bevosita mahsuli deb qaraydi, liderning ruyobga chiqishida guruhning birlamchi rolini ilgari suradi.

Psixolog A.N. Leontyevning faoliyat konsepsiyasiga tayangan holda, liderlikni faoliyat mahsuli, guruhning ushbu faoliyatga munosabati va guruhda qabul qilingan normalar va ijtimoiy kutishlarga kim ko'proq javob berishiga qarab liderni aniqlash mumkin. Ijtimoiy kutishlar nazariyasi hozirda ko'pchilik tomonidan ma'qul yondashishlardan biri deb qabul qilinmoqda.

Liderlik uslublari haqida tushuncha. Har bir lider yoki boshliq o'zicha individual va qaytarilmasdir. Buning boisi har bir boshliq o'z ish faoliyatini, boshqaruv faoliyatini o'ziga xos tarzda tashkil etishidadir.

Ijtimoiy psixologiyada boshqaruv sohasida batafsil o'rganilgan muammolardan biri — **turli boshqaruv uslublari**dir. Bu sohada nemis olimlari G.Gibsh va M. Forverg, rus olimlari V.D. Parigin, L.N. Umanskiy, M.Yu. Jukov va boshqalarning ishlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Barcha ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirgan holda ijtimoiy psixologiyada qabul kilingan uch asosiy boshqarish uslublari ga harakteristika berib chiqamiz. Bu uch uslub:

- **Avtoritar;**
- **Demokratik;**
- **Liberal ish uslublari**dir.

Avtoritar uslub. Rahbar barcha ko'rsatmalarni ishchanlik ruhida, aniq-ravshan, keskin ohangda xodimlarga yetkazadi. Muloqot jarayonida ham xodimlarga nisbatan do'q-po'pisa, keskin ta'qiklash kabi qat'iy ohanglardan foydalanadi. Uning asosiy maqsadlaridan biri — nima yo'l bilan bo'lsa-da, o'z hukmini o'tkazish. Uning nutqi ham aniq va ravon doimo jiddiy tusda bo'ladi. Biror ish yuzasidan xodimlarni maqtash yoki ularga jazo berish, tanqid qilish sof subyektiv bo'lib, bu narsa boshliqning kayfiyatiga va o'sha shaxslarga nisbatan shaxsiy munosabatiga bog'liq. Jamoa a'zolarining tilak-istaklari, ularning fikrlari va maslahatlari juda kam xollardagina inobatga olinadi, aksariyat hollarda bunday istaklar yoki ko'rsatmalar to'g'ridan-to'g'ri do'q-po'pisa, kamsitish yoki ma'naviy jazolash yo'li bilan cheklanadi yoki qoniqtirilmaydi. Bunday rahbar o'z ish uslublari, kelajak rejalari, biror aniq ishni, operasiani qanday amalga oshirmoqchiligini odatda, jamoadan sir

tutadi, uning fikricha, bu uning obro'yiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Guruhdagi ijtimoiy-fazoviy munosabatlardagi o'rni jihatidan, u "jamoadan chetda", avtonomdir.

Avtoritar rahbarda har bir jamoa a'zolarining qobiliyatlari, ishga munosabatlari, mavqiyalariga ko'ra tutgan o'rinlari haqida tasavvurlar borki, shunga ko'ra u har bir xodimning ish harakatlarini maksimal tarzda dasturlashtirib qo'ygan, unda har qanday cheklashlar uning ochiq g'azabini keltiradi va buning uchun unda jazolashning turli uslublari mavjud. Ya'ni bunday jamoalarda hokimiyat—markazlashtirilgan, jamoa rahbari ushbu markazning yakka hokimi — shuning uchun ham bu yerda "mening odamlarim", "mening ishim", "mening fikrim bo'yicha" kabi iboralar tez-tez ishlatiladi. Bunday rahbarlarda ishga nisbatan shunday fidoiylilik borki, ular o'zlarini shu ishsiz tasavvur qila olmaydilar, ya'ni ish uning "butun vujudini qamrab olgan". Shu sabab bo'lsa kerak bunday rahbar har bir odamni uning kundalik ish faoliyatini, uning natijalarini juda yaxshi biladi. Lekin, aslida, uni ishning mazmunidan ko'ra, uning o'sha yerdagi yetakchilik roli, boshliqligi ko'proq qiziqtiradi va o'ziga o'sha sifatlarga qarab baho beradi. Bu sifat, tabiiyki, ishning sifatiga ham ta'sir qilgani uchun jamoa oldiga qo'yilgan barcha topshiriqlar bajarilmay qolmaydi ("temir rahbar"). Bunday jamoalarda tanqid ishi juda sust, chunki u o'zini ham, boshqalarni ham tanqid qilishlariga yo'l qo'ymaydi. Tanqid qilishga, uning fikricha, faqat boshliq haqli, yig'ilishlarda so'zni o'zi boshlab, tashabbusni oxirigacha boshqalarga bermaydi, odamlarning takliflari, ularning hissiyotlari e'tiborga olinmaydi.

G. Gibsh va M. Forverglarning tahlil qilishlaricha, avtoritar lider bosh bo'lgan jamoada ishlarning samaradorligi ancha yuqori bo'lib, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ham yuqori bo'lar ekan. Lekin jamoadagi ruhiy-ma'naviy muhit og'ir, tang bo'lib, bu narsa odamlarning jamoadan, ishdan qoniqmasliklariga olib keladi. Bunday rahbarlar boshchilik qilgan mehnat jamoalarida ishlaydigan odamlar o'z kasblari, ish joylarini osonlikcha almashtirishlari mumkin.

Demokratik uslub. Demokratik rahbar, aksincha, bo'ysunuvchilarga mustaqillik erk berish tarafdori. Ishda topshiriqlar berganda ishchilarning shaxsiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda taqsimlaydi. Bunda u xodimlarning shaxsiy

moyilliklarini ham hisobga oladi. Buyruq yoki topshiriqlar, odatda, taklif ma'nosida beriladi. Nutqi oddiy, doimo osoyishta, sokin, unda o'rtoqlarcha, do'stona munosabat sezilib turadi. Biror kishini maqtash, uning lavozimini oshirish yoki ishdagi kamchilikka ko'ra ishiga baho berish doimo jamoa a'zolarining fikri bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Tanqid, ko'pincha taklif, istak shaklida qilingan ishlarning mazmuniga baho berish holida "aybdorga" yetkaziladi. Har bir yangi ish jamoa maslahatisiz boshlanmaydi. Shuning uchun ham uning fazoviy-ijtimoiy holati "jamoada ichida".

Jamoada tanqid va o'z-o'zini tanqid shunday yo'lga qo'yilganki, uning oqibatidan hech kim aziyat chekmaydi. Chunki ko'prok boshliq emas, balki jamoaning boshqa faollari — norasmiy liderlar tanqid qiladilar. Boshliq yo'l qo'ygan xato-kamchiliklarni jamoatchilik oldida bo'yniga olishdan qo'rqmaydi. Chunki undagi mas'uliyat hissi nafaqat yuqori boshqaruv tashkilotlari a'zolari bilan muloqot paytida, balki, xodimlar bilan muloqotda ham sezilib turadi va qo'yilgan topshiriq yuzasidan mas'uliyatni boshqalarga ham bo'lib berishni yaxshi ko'radi. Boshliqning xodimlaridan siri yo'q, shuning uchun ham majlislarda ko'proq u emas, balki barcha xodimlar gapiradilar, oxirgi qaror chiqarish va so'zlarni yakunlash, umumlashtirish huquqidan u to'liq foydalanadi.

Gibsh va Forverglarning tahlillariga ko'ra, bunday boshliq rahbarlik qilgan jamoalarda ma'naviy-ruhiy muhit juda yaxshi, ishchilar jamoadan, ishdan qoniqish hosil qilganlar, ishdan ketish hollari kam bo'ladi, lekin ishlab chiqarish zo'rg'a norma holatida bo'lar ekan.

Liberal uslub. Liberal (loqayd) uslubda ishlaydigan rahbarning kayfiyatini, ishga munosabatini, ishdan mamnun yoki mamnun emasligini bilish qiyin. Unda taqiqlash, po'pisa bo'lmaydi, uning o'rniga ko'pincha ishning oxirgi oqibati bilan tanishish bilan cheklanadi, xolos. Jamoada hamkorlik yo'q boshliq jamoaning muammolari, ishning baland-pasti bilan qiziqmaydiganday, go'yoki boshqa "koinotda" yurganga o'xshaydi. Aniq ko'rsatmalar bermaydi, uning o'rniga norasmiy liderlar yoki o'ziga yaqin kishilar orqali qilinishi lozim bo'lgan topshiriqlar bajaruvchilarga yetkaziladi. Uning asosiy vazifasi, uning nazarida, xodimlar uchun

ish sharoitini yaratish, ishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, kerakli mahsulot, xomashyo kabilarni topib kelish, majlislarda qatnashish va hokazolardan iborat.

Xodimlar bilan muloqotda bo'lishga to'g'ri kelganda, u doimo xushmuomala bo'lib, odob, ahlok normalarini buzmaslikka harakat qiladi, lekin hych qachon ular bilan tortishmaydi. Majlislarda agar biror muammo munozarani keltirib chiqarsa, u bevosita jarayonga aralashmay, oxirgi so'zni o'ziga qoldiradi. Shunday qilib, xodimlarga fikrlash va hatti-harakatlar erkinligi berib qo'yilgan, bular yuzasidan boshliqning fikri so'ralgan taqdirda ham, undan aniq gap chiqmaydi, chunki u xodimlarni yaxshi bilmaydi, qolaversa, ularni xafa qilib qo'yishdan qo'rqadi. Uning fazoviy-psixologik holati "guruh tashqarisida".

Olimlar fikricha, bunday rahbar ishni olib borgan jamoalarda barcha ko'rsatkichlar doimo orqada, qo'nim ham yo'q. Liberal rahbar ishda o'zboshimchalikka yo'l qo'yib, ko'p turmay, boshqa yerdan ish qidirishga harakat qiladi.

Yuqorida baho berilgan boshqarish uslublari ko'proq liderlikka emas, balki rahbarlikka taalluqli, lekin ilmiy adabiyotlarda bu ikkala ibora, ko'pincha sinonimday ishlatiladi. Aslida, eng yaxshi rahbar o'zida barcha liderlik sifatlarini ham mujassamlashtirgan bo'ladi. Chunki sof ijtimoiy psixologik ma'nodagi liderning turlari turli sharoitlarda o'zida ko'proq namoyon etadigan shaxsiy sifatlariga ko'ra tabaqalanadi. Masalan, lider-tashkilotchi, lider-tashabbuskor, lider-erudit, jamoa hissiy-emosional holatni boshqaruvchi lider, lider-bilag'on va hokazo. Yaxshi rahbar ana shu lider sifatlarini bilgan holda, ularni o'zida tarbiyalashi va jamoasidagi liderlar bilan hamkorlikda ishlay olishi kerak. Oxirgi yillarda Moskva va boshqa yirik ilmiy markazlarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelindiki, aslida hayotda sof demokrat yoki sof avtoritar rahbarni uchratish qiyin, lekin uchragan paytda ham ular bir jamoani uzoq muddat boshqara olmasligi ma'lum buldi. Shuning uchun ham ular vaziyatga bog'liq, konkret jamoa, unda qabul qilingan hatgi-harakat normalari, shaxslararo munosabatlar tipi liderning ham, rahbarning ham ish taktikasi va uslubini belgilaydi, degan g'oya qabul qilinmoqda. Lekin bu rahbarlik uslublarining psixologik mazmun va mohiyatini bilishning amaliy ahamiyati

shundaki, har bir uslubda o'ziga xos ijobiy tomon bor, mohir rahbar o'zini-o'zi tarbiyalar ekan, o'shalarining eng ma'quli, ayniqsa o'zi rahbarlik qilayotgan jamoaga moslarini tarbiyalashi maqsadga muvofiqdir.

Rahbarlik sifatleri. Yuqorida aytib o'tilganidek rahbarda tug'ma qobiliyat bo'ladi deb ham aytib bo'lmaydi, ikkinchi tomondan, rahbar vaziyatga qarab stixiyali tarzda tarbiyalanib ketaveradi, deb ham bo'lmaydi. Minglab shaxs sifatleri ichida ko'plari rahbarlik uchun qulay va ma'quldir. A.V. Petrovskiy ana shunday ijobiy sifatlardan bir yarim mingini sanab chiqqan. Lekin ularning barchasini umumlashtiradigan, albatta bo'lishi lozim bo'lgan ayrim sifat, qobiliyatlari borki, ular haqida qisqacha to'xtalib o'tmoq lozim.

Avvalo, har qanday rahbarda intellekt — aql-zakovatning ma'lum normasi bo'lishi kerak. Bu norma yaxshi rahbar uchun o'rtadan yuqori bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir, chunki geniy darajasidagi intellektga ega bo'lgan rahbar bilan ishlash xodimlar uchun qator noqulayliklarni keltirib chiqarishini, bunday aql-zakovat qolganlarning ijobiy rivojlanishiga psixologik to'siq bo'lishini amaliyot va hayot ko'rsatdi. Rahbardagi o'rtadan yuqori intellektni qoplab ketadigan yana boshqa muhim sifatlar borki, ular boshqarish ishining samarasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, rahbarning mustaqil fikrlilik, topqirlik, tashabbuskorlik sifatleri. Chunki, ayrim hollarda xato qilsa ham, rahbar original fikrlar aytib, yo'l-yo'riqlar ko'rsata olishi, har bir aytilgan fikr, qilingan ishga mustaqil baho bera olishi zarur.

Chunki mustaqillik shaxs qiyofasini belgilovchi muhim psixologik xususiyatdir.

Rahbarda mustaqillik bo'lsa, unda o'ziga ishonch ham bo'ladi, bu esa o'z navbatida rahbardagi subyektiv talablar darajasining yuqori bo'lishiga olib keladi. Ko'pincha, rahbarning boshqalarga talabchanligi haqida gapiriladi, lekin yaxshi rahbar avvalo o'z-o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi kerak. O'z-o'zini baholash va shu asosda boshqalarga nisbatan munosabatlar tizimini ishlab chiqishi muhim bir omildir.

Har qanday rahbar uchun universal, kerak bo'lgan hislatlardan yana biri tom ma'noda "ziyoli" bo'lish yoki, boshqacha qilib aytganda, madaniyatli bo'lishdir. Boshliq o'zidagi madaniyatni avvalo muomalada, odamlar bilan bo'ladigan kundalik

muloqotlarda namoyon etmog'i lozim. Muomala madaniyati — bu o'rinli, aniq, qiska, samimiy gapirish san'ati va ikkinchi tomondan, suhbatdoshni tinglash qobiliyatidir. Chunki, boshliq bilan xodimlar o'rtasida kelib chiqadigan shaxsiy ziddiyatlarning asosida yo tinglay olmaslik yoki gapni to'g'ri yo'sinda gapira olmaslik yotadi. O'zganing o'rniga tura olish, uning his-kechinmalariga sherik bo'lish, empatiya hissining borligi, dialoglarda sabr-toqatlilik va boshqalar muloqot madaniyatining muhim tomonlaridir.

Jamoa faoliyatini va o'z faoliyatini rejalashtirish qobiliyati rahbar uchun muhim bo'lgan talablardan biridir. Chunki rejalashtirish asosida o'z-o'zini boshqara olish va boshqalarni tashqi faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda boshqara olishni ta'minlovchi muhim psixologik xususiyat yotadi. Rejalashtirish — bu o'ziga xos kelajakni ko'ra olish kobiliyati, kelajak obrazi bo'lib, bu narsa shaxsning qanchalik kamol topganligi va maqsadga intiluvchanligining muhim belgisidir. Bu juda murakkab psixologik jarayon bo'lib, u shaxsning o'z diqqatini qanchalik omilona tarzda boshqarishi, uni faqat muhim narsalarga qarata olishi, vaqtdan tez foydalana olish, ortiqcha ishlardan o'zini tiyish, qo'l ostidagilarga, imkoni boricha, ularning qobiliyatlariga qarab ish buyura olish va nihoyat, buyurgan ishni o'z vaqtida nazorat qilib, so'rab olish imkoniyati bilan bog'liq. O'z ishini puxta rejalashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan rahbar realistik tafakkurga ega bo'lmog'i, ya'ni har qanday sharoitlarda ham o'sha muammo yoki ishga taalluqli barcha alternativ variantlardan eng to'g'risi va maqsadga muvofiqini tanlay oladigan, ishni to'g'ri tashkil eta bilgan, ya'ni eng kam kuch va vaqt sarflab ishni uddalay olgan, noaniq yoki tasodifiy vaziyatlarda ham ish taktikasini to'g'ri yo'lga yo'naltira oladigan odam bo'lishi kerak Bundan tashqari, yaxshi rahbar uchun oldida turgan ishning har bir alohida detallarigacha tasavvur qilib, uni amalga oshirishning barcha bosqichlari va vositalarini oldindan ko'ra bilish qobiliyati ham zarur. Shunday taqdirdagina u ishga dadil kirishishi, o'zgalarni o'z ortidan ergashtirishi va ishlab chiqarishda yuksak ko'rsatkichlarga erishishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan rahbarlik sifatlari ichida eng muhimi, tabiiyki, psixologik mahoratni talab etgani — odamlar bilan ishlash mahoratidir. Jamoa a'zolari bilan samarali ishlash uchun esa boshliq ularning psixologiyasini, har bir

a'zo psixologiyasini va guruh psixologiyasini yaxshi bilishi zarur, chunki "o'zgalar psixologiyasini bilish ular ustidan hukmronlikning yagona yo'lidir", — deb yozishgan edi ingliz olimlari. Ijtimoiy psixologiyaning bu borada ham yaxshi vositasi — ijtimoiy psixologik trening uslubi borki, uning yordamida odamlar bilan ishlovchilar jamoani boshqarishning turli usullariga muvaffaqiyatli tarzda tayyorlanmoqdalar.

Rahbarlikka loyqlik mezonlari asosida liderlikning vazifalari:

- lider - ma'mur;
 - lider - rejalashtiruvchi;
 - lider - siyosatchi;
 - lider - baholovchi ekspert;
 - lider - jamoning vakolatli vakili;
 - lider - rag'batlantirish va jazolash tashabbuskori;
 - lider - hukm chiqaruvchi va yarashtiruvchi;
 - lider - jamoaning ramzi - referent;
 - lider - individual mas'ullikni cheklovchi;
 - lider - dunyoqarashlar shakllantiruvchi;
 - lider - "Balogardon".
-

Liderlik va superliderlik. Amerikalik tadqiqotchi Linda Djuell o'zining «Industrialno-organizatsionnaya psixologiya» (2001 yil) kitobida ijtimoiy psixologik xodisalardan muhimi bo'lmish liderlik masalasiga o'zining o'ziga xos yondashuvini bayon etgan. U bu muammoni aynan bizning sharoitimizdagi talqini, ya'ni mardlik va jasorat ko'rsatish uchun ochiq maydonlar yo'q bo'lgan sharoitda liderlik xislatlarining namoyon bo'lish xususiyatlarini ochishga urinadi. Uning fikricha, zamonaviy ishlab chiqarishning samaradorligi eng avvalo xodimlar rolini oshirib, liderlarnikini aksincha, pastlashtirish, yoki aniqrog'i, kamaytirish hisobiga ro'y beradi. Shundagina rahbarlikda ortiqcha bo'g'inlarni kamaytirish mumkin. Liderning, ya'ni amerikaliklar rahbari lider fenomeni doirasida tasavvur qilishadi, vazifasi — guruhning samarali faoliyat ko'rsatish yo'llarini belgilab berishdir.

Bu kitobda ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan ahamiyatli bo'lgan tushunchadan biri bu – **«superlider»** tushunchasidir. Superlider kim va qachon oddiy lider superga aylanadi? Amerikalik tadqiqotchilar Mans va Simslarning fikricha, eng yaxshi lider – bu «superliderdir». Bu shunday shaxski, u o'z xodimlarining aksariyatini liderlarga, birinchi navbatda o'zlari uchun liderlarga aylantira oladi. Bunday asosiy g'oya shundan iboratki, agar odam eng **avvalo o'zi uchun lider bo'la** olsa, o'zidagi bu malaka yoki mahoratni boshqalarga yetkaza olsagina, bu odam uchun shunday vaqt-saot yetib keladiki, jamoa o'zi mustaqil ishlaydigan, bevosita tepasida turib boshqarib turadigan insonga muhtoj bo'lmagan mexanizmga aylanadi. Bu – superliderlikdir.

Oddiy rahbar yoki liderning superliderga aylanishi bir necha bosqichlarda kechadi (pr.):

I – o'zi uchun lider bo'lish, ya'ni shaxsiy maqsad va maslaklar, o'zini o'zi kuzatish, o'zini o'zi rag'batlantirish , hayoliy repitisiyalar va kognitiv tahlillar orqali o'zining mustaqil inson, shaxs ekanligini, o'zida boshqalarga o'rnak bo'luvchi sifatlar borligini anglash;

II – yuqorida qayd etilgan sifatlarning afzalliklarini o'zgalarga namoyish etib, uning afzalliklariga ishontira olish;


III – xodimlariga o'zlarida tashabbus va o'ziga ishonchni namoyon etish uchun sharoit yaratish;

IV – mustaqil qobiliyat egalari bo'lgan xodimlarni rag'batlantirish, kerak bo'lganda, faqat konstruktiv tanbehlar berish;

V – o'z-o'zini boshqarishga asoslangan ijtimoiy faoliyatni tashkil etish va ishlarga xadeb aralashaverishdan o'zini tiyish.

Demak, samarali boshqaruv – aslida ijtimoiy ta'sirni amalga oshirishning eng namoyishkorona ko'rinishidir. Shu ma'noda, liderlik – avval shaxsning o'ziga, so'ngra o'zgalarga bera oladigan ta'sirida ko'rinadigan fazilatlar majmuidir, deb ta'riflanadi.

Rahbarga zarur bo'lgan to'rtta “t”




Rahbarga zarur bilimdonlik qirralari:

3. Ijtimoiy

1. Professional bilimdonlik
2. Uslubiy bilimdonlik
3. Ijtimoiy bilimdonlik.

Rahbarlik faoliyatining diagnostikasi хусусиятлари

1. Rahbar tub ma'noda realist bo'lishi, ya'ni uning barcha harakatlari korxona manfaatlariga mos kelib, unga foyda keltirishini tasavvur qilishi lozim;
2. Rahbarning umuman odamlar haqida qanday tasavvurda ekanligi, ular to'g'risida nima deb o'ylashi, bu boradagi bilimlari juda muhim;
3. Har qanday narsani yo'l - yo'lakay, qiyinchiliksiz idrok qila olishi muhim qobiliyat ekanligi;
4. O'zgalar faoliyati va jamoani yaxlit tarzda boshqara olish hamda bajarayotgan ishni birgalikda hamma qatori amalga oshirishga tayyor bo'lishi lozim.
5. Jamoa va uning tashqarisidagi raqobatchi hamda hamkasblarning mavqeyi va ishlab chiqarish salohiyatini aniqlab, o'zi zarur xulosalarni chiqara olishi.
6. Har qanday toshpirilgan vazifani oxiriga yetkazish va bundan malum bir qoniqish hissi hosil qilish uchun o'zidagi qobiliyat va kuch-quvvat zahirasi ega bo'lishi shart. Buning uchun esa:
 - a) o'z kuchi, salohiyati va qobiliyatlarini eng asosiy maqsadga qaratish, irodani aynan shunga sarf qilish;
 - b) doimo tetik va sog'lom bo'lib, har doim ham ishga yaroqli ekanligini ko'rsata olish;
 - v) boshqa xodimlar ham bajara olishi mumkin bo'lgan mayda-chuyda ishlarga qo'l urmay, ularning nazoratigagina e'tiborni qarata olish (делеги́рование);
 - г) ён - атрофдаги бошқа ташкилот ва корхоналардаги бошқарув услублари ҳақида ҳам



Nazorat savollari:

1. Boshqarishning rivojlanish tarixi.
2. Boshqaruvning fan sifatida shakllanishi.
3. Boshqaruv usuluri.
4. Natijalilik va samaradorlik tushunchalari.
5. Samaradorlikni ifoda etuvchi tushunchalar.
6. Samarali boshqaruv faoliyatining psixologik asoslari.
7. Ishlab chikarishni boshqarish samaradorligi.
8. Boshqaruv samaradorligini baholash omillari.
9. Boshqaruv samaradorligining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari.
10. Tashkilot muvaffaqiyatini tashkil qiladigan jihatlar.
11. Psixologiyada boshqarish muammosi.

12. Boshqaruv faoliyatini takomillashtirish omillari.
13. Boshqarish faoliyatining mezonlari.
14. Boshqarish faoliyatining ko'rsatkichlari.
15. Rahbarlik sifatleri.
16. Guruhlarda rahbarlik va liderlik.
17. Liderlik va superliderlik.
18. Liderlik uslublari haqida tushuncha.
19. Rahbarlik faoliyatining diagnostik xususiyatlari
20. Tashkilot rahbarining asosiy vazifalari.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abulxanova K.A. i dr. Psixologiya i pedagogika. – M.: «Sovershenstvo», 1998. – 320 s.
2. Inog'omov R., Toshmurodova Q. Pedagogika fani XXI asrda. - T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2000.
3. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T., 2005.
4. Klimov Ye.A. Основы психологии. – M., 1998.
5. Nemov R.S. Psixologiya. V 3-x kn. – M., 1998.
6. Podlasny I.P. Pedagogika. Novyy kurs v 2-x kn. – M.: Vldos, 1999.
7. Psixologo-pedagogicheskiy slovar dlya uchiteley i rukovoditeley obshchey obrazovatel'nykh uchrejdeniy. – Rostov – na – Donu: Feniks, 1998

12. Mavzu: **Rahbar qobiliyatining psixologik komponentlari**

Reja:

1. Raxbar shaxsida professional qobiliyatlarni shakllantirish.
2. Raxbar xodimlar mehnatini ilmiy asosda tashkil etishning psixologik muammolari.
3. Jamoada psixologik iqlim.

Tayanch tushunchalar: boshqaruv, rahbarlik uslubi, rahbarlik huquqi, usul, ish uslubi, xorijiy boshqaruv, korxona faoliyati, avtokratlar, demokratlar, liberal, bo'ysunish, majburiy bo'ysunish, passiv bo'ysunish, aqlan buysunish. Boshkaruv, o'z-o'zini boshqarish, shaxsiy boshqaruv, ong, onglilik, aqliy qobiliyatlar, temperament, xarakter, ijtimoiy muhit, ongli faoliyat, ongsiz faoliyat, motiv, xayotiy pozisiya, shaxsiy hayotiy reja, yetakchilik.

Shaxsiy boshqaruvning mohiyati. Ijtimoiy tizim doirasida inson boshqaruvning asosiy bo'g'ini, obykti va subyekti bo'lib hisoblanadi. Inson faoliyatini doimo kimdir boshqaradi. O'z navbatida, u ham kimnidir, avvalombor, o'z-o'zini boshqaradi. Bu demak, u o'z fikrlarini, ongi, xulqi, ishlari va harakatlarini boshqaradi. Bu shaxsiy boshqaruv sifatida u o'ziga o'ta tanqidiy munosabatda bo'lishni talab etadi. Bu o'z-o'zini boshqarish ong, onglilik, o'z imkoniyatlarini va qobiliyatlarini baholash bilan bog'liq. Inson doim o'ylab qadam bosishi lozim. O'z-o'zini samarali boshqarish uchun u o'z xarakterini, salohiyati, imkoniyatlari, qiziqishlari, manfaatlarini hamda turli vaziyatlardagi hayotiy pozisiyasini yaxshi bilishi lozim.

Ong-bu haqiqiy hayotni sof holda aks ettirish qobiliyati sifatida insonga o'z faoliyatini programmashtirish, yaqin va istiqbolli rejalarini belgilash va ularga erishishning ijtimoiy ruhiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ong insonga o'z fikrlari va ishlarini nazorat qilish, ularni tahlil qilish, boshqa odamlarning tabiati va hatti-harakati bilan solishtirish imkonini beradi. Ong insonga ijtimoiy jarayonlarga, tabiat va o'z-o'ziga ta'sir o'tkazish imkonini beradi. Ong ikki tomonlama intilishga ega, ya'ni u bir tomondan tashqi dunyo, muhitni bilish va o'zlashtirish maqsadida o'rganishga, ikkinchi tomondan, esa o'z-o'zini tabiatini, ichki hayotini o'rganishga qaratilgan. Inson doimo o'z hatti-harakatlariga baho beradi. Ong bilan bir qatorda onglilik (ya'ni o'z-o'zini anglash) muhimligini ta'kidlash lozim, chunki onglilik o'z-o'zini idrok etishga qaratilgan. Ong orqali kishi ham boshqalar boshqaruvining

obyekti sifatida ham subyekti sifatida yuzaga chiqadi. Onglilik natijasida inson o'zini o'zi hurmat qiladi, harakatlariga baho beradi, boshqalar bilan o'zini taqqoslaydi. Har xil kishilarda o'z-o'zini boshqarish, nazorat qilish, baholash turli darajada rivojlangan. O'z-o'zini boshqara olish doim qiyin kechgan. Bu jarayon atrof-muhitga, inson yashaydigan va mehnat qiladigan ijtimoiy muhitga bog'liq. Shuningdek, u shaxsiy sifatlar, aqliy qobiliyatlar, temperament, xarakter, jismoniy va ruhiy xususiyatlarga hamda rasmiy jihatlariga bog'liq. O'z-o'zini anglash insondan o'z g'oyalariga, fikrlari, harakatlariga ma'lum huquqiy va etnik normalar nuqtai nazaridan javobgarlik his qilishni taqozo etadi.

Onglilik o'z-o'ziga baho bera olishni ham taqozo etadi. O'z-o'zini baholash kishi o'zini to'g'ri boshqara olishida muhim rol o'ynaydi.

. O'z-o'zini baholash, shuningdek, kishi boshqalar tomonidan baholanishi bilan uzviy bog'liq. Demak, ong, onglilik va o'z-o'zini baholay olish-insonning o'z-o'zini boshqarishi uchun muhim qurol, vositadir. Ammo kishilarning har bir harakati ongli tarzda nazorat qilinadi deb aytish qiyin, chunki insonlarga ko'pincha ongsiz ravishda (avtomatik tarzda) harakat qilish ham xos. Olimlarning ta'kidlashicha, ongsiz ravishda harakat qilish o'ziga xos tarzda ongni bo'shatish, unga yuklamani kamaytirish yo'li ekan. Shunday qilib shaxsiy boshqaruv, ya'ni kishi o'z-o'zini boshqarishi ham ongli, ham ongsiz faoliyat (albatta onglilik kuchi bilan) birligidir. Har bir inson o'z hayoti davomida o'z oldiga turli maqsadlar quyib boradi, nima manfaat o'rinli va qanday imkoniyatlar bor deb tahlil qiladi. O'z shaxsiy manfaatlarida aniqlik bo'lmagan kishilar o'z fikrini, harakatlarini tez-tez o'zgartirib turadi. Inson faoliyati ma'lum motivlar (turtkilar, sabablar)dan kelib chiqadi. Ehtiyoj bo'lmasa harakat ham bo'lmaydi. Motiv bu kishini u yoki bu faoliyatga chorlovchi vosita, maqsad esa u erishmoqchi bo'lgan holatdir. Motiv –bu "ichki kuch".

Maqsadlar qisqa muddatli va istiqbolli bo'ladi, ammo erishish darajasidagi maqsad belgilash barcha imkoniyatlar yuzaga chiqarilgandagina ro'y berishi mumkin. Mavjud imkoniyatlar, ehtiyojlar aniqlangandan so'ng maqsad tanlanadi. ko'yilgan maqsadlar doimo erishilish darajasida bo'lishi lozim. Maqsadlar harakatga yo'nalish belgilaydi. Har bir inson maqsadga mos ravishda hayotiy pozitsiyasiga ega

bo'ladi. Bu holat ham insonning ongliligi darajasi, ijtimoiy subyekt sifatida rivojlanishi va atrof muhitiga bog'liq. Atrof muhitdagi o'zgarishlar kishiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Shaxsiy hayotiy reja bu o'zgaruvchan muhitda asos rolini o'ynaydi. Shaxsiy hayotiy reja kishi salohiyatini to'la safarbar qilib, uning bor imkoniyatlarini jalb qilishini talab qilishi kerak. Shaxsiy hayotiy reja real hayotiy maqsadlardan kelib chiqib, natijaliligi bilan ajralib turishi kerak. Bunda nafaqat xizmat yuzasidan o'sish, balki ma'naviy, aqliy rivojlanish, ijtimoiy mas'uliyat, oilaviy muammolari ham hisobga olinishi lozim. Hayotiy pozisiya va hayotiy vaziyatni baholashda quyidagilarni:

- faoliyat yuritishdan ko'zlangan maqsadlarni, ishni mazmuni va o'sish imkoni;
- shaxsiy xo'jalik, ya'ni iqtisodiy holatni;
- jismoniy holat;
- ijtimoiy omil, ya'ni odamlar bilan munosabatlar;
- ruhiy holat;
- oilaviy vaziyatni, ya'ni oilaning kishi uchun ahamiyatini hisobga olish shart.

Demak, shaxsiy hayotiy pozisiyani to'g'ri belgilash ancha mushkul ish. Hayotiy pozisiyadan kelib chiqib inson favqulotda vaziyatlarda o'z-o'zini boshqarishni amalga oshiradi. Albatta, hayotiy pozisiyasi yo'q, boqi-beg'am kishi favqulotda vaziyatlarda o'ziga mas'uliyat olmaslikka intiladi.

Rahbarlikda hamkorlik, yetakchilik va kichik guruhlarining o'rni, ahamiyati. Rahbarning professional muhim sifatlari masalasi oxirgi yillarda mutaxassislar va amaliyotchilarniko'proq qiziqtirmoqda. Bir guruh olimlar amerikalik hamda yaponiyalik rahbarlar faoliyatini o'rganib, ularga xos bo'lgan eng muhim sifatlarning bloklarini ajratganlar. 1500 ta amerikalik menedjer va 41 ta yirik Yaponiya firmalari rahbarlarining sifatlari quyidagicha tabaqalandi:

A. Konseptual qobiliyat va xulq-atvor standartlari:

- dunyoqarashning kengligi, global yondashuv;
- uzoqni ko'ra bilish va egiluvchanlik;
- tashabbuskorlik va dadillik, tavakkalchilikka moyillik;
- muntazam o'z ustida ishlash va uzluksiz o'qish.

B. Shaxsiy sifatlar:

- maqsad va yrnalishlarni aniq belgilash;
- o'zgalar fikrini tinglash qobiliyati;
- xolislik, samimiyat va bag'rikenglik;
- adolatli qarorlar chiqarish orqali xodimlarni joy-joyiga qo'yish, ular imkoniyatlaridan to'la foydalanish;
- shaxsiy yoqimtoylik;
- jamoa tashkil etish va unda uyg'un muhitni ushlab tura olish qobiliyati.

V. Salomatlik.

Lekin barcha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida shu narsa ayon bo'ldiki, amerikalik rahbarlar ko'proq xodimlarning *shaxsiy-individual tashabbuslar* ko'rsatishlariga imkon beruvchi muhitning bo'lishi tarafdorlari bo'lsalar, yaponiyaliklar - xodimlarning *hamkorlikdagi faoliyatlari* samarasini oshiruvchi sharoitlarni yaratishga e'tibor beradilar.

Shuning uchun ham rahbarlik sifatleri xaqida gap ketganda, shaxsning bir qator bilimdonliklari nazarda tutiladi.

1. *Professional bilimdonlik* - o'zi boshqarayotgan soha faoliyatini mukammal yo'lga quyish uchun o'sha faoliyat borasida to'la ma'lumotlar, bilim va malakalarga ega bo'lishlikdir.

2. *Uslubiy bilimdonlik* - bilgan narsalari, shaxsiy malaka va ko'nikmalari, turli loyixalar xususidagi ma'lumotlar, topshiriqlarni tez, to'g'ri va tushunarli tarzda xodimlarga yetkaza olish qobiliyati.

3. *Ijtimoiy psixologik bilimdonlik* - odamlar bilan ishlash, ular bilan til topisha olish, jamoani uyushtira olish, uni yaxshi ishlashga safarbar qila olish, o'zidagi liderlik sifatlerini to'la namoyon eta bilish qobiliyati. Bu tushuncha ko'pincha "*kommunikativ bilimdonlik*" tushunchasi bilan sinonim sifatida ham ishlatiladi.

50-chi yillardan boshlab o'tkazilgan tadqiqotlarda xar qanday faoliyatda ham muvaffaqiyatni ta'minlovchi sifatlerinin yuzlab xillarini aniqlandi. Lekin ularni umumlashtirilganda, 5% sifatlargina barcha tadqiqotlarda muhim, deb e'tirof etildi. Ularning orasida eng ko'p marta takrorlanganlari: a) *intellekt (odamning murakkab*

va mavhum muammolarni yecha olish qobiliyati, u o'ta yuqori bo'lmasligi, aksincha, o'rtachadan yuqori bo'lishi kerakligi e'tirof etildi); b) tashabbuskorlik (yangicha ishlash va harakatlarga ehtiyojni anglash qobiliyati va shunga mos motivlar) kiradi.

Ayrim odamlar qat'iy hayotiy pozitsiyasiga ega bo'lib jamiyatda nafaqat o'zini-o'zi boshqara olish, balki lavozimga ega bo'lgan tarzda ham o'z ortidan boshqa kishilarni yetaklash qobiliyatiga ega. Bu insonlarni yetakchi deb yuritishadi. Yetakchilik-bu maqsadga erishish yo'lida alohida shaxslar va kishilar guruhiga ta'sir o'tkazish xususiyatidir. Boshqaruvda ta'sir o'tkazish, hukmronlik, shaxsiy ta'sir o'tkazish orqali amalga oshishi mumkin. Hukmronlikning quyidagi asosiy shakllari mavjud:

- majbur qilishga asoslangan hukmronlik;
- ekspert hukmronlik;
- ibrat orqali amalga oshiriladigan hukmronlik;
- taqdirlashga asoslangan hukmronlik;
- qonuniy yoki an'anaviy hukmronlik.

Bu hukmronlik turlari ichida ibrat kuchi bilan hukmronlikka alohida o'rin ajratiladi. U Xorizma deb yuritiladi. Xorizma xos bo'lgan shaxslarga faollik, chiroyli qiyofa, xarakterining muvstaqilligi, nutq qobiliyatlari, shaxsiy xususiyatlar, qat'iylik xosdir.

Yetakchilik - biror shaxsning o'ziga xos boshqalarga ta'sir o'tkazish xususiyati, maqsadga yo'naltirish, qiziqtirish qobiliyati, u samarali boshqaruv uchun zarur. Ammo, ko'pincha yetakchilik rasmiy huquqiy asoslar yo'qligini bildiradi. Bunday huquqiy asos hukmronlikda mavjud. Hukmronlik bevosita tashkilot resurslaridan maqsad yo'lida foydalana olish huquqini beradi. Xokimlik va yetakchilik birgalikda bo'lsa - ayni muddao, chunki kishilar hulqiga ta'sir o'tkazish qobiliyati va shunga asos beradigan huquqning birlashishi tashkilot samaradorligi uchun zarur. Xokimlikning asosiy namoyon bo'lish tiplari: majbur qilish; taqdirlash; bilimdonlik; ibrat va an'analar. Rahbar, shuningdek, o'ziga nisbatan asosga ega ishonch tug'dirish, qarorlar qabul qilishga jalb qilish va ishontirish orqali ham ta'sir qilishi mumkin.

Yetakchilikning mohiyati shaxsiy sifatlar nuqtai nazaridan, vaziyat va xulq-atvor yondashuvlari orqali namoyon bo'ladi. Muammolarni hal qilishda ayrim tashkilotlarda rasmiy va norasmiy kichik guruhlar samaradorligini alohida ta'kidlash lozim, chunki ular o'z birligi, statusi, funksional roli, kichikligi, tarkibi, guruhiy normalari va tezkorligi bilan ajralib turadi. Ma'lumki, ko'pchilik elga tanilgan yapon firmalari bugungi kunda ishlab chiqarishda rasmiy va norasmiy kichik guruhlar tashkil qilishdan boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omil sifatida keng va unumli foydalana bildilar hamda bunday tadbirlar, tashkiliy madaniyat va korporativ birlik ruhini shakllantirish orqali yuqori raqobatbardoshlik darajasini ta'minlab kelmokdalar.

Boshqaruv uslubi tushunchasi. Jamoat ishini samarali boshqarishda rahbarning ish uslubi yetakchi rolni o'ynaydi va har bir rahbar boshqaruv vazifalarini faqat o'ziga xos tarzda bajaradi. Uning uslubi ushbu lavozimdagi kishini insoniy va ishbilarmonlik sifatlariga, o'ziga xos qirralari va xususiyatlariga bog'liq.

Ish uslubi-bu boshqaruv funksiyalarini samarali bajarish maqsadida rahbarning o'z xodimlariga aniq va nisbatan doimiy ta'sir etish usuli va yo'llarining majmuasidir, ya'ni rahbarning ta'sir etish vositalarining yig'indisidir. Rahbarni bu o'ziga xos ta'sir etish va nazoratni amalga oshirish uslubi mehnat jamoasida ma'lum muhitni, ishchanlik ruxi xamda o'zaro munosabat qoidalarini belgilaydi. Albatta, boshqaruv uslubining o'ziga xosligi, boshqaruv usullari bilan uzviy bog'liqlikda bo'ladi. Boshqaruv usuli ham boshqariluvchi tizimga qaratilgan ma'lum boshqaruv faoliyatining vosita va yo'llaridir. Ammo, usul - bu obyektiv, birlamchi va rahbardan tashqari mavjud bo'ladigan tushunchadir. Bundan farqli tarzda uslub, ta'sir vositalari va yo'llari majmuasi bo'lsa ham, u yoki bu rahbarning shaxsiy, xususiy subyektiv jihatlar bilan aniqlanadi. Masalan, musiqa notalari hamma uchun bir, ammo hamma ijrochi alohida ijro usuli va jilo berish qobiliyatiga ega. Shu bilan birga uslub faqat individual asosga ega va unga obyektiv omillar ta'sir ko'rsatmaydi deyish noto'g'ri bo'ladi. Masalan, unga boshqaruvning qonun va tamoyillari, yagona talablar,

jamoadagi ijtimoiy-ruhiy muhit va boshqa omillar ta'sir qilmay qolmaydi. Demak, har bir rahbar faoliyatida uslubning ham subyektiv, ham obyektiv elementlari uyg'unlashib ketadi.

Ish uslubi - ko'p qirrali tushuncha. Masalan, turli boshqaruv organlarini boshqaruv uslubi, har xil bosqich organlarining ish uslubi, alohida rahbarlar uslubi (masalan, qurolli kuchlar doirasi yoki ichki ishlar vazirligi doirasida ish uslubi alohida jihatlari bilan farq qiladi). Ammo shuni ta'kidlash lozimki, rahbarning aynan shaxsiy ruhiy, shaxsiy ishbilarmonlik jihatlari bilan aniqlanadigan ish uslubi alohida ahamiyatli o'rin tutadi. Har bir rahbarning ish va boshqaruv uslubi uning boshqaruv xodimlariga qo'yiladigan talablar doirasida bo'lishi lozim.

Har bir rahbar ruhiy-jismoniy jihatdan individuallikka, ya'ni o'ziga xos temperament, qobiliyatlar, manfaatlar, qiziqishlari va qadriyatlarga ega. Individuallik maxsus bilimlar va ko'nikmalarni ko'rsata bilish orqali o'z ifodasini topadi.

Boshqaruv uslubiga ko'ra, qo'l ostidagilarga bo'lgan munosabat jihatidan rahbarlarni uch toifaga bo'lish mumkin, bular: avtokratlar, demokratlar va liberal rahbarlar.

Avtokratik uslubning belgilari quyidagicha: rahbar jamoa bilan kelishmagan holda buyruqlar beradi; qarorlar qabul qilishga qo'l ostidagilarni yo'latmaydi; bir o'zi mukofotlash, taqdirlash va jazolash choralarini aniqlaydi; mehnat jamoasidan o'zini yiroq tutadi; faqat o'z fikri bilan hisoblashadi; xodimlarning tashkilotga taaluqli bo'lgan axborot va ma'lumotlar bilan tanishtirishni, voqif qilishni shart deb bilmaydi; tashkilotdagi muhit, o'zaro munosabat bilan qiziqmaydi. Bunday rahbar buyruq berishga va o'ziga so'zsiz bo'ysinishlariga o'rgangan. Odatda, o'zining imkoniyatlariga ortiqcha ishongan, xokimligi va tashqi xususiyatlarini ko'rsatishga intiladigan kishilar avtokrat bo'ladilar. Bunday toifa rahbarlar ustidan nazoratning yo'qligi esa qo'pollik, o'ziga bino qo'yish, zo'rlikni qo'llash va tazyiq o'tkazish hollariga olib keladi.

Demokratik tipda esa: mehnat jamoasini fikrini bilish orqali boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish; ishlab chiqarishni boshqarishga xodimlarni keng jalb qilish; xodimlarni yaxshi bilish, o'rganishga intilish; o'zini kamtar tutishi xosdir.

Bunday jamoalarda, odatda, hamkorlikka intilish, tashabbuskorlik va ijodiy yondashuv ko'zga tashlanadi. Bu tipdagi boshqaruv eng samarali tarzda ishlab chiqarishni boshqarish borasidagi vazifalar va funksiyalarni bajarilishiga mosdir. Demokrat - boshqaruvni buyruq berish emas, balki ishontirish deb bilgani holda, yetarli darajada qat'iy va o'ziga ma'suliyatni olishdan qo'rqmaydigan rahbar bo'ladi.

Liberal tip boshqaruvni esa: irodasizlik, tashabbusizlik, qabul qilinayotgan qarorlarning ma'suliyatini o'z buyniga olmaslikka intilish farq qilib turadi. Bunday rahbar tamoyilli bo'lishdan qochadi, ishni o'zbilarmonlik holiga tashlab qo'yadi, qiyinchiliklar oldida pand beradi, xodimlariga talabchanlik qilmaydi, xech kim bilan munosabatni buzmay yumshoq bo'lishga harakat qiladi, nazorat funksiyasini sust bajaradi, ishlab chiqarishdagi kamchiliklarga ko'z yumadi, shu bilan moddiy va moliyaviy zararga sababchi bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan rahbarlik tiplari bunday sof holida uchramaydi, balki har bir rahbarda turli uslublar aralash holida uchrab, biron biri ko'proq holda ustunroq bo'ladi. Har xil ishlab chiqarish vaziyatlarida, har xil odamlarga qarata har bir uslublarni ijobiy tomonlarini qo'llash lozim. Rahbar vaziyatga ko'ra va xodimlarni shaxsiy xususiyatlari bilan hisoblashib, har xil usullarning ruhiy jihatlarini qo'llashi zarur.

Rahbar va xodimlar orasida bo'ysinishning to'g'ri shakllari ishlab chiqilishi lozim. Amalda, uch turda bo'ysinish tipi uchraydi:

-Majburiy va tashqaridan yuklangan bo'ysinish. Bunday bo'ysinishga bog'liqlik, bo'ysinganlik hissi xosdir. Xodimlar doim xokimlik ostidan chiqishga hamda ishni ijodiy yondashuvsiz bajarishga intiladilar.

-Sust, passiv bo'ysinish. Bunday xodimlar o'zlari qaror qabul qilmaganliklari, tashabbus ko'rsatishlari shart emasligi hamda mas'uliyat yukini o'zlariga olmaganliklari bilan qoniqish hissi bilan ishlaydilar.

-Aqlan anglangan, qabul qilingan, ich-ichidan asoslab qabul qilingan bo'ysinish. Bunday bo'ysinish hissidagi xodimlar o'zlari anglagan holda rahbarning ma'lum jihatdan ustunligini tan olib, tashabbuskorlik, ijodkorlik ruhi hamda o'z

majburiyatlarini to'la anglagan holda faoliyat yurgizadilar. Rahbar o'z xodimlari bilan aynan shunday munosabatga, anglangan tarzdagi bo'ysinishni yuzaga keltirishga intilishi lozim.

Rahbarning boshqaruv uslubida uning barcha kasbiy malaka va sifatlari, tajribasi, boshqaruv san'ati namoyon bo'ladi. Boshqaruv uslubini ustalik bilan qo'llanishi tashkilotdagi ruhiy muhitning asosini tashkil qiladi. Har qanday rahbar umumiy tavsiyalarga quloq solsa o'ziga foydali jihatlarni anglab oladi. Bular quyidagicha:

- rahbar o'z huquqlaridan umumjamiyat manfaatlarini, jamoa va o'z manfaatlarini to'g'ri mutanosiblikda ta'minlash yo'lida foydalana bilishi kerak;

- faqat o'z bilimi, tajribasi, malakasi va insonlarga munosabati bilan orttirilgan obro'-e'tiborga ega bo'lgan rahbargina samarali, unumli boshqaruvni ta'minlashi mumkin;

- rahbar o'ta madaniyatli bo'lib, har qanday vaziyatda ham o'zidan chiqmasligi, baqirmasligi, kishi shaxsiyatiga tegmasligi kerak, xodimlarga bu bilan ibrat bo'lishi kerak;

- xodimlarga ko'rsatmalar nafaqat buyruq holida, balki iltimos, vazifa, yuklama sifatida aniq, tushunarli va ishonchli qilib berilishi kerak;

- ishlab chiqarish va firmani boshqarish odamlarni boshqarishga asoslanadi, demak, rahbar mehnat jamoasida yaxshi munosabatlarni shakllantirishi zarur;

- rahbar xodimlarining fikri va tavsiyalariga, o'zi norozi bo'lgan holda ham quloq solishi, ular bilan hisoblashishi lozim;

- rahbar intizom va tartib borasida talabchan bo'lishi zarur.

Ayniqsa, hozirgi bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda yaqqol ko'zga tashlangan rahbar va boshqaruvchiga bo'lgan talablar qatorida birinchi o'rinda quyidagi sifatlar turadi: o'z ishini ustasi bo'lishi; bosiqqligi, o'ziga ishonch va boshqalarga hurmat; odamlar bilan muloqotda bo'lish qobiliyati; ularning diliga yo'l topa bilish (hurmat va obro'-e'tibor). Bundan tashqari rahbarning hatto tashqi ko'rinishi ham, ya'ni o'zini tutishi, xulqi, o'ziga e'tibori va hatto kiyinishi ham ahamiyatga ega.

Xorijiy menejerlarning boshqaruv uslublari va ularning o'ziga xosligi.

Xorijiy menejerlar boshqaruv uslublarini o'rganishda faqat avtokratik, demokratik va liberal boshqaruv uslublarigina emas, balki ularni bir qancha xususiy ko'rinishlari borasida ham izlanishlar olib boradilar. Boshqaruv uslublari borasidagi izlanishlar yetakchilik asoslarini o'rganish bilan uzviy bog'liq. Ammo yetakchilik va boshqaruvchilik bir emas. Ya'ni boshqaruvchi-rahbar, yetakchi (lider) bo'lishi ham mumkin, amalda yetakchi bo'lmasligi ham mumkin. Ma'lum jihatdan yetakchilikni uch xil yondashuv asosida o'rganish rahbarlik uslublari borasidagi izlanishlarga ham aniqlik kiritadi. Bu uch xil yondashuv: shaxsiy sifatlar jihatidan yondashish, xulq-atvor yondashuvi va vaziyat yondashuvlaridir. Shaxsiy sifatlar jihatidan yondashuv kishini aniq shaxsiy sifatlari va boshqaruv samaradorligi orasidagi mutanosiblikni aniqlashga urinib ko'rish bo'ldi. Xulq-atvor yondashuvi rahbari o'z xodimlari bilan munosabati, ish uslublarini (avtokratik, demokratik va liberal) aniqlash imkonini berdi.

Avtokrat rahbar ijrochilar, xodimlarning qobiliyatlari bilan hisoblashmaydi. Demokrat-rahbar xodimlarni qarorlar qabul qilishga jalb qiladi. Demokratlar-ishontirish, aqliy ishonch hosil qilish orqali ish tutadilar. Liberal rahbar esa xodimlariga to'la erkinlikni berib qo'yadi, o'zi bularchilik holiga tashlab qo'yadi.

Hozirgi kunda rahbarlar uchun asosiy dastak-rahbarlar boshqarish uslubini vaziyatdan kelib chiqqan holda tanlashlari lozimligidir. Bu ma'noda, mana shu optimal uslub deydigan xildagi uslubni o'zi yo'q. Vaziyat yondashuvi boshqaruv samaradorligini oshirishning bir nechta yo'llarini ilgari suradi: masalan, ruhiy jihatdan bir-biriga mos rahbar va odamlarning muhitini yuzaga keltirish maqsadida guruhlarini qayta shakllantirish; vazifani qayta loyihalashtirish; lavozim vakolatlarini o'zgartirish va h.

Hozirgi davrda tez o'zgarayotgan hayot oqimida eng mos uslub bo'lib adaptiv, ya'ni tez moslashuvchan, yana ham aniqrog'i, real hayotga qaratilgan, asoslangan uslub - eng samarali deb hisoblanadi. Uchraydigan salbiy jihatlardan-byurokratlik, ya'ni ko'rsatmalarga, belgilangan qadamlarga so'zma-so'z bo'ysinib ishlash, ortiqcha qog'ozbozlikka asoslangan rahbar mustaqil faoliyat yuritishdan qochadi, faqat o'z

vazifasini amalga oshirish payida bo'ladi, noto'g'ri qarorlar yuzasidan mas'uliyatni ma'lum qoida va muolajalarni ishlab chiquvchi yuqori tashkilotlarga to'nkashga harakat qiladi. Byurokratizm mehnat jamoasini tashabbusli, qobiliyatli va aqlli ishchilardan qutilishga, faqat qoida va muolajalarga, buyruqlarga qat'iy bo'ysinadigan xodimlarnigina olib qolishga intiladi. Yana bir illat bu mahalliychilik bo'lib, bunda faqat hududiy tor manfaatlar ustun qo'yiladi. U tarmok manfaatlarini har bir narsadan ustun qo'yishda ham namoyon bo'ladi.

Texnokratlar, ya'ni ishlab chiqarishning texnik-tashkiliy jihatlariga kuch berib tashkilotda ijtimoiy-psixologik va hatto iqtisodiy omillarni hisobga olishni istamaydigan rahbar va mutaxassislardir. Bunday rahbarlar boshqaruv tizimiga kompleks yondashuvni amalga oshira olmaydilar. Ularga subyektivlik, karyera qilishga intilish, o'z xizmat lavozimi, huquqlari bilan suiste'mol qilish kabi illatlar ham xosdir.

Boshqaruv uslubida salbiy jihatlarni bartaraf etish uchun quyidagilarni amalga oshirib borish o'rinli:

- boshqaruv tizimini barcha qismlari va elementlarini doimiy tarzda takomillashtirib borish;

- boshqaruv xodimlarini to'g'ri tanlash, joy-joyiga qo'yish, tarbiyalash bo'yicha ishni yaxshilab borish;

- ishchi-xodimlarni ishlab chiqarishni boshqaruviga jalb qilib borish;

- boshqaruvchining shaxsiy, umumiy va boshqaruv madaniyatini oshirib borish;

- boshqaruv apparati xodimlari tomonidan boshqaruv fani, bilim va tajribasini o'zlashtirib borish;

- o'z-o'zini harakatlarini tanqidiy jihatdan baholash, bировlar tanqidiga quloq solish, oshkoralik va demokratiyaga intilish zarur.

Demak, ish uslubi-bu boshqaruv funksiyalarini samarali bajarish maqsadida rahbarning o'z xodimlariga aniq va nisbatan doimiy ta'sir etish usuli va yo'llarining majmuasidir, ya'ni rahbarning ta'sir etish vositalarining yig'indisidir.

Boshqaruv uslubiga ko'ra va qo'l ostidagilarga bo'lgan munosabat jihatidan rahbarlarni uch toifaga bo'lish mumkin, bular: avtokratlar, demokratlar va liberal rahbarlar.

Rahbar va xodimlar orasida bo'ysinishning to'g'ri shakllari ishlab chiqilishi lozim.

Hozirgi davrda tez o'zgarayotgan hayot oqimida eng mos uslub bo'lib adaptiv, ya'ni tez moslashuvchan, yana ham aniqrogi, real hayotga qaratilgan, asoslangan uslub - eng samarali deb hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Shaxsiy boshqaruv omillari.
2. Shaxsiy boshqaruvda motivasiyaning o'rni qanday ?
3. Shaxsiy boshqaruvning asosiy xususiyatlari. xususiyatlari..
4. Boshqaruvda hamkorlik va yetakchilikning o'zaro ta'siri.
5. Boshqaruv samaradorligini oshirishda kichik guruhlarining ahamiyati.
6. Guruhlarda yetakchilik va uni tashkilotdagi o'zaro munosabatlarga ta'siri.
7. Kichik guruhlarining asosiy xususiyatlari.
8. Kichik guruhlar va uni boshqaruv samaradorligiga ta'siri..
9. Kichik guruhlarining asosiy xususiyatlarini aytib bering.
10. Hayotiy pozisiya va hayotiy vaziyatni baholashning asosiy omillari.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abulxanova K.A. i dr. Psixologiya i pedagogika. – M.: «Sovershenstvo», 1998. – 320 s.
2. Inog'omov R., Toshmurodova Q. Pedagogika fani XXI asrda. - T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2000.
3. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T., 2005.
4. Klimov Ye.A. Основы психологии. – M., 1998.
5. Nemov R.S. Psixologiya. V 3-x kn. – M., 1998.
6. Подласы I.P. Pedagogika. Новы курс v 2-x kn. – M.: Vlados, 1999.

7. Psixologo-pedagogicheskiy slovar dlya uchiteley i rukovoditeley obshchey obrazovatel'nykh uchrejdeniy. – Rostov – na – Donu: Feniks, 1998.

13. Mavzu: **Mehnat psixologiyasi**

Reja:

1. **Shaxs va kasb.**
2. **Talabalarning kasbiy yo'nalganligi.**
3. **Kasbiy muhim xislatlar va ularning dinamikasi.**
4. **Shaxsning individual tipologik xislatlar.**
5. **Insondagi bilish jarayonlari.**
6. **Irodaviy xislatlar, ish joyi va unga qo'yiladigan psixologik talablar va emosional zo'riqish.**

Tayanch tushunchalar: Temperament, psixik tuzilish, tana tuzilishi, sezgilar, psixik aktivlik, munosabat, intilishlar, kayfiyat, ta'sirchanlik, nerv-fiziologik mexanizim, I.P.Pavlov, oliy nerv sistemasi, qo'zg'alish, tormozlanish, atrofdagi sharoit, muhit ta'siri.

Mehnat psixologiyasi- psixologiya fanining bir sohasi bo'lib, turli mehnat faoliyatlarining o'ziga xosligini, tarixiy va konkret ishlab chiqarish sharoiti, mehnat quroli, mehnat ta'limi metodlari hamda psixologiyani mehnatkash shaxsning psixologik sifatlariga ko'ra o'rganiladi. Mehnat psixologiyasining predmeti mehnat faoliyatidir. Mehnat faoliyati mehnatkash shaxsiy xususiyatlari (uning kasbiy qobiliyati) va uning ishlab chiqarish muhiti bilan o'zaro hamkorligidir. Mehnat psixologiyasining quyidagi vazifalari mavjud.

Mehnatni insonparvarlashtirish;

mehnatning juda toliqtiradigan darajada bo'lmasligi;

maxsus kasallardan ehtiyot bo'lish;

mehnatkashlarning ishlaiga qulay sharoitni yaratish;

Kasb tanlashga yo'naltirish, konsultasiya berish, kasbga layoqatli yoshlarni tanlash hamda akademik lisey va kasb hunar kollejlarida o'quvchilarning kasbiy qobiliyat va qiziqishlarini o'rganish va ularni shakllantirishni psixologik o'rganish va tavsiflash muhimdir.

U yoki bu kasbda ishlashni mo'ljallayotgan yoki ishlayotgan lekin hali uni to'la egallamagan kishilarning qobiliyatini o'rganish har bir psixolog uchun katta vazifa yuklaydi. Kasbni egallamagan kishilar ular qobiliyatini ishlab chiqarish talabalariga mos kelishini aniqlash va faoliyatning mazkur turi uchun yetarli darajada rivojlanmagana qobiliyatlarini rivojlantirishga doir choralarni izlash yoki uni qobiliyatiga mosroq boshqa kasbga ko'chirish uchun o'rganiladi.

Mehnatni tashkil qilish psixologiyasi:

1. Ish joyini va funksiyalararo ishlab chiqarish aloqasini rasionalizatsiyalash;
2. Mehnat va dam olish rejimi;
3. Charchashni oldini olish;
4. Bir xillilikka qarshi kurashish;
5. Shaxslararo munosabat va sosial psixologik muhitni boshqarish;

Kasb tanlashda shaxsning individual tipologik xususiyatlariga ahamiyat berish lozim. Ya'ni, temperament tiplari, xarakter xususiyatlari, qiziqish, iste'dod, qobiliyat kabi alohida xususiyatlarini hisobga olish lozim bo'ladi. **1. Temperament. Temperament shaxsning individual psixologik xususiyatlari integratsiyasi. Temperament tiplari va ularning psixologik xarakteristikasi.**

Ma'lumki, odamlar xulq-atvori va faoliyat motivlari nisbatan teng bo'lganda, tashqi ta'sirlar bir xil bo'lganda, ta'sirchanligi va ko'rsatayotgan energiyasiga ko'ra bir-birlaridan, sezilarli darajada farq qiladilar. Jumladan, bir xil kishi sekinlikni, boshqasi shoshilishni yoqtiradi. Bir xil odamlarga hissiyotlarning tez qo'zg'alishi xos bo'lsa, boshqasiga esa sovuqqonlik xosdir, boshqa birovni keskin imo-ishoralar, ma'noli mimika, boshqasini harakatlarda og'ir-bosiqlik, yuzning juda ham kam harakat qilishi ajratib turadi. So'z yuritilayotgan individual farqlar o'zlarining tug'ma asosiga ega bo'lishi shubhasizdir. Bu shu narsa bilan tasdiqlanadiki, bu farqlar

bolaligidayoq ma'lum bo'la boshlaydi, xulq-atvorning va faoliyatning turli sohalarida ko'rinadi va alohida barqarorligi bilan ajralib turadi.

Psixikaning individual jihatdan o'ziga xos, tabiiy jihatdan shartlashgan dinamik ko'rinishlar majmui kishining **temperamenti** deb ataladi.

Temperament haqidagi dastlabki nazariya antik dunyoga borib taqaladi. Masalan: eramizdan oldingi 6-asrda yashagan yunon medisinasining yirik vakili Gippokrat birinchi bo'lib odamlarning har xil xususiyatga ega ekanligiga e'tibor bergan va bu har xillikning sababini aniqlashga harakat qilgan. U kishilar temperamentining organizimdagi suyuqliklarga (qon, shilimshiq parda, o't)ga karab uch turga bo'ladi.

Keyinchalik ham temperament va uning asosi haqida olimlar tomonidan xilma-xil nazariyalar yaratildi. Masalan, 18-asr oxirida yashagan Immanuel Kant qonning individual xususiyatlari temperamentning tabiiy asosi hisoblanadi, degan edi. P.F.Lesgaftning g'oyasi ham shu nuqtai-nazarga yaqin edi. Bu olim temperamentning asosida qon aylanishi (jumladan, qon tomirlari kengligi va tarangligi, ularning bo'sh joyi diametri, yurakning shakli va hokazolar) xususiyati yotadi deb yozgan edi.

Nemis psixiatri E.Krechmer individning psixik tuzilishi tana tuzilishiga, tananing umumiy konstruksiyasiga to'g'ri keladi, degan edi. Sezgilarli psixik aktivlikka ega bo'lgan, atrofda bo'layotgan voqyealarga tez munosabat bildiruvchi, tassurotlarini hadeb o'zgartirishga intiluvchi, muvaffaqiyatsizliklar va ko'ngilsizliklarni nisbatan yengil o'tkazib yuboruvchi, jonli, harakatchan, ifodali mimikasi va harakatlari bo'lgan kishi sangvinik deb ataladi.

Yuragi keng, barqaror intilishlarga va kayfiyatlarga, doimiy va chuqur his-tuyg'ularga, harakatlari va nutqi bir xil maromda bo'lgan, ruhiy holati tashqi tomonda ifoda etiladigan kishi xolerik deb ataladi.

Ta'sirchan, chuqur kechinmali, gap ko'tara olmaydigan, ammo atrofdagi voqyealarga unchalik e'tibor bermaydigan, o'zini to'xtata oladigan harakatlar qiladigan va sekin ovoz chiqaradigan kishilar melanxolik deb ataladi.

Aslida odamlarni to'rtta tip bo'yicha taqsimlash mumkin emasligi tushunarli. Temperamentning turli-tumanligi to'g'risidagi masala fanda hali batafsil hal qilingan emas.

Temperamentning nerv-fiziologik mexanizimini ilmiy asosda tushuntirib bergan kishi I.P.Pavlov bo'ldi. U o'z umrining ko'p qismini oliy nerv sistemasi faoliyatini o'rganishga bag'ishladi. Uning tadqiqotlari natijasida odamdagi individual farqlar asosida qo'zg'alish va tormozlanish o'rtasidagi vazminlik yotishi aniqlandi.

Nerv sistemasi kuchi tipning eng muhim ko'rsatkichdir.

Nerv faoliyatining tipi - organizimning tabiiy xususiyatidir. U nasliydir, lekin butunlay o'zgarmas hisoblanmaydi, u rivojlanishda va ma'lum darajada atrofdagi sharoit, muhit ta'siri tufayli o'zgaradi.

Temperament tiplarining kelib chiqishida, yuqorida aytganimizdek, irsiyat asosiy rol o'ynaydi. Agar irsiy fiziologik xususiyatlari bir xil bo'lgan bitta tuxumdan paydo bo'lgan (gomozigot) egizaklarning temperament xususiyatlarini irsiy fiziologik xususiyatlari unchalik bir xil bo'lmagan, ikkita tuxumdan paydo bo'lgan (geterozigot) egizaklarning temperament xususiyatlari bilan solishtirsak, bu narsa juda yaqqol ko'rinadi. Geterozigot egizaklarga qaraganda gomozigot egizaklar temperamentlari xususiyatlarining o'xshashlik darajasi shunchalik ortiqki, temperamentning irsiyat yo'li bilan berilishi imkoniyati 85% ga tengdir.

Garchi temperament tiplari, umuman olganda, irsiyatga bog'liq bo'lsa-da, temperamentning ayrim xususiyatlari hayot sharoitlari va tarbiyaga bog'liq holda ma'lum darajada o'zgaradi.

Temperamentning ayrim xususiyatlarining hayot sharoitlari va tarbiyaga bog'liq holda o'zgarishini temperament tiplarining voyaga yetishidan farqlash lozim. Temperament tipi unga xos bo'lgan barcha xarakterli xususiyatlari bilan birga, tug'ilish chog'idan boshlab yoki ma'lum yoshda birdan paydo bo'lib qolmaydi. Nerv sistemasining voyaga yetishidagi umumiy qonuniyatlari temperament tipining voyaga yetishiga ham ta'sir qilib, izini qoldiradi.

Ma'lum temperament tipining asosiy xususiyatlari birdaniga hammasi nomoyon bo'lmaydi, balki yoshga qarab sekin-asta nerv sistemasining voyaga yetishi bilan bog'lik holda namoyon bo'ladi. Bu jarayonni biz temperamentning voyaga yetishi deb ataymiz.

Yoshlar kasb tanlayotganda temperament xususiyatlari hisobga olinishi lozim. Masalan, hozirgi zamon texnikasida melanxologik uchun kiruvchi samolyotda uchuvchi bo'lish nihoyatda qiyin yoki bunday kishilarga to'satdan paydo bo'ladigan avariya xavfi o'z vaqtida reaksiya qilishi lozim bo'lgan murakkab energosistemalarda ishlash og'irlik qiladi. Odamning psixik xususiyatlariga nisbatan faoliyatning shunday yo'l bilan tanlashni kasbga yo'naltirish deb ataladi.

Temperament tiplari xususiyatlarini mumkin qadar o'quvchilar tarbiyasi jarayonida ham hisobga olish zarur. Masalan, melanxolik o'quvchini harakatlari uchun keskin koyish uning ruhini tushurib yuboradi. O'ziga ishonmasligini yana orttirib yuboradi va o'z kuchiga shubha bilan qaray boshlaydi.

Yuqoridagi usullarni sangvinikka nisbatan ishlatib bo'lmaydi. Chunki u boshidan kechirgan ko'ngilsiz voqyealarni tez esdan chiqarib yuborishi va o'z kuchi, qobiliyatlariga ortiqcha baho berishga moyildir. Salbiy bahoga nisbatan qattqlik va talabchanlik unga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Temperament xususiyatini hisobga olgan holda xuddi shunday individual munosabatda bo'lish mehnatni tashkil qilishda, sportchilarning mashqlarida va faoliyatning boshqa turlarida ham bo'lishi mumkin va zarur.

Nihoyat, faoliyat talablariga temperamentni moslashtirishning asosiy eng universal yo'li individual ish uslubining tarkib topishidir. Mehnat faoliyatidagi ayni bir vazifa va talablar har turli usullar va yo'llar bilan bir xil samarali amalga oshirilishi mumkin. Faoliyatning individual uslubi deganda biz mazkur odam uchun xarakterli bo'lgan va samarali ishlashi uchun maqsadga muvofiq bo'lgan harakatlar va yo'llarning individual sistemasini tushunamiz. Faoliyatning individual uslubi odamda o'z-o'zidan, stixiyali ravishda paydo bo'lmaydi. U ta'lim va tarbiya jarayonida tarkib topadi. Individual uslub tarkib topishining birinchi ko'rtaklari bog'cha yoshidagi katta bolalarda o'yin xarakteridagi amaliy masalalarni yechishdayoq ko'rina boshlaydi.

Faoliyatning individual uslubini tarbiyalash ishlari asoslanadigan qator alohida psixologik va pedagogik prinsiplar mavjuddir. Ta'lim va tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri shundan iboratki, individual uslubni tarkib toptirish yo'li bilan

odamning temperamentini faoliyatning obyektiv talablariga yaxshilab moslashtirishdan iboratdir.

2. Xarakter. Psixologiyada xarakter muammosi.

Tayanch tushunchalari: xarakter, xarakter xislati, xarakter strukturasi, aksentuasiya, interversiya, ekstroversiya, frenologiya.

Xarakter yunoncha soʻz boʻlib «zarb qilish», «belgi qoʻyish» degan maʼnoni bildiradi. Haqiqatdan ham xarakter kishining jamiyatda yashab egallaydigan alohida belgilaridir. Shaxsning individualligi temperament singari xarakterda ham namoyon boʻladi. Xarakter – bu shaxsning faoliyat va muloqoti jarayonida tarkib topadigan va namoyon boʻladigan individual xususiyatlari boʻlib, individ uchun u tipik xulq-atvor xislatlari boʻlib hisoblanadi.

Kishining shaxsi u nima qilayotgani bilan emas, balki uni qanday bajarayotgani bilan xarakterlanadi.

Xarakter kishi shaxsining yoʻnalishini belgilaydigan ijtimoiy munosabatlarga bogʻliq boʻladi. Masalan, kishining jamiyatdagi yuqori mavqeyi, amali unda takabburlik, kekkayganlik, riyokorlik, taʼmagirlik, munofiqlik kabi salbiy xislatlarni shakllanishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, oddiy mehnatkash kishida jamiyatdagi mavqeyiga qarab fidokorlik, maqsadga intilganlik, jasurlik, kamtarlik, mehnatsevarlik kabi ijobiy xislatlarning shakllanishiga olib keladi.

Xarakterning tuzilishi

Inson shaxsining xakteri hamisha koʻpqirralidir. Unda alohida xususiyatlar yoki tomonlar ajratilib koʻrsatilishi mumkin, lekin ular bir-birlaridan ajratilgan, alohida holda boʻlmaydi, balki maʼlum darajada xakterning barqaror tuzilishini tashkil etgan holda oʻzaro bogʻliq boʻladi.

Xakterning strukturasi uning ayrim xususiyatlari oʻrtasidagi qonuniy bogʻliqlikda namoyon boʻladi. Agar kishi qoʻrqoq boʻlsa, u tashabbuskorlik, qatʼiylilik va mustaqillik, fidokorlik va oliyhimmatlilik fazilatlariga ega boʻlmaydi, deb aytish uchun asoslar bor. Shu bilan birga xakteri boʻyicha qoʻrqoq kishidan itoatkorlik va

xushomadgo'ylikni, kuchli kishiga nisbatan konformlilikni, qizg'onchilikni, sotqinlikni, ishonchsizlik va ehtiyotkorlikni kutish mumkin.

Xarakterning xususiyatlari orasida ayrimlari asosiy, yetakchi bo'lib, uning namoyon bo'lishining butun kompleksini rivojlantirishning umumiy yo'nalishini belgilab beradi. Ular bilan bir qatorda ikkinchi darajali xususiyatlar ham borki, ayrim hollarda ular asosiy deb belgilanishi, boshqalarida esa ular bilan uyg'unlashmasligi ham mumkin.

Xarakter subyektning birgalikdagi faoliyatga qay tarzda faol jalb qilinishiga qarab hatti-harakatlarda va ishlarda namoyon bo'lar ekan, ham faoliyat mazmuniga, ham qiyinchilikning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bartaraf etilishiga, ham asosiy hayotiy maqsadlarga erishishda uzoq va yaqin istiqbollarga bog'liq bo'lib qoladi.

Shunday qilib xarakterning tarkib topishida kishining tevarak-atrofidagi muhitga va o'z-o'ziga, boshqa kishiga qanday munosabatda bo'lishi muhim hisoblanadi. Shu bilan birga bu munosabatlar xarakterning eng muhim xususiyatlarini tasniflash uchun asos bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xarakterning to'rtta sistemasini farqlash mumkin:

1. Jamoaga va ayrim odamlarga bo'lgan munosabatlarni ifodalovchi xarakter xususiyatlari: yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, takaburlik va boshqalar.
2. Mehnatga bo'lgan munosabatni ifodalovchi xarakter xislatlari: mehnatsevarlik, vijdonlilik, ishga mas'uliyat bilan qarash, boshlagan ishni oxiriga yetkazish, yalqovlik, mas'uliyatsizlik kabilar.
3. Narsalarga bo'lgan munosabatlarni ifodalovchi xarakter xislatlari: ozodalik yoki ifloslik, narsalarni ayab ishlatish yoki ayamasklik, ularga nisbatan ehtiyotkorlik yoki aksincha kabilar.
4. Odamning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi xarakter xislatlari: izzat-nafslilik, o'z sha'nini ehtiyot qilish, kamtarlik, o'ziga ortiqcha baho bermasklik yoki shuhratparastlik, mag'rurlik, dimog'dorlik, o'zini kata olish kabilar.

Xarakter xususiyatlarining aksentuasiyasi.

Xarakterning kishida ko'rinadigan va tilimizda o'z ifodasini topgan xususiyatlari behad ko'p bo'lib, mingdan ortiqni tashkil etadi. Shu sababli xarakterning o'zgarib turadigan xususiyatlarini sanab va tasniflab berish juda qiyin. Bundan tashqari hozirgacha psixologiyada aniq bir tasniflash sxemasi ishlab chiqilgan emas. Xarakterning u yoki bu xususiyati miqdoriy ifodaliligi oxirgi marraga yetib va norma chegarasiga borib qolganda xarakterning aksentuasiya /ortiqcha urg'u berilishi/ deb ataladigan vaziyat paydo bo'ladi. Xarakterning ortiqcha urg'u berilishi – ayrim xarakter xususiyatlarining kuchayishi natijasi sifatida normaning oxirgi chegarasidir.

Xulk-atvor va xarakterning shakllanishi.

Xuddi temperament kabi xarakter ham kishining fiziologik xususiyatlariga, xarakterning ko'rinishlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi, ularning paydo bo'lishi va kechishining dinamik xususiyatlarini belgilab beradi.

Temperamentning xususiyatlari xarakterning muayyan tomonlari rivojlanishiga qarshilik ko'rsatishi yoki yordam berishi mumkin. Xolerik yoki sangvinik tipdagi odamga qaraganda flegmatik tipdagi odam o'zida tashabbuskorlik va qat'iylikni tarkib toptirishi qiyinroqdir. Jur'atsizlik va vahimalilikni bartaraf etish melanxolik uchun jiddiy muammo bo'lib hisoblanadi. Xarakterning jamoada shakllantirilishi xolerik tipdagi kishilarda o'zini tuta bilishni va o'ziga tanqidiy ko'z bilan qarashni, sangviniklarda sabotlilikni, flegmatiklarda faollikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Xarakter xususiyatlarining paydo bo'lishi, uning tabiati, o'zgarishi mumkinligi yoki mumkin emasligi psixologlarning uzoq davom etib kelayotgan munozaralari mavzui bo'lib hisoblanadi.

Xarakter – ko'p jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash natijasidir. Xarakterda kishining odatlari jamlanadi. Xarakter odamlar faoliyatida namoyon bo'ladi, shu bilan birga, u shu faoliyatda shakllanadi ham. Agar yigit yoki qiz o'zini-o'zi tanqid qilishni xarakterining xususiyati sifatida tarbiyalashga urinayotgan bo'lsa, ular o'zlariga tanqidiy nuqtai nazardan yondoshishlari kerak.

Mehnat va o'qish to'g'risida gapirmagan taqdirda ham kunlik turmush, oiladagi hayot sharoitlari insoniy xarakterlar maktabidir. Pedagoglar va ota-onalar oldida muntazam ravishda mas'uliyatli vazifa: bolalar xarakterida sezila boshlagan o'zgarishlarni o'z vaqtida sezish va ularni inobatga olgan holda xulq-atvor va tarbiya sohasida o'z yo'lini amalga oshirish vazifasi turadi.

Shunday qilib, kishiga xarakter tabiatan berilmagan. O'zgartirib va qaytadan shakllantirib bo'lmaydigan xarakter bo'lmaydi. «Mening xarakterim shunaqa va men o'zimni hyech narsa qila olmayman» deb bahona qilish psixologik jihatdan mutlaqo asossizdir. Har qanday kishi ham o'z xarakterini barcha ko'rinishlari uchun javobgardir, har bir kishi o'zini-o'zi tarbiyalash imkoniga egadir.

Xarakterning shakllanishi. Kishining xakteri tug'ma, doimiy va o'zgarmaydigan narsa emas. Bola onadan mehnatsevar yoki dangasa, rostgo'y yoki munofiq, botir yoki qurqoq, intizomli yoki intizomsiz bo'lib tug'ilmaydi. Har bir odamning xakteri temperamenti asosida, ijtimoiy muhit ta'siri bilan, tarbiya, amaliy faoliyat jarayonida va kishi o'z-o'zini tarbiyalash bilan taraqqiy qilib, o'zgarib boradi.

Xarakterning taraqqiysi kishining irodasi, aql-idroki va hissiyotlarining taraqqiy qilib borishi bilan mustahkam bog'liqdir. Shu sababli kishining irodasi, aql-idroki va his-tuyg'ularining taraqqiy qilib borishi va ularning tarbiyalanishi haqida aytilgan fikrlarning hammasi kishi xakterining rivojlanishiga ham tegishlidir.

Xarakterning o'sishida ijtimoiy muhitning roli. Kishining butun hayoti davomida uning xakteri tarkib topishiga ijtimoiy muhit, avvalo, shu kishi birga yashab va ishlab kelgan jamoa katta ta'sir ko'rsatadi.

Xarakterning o'sishida tarbiyaning roli.

Xarakterning o'sishida tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash asosiy va yetakchi rol o'ynaydi. O'sib kelayotgan yosh avlodning xakteri avvalo oilada va maktabda

tarbiyalanadi. Bolalarning xarakterini tarbiyalashda katta, mas'uliyatli vazifa otalar, o'qituvchilar, bolalar bog'chalari tarbiyachilari zimmasiga tushadi.

Xarakterning o'sishida jamoaning roli. Bola xarakterining tarkib topishida jamoaning tarbiyaviy roli nihoyat kattadir. Inson yakka, bir-biridan ajralgan holda tanho yashay olmaydi. U muayyan bir jamoada, chunonchi, oilada, maktabda, sexda, bog'chada hayot kechiradi. Jamoa – shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi zvenodir. Odamning faoliyati – o'yin, o'qish va mehnati xuddi mana shu jamoada voqe bo'ladi. Jamoa shaxsning eng yaqin konkret muhiti bo'lib qolmay, balki shaxsni tarbiyalaydi ham. Kishi xarakterining kerakli ijobiy xislatlari faqat jamoada tarbiyalanmog'i mumkin.

O'z xarakterini o'zi tarbiyalash. Kishi xakteri o'z-o'zini tarbiyalashning ham mahsulidir. Shu sababli har bir kishi ma'lum yoshdan boshlab o'z xakteri va uning ayrim sifatleri uchun javobgar hamdir. Shu bilan bir vaqtda kishi o'z xakterida salbiy tomonlarni o'zi tan olishi, kamchiliklarni o'zi tarbiyalashi lozim. O'z xakterini tarbiyalashda kishi avvalo yaxshi fazilatlarini, yaxshi idealini o'zida tarbiyalashi kerak.

Xarakterning o'sishida namunaning roli. Yuksak axloqiy va irodaviy xislatlari bilan hammaga manzur bo'lgan kishilar namunasi xakter tarbiyalashning muhim vositasi bo'lib hisoblanadi. Jamiyatimizda bolalarga namuna qilib ko'rsatish mumkin bo'lgan ajoyib insonlar juda ko'p. Ayniksa, mustaqillikka erishganimizdan keyin o'zining ishbilarmonligi, tashabbuskorligi, xalq manfaati yo'lidagi fidokorligi bilan yoshlarga ibrat bo'ladigan kishilar tobora ko'payib bormoqda. Bunday kishilarni biz ulkan qurilishlarda, Toshkent-Ush xalqaro yo'lining qurilishida, chet ellar bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar ochganlar orasida, fan, texnika, san'at, adabiyot namoyandalari orasida ko'plab uchratishimiz mumkin.

Qobiliyat to'g'risida tushuncha. Qobiliyatning sifat va miqdor tavsifi.

Qobiliyatlari va yoshlarning kasb tanlash muammolari.

Tayanch tushunchalari: qobiliyat, layoqat, mahorat, talant, iste'dod, pedagogik qobiliyat, kommunikativ qobiliyat, didaktik qobiliyat, avtoritar qobiliyat, perseptiv qobiliyat.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin yoshlardagi qobiliyat va iste'dodning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochildi. Hukumatimiz va shaxsan Prezident I.Karimov yoshlarning tarbiyasi, ulardagi qobiliyatni o'stirish masalasiga birinchi darajali e'tibor bera boshladi. Respublikamizda «Umid» jamg'armasining tashkil qilinishi bu sohadagi ishlarning debochasi bo'ldi. Keyinchalik «Ustoz» birlashmasi, «Musavvir» ilmiy ishlab chiqarish markazi, «Hunarmand» uyushmasi kabilar ham tuzildiki, bular xalqimizning, birinchi navbatda yoshlarning intilishlari, qiziqishlari, qobiliyat va iste'dodlarini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlashga qaratilgandir.

Xo'sh, qobiliyatlar nima? Qobiliyatlar kishining shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, ko'nikma, malakalar orttirish shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi, lekin shu xususiyatlarning o'zlari mazkur bilim, ko'nikma, malakalarga taalluqli bo'lmaydi. Qobiliyatlar bilim, ko'nikma, malakalarni egallashda namoyon bo'lsa ham, bilimlar va ko'nikmalarni egallash bilan bog'lanib qolmaydi. Qobiliyatlar va bilimlar, qobiliyatlar va malakalar, qobiliyatlar va ko'nikmalar aynan bir-biriga o'xshash narsa emas.

Malakalar ko'nikma va bilimlarga nisbatan kishining qobiliyatlari qandaydir imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi. Tuproqqa tashlangan don ana shu dondan unib chiqishi mumkin bo'lgan boshqqa nisbatan atigi imkoniyat bo'lib hisoblangani singari kishining qobiliyati bu bilimlar va ko'nikmalarni egallash uchun imkoniyat hisooblanadi xalos.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda, shunda ham fakat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyatdagina namoyon bo'ladi.

Qobiliyatlar bilim, malaka va ko'nikmalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ladi, ya'ni, boshqacha qilib aytganda, mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilimlar va ko'nikmalarni egallash jarayoni turli teng sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, oson va mustahkam amalga oshirilishida namoyon bo'ladi. Xuddi ana shu o'rinda yuzaga chiqadigan farqlar bizga qobiliyatlar haqida gapirish xuquqini beradi.

Shunday qilib, qobiliyatlar shaxsning mazkur faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual–psixologik xususiyatdir.

Qobiliyatlarning sifat va miqdor xarakteristikasi

Qobiliyatlar individual–psixologik xususiyatlar sifatida, ya'ni bir odamning boshqa bir odamdan farq qiladigan belgilari sifatida ta'riflanadi. O'z-o'zidan ma'lumki, kishilar bir-biri bilan teng emas. Ana shuning uchun ham qobiliyatlar haqida gap ketganda bu farqlarni xarakterlab o'tish kerak. Bu farqlar sifatli va miqdoriy bo'lishlari mumkin.

Qobiliyatlarning sifat jihatdan xarakteristikasi insonga mehnat faoliyatining qaysi sohasida (konstruktorlik, pedagoglik, iqtisodchilik, sport va boshqalarda) osonlik bilan o'zini topa oladi, katta yutuqlarga va muvaffaqiyatlarga erishadi degan savolga javob topish imkoniyatini beradi. Bu bilan qobiliyatlarning sifat xarakteristikasi ularning miqdoriy xarakteristikasiga uzviy bog'liqdir.

Psixologiyada qobiliyatlarni miqdor jihatdan o'lchash muammosi uzoq tarixga egadir. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida qator psixologlar (Kettel, Termen, Spirmen va boshqalar) ommaviy ixtisoslar uchun kasb tanlashni amalga oshirish zaruriyati bilan bog'liq bo'lgan talablar ta'siri ostida ta'lim olayotganlarning qobiliyatini aniqlashni taklif qilib chiqdilar.

O'sha paytlarda qobiliyatlarni o'lchash usuli sifatida aqliy iste'dod testlaridan foydalanildi.

Aqliy iste'dod testlari mazmun jihatdan qator savollar va masalalardan tashkil topgandir. Ularni yechish muvaffaqiyati (sarflangan vaqtni hisobga olib) ball yoki ochkolar yig'indisi bilan hisoblanadi. Masalan, o'n bir yoshlik bolalarning aqliy qobiliyatlarini aniqlash uchun ingliz maktablarida quyidagicha test qo'llangan: «Petr Jeymsga qaraganda balandroq, Edvard Petrdan pastroq. Hammadan ko'ra kim baland? Savol tagiga quyidagi javoblar yozib qo'yiladi: 1. Edvard, 2. Jeyms, 3. Petr,»

Ayta olmayman. Yoki boshqacha test: qizil, yashil, ko'k, ho'l, sariq. Bu yerda bola turkumga kirmaydigan so'zni aniqlashi kerak va hokazo.

Bolalar testlar to'plamini bajarib bo'lgandan keyin ularning natijalarini standartlashtirilgan yo'l bilan, ya'ni har bir sinaluvchi olgan ochkolar miqdorini hisoblash bilan shug'ullanishadi.

Qobiliyatlarning tuzilishi

Qobiliyat sifatida namoyon bo'ladigan fazilatlar yig'indisining tuzilishi oqibat natijada konkret faoliyat talablari bilan belgilanadi va faoliyatning har xil turlari uchun turlicha bo'ladi. Masalan, adabiy qobiliyatlarning tuzilishi estetik tuyg'ularning yuksak taraqqiy etgan darajasini, xotirada yorqin kurgazmali obrazlar mavjudligini, til hissini, boy fantaziyani, odamlar psixologiyasiga nisbatan zo'r qiziqishni, o'z-o'zini ifodalash ehtiyojini va shu kabilarni taqozo qiladi. Musiqiy, pedagogik, konstruktorlik, tibbiy qobiliyatlar va juda ko'p qobiliyatlar tuzilishi o'ziga xos xarakterga egadir.

Konkret qobiliyatlar tuzilishini tashkil etadigan shaxs xislatlari va xususiyatlari orasida ba'zi birlari yetakchi o'rinni egallasa, ba'zi birlari yordamchi rolni o'ynaydilar. Jumladan, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida pedagoglik odobi, kuzatuvchanlik, bolalarga muhabbat, ularga nisbatan yuksak talabchanlik bilan qo'shib olib boriladigan bilim berishga ehtiyoj, yordamchilik tarzida shular jumlasiga kiradigan bir qator tashkilotchilik qobiliyatlari kompleksi yetakchi fazilatlar hisoblanadi.

Qobiliyatlar umumiy va maxsus bo'lishi mumkin. Har turli qobiliyatlarning konkret psixologik xarakteristikasini o'rganar ekanmiz, biz bu qobiliyatlarda birgina emas, balki juda ko'p turdagi faoliyat talablariga javob beradigan umumiyroq fazilatlarini va bundan tashqari ushbu faoliyatning bir muncha torroq doiralarga javob beradigan maxsus fazilatlarini ajratishimiz mumkin. Ayrim kishilarda bu umumiy fazilatlar yorqin ifodalanadi. Masalan, Ibn Sino ham vrach, ham yozuvchi, ham musiqachi, ham matematik va hokazo qobiliyatlarga ega bo'lgan. Hamza Hakimzoda Niyoziy ham dramaturg, shoir, kompozitor, pedagog, jamoat arbobi bo'lgan. Ayrim

kishilarda esa fazilatlar ko'proq bir faoliyatga tegishli bo'ladi. Masalan, rassomlikka, kompozitorlikka, naqqoshlikka qobiliyat va hokazo.

Iste'dod, uning paydo bo'lishi

Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi iste'dod deb aytiladi. Iste'dod bu kishiga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli, mustaqil va orginal tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasidir. Qobiliyatlar kabi iste'dod ham fakat ijodiyotda yuksak mahoratga va anchagina muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatidan iboratdir.

Urush yillarida sarkardalik iste'dodlari jushqin rivojlanadi, tinchlik davrida injenerlik, konstruktorlik va shu kabi iste'dodlar rivojlanadi. Masalan, hozir O'zbekistonni dunyodagi eng ilg'or, eng obro'li davlatlardan biriga aylantirish asosiy vazifa bo'lib turibdi. Mustaqillik davrining ana shu ehtiyoji ajoyib quruvchilar, muhandislar, naqqoshlar, xunarmandlarning o'sib chiqishiga yo'l ochdi. Ayniqsa sport sohasidagi muvaffaqiyatlarimiz beqiyosdir. Mana, o'zbek kurashi bo'yicha birinchi o'rinda, boks bo'yicha yuqori o'rinlardan birida turibmiz. Bularning hammasi davr taqozosidir.

Iste'dod - bu qobiliyatlar yig'indisidan, ularning majmuidan iboratdir. Alohida olingan, yakka qobiliyatni, garchi taraqqiyotning juda yuksak darajasiga erishgan va yorqin ifodalangan bo'lsa ham, iste'dod bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

Shunday qilib, iste'dod shaxs psixik fazilatlarining shu qadar murakkab birikmasiki, uni qandaydir birorta yagona qobiliyat bilan, hatto bu qobiliyat xotiraning yuksak mahsuldorligi kabi juda qimmatli qobiliyatlar bo'lishiga qaramasdan, belgilab bo'lmaydi.

Qobiliyatlar va iste'dodning tabiiy shart-sharoitlari

Shaxsning barcha individual psixologik xususiyatlari kabi qobiliyatlar unga qandaydir tabiat tomonidan tug'ma ravishda, tayyor holda berilmaydi, balki hayot va faoliyat jarayonida tarkib topadi. Kishi dunyoga hyech qanday psixik xususiyatlarsiz,

faqat ularni orttirishga qaratilgan umumiy imkoniyatlar bilan keladi, xolos.

Hozirgi paytda iste'dod nishonalarini miyaning va sezgi organlarining mikrostrukturasi bilan bog'laydigan nazariya eng mahsuldor hisoblanadi. Miya xujayralarini chuqur o'rganish iste'dodli kishining nerv turkumlarini ko'rsatadigan morfologik va funksional xususiyatlarida farq borligini aniqlash imkoniyatidadir deb taxmin qilish mumkin. Shuningdek, iste'dod nishonalarini nerv jarayonlarining ayrim differensial xususiyatlari bilan (nerv kuchi, muvozanatlashuvi va harakatchanligi o'rtasidagi farqlarga qarab) va shu bilan oliy nerv faoliyati turlari bilan bog'lovchi gipoteza ham haqiqatga yaqinroqdir.

Bulardan tashqari, qobiliyatlarni tabiiy asoslarini nerv sistemasining xususiy xususiyatlari deb atalgan xususiyatlar bilan bog'laydigan, ya'ni ayrim odamlarda ko'rish, boshqa odamlarda eshitish, uchinchi bir xilida esa harakat sohasida namoyon bo'ladigan o'ziga xos tipologik xususiyatlar bilan bog'laydigan gipotezalar yana ham haqiqatga yaqinroqdir.

Jiddiy statistika qobiliyatlar va iste'dodlarning irsiyat yo'li bilan o'tishini isbotlaydigan hych qanday dalillar bormaydi. Qobiliyatlarning irsiyat yo'li bilan o'tishi haqidagi ilmiy nazariyaga ham qarama-qarshidir.

Qobiliyatlarning tarkib topishi

Garchi qobiliyatlarning rivoji har turli odamlarda mutlaqo bir xil bo'lmagan tabiiy shart-sharoitlarga bog'liq bo'lsa ham, yuqorida ko'rib o'tilgan iste'dod nishonalari va qobiliyatlar o'rtasidagi nisbat, qobiliyatlar shunchaki tabiat in'omi emas, balki kishilik tarixining mahsuli ekanligini ko'rsatadi. Agar hayvonlarda oldingi avlod yutuqlarining keyingi avlodga o'tkazib berilishi asosan organizmning irsiy morfologik o'zgarishlari orqali amalga oshsa, insonda bu ijtimoiy-tarixiy yo'l bilan, ya'ni mehnat quroli, til, san'at asarlari va shu kabilar bilan amalga oshadi.

Kishi o'zida muayyan faoliyatga qobiliyat bor yoki yo'qligini sezish yoki sezmasligini bildiradigan omil ta'lim metodikasi hisoblanadi. Ta'lim metodikasi qayerda ojiz bo'lsa, o'sha yerda qobiliyatlarning tug'ma ekanligi haqidagi gaplar paydo bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lumki, metodika doim takomillashib boradi, bu esa «tug'ma qobiliyatlar» doirasini torayib borishiga olib keladi.

Qobiliyatlar va iste'dodlarni shakllantirish muammosi katta ijtimoiy va davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masaladir.

Inson qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim omillari–barqaror maxsus qiziqishlardan iborat. Maxsus qiziqishlar – bu insoniyat faoliyatining qandaydir soha mazmuniga bo'lgan qiziqishlari bo'lib, bu qiziqishlar ana shu turdagi faoliyat bilan kasb tariqasida shug'ullanish moyilligiga o'sib ko'tariladi. Bilishga doir qiziqish bu o'rinda faoliyat usullari va uslublarini amaliy ravishda egallab olishni rag'batlantiradi.

Biror mehnat yoki o'quv faoliyatida qiziqishning paydo bo'lishi bu faoliyatga nisbatan qobiliyatlarning uyg'onishi bilan chambarchas bog'liqligi va qobiliyatlarning rivojlanishi uchun dastlabki zamin sifatida xizmat qilishi qayd etilgan.

Insondagi bilish jarayonlari ahamiyati: diqqat, sezgi, idrok, xotira, xayol, diqqat, tafakkur xislatlari

Diqqat to'g'risida tushuncha. Diqqat va faoliyat. Diqqat turlari va xususiyatlari.

DIQQAT – psixik faoliyatning yo'naltirilishi va shaxs uchun ahamiyatli bo'lgan obyekt ustida to'planishdir. Yo'naltirilishi deganda psixik faoliyatining tanlovchilik xarakteri, obyektni ixtiyoriy yoki beixtiyoriy tanlash tushuniladi. O'quvchi maktabda o'qituvchining tushuntirishlariga quloq solayotganda, mana shu eshitish faoliyatini ongli ravishda tanlab olgan, o'z diqqatini etishish faoliyatiga ongli ravishda qaratgan bo'ladi. O'quvchining biror boshqa narsaga chalg'imasdan, o'quv materialining mazmuniga zehn qo'yib o'tirishida uning diqqatini yo'nalishi ifodalanadi.

Psixik faoliyatning yo'naltirilishi deganda faqat ana shu faoliyatni tanlash tushunilib qolmay, balki ana shu tanlaganini saqlab qolish va qo'llab–quvvatlash ham tushuniladi.

Diqqat psixik faoliyatining yo'naltirilishi bilan birga uning to'planishini taqozo qiladi. Psixik faoliyatning bir joyga to'planishi – mazkur faoliyatga hych qanday aloqasi bo'lmagan hamma boshqa narsalardan diqqatni chalg'itish demakdir. Diqqatning bir joyga to'planishi deganda mazkur faoliyatga butunlay berilish, unga ozmi–ko'pmi chuqur e'tibor berish tushuniladi.

Diqqat har qanday faoliyatning muhim shartidir. Diqqatsiz hatto eng oddiy ishlarni ham bajarish mumkin emas. Diqqat mehnatning barcha jarayonida, ijodiy faoliyatda, o'qishda ayniqsa katta ahamiyatga ega. K.D.Ushinskiy «Diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona bir eshigidirki, ongizgizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o'tib kiradi», - deb yozgan edi.

Diqqatning nerv–fiziologik mexanizmini I.P Pavlovning yozishicha oriyentirovka refleksi tashkil etadi. Buni Pavlov «bu nima» refleksi deb ham atagan edi. Bundan tashqari, diqqat ma'lum nerv markazlarining qo'zg'alishi va miyadagi boshqa nerv markazlarining tormozlanishi bilan ham bog'liqdir.

I.P.Pavlov tomonidan kashf etilgan nerv prosesslarining induksiyasi qonuni diqqatining fiziologik asoslarini tushunib olish uchun muhim ahamiyatga egadir. Mana shu qonunga muvofiq bosh miya po'stining bir joyida paydo bo'lgan qo'zg'alish bosh miya po'stining boshqa joylarida tormozlanishni yuzaga keltiradi. Va aksincha, bosh miya po'stining ayrim bir joyida yuzaga kelgan tormozlanish bosh miya po'stining boshqa joylarida kuchli qo'zg'alishni paydo bo'lishiga olib keladi. Ayni shu paytning har bir onida miya po'stida qo'zgalish uchun optimal, ya'ni nihoyatda qo'layligi bilan xarakterlanuvchi kuchli qo'zg'alish o'chog'i mavjud bo'ladi.

A.A.Uxtomskiy tomonidan ilgari surilgan *dominonta* prinsipi ham diqqatning fiziologik asoslarini aniqlash uchun katta ahamiyatga ega. Shu dominantalik prinsipiga muvofiq miyada qo'zg'alishning har doim ustun turadigan hukmron o'chog'i ayni shu damda miyaga ta'sir etib, unda yuzaga kelayotgan hamma qo'zg'alishlarni qandaydir ravishda o'ziga tortib oladi va buning natijasida boshqa qo'zg'alishlarga nisbatan uning hukmronligi yanada oshadi.

Odatda dominonta subdominontaga, subdominonta esa dominontaga o'tib turadi. Bu esa diqqatning bir narsadan ikkinchi narsaga kuchib turishining nerv fiziologik mexanizmini tashkil etadi. Ko'rinib turibdiki, Pavlov bilan Uxtomskiy ta'limotlari bir–biriga qarama–qarshi emas, balki mazmun jihatdan o'xshashdir.

Jiddiy diqqat, odatda o'ziga xarakterli bo'lgan tashqi ifodalar bilan bog'lik bo'ladi, narsani yaxshilab idrok qilishga qaratilgan harakatlar bilan /tikilib qarash,

diqqat bilan eshitish/, ortiqcha harakatlarni to'xtatish, nafas olishni sekinlashtirish, diqqat uchun xarakterli bo'lgan yuz xarakterlari bilan bog'lik bo'ladi.

Diqqat uch turli bo'ladi: ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriy diqqat, ixtiyoriydan keyingi yoki muvofiqlashgan diqqat.

Ixtiyorsiz diqqat maqsadsiz, rejasiz yuz beradi. Bunday hollarda faoliyat maroqliligi, qiziqarliligi yoki ko'tilmaganda sodir bo'lishligi bilan o'ziga jalb qiladi. Odam o'ziga ta'sir qilayotgan narsalarga, xodisalarga, bajarayotgan faoliyatiga beixtiyor berilib ketadi.

Ixtiyoriy diqqat deb ongimizni aniq maqsad asosida va idoraviy kuch yordamida kerakli obyektga yo'naltirishga aytiladi. Agar ixtiyorsiz diqqatda ish bizni o'ziga shunchaki jalb qilib olsa, ixtiyoriy diqqatda biz diqqatimizni qaratish uchun o'z oldimizga ongli suratda maqsad qo'yamiz, qiyinchiliklarni yengib, diqqatni to'plash uchun kurashib va har qanday boshqa narsalarga berilmaslik uchun iroda kuchini sarflab diqqatimizni ongli ravishda narsaga qaratamiz. Ixtiyoriy diqqatning xarakterli xususiyati xuddi mana shu maqsad kuzlashda, irodaviy zo'r berishda namoyon bo'ladi.

Ixtiyoriy diqqat irodamizning namoyon bo'lishidir. Qandaydir biror faoliyat bilan shug'ullanishga qaror qilar ekanmiz, diqqatimizni hatto ayni chog'da biz uchun qiziqarli bo'lmagan, lekin biz shug'ullanishni lozim topgan narsalarga ongli suratda qaratamiz. Demak, ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatdan sifat jihatdan farq qiladi.

Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatdan kelib chiqqan. Odamda ixtiyoriy diqqat mehnat jarayonida yuzaga keladi. Chunki mehnat maqsadga muvofiq fasliyatdir. Maqsad kuzlash esa o'z tarkibiga diqqatni yo'naltirishni ham oladi. Ijtimoiy hayot ehtiyojlari odamda o'z diqqatini mehnat faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lmagan narsalarga qaratmaslik va mehnat jarayoni bilan bog'liq narsa ustida to'plash ruhida tarbiyalaydi.

Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqat kabi odamning qiziqishlari bilan mustahkam bog'liqdir. Lekin, agar ixtiyorsiz diqqatda qiziqishlar bevosita bo'lsalar, ixtiyoriy diqqatda bivosita xarakterga ega bo'ladi. Faoliyatning o'zi bizni qiziqitmasligi mumkin, ammo faoliyatni bajarishda yuklangan vazifani hal qilish uchun zarur

bo'lgani tufayli ana shu maqsad nuqtai nazaridan faoliyat biz uchun qiziqarli bo'lib qoladi.

Ixtiyoriy diqqatdan tashqari, diqqatning ana bir turini qayd qilib o'tish lozim, bu diqqat, ixtiyoriy diqqat kabi maqsadga qaratilgan bo'lib, lekin doimiy irodaviy zo'r berishni talab qilmaydi. Masalan, o'quvchi uy topshirig'ini bajarishga kirishganda dastlab bu ishga o'zini majbur qiladi, ataylab diqqatni ish ustiga to'playdi, irodaviy zo'r beradi. Lekin ishga kirishib olgach, endi irodaviy zo'r berish pasayadi, diqqat o'z-o'zidan ish ustiga to'planadi, o'quvchi esa ishni berilib bajara boshlaydi. Ana shu paytda o'quvchining diqqati ixtiyoriy diqqatdan muvofiqlashgan diqqatga aylanadi.

Diqqat bir necha xususiyatga ega bo'ladi:

1. Diqqatning ko'lami.
2. Diqqatning kuchi va barqarorligi.
3. Diqqatning bo'linishi.
4. Diqqatning kuchishi.
5. Diqqatning tebranishi.
6. Parishonlik.

Diqqatning barqarorligi deganda biror faoliyat ustida uzoqroq vaqt ushlanib turishligini tushunamiz. Diqqatning barqarorligi uning kuchi bilan chambarchas bog'langandir. Odatda kuchli diqqat o'z navbatida barqaror ham bo'ladi.

Diqqat tebranish xususiyatiga ham egadir. Agar juda kuchsiz, zo'rg'a eshitiladigan ovozga quloq soladigan bo'lsak, masalan, soatning chiqqillashiga qulok solsak, diqqatimiz jiddiy qaratilgan bo'lishiga qaramay, bu ovoz goh baland, goh past eshitiladi. Bir-biriga yaqin bo'lgan yorug'lik farqini ajratishda ham xuddi shunday xodisa yuz beradi. Diqqatning bunday tebranish davrlari hisoblab chiqilgan. Ma'lum bo'lishicha, diqqat tebranishning davomiyligi uncha katta bo'lmay, 1,5 sekunddan 2,5 sekundgacha yetadi.

Diqqatning bo'linishi – psixik faoliyatning shunday tashkil qilinishiki, bunda aynan bir vaqtning o'zida diqqatimiz ikkita va undan ortiq narsalarga qaratiladi. Diqqat haqiqatan ham bo'linadimi? Bu sohada ko'plab tajribalar o'tkazilgan. Natijada,

ayrim tadqiqotchilar diqqat bo'linadi desalar, boshqalari u bo'linmaydi, aksincha bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga tez kuchadi degan xulosaga kelganlar.

Albatta, diqqatning bo'linishi uchun bajarayotgan ishlarimiz ma'lum darajada avtomatlashgan bo'lishi lozim. Masalan, rulga yangi o'tirgan shofyor tormozni bosaman deb gazni bosib yuboradi yoki mashinani boshqarishga diqqat qilgan holda yo'ldagi chuqurlikni ko'rmay qoladi.

Diqqat xususiyatlaridan yana biri uning kuchishidir. Diqqatning kuchishi deganda uning bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga tez o'tishini tushunamiz. Masalan, talabaning diqqati ma'ruza tinglashdan uni yozishga, so'ng yozganini tushunishga, yana ma'ruza tinglashga tez kuchib turadi. Diqqatning kuchishini olimlar komplikasiya degan asbob bilan o'lchaydilar.

Parishonxotirlik – bu diqqatning kerak bo'lganida boshqa obyektga tez kuchmasligidir. Parishonxotirlik diqqatning salbiy xususiyati bo'lib hisoblanadi. Uni ikki xil ma'noda tushunish mumkin: biri kerak bo'lganida diqqatning kuchmasligi bo'lsa, ikkinchisi, aksincha, uning bir faoliyat ustida to'xtab turmasdan chalg'ib ketaverishidir.

Birinchi xil parishonlik ko'prok yozuvchilarda, olimlarda uchraydi. Masalan, yozuvchi fikrga astoydil berilganligi sababli atrofidagi narsalarni, hatto yonidagi odam murojaat qilayotganini ham sezmaydi.

Ikkinchi xil parishonxotirlikda odam biror narsa ustida diqqatini uzok to'play olmaydi, bir narsadan ikkinchi narsaga, bir xodisadan ikkinchi xodisaga tez o'tib turadi. Bu holat yosh bolalarda tez uchraydi, ya'ni ular aytilgan gapni tez unutib qo'yadi. Diqqatning salbiy xususiyatlaridan yana biri uning chalg'ishidir. Diqqatning chalg'ishi deganda uning asosiy faoliyatdan ikkinchi darajali narsalarga o'tib ketaverishi tushuniladi. Masalan, sinfda o'tirgan o'quvchi diqqatini qo'ldan tushib ketgan qalam tovushi ham, deraza orqasida eshitilayotgan odam tovushi ham chalg'itishi mumkin.

Diqqatning xususiyatlariga uning ko'lamini ham qo'shish mumkin. Diqqat ko'lamini jihatdan tor va keng bo'lishi mumkin. Buni biz taxistoskop degan asbobda o'lchab bilishimiz mumkin.

Diqqat bolaning birinchi yoshidanoq taraqqiy eta boshlaydi. Dastlab ixtiyorsiz diqqat namoyon bo'ladi. Chunki bola rangdor narsalarga, shaqildoq ovozigga diqqat qiladi. Ixtiyorsiz diqqatning o'sishi ehtiyoj va qiziqishlar bilan bog'liqdir. Lekin inson faoliyatining asosiy qismi ixtiyoriy diqqat asosida amalga oshiriladi. Ixtiyoriy diqqat esa bolada ikki yoshlardan boshlab ko'rina boshlaydi. Uning shakllanishida kattalarning roli beqiyosdir. Masalan, ular bolaga «buyoqqa qara», «gapimni eshit», «musiqaga quloq sol» deb gapiradilar. Kattalar tomonidan diqqat mana shunday yo'llar bilan o'sib boradi. 3-5 yoshlardan boshlab esa diqqat bolaning o'z tashabbusi bilan o'sa boshlaydi.

Bog'cha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o'sishida o'yin katta ahamiyatga egadir. Chunki o'yin qoidalarini va etaplarini bilib olish uchun bola unga ixtiyoriy diqqat bilan razm solib turishi lozim. Bundan tashqari, uydagi ba'zi bir ishlarga qatnashtirish, o'z-o'ziga xizmat qilish kabilar ham ixtiyoriy diqqatni o'sishiga yordam beradi.

Maktab yoshidan boshlab esa ixtiyoriy diqqat juda tez o'sa boshlaydi. O'qish ishida – darsni eshitish, kitob o'qish, masalalarni yechishda ixtiyoriy diqqat talab qilinadi. Bundan tashqari, o'qish ixtiyoriy diqqatni o'stirib qolmasdan, balki uning kuchi, barqarorligini o'sishiga ham yordam beradi.

Iroda diqqatning barqarorligi va kuchini saqlab turuvchi asosiy faktordir. Shuning uchun diqqatga doir bu sifatlarning keyingi taraqqiyoti ham iroda taraqqiyoti bilan bog'liqdir.

Tafakkur quyidagi jarayonlarda yuz beradi.

1. Analiz va sintez.
2. Taqqoslash.
3. Abstraksiyalash.
4. Umumlashtirish.
5. Konkretlashtirish.
6. Klassifikatsiyalash.
7. Sistemalashtirish.

Analiz – shunday bir tafakkur jarayoniki, uning yordami bilan biz narsa va xodisalarni fikran yoki amaliy ravishda bo'lib /ajratib/, ularning ayrim qismlari va xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Sintez – shunday bir tafakkur jarayonidirki, biz narsa va xodisalarning analizda bo'lingan ayrim qismlari, bo'laklarini sintez yordami bilan fikran yoki amaliy ravishda birlashtirib, butun holga keltiramiz.

Analiz va sintez o'zaro bevosita mustahkam bog'langan yagona jarayonning ikki tomonidir. Agar narsa va xodisalar analiz qilinmagan bo'lsa, uni sintez qilib bo'lmaydi, har qanday analiz predmetlarni, narsalarni bir butun holda bilish asosida amalga oshirilishi lozim.

Taqqoslash – shunday bir tafakkur jarayoniki, bu jarayon vositasi bilan obyektiv dunyodagi narsa va xodisalarning bir–biriga o'xshashligi yoki bir–biridan farqi aniqlanadi.

Abstraksiyalash shunday bir tafakkur jarayoniki, bu jarayon yordami bilan moddiy dunyodagi narsa va xodisalarning muhim xususiyatlarini farqlab olib, ana shu xususiyatlardan narsa va xodisalarning muhim bo'lmagan ikkinchi darajali xususiyatlarini fikran ajratib tashlaymiz.

Umumlashtirish deganda psixologiyada narsa va xodisalardagi xossa, belgi, xususiyat, alomatlarni topish va shu umumiylik asosida ularni birlashtirish tushuniladi.

Umumiy, mavhum belgi va xususiyatlarni yakka, yolg'iz obyektlarga tadbiq qilish konkretlashtirish deyiladi. Bundan tashqari, mavhum tushunchalarni konkret predmetlarga bog'lash ham konkretlashtirish bo'lib hisoblanadi.

Fanda narsa va xodisalarning tabiatini ifodalovchi muayyan belgi asosida qilingan fikr yuritishni **klassifikasiya** deb atash qabul qilingan.

Klassifikasiya qilishning yakuni sistemalashtirish bo'lib hisoblanadi. Sistemalashtirishga kutubxonadagi kitoblarning joylanishi misol bo'la oladi. Masalan, kutubxonada pedagogikaga oid adabiyotlar bir tomonda, psixologiyaga oidlari yana bir tomonda joylashgan bo'ladi. Sistemalashtirish inson ishini

osonlashtiradi. Natijada kishi nimani qayerdan izlashni biladi. Turmushda har qadamda sistemalashtirishni ko'rishimiz mumkin.

Tafakkur shakllari.

Tafakkur shakllariga hukm, tushuncha va xulosa chiqarish kiradi. Narsa va xodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr **HUKM** deb aytiladi. Masalan, bahorda daraxtlar barg yozadi.

Borliqdagi narsalar, xodisalar va voqyelikning miqdoriga, ularning biror hukmda aks etishi va aloqa hamda munosabatlariga qarab ular quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi hukm.
2. Yakka, juz'iy va umumiy hukm.
3. Shartli, ayiruvchi va qat'iy hukm.
4. Taxminiy hukm.

Narsa bilan belgining aloqasi aks etgan hukm **tasdiqlovchi** hukm deyiladi. Masalan, Alisher Navoiy buyuk o'zbek shoiri, mutafakkiri. Narsa bilan belgi o'rtasidagi bog'lanish yo'qligini ifodalovchi hukm **inkor** hukm deb ataladi. Masalan, O'zbekistonda paxta ekilmaydi. Samarqandda oliy maktablar yo'q kabi.

Yakka narsa haqidagi hukm **yakka** hukm deyiladi. Masalan, Toshkent – O'zbekistonning poytaxti. Agar hukmimiz bir guruh narsalarning ba'zilariga taaluqli bo'lsa uni **juz'iy** hukm deyiladi. Masalan, bugun ba'zi talabalar darsga kech qoldilar. Bordi-yu bizning hukmimiz bir guruh narsalarning barchasiga taaluqli bo'lsa **umumiy** hukm deyiladi. Masalan, O'zbekiston fuqarolari tinchlik uchun kurashmoqdalar.

Xulosa chiqarish deb bir necha hukmlardan alohida hukm keltirib chiqarishga aytiladi. Masalan, Barcha sayyoralar harakat qiladi. Yer – sayyora. Demak, Yer ham harakat qiladi.

Xulosa chiqarish uch turli bo'ladi: induktiv, deduktiv va analogik. **induktiv** xulosa chiqarish deb bir necha yakka hukmlardan umumiy hukm keltirib chiqarishga aytiladi. Masalan, Temir elektr tokini o'tkazadi. Mis elektr tokini o'tkazadi.

Qo'rg'oshin elektr tokini o'tkazadi. Bular metallardir. Demak, metallar elektr tokini o'tkazadi.

Deduktiv xulosa chiqarish deb umumiy hukmdan yakka yoki juz'iy hukm keltirib chiqarishga aytiladi. Masalan, daraxtlar bahorda gullaydi. O'rik – daraxt. Demak, o'rik bahorda gullaydi. Analogik **xulosa chiqarish deb predmetning o'xshash belgilariga qarab xulosa chiqarishga aytiladi.** Tushuncha **narsa va xodisalarning umumiy va muhim belgilarini aks ettiruvchi fikrdir. Uy, ko'prik, koinot, daraxt kabilar tushunchalardir. Tushunchalar odatda konkret va abstrakt bo'ladi. Konkret tushunchalarga parta, doska, shkaf, mel, deraza kabilar kirs, abstrakt tushunchalarga esa muhabbat, baxt, go'zallik, uzunlik, balandlik, kenglik, harakat kabilar kiradi. Tushunchalar ko'lami jihatdan uch turga bo'linadi: yakka tushunchalar, umumiy tushunchalar va to'planma tushunchalar.**

Yakka **tushuncha deb yakka predmet yoki xodisa haqidagi tushunchaga aytiladi. Masalan, Alisher Navoiy, Quqon, Sirdaryo, Sobir Raximov kabilar.** Umumiy **tushuncha deb bir jinsda bo'lgan narsa va xodisalar to'plami haqida yaxlit fikr yuritishga aytiladi. Masalan, kitob, maktab, student, o'spirin, yulduz va boshqalar.**

To'planma tushuncha deb bir xil narsalarning to'plamiga aytiladi. Masalan, Kutubxona, paxtazor, yig'ilish kabilar.

Fikr yuritishda tushuncha bilan so'z o'zaro bog'langan holda namoyon bo'ladi. Bir tomondan, so'z yordamisiz tushuncha vujudga kelmaydi, ikkinchi tomondan so'z tushunchaning moddiy asosi va funksiyasini bajaradi. Tushunchalar bir yoki undan ortiq so'zlardan hosil bo'lishi mumkin.

Tafakkur sifatleri. Tafakkurning individual xususiyatlari, ya'ni sifatleri deganda uning mazmundorligi, mustaqilligi, epchilligi, samaradorligi, kengligi, tezligi, chuqurligi kabilarni tushunamiz.

TAFAKKUR TURLARI.

Tafakkur quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1.Kurgazmali – harakat tafakkur.
- 2.Kurgazmali – obrazli tafakkur.
- 3.Ixtiyorsiz va ixtiyoriy tafakkur.
- 4.Konkret va abstrakt tafakkur.
- 5.Ijodiy tafakkur.

Inson tomonidan bevosita idrok qilinayotgan predmetlar emas, balki tasavvur qilinayotgan obrazlar haqida fikr yuritish **kurgazmali** – **obrazli** tafakkur deyiladi.

Bog'cha yoshidagi bolalar ilmiy tushunchalarga ega bo'lmaganligi uchun bilish faoliyatida asosan kurgazmali – obrazlarga suyanib fikr yuritadilar, mulohaza bildiradilar, hukm chiqaradilar.

Ixtiyorsiz tafakkur deb mantiqiy tafakkur yordamida ko'p vaqtlar davomida hal qilinmagan aqliy vazifalarning tusatdan, ko'tilmaganda hal qilinib qolishi prosessiga aytiladi.

Ixtiyoriy tafakkur jarayoni mulohaza, muhokama, isbotlash, gipoteza qilish kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Matematika, fizika, ximiya, psixologiya va boshqa fanlardagi muammo va masalalarni yechish jarayonlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

Abstrakt tafakkur narsalarning mohiyatini aks ettiruvchi va so'zlarda ifodalovchi tushunchalarga tayanib fikr yuritishdir.

Fikr yuritilishi lozim bo'lgan narsa va xodisalarni idrok va tasavvur qilish mumkin bo'lsa, bunday tafakkur **konkret** tafakkur deyiladi.

Nazariy tafakkur deb xodisalarni izohlashga faraz qilishga qaratilgan tafakkur turiga aytiladi.

Voqyelikni o'zgartirish vositasi bilan real narsa va xodisalarni yaratishga yo'naltirilgan fikr yuritish amaliy tafakkur deyiladi. Amaliy tafakkur «Qanday qilib?», «Qaysi yo'l bilan?» kabi savollarga javob berish jarayonidir.

Ijodiy tafakkur murakkab bilish faoliyatidan biri bo'lib tadrijiy ravishda, izchil o'zaro bog'langan jarayonlardan tashkil topadi: dastavval savollar tug'iladi, vazifa aniqlanadi, masala yechish uchun savollarga javob qidiriladi. Ijodiy tafakkurning navbatdagi komponentlari quyidagicha aks ettiriladi: qo'yilgan

savollarga javob izlash, masalani yechishga yordam beradigan yo'llar, usullar, vositalar, qoidalar va ko'nikmalarni qidirish, ularni tanlash va faoliyatga tadbiq qilish va boshqalar.

Tafakkur va muammoli vaziyat.

Tafakkur muammodan, savoldan, taajjublanish, hayratga tushish yoki ziddiyatdan kelib chiqadi. Mazkur muammoli vaziyat shaxsni fikr yuritishga tortadi, uning faoliyatini noaniq muammoni hal qilishga undaydi.

Muammoli vaziyat o'z ichiga quyidagi muhim tomonlarni qamrab olishi mumkin, birinchidan, muammoning qo'yilishini inson tushunib yetishi, ikkinchidan, muammoni hal qilishga yordam beruvchi vosita, usul, yo'l, aqliy harakatlarni insonning o'zi izlab topishi va ularni ma'lum sistemaga solishi, uchinchidan, inson muammoni hal qilish uchun saralangan usullarni avvalgi usullardan ajratish, ya'ni ularning salbiy tomonlarini olib tashlab, qolganlaridan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanishi, to'rtinchidan, inson muammo yechimining to'g'riligiga ishonch hosil qilishi uchun tanqidiy nuqtai nazardan tekshirib chiqishi kabilar.

Muammo hal qilingandan keyin uni tanqidiy nazardan tekshirib chiqish va to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilish faoliyati ham ijobiy xarakter kasb etadi. Shunday qilib, bir talay amallardan foydalanish tufayli muammo hal qilinadi: qo'yilgan muammoni bo'laklarga ajratib analiz qilish, muammoni yaxlit holda tushuntirib berish, muammoni hal etish uchun vositalar qidirish, topgan vositalarni qo'llash, muammoni tanqidiy tekshirib chiqish, shuningdek, muammo yechimi to'g'risida mantiqiy xulosaga kelish kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". T.: O'zbekiston., 2009.-56 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.Yu.Xodiyev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.Tuxliyev.-T.: Iqtisodiyot, 2009.-120 b
3. G.Ochilova, G.Musaxanova, Sh.Tojiyeva. «Pedagogika» Ma'ruzalar
4. matni. 2006y.7 – 17 b.
5. I.P.Podlasiy. "Pedagogika". 1 – chast, M,Vlados. 2003.10 – 30 betlar.
6. N.Xo'jayev va boshqalar Ta'lim nazariyasi (o'quv qo'llanma) T., 2003 y.
7. www.thelearningweb.net. Ta'lim tarmog'i.
8. Abulxanova K.A. i dr. Psixologiya i pedagogika. – M.: «Sovershenstvo», 1998. – 320 s.
9. Inog'omov R., Toshmurodova Q. Pedagogika fani XXI asrda. - T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2000.
10. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T., 2005.
11. Klimov Ye.A. Основы психологии. – M., 1998.
12. Nemov R.S. Psixologiya. V 3-x kn. – M., 1998.
13. Podlasiy I.P. Pedagogika. Novyy kurs v 2-x kn. – M.: Vlados, 1999.
14. Psixologo-pedagogicheskiy slovar dlya uchiteley i rukovoditeley общеобразовательных uchrejdeniy. – Rostov –na – Donu: Feniks, 1998.
15. Hayitov O.E. Lutfullayeva N.X. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma'ruzalar matni to'plami. – T., 2005.
16. Abdullayeva R.M., Raxmonov A. Shaxsning kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan psixologik xususiyatlarni aniqlash usullari. – T, 2001.
10. www.redagog.uz
11. Abulxanova K.A. i dr. Psixologiya i pedagogika. – M.: «Sovershenstvo», 1998. – 320 s.
12. Inog'omov R., Toshmurodova Q. Pedagogika fani XXI asrda. - T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2000.
13. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T., 2005.
14. Klimov Ye.A. Основы психологии. – M., 1998.
15. G'oziyev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2001
16. G'oziyev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.

17. Vospitay svojego lidera, kak naxodit, razvivat i uderjivat v organizasii talantlivyx rukovoditeley. \ Per. s angl.-M.: Izdatelskiy dom "Vilyams", 2002.- 416 s.
18. www.yexpert.psychology.ru
19. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari.- T., 1994
20. Grimak L.P. Rezervy chelovecheskoy psixiki.- M., 1990
21. Klimov Ye.A. Osnovy psixologii.- M., 1998
22. Kovalev V. I. Motivы povedeniya i deyatel'nosti. - M., 1988
23. Merlin V.S. Leksii po psixologii motivov cheloveka.- Perm, 1971
24. Nemov R.S. Psixologiya. V 3-x kn.- Kn.1.- M., 1998
25. Prakticheskaya psixodiagnostika. Metodiki i test.- Samara, 1998
26. Xekxaufen X. Motivatsiya i deyatel'nost. - T. 1,2. - M., 1986
27. Ahloq-odobga oid Hadis namunalari. — T., 1990
28. Golovin B. N. Osnovy kultury rechi. - M., 1988
29. Ibrohimov va boshq. Vatan tuyg'usi. — T., 1997
30. Karnegi D. Kak zavoyevyvat druzey i okazyvat vliyaniye na lyudey. —M., 1990
31. Klimov Ye. A. Psixologiya professionala. — M., 1997
32. Komilov N. Tasavvur va komil inson ahloqi. T.,1996
33. Krijanskaya Yu.S., Tretyakov V. P. Grammatika obshcheniya. — L., 1990
34. Mayers D. Sosialnaya psixologiya. — M., 1997
35. Mekson M.X., Albert M., Xedouri F. Osnovy menedjmenta. — M., 1992
36. Petrovskaya L.A. Kompetentnost v obshchenii. Sosialno-psixologicheskij trening. — M., 1990
37. Psixologiya. Uchebnik. Pod red A. Krylova — M., 1998
38. Ahloq-odobga oid Hadis namunalari. — T., 1990
39. Golovin B. N. Osnovy kultury rechi. - M., 1988
40. Ibrohimov va boshq. Vatan tuyg'usi. — T., 1997
41. Psixologiya. Uchebnik. Pod red A. Krylova — M., 1998
42. G'oziyev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2001
43. G'oziyev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
44. Vospitay svojego lidera, kak naxodit, razvivat i uderjivat v organizasii talantlivyx rukovoditeley. \ Per. s angl.-M.: Izdatelskiy dom "Vilyams", 2002.- 416 s.
45. Nemov R.S. Psixologiya. V 3-x kn. – M., 1998.
46. Podlasyy I.P. Pedagogika. Novyy kurs v 2-x kn. – M.: Vlados, 1999.
47. Psixologo-pedagogicheskij slovar dlya uchiteley i rukovoditeley obshcheobrazovatel'nyx uchrejdeniy. – Rostov –na – Donu: Feniks, 1998.

